”Agroresurslarni barqaror boshqarish” fanidan reyting nazoratlari xaritasi va grafigi

Nazorat turlari	Ball	Nazorat mezonlari (ball hisobida)			
		0 - 54	55 - 70	71 - 85	86 – 100
JORIY NAZORAT	30	0-16,2	16,5-21,0	21,3-25,5	25,8-30,0
1-joriy nazorat (1-2 mavzular)	5	0,0 – 2,7	2,75 – 3,5	3,55 – 4,25	4,30 – 5,0
2-joriy nazorat (3-4 mavzular)	5	0,0 – 2,7	2,75 – 3,5	3,55 – 4,25	4,30 – 5,0
3-joriy nazorat (5-6 mavzular)	5	0,0 – 2,7	2,75 – 3,5	3,55 – 4,25	4,30 – 5,0
4-joriy nazorat (7-8 mavzular)	5	0,0 – 2,7	2,75 – 3,5	3,55 – 4,25	4,30 – 5,0
5-joriy nazorat (9-10 mavzular)	5	0,0 – 2,7	2,75 – 3,5	3,55 – 4,25	4,30 – 5,0
6-joriy nazorat (Mustaqil ta’lim va davomat bo’yicha)	5	0,0 – 2,7	2,75 – 3,5	3,55 – 4,25	4,30 – 5,0
ORALIQ NAZORAT	40	0,0 - 21,6	22,0 - 28,0	29,0 - 34,0	34,40 - 40
1-Oraliq nazorat	20	0,0 - 10,8	11,0 - 14,0	14,20 - 17,0	17,20 - 20
1-5 mavzular	15	0,0 - 8,1	8,25 – 10,5	10,65 – 12,75	12,9–15,0
Mustaqil ta’lim va davomat bo’yicha	5	0,0 – 2,7	2,75 – 3,5	3,55 – 4,25	4,3 – 5,0
2-Oraliq nazorat	20	0,0 - 10,8	11,0 - 14,0	14,2 - 17,0	17,2 - 20,0
6-10 mavzular	15	0,0 – 8,1	8,25 – 10,5	10,65 – 12,75	12,9–15,0
Mustaqil ta’lim va davomat bo’yicha	5	0,0 – 2,7	2,75 – 3,5	3,55 – 4,25	4,3 – 5,0
JORIY VA ORALIQ	70	0,0 – 38,0	39,0 – 49,0	50,0 – 59,0	60,0 – 70,0
YaKUNIY NAZORAT	30	0,0 – 16,2	16,5 – 21,0	21,3 – 25,5	25,8 – 30,0
UMUMIY BALL	100	0,0 – 54,0	55,0 – 70,0	71,0 – 85,0	86,0 - 100

Yakuniy nazoratda “Yozma ish”larni baholash mezonlari

Yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida amalga oshirilganda, sinov ko'p variantli usulda o'tkaziladi va har bir variant 5 ta savoldan iborat bo'ladi. Savollar fan bo'yicha tayanch so'z va iboralar asosida tuzilib, fanning barcha mavzularini o'z ichiga qamrab oladi.

Har bir savolga yozilgan javoblar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 0-6 ball oralig'ida baholanadi.

№	Ko'rsatkichlar	YaN ballari	
		Maksimal	O'zgarish oralig'i
1	1 – yozma ish savoli	6	0-6
2	2 – yozma ish savoli	6	0-6
3	3 – yozma ish savoli	6	0-6
4	4 – yozma ish savoli	6	0-6
5	5 – yozma ish savoli	6	0-6
Jami:		30	0-30

Yozma ish bo'yicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo'yilgan o'zlashtirish ballari qo'shiladi va yig'indi magistrantning yakuniy nazorat bo'yicha o'zlashtirish bali hisoblanadi.

Yakuniy nazoratni test shaklida baholash mezon

Yakuniy nazorat test shaklida amalga oshirilganda, sinov ko'p variantli usulda o'tkaziladi va har bir variant 30 ta savoldan iborat bo'ladi. Savollar fanning barcha mavzularini o'z ichiga qamrab oladi.

Har bir savolga topilgan javob bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 1 ball bo'yicha baholanadi.

№	Ko'rsatkichlar	YaN ballari	
		Maksimal	O'zgarish oralig'i
1	Fan bo'yicha yakuniy test nazorati 30 ta test savoli	30	0-30
Jami:		30	0-30

Test bo'yicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun to'g'ri topilgan javoblarga qo'yilgan o'zlashtirish ballari qo'shiladi va yig'indi magistrantning yakuniy nazorat bo'yicha o'zlashtirish bali hisoblanadi.

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Abirqulov Q.N., Rafiqov A., Hojimatov A.N. Tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti. – O'quv qo'llanma. – T.: Yozuvchilar uyushmasi, 2007. – 128 b.
2. Jumayev T. Ekologiya iqtisodiyoti. – darslik. – T.: Yozuvchilar uyushmasi, 2007. – 280 b.
3. Ishmuxamedov A.E. va boshqalar. Mintaqaviy iqtisodiyot. – O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2007. – 187 b.
4. Лукьяников Н.Н., Потравин И.М. Экономика и организация природопользования. – М.: Тройка, 2000.
5. Rafiqov A.A., Abirqulov Q.N. Tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti. –O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2004.
6. Кэмпбелл Р. Макконнелл, Стэнли Л. Брю. Экономикс, 2 том. 1993. 420 с.
7. S.Ch. Djalolov, M.S. Mirzayeva, S.S.Mirzayev . Atrof muxit va resurslar iqtisodiyoti.O'quv qo'llanma. T., 2009, 200 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Rafiqov A.A. Geoekologik muammolar. – T.: O'qituvchi, 1997.

2. Агапов Н.Н., Шевчук А.В. Экономика природопользования и охраны окружающей среды. – М.: Классика плюс, 1999.

Internet saytlari

1. http://ec.europa.eu/environment/soil/index_en.htm
2. <http://ec.europa.eu/environment/water/water-framework/>
3. <http://www.biogas-info.co.uk>
4. <http://www.biomassenergycentre.org.uk>
5. <http://www.defra.gov.uk/>
6. <http://www.ipcc.ch/>

ESLATMA!

Yuqorida keltirilgan adabiyotlardan tashqari har bir ma'ruza, amaliyot va seminar darslari kafyedra o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan ishlanmalar, uslubiy qo'llanmalar, yillik hisobot, statistika ma'lumotlari va davriy matbuotda e'lon qilingan ilmiy maqolalar, rasmiy hujjatlar bilan to'lg'azib borilishi ko'zda tutiladi

MA'RUZA MASHG'ULOTLARI MAVZULARI

1-Mavzu: “Agroresurslarni barqaror boshqarish” fanining predmeti va uslubi(4-soat).

Raja:

1. O'zbekistonda atrof-muhit muammolari.
2. Iqlim o'zgarishlari.
3. Yer, suv va bioxilma-xillikka ta'sirlar.
4. O'zbekistonda suv resurslari menejmenti – tarixiy yondoshuv.

1. O'zbekistonning atrof-muhit muammolari

Hozirda vujudga kelgan global muammolar natijasida kelajakda jamiyat resurslar tanqisligi va atrof-muhitning ifloslanishi singari ikki asosiy muammo bilan to'qnashadi. Kelgusi boblarda bu kabi dolzarb muammolarning ko'plab maxsus namunalari batafsil yoritilgan. Bu qismda ifloslanish muammosi (iqlim o'zgarishi) hamda resurs tanqisligi muammosi (suv tanqisligi)ga borib taqaluvchi chigalliklarning asoslari bayon etilgan.

Boshqa mamlakatlar singari bir qator omillar ta'sirida mamlakatimizda ham atrof-muhit va ekologiya borasida qator muammolar vujudga keldi. O'zbekistonning asosiy atrof-muhit muammolari tuproqning sho'rlanishi, yer va suvning ifloslanishi kabilar hisoblanadi. 1992 yil ma'lumotlari bo'yicha O'zbekiston hissasiga uglerodat angidrid tarqalishi darajasining umumiy hajmi 123.5 million tonnani, aholi jon boshiga esa 5,75 tonnani tashkil qilib, bu jahonda 27-o'rinni tashkil qilgan. Bir qator omillar ta'sirida 1996 yilga kelib uglerodat angidridning umumiy hajmi 94.9 million tonnaga tushgan. Dehqonchilikda qo'llanilgan DDT kabi kimyoviy vositalar tuproqning sho'rlanishiga olib keldi. Cho'llanish (dezertifikatsiya) jarayoni muntazam davom etdi. Jumladan, o'lkaning yo'qolish xavfi ostida turgan o'rmonlari yanada qisqarib bordi. Birgina 1990 va 1995 yillar oralig'ida o'rmonlarning o'rtacha yillik qisqarish darajasi 2.65% ni tashkil etdi.

Mamlakatning suv resurslari o'g'itlar va pestitsidlar bilan bir qatorda sanoatning zaharli kimyoviy chiqindilaridan ham zarar ko'radi. O'zbekiston 94% i qishloq xo'jaligiga, 2% i sanoatda ishlatiluvchi 16.3 km³ qayta tiklanuvchi suv resurslariga ega. Orol dengizining qurib borishi natijasida suv tarkibidagi pestitsidlar va tabiiy tuzlarning konsentratsiyasi sezilarli ravishda o'sdi. Mamlakatning shaharlarida yiliga o'rta hisobda 45,8 million tonna qattiq chiqindi ishlab chiqariladi.

2001 yil ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston umumiy yer maydonining faqatgina 1,8% qismi qo'riqlangan. 2001 yilda 7 turdagi sut emizuvchilar hamda 11 ta qush turlari yo'qolish xavfi ostida bo'lgan. Yo'qolish xavfi ostida bo'lgan yoki kam uchrovchi turlar sirasiga burama shoxli yovvoyi echki, Markaziy Osiyo kobrasi, Orol salmoni va Osiyo yovvoyi iti kabilar kiritilgan.

2. Iqlim o'zgarishlari

Quyosh energiyasi yerdagi ob-havo va iqlimni me'yorlashtirib turadi. Quyoshdan keluvchi energiya yer yuzasini isitadi, radiatsiya nurlari esa koinotga qaytadi. Atmosferaning “Issiqxona” gazlari (suv bug'lari, uglerodat angidrid va h.k) koinotga qaytuvchi energiya bir qismini ushlab qoladi. Agarda yer yuzida ushbu “Issiqxona effekti” bo'lmaganida harorat hozirgidan ancha past bo'lib yer yuzida hayot mavjud bo'lmagan bo'lardi. Ammo, har qanday narsaning juda ko'p miqdori zararli bo'lishi mumkin. Barcha muammolar “issiqxona” gazlari konsentratsiyasi me'yoriy darajadan oshib ketganda vujudga keladi. Shunday qilib, haddan ziyod ushlab qolingani issiqlikni qaysidir darajada yozda mashina oynalarini ochmay yurishga qiyoslash bo'ladi. Sanoat inqilobidan so'ng “issiqxona gazlari” miqdori sezilarli ravishda o'sib kelmoqda. Bu o'sish natijasida Yer atmosferasining issiqlikni tutib qolish imkoniyati oshmoqda. Mamlakatlararo iqlim o'zgarishlarini baholash guruhining beshinchi hisoboti (2014) ga ko'ra, “Iqlim isishi sabablari aniq...”. Ushbu

izlanishlar xulosasiga binoan, oxirgi yarim asr mobaynidagi iqlimning isishi sabablari bevosita insonning xatti-harakatlari oqibatlariga borib taqaladi. Yerdagi ob-havo isib borar ekan, bu yuqori issiqlik sharoiti inson sog'lig'i va ekotizimga salbiy ta'sir etishi kutilmoqda. Issiq harorat to'g'ridan-tog'ri insonlar uchun xavf tug'dirishiga 2003 yilda Yevropada yozda ob-havoning keskin issiq kelishi natijasida minglab odamlarning halok bo'lganligini misol keltirish mumkin. Inson sog'lig'i shuningdek issiq harorat natijasida ta'siri yanada ortuvchi zararli chiqindilar, jumladan tutunlardan ham aziyat chekadi. Suv hajmining oshishi (iliq harorat natijasida bir qism muz tog'larining erishi oqibatida) hamda bo'ronlar natijasidagi toshqinlar suv bo'yida yashovchi aholi uchun jiddiy xavf solishi kutilmoqda.

Ekotizimlar endilikda noan'anaviy harorat ta'siri ostida bo'ladi; ularning ba'zilari yangi ko'chgan hududlariga moslashishadi, ammo ularning bir qismi qisqa vaqt ichida moslashish xususiyatiga ega emas. Bu jarayonlar allaqachon boshlangan bo'lsa ham, moslashish bir asr davomida sekin ta'sirchanligini oshirib boradi. Iqlim o'zgarishi ham muhim axloqiy me'yorga ega. Iqlim o'zgarishlari mos ravishda oz miqdorda "issiqxona" gazlari ishlab chiqaruvchi rivojlanayotgan davlatlar uchun katta zarba bo'lishi kutilmoqda. Iqlim o'zgarishlari dunyo miqyosida jiddiy ma'suliyat qaratilishini talab qiladi. Bu milliy davlatchilik yuqori darajada hukmron bo'lib, xalqaro tashkilotlar nisbatan kuchsizlik qilayotgan dunyo miqyosidagi ilmiy muammodir.

3. Yer, suv va bio xilma-xillikka ta'sirlar

Markaziy Osiyodagi ko'plab atrof-muhit muammolari bevosita hududdagi suv va energiyaning kelib chiqishiga bog'liqdir. Suvning yaxlit sug'orish tizimiga yo'naltirilganligi natijasida keng yoyilgan ekotizimning buzilishi, ayniqsa, Orol dengizi va daryolar qirg'oqlarining kengayishida yaqqol ko'rinadi. Sug'orish infratuzilmasining noto'g'ri boshqarilganligi yerning sho'rlanishiga, botqoqlashuviga, cho'llanish hamda ekotizimning qisqarishiga sabab bo'lgan. O'rmonlarning qisqarishi va iqlim o'zgarishlari kabi atrof-muhit muammolari o'lkadagi daryolar oqimiga va suv bilan ta'minlanish darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Atrof-muhitning ifloslanishi suv tanqisligini yanada oshirib, suv resurslarini qishloq xo'jaligida hamda uy xo'jaligida foydalanishga yaroqsiz holga keltiradi.

Xuddi shuningdek, neft qazib olish, ko'mir konlaridan foydalanish, yerosti quvurlari orqali tashish, dambalar hamda issiqlik energiya stansiyalari sababli barcha turdagi energiya resurslarining qazib olinishi, tashilishi va bir turdan ikkinchisiga o'tkazilishi atrof-muhitga sezilarli ta'sirini o'tkazmoqda. 60 foizdan ko'proq aholisi qishloq xo'jaligida band o'lka uchun yer rivojlanishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi. Sovet hukumati 1960 va 2000 yillar oralig'ida sug'oriladigan maydonlar salmog'ini 70% ga oshirib, yerning katta qismidan ekin ekish maqsadida foydalandi. Aholining o'sishi bu o'zgarishga yakun yasadi, holbuki o'sha davr mobaynida aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yer maydoni 40% dan ortiqqa qisqardi. Yer tog'li mamlakatlar hisoblanuvchi Qirg'iziston va Tojikistonda hamda O'zbekistonning aholisi zich hududlari (Samarqand, Xorazm vohasi va Farg'ona vodiysi) uchun qisman cheklangan hisoblanadi. 1991 yildan boshlab yiliga 2 milliard dollarlik qishloq xo'jalik mahsulotlarining yo'qotilishi sababli hududda qishloq xo'jalik ekinlari hosili 20-30 % gacha qisqardi. Bunga asosiy sabab bo'lib sug'orish tizimidagi noto'g'ri boshqaruv xizmat qiladi. 1990-2000 yillar oralig'ida jami sug'oriladigan maydonlarda Markaziy Osiyoning yuqori darajadagi yerosti suvlariga ega bo'lgan maydonlari ulushi 25% dan 35% ga oshdi. 1990-1999 yillarda Amudaryo havzasida sho'rlangan maydonlar 57%, Sirdaryo havzasida 79% ga yaqin oshdi. Tojikistonda sug'oriladigan maydonning 30% dan, Qirg'izistonda 40% dan ziyod qismi sho'rlangan. Bundan tashqari, Qirg'izistondagi 51%, Tojikistondagi 97% yer maydonlari eroziyadan aziyat chekadi.

Markaziy Osiyoda ham odamlar boshqa yerlardagilar kabi faqat ishlov berilgan yer maydonlariga emas, balki oziq-ovqat va hayot uchun zarur turfa jarayonlar uchun tabiiy va yarim-tabiiy ekotizimlarga ham bog'liqdir. Bugungi kunda shu kabi ekotizimlarning mahsuldorlik darajasi xavf ostida bo'lib, bu asosan Orol dengizi va uning qirg'oqlaridagi ekotizimning yomonlashuvida

ko'rinmoqda. Quruq yaylov, daryo o'zanlari va tog'lar kabi boshqa hududiy muhim ekotizimlar ham juda yuqori sur'atlarda qisqarmoqda. Yuqori darajada sho'rlangan cho'llar - solonchaklar drenaj suvlarining salbiy ta'siri tufayli 4 million gektarga yetgan. Daryo sohillaridagi to'lqinlar yuvib turuvchi 1 million gektardan ziyod maydon qurib taqir tuproqli cho'llar shakllangan. So'nggi o'n yilliklar davomida Amudaryo va Sirdaryo tabiiy havzalarining o'zanlari mos ravishda 640 va 833 km² dan 80 va 400 km² gacha qisqardi. Buning oqibatida, u yerdagi samarali baliq ovlash va ondatra ovlash kamayib, tijorat maqsadida foydalaniladigan botqoqliklar butkul yo'qolgan. Ushbu omil sababli Sirdaryo o'zanidagi tijorat ahamiyatiga ega bo'lgan qamishning biologik mahsuldorligi ham 35 % dan 30 % ga qisqardi. 1970 va 1999 yillar orasida eski to'qayzor o'rmonlar deyarli 90 % ga kamaygan.

Qachonlardir, 1960 yilda daryo o'zanlarida 70 turdagi sut emizuvchilar va 319 xildagi qushlar (jumladan, Xiva qirg'ovullari, yirtqichlar, yovvoyi cho'chqa, xangul yoki Buxoro bug'usi va qamish mushugi) yashagan bo'lsalar, bugungi kunda faqatgina 32 turdagi sut emizuvchilar va 160 turdagi qushlar saqlanib qolgan xolos.

Tog'lar boshqa bir muhim hududiy ekotizim kategoriyasini tashkil etib, ular Tojikistonning 93%, Qirg'izistonning 87%, O'zbekistonning 23%, Turkmanistonning 20% hamda Qozog'istonning 12% maydonini egallagan. Markaziy Osiyoda 5,5 milliondan ortiq aholi tog'larda hayot kechiradi. Tog'larda ahvolning salbiy darajada o'zgarishiga o'rmonlarning kesilishi, yaylovlarning qisqarishi, turizm hamda ovchilikda boshqaruvning mavjud emasligi, hamda qoniqsiz ishlab chiqilgan rivojlanish loyihalari asosiy sabab bo'lgan. Tog' joylaridagi ekotizimning yaxshilashga qaratilgan harakatlar qishloq xo'jaligidagi qashshoqlikni yengillashtirish bilan parallel ravishda olib borilishi zarurligi bilan ahamiyatlidir.

Markaziy Osiyo ham suv resurslariga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi iqlim o'zgarishlarini boshdan kechirmoqda. Yog'ingarchilik darajasi past bo'lgan yillarda Sirdaryodagi suv oqimi o'rtacha darajadan 37% ga, Amudaryoda esa 26% ga kam bo'lishi mumkinligi kuzatilgan. Ko'plab ekspertlar fikricha asosan atrof-muhit, iqtisodiyot va ijtimoiy sohadagi buzilishlar oqibatida Markaziy Osiyodagi ob-havo harorati so'nggi yillarda sezilarli ravishda ko'tarilgan. Oxir-oqibatda suv oqimini pasayishiga sabab bo'luvchi muzliklar allaqachon erib bormoqda. 1950-1990 yillar oralig'ida Pomir-Oloy muzliklari 19% qismini yo'qotgan. So'nggi o'n yilliklarda Tyan Shan, Oloy-Hisor, Pomir hamda Dzhungarskiy and Zailiyskiy Alatau kabi turli hududlarda yiliga o'rta hisobda 1% muzliklar maydoni qisqargan. Ba'zi bir taxminiy bashoratlarga ko'ra, Sirdaryodagi suv miqdori 30% gacha, Amudaryodagi suv miqdori esa 40% ga qisqarishi mumkin. Boshqa bashoratlarda bu kabi salbiy fikrlarni tasdiqlamasa ham, ammo suv oqimining oshishi bo'yicha hech qanday taxminlar yo'q. Barcha modellarda tabiiy suv ta'minoti suvga bo'lgan talab miqdoridan ortda qolmoqda. Qurg'oqchilikning oshishi va o'simliklar hosildorligining pasayishi ham ko'plab taxminlarda aks etmoqda. Loyihalardagi bu kabi yuqori darajadagi noaniqliklar hamda ularning insoniyat xavfsizligi va hududdagi rivojlanish uchun jiddiy ta'sir etuvchi oqibatlari muzliklardagi tabiiy jarayonlar va tog' hududlari haqidagi bilimlarni qaytadan ko'rib chiqish va rivojlantirish (siyosiy qarorlar qilishda ularni nazarda tutish) zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Hech bir mamlakat yolg'iz o'zi o'zi haqida tatqiqot olib borish qudratiga ega emas; suv resurslari zaxirasini baholash bo'yicha so'nggi umumiy metodologiyaga asoslangan tatqiqot bundan 40 yil oldin o'tkazilgan. Agar iqlim va tog'lardagi ekotizim o'zgarishlari suv miqdoriga salbiy ta'sir ko'rsatsa, atrof-muhitning ifloslanishi uning sifatini buzib, sug'orish, iste'mol va boshqa tijorat maqsadlari uchun foydalanishga yaroqsiz holga keltiradi.

1960-yildan buyon Markaziy Osiyodagi suvning sifati butunlay buzildi. Bunga asosiy sabab o'sha vaqtda Orol dengizi havzasi suv oqimining 15% miqdorini tashkil etuvchi yuqori ifloslangan kanalizatsiya suvlari quyilishi bo'lgan. Shaharlardan keluvchi chiqindi suvlari, sanoat, chiqindi to'kilgan joylar, tog'-kon sanoatidan keluvchi iflos suvlar yuqori darajada ifloslanishning boshqa omillari bo'lib xizmat qilgan. Suv ifloslanishining eng ko'zga ko'ringan oqibati sifatida ayniqsa quyi oqim tomondagi hududda suvning sho'rlanishini keltirish mumkin. Masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasida yilning 10 oyi mobaynida daryo suvi haddan ortiq mineral quyqalar sababli iste'molga yaroqsiz hisoblanadi.

4. O'zbekistonda suv resurslari menejmenti – tarixiy yondoshuv

Sovet Ittifoqi hukmronligining so'nggi yillari katta hajmdagi cho'l hududlarining qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarga aylantirilishi oqibatida yoppasiga sug'orish va drenaj tizimining kengayishi natijasida tabiiy resurslarning yomonlasuviga guvohlik qildi. (Gleick, 2000). Quyi oqim hududlarida, Amudaryo va Sirdaryo o'rtasida sug'oriladigan yerlarning kengayishi suv hajmiga salbiy ta'sir eta boshladi hamda ekinlar hosili kamaydi. Bu nafaqat degradatsiya sodir bo'layotgan hududlarda, balki butun Markaziy Osiyoda oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid sola boshladi. (Kzotli, 1994).

1961-yildan boshlab Orol dengizining suvi yiliga 20-90 sm miqdorda asta-sekin qurib bordi. Tez suratlarida yerlarning sho'rlanishi va cho'llanishi bilan birga Amudaryo va Sirdaryo o'zanlari orasida suvning ifloslanishi ham sodir bo'ldi. Avvalgi Orol dengizi hududi hozirda chang, pestidsidlar hamda tuz hududiga aylangan. Orol dengizining qurishi shuningdek ushbu havzadagi iqlim o'zgarishlariga ham olib keldi. Orol dengizining qisqarishi asosan Markaziy Osiyoda aholining o'sishi, Afg'onistonda suv iste'molining oshishi hamda tezlashgan cho'llanish va iqlim o'zgarishlarida yaqqol ko'rina boshladi. Sug'orish kanallariga ajratiladigan suv sarfining oshishi va ushbu kanallardagi suvlarning nobudgarchiligi suv oqimining pasayishiga, kanalizatsiya suvlari oqimining oshishi esa suv sifatining buzilishiga sabab bo'ldi. 1960-yil boshlaridan boshlab suvdan sug'orish uchun noto'g'ri foydalanish hollari 2 marta oshdi va bu o'sha paytda 1930-40 yillar bilan taqqoslaganda 4 marta ortganligini ko'rish mumkin edi.

O'zbekistonda suv tanqisligi va uning ifloslanishi o'ta jiddiy ekologik muammolardan hisoblanadi. Suvning sifati barcha iqtisodiy tarmoqlar faoliyati uchun juda muhim omil, shuningdek, suvosti ekotizimi va bio va gidro jamiyatlar uchun mavjudlik asosi bo'lib xizmat qiladi. Respublikaning daryo, kanal hamda suv omborlaridagi suvlar antropogen ta'sirlardan xoli emas (jumladan, suvning ifloslanishi) va uning ifloslanish darajasi suvdagi tabiiy organizmlarning o'z-o'zini tozalash imkoniyatiga bog'liq. Suv resurslarining ifloslanishi antropogen ta'sirlar natijasida ro'y beradi va u quyidagilardir: 1. Qishloq xo'jaligi ta'sirida ifloslanish; 2. Sanoat ta'sirida ifloslanish; 3. Uy xo'jaligi hamda shahar va qishloqlardagi chiqindilar natijasida ifloslanish.

Sug'orishga asoslangan qishloq xo'jaligi O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi asosidir. Sovet Ittifoqi davridan buyon o'lka qishloq xo'jaligiga asosiy e'tiborini qaratib kelmoqda. Katta hajmli sug'oriladigan yerlarning yomonlashishi o'ta ma'muriylashgan sug'orish tizimi va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining davlat rejasi asosida bajarilishi sharoitida kuzatilgan. O'zbekistonning qishloq xo'jaligiga haddan ziyod suyanishi yerdan intensiv foydalanish va tuproqni yaroqsiz holatga keltiruvchi ortiqcha kimyoviy vositalarni qo'llashga asoslangan. Kimyoviy vositalarni qo'llash va sug'orish orqali yuqori hosildorlikka erishishga asoslangan qisqa muddatli siyosat oqibatida uzoq muddatli barqarorlikka erishish maqsadi yo'qqa chiqdi.

Ushbu davrning so'nggida yoppasiga sug'orish, kanalizatsiya suvlari hamda katta hajmdagi cho'l hududlarini sug'oriladigan ekin maydonlariga aylantirilishi tabiiy resurslarga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Sug'orma dehqonchilik ekinlar hosildorligini oshirish hamda qishloq joylaridagi aholining turmush darajasini yaxshilashga xizmat qilsa ham, u salbiy ta'sirlardan xoli emas. Dolzarb muammo sifatida ko'p hajmli suv sarflab oz miqdorda hosildorlikka erishish, turli atrof-muhit muammolari kabilarni ko'zdan qochirib bo'lmaydi. Jumladan, haddan ortiq namlikning oshishi, tuproqning sho'rlanishi, qirg'oqchilik va suv sifatining buzilishi kabi masalarni alohida keltirish joiz. Sug'oriladigan yerlardagi tuproqning o'rtacha sho'rlanish darajasi paxta hosilining 20-30% ga kamayishiga sabab bo'ladi. Yerlarning 54% i pestidsidlar natijasida ifloslangan bo'lsa, ularning 80% qismida ko'p miqdordagi DDT hamda turli sanoat chiqindilari (qo'rg'oshin, kadmiy, marganets, oltingugurt, tsink) mavjud.

Quyi hosildorlikka ega sho'rlangan yerlarning ishlatilishi, daryolarning qayta tiklab bo'lmaydigan suvlaridan foydalanilishi va ishlatilgan suvni tiklashga bo'lgan samarasiz urinishlar natijasida suv resurslarining yomonlashishi hamda suvning yanada sho'rlanishi kuzatildi. Sobiq

boshqaruvchi davlat tuzumi hukmiga ko'ra qurilgan katta masshtabli sug'oriladigan dehqonchilik tuproq va suv resurslari sifatining buzilishi evaziga bo'ldi. Tobora ortib borayotgan suv tanqisligi allaqachon qishloq xo'jaligi hosildorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mavjud suvlarda esa minerallanish darajasi oshmoqda. Sho'rlanish va cho'llanish jarayonlarining oshishi Amudaryo va Sirdaryodagi suv ekotizimida jiddiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Tuproq eroziyasi jarayonining jadallashishi esa tuproq unumdorligining pasayishiga va qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar sifatining yomonlashishiga olib keladi. Shu bilan birga bu ekinlar hosildorligiga va atrof-muhitga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmaydi.

Nazorat va mulohaza uchun savollar

- 1. O'zbekistonda asosiy atrof-muhit muammolari nimalar?**
- 2. Iqlim o'zgarishlariga sabab bo'layotgan asosiy omillar nimalar?**
- 3. Yer, suv va bioxilma-xillikka qanday omillar ta'sir qiladi?**

2-Mavzu: Iqtisodiyotni modernizasiya qilish sharoitida resurslarni barqaror boshqarishning nazariy asoslari(6-soat).

Reja:

1. Tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi ekologik-iqtisodiy munosabatlarning mazmuni va mohiyati.
2. Tabiiy resurslarning turlari va ularning guruhlari. Resurslarning "Tabiat-jamiyat" tizimida tutgan o'rni va ahamiyati.
3. Tabiat-jamiyat o'rtasidagi ekologik-iqtisodiy aloqalar va munosabatlarni takomillashtirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy tizimlar hamda tarmoqlararo iqtisodiy aloqalar samaradorligini oshirish muammolari.
4. Xalq xo'jaligida bosqichma-bosqich amalga oshirilgan o'zgarishlar.
5. Qishloq xo'jaligini bosqichma-bosqich isloh qilish va uning huquqiy asosi.

1. Tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi ekologik-iqtisodiy munosabatlarning mazmuni va mohiyati.

Tabiat - keng ma'noda - butun borliq, olam va uning xilma-xil shakllari; tor ma'noda - kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish manbai bo'lgan atrof tabiiy muhit. Jamiyat va tabiat tizimini ko'rib chiqayotganda ikkinchi tor ma'nodagi tushuncha qo'llaniladi. Chunki inson o'zining hayoti davomida butun borliqdan emas, balkim uni o'rab turuvchi va uning ta'siri doirasida turgan atrof tabiiy muhitdan foydalanishi mumkin.

Shu tariqa insoniyat tarixida jamiyat bilan tabiat o'rtasida to'xtovsiz va xilma-xil o'zaro ta'sirlar ro'y berib kelgan. Ammo tabiat insonlarsiz bu moddiy dunyoda hukm surib kelgan, lekin insonlar tabiatning bir bo'laki bo'lib, ular tabiatsiz hayot kechira olishmaydi. Insonlar o'z hayoti uchun zarur bo'lgan hamma narsani tabiatdan oladi. Masalan, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-bosh uchun xom ashyo, qurilish uchun binokorlik materiallari, nafas olish uchun atmosfera havosi, ichish uchun suv, dam olish uchun go'zal landshaftlar va h.k. Shunday qilib inson hayoti davomida foydalanilgan hamma narsalar tabiiy modda va kishilar faoliyatining mahsulidir.

Inson - tirik organizmlar turkumiga kiruvchi murakkab ijtimoiy va mehnat faoliyatini yurgazuvchi individ. Inson tarixiy - jamoat jarayoni subyekti bo'lib, u Yer kurrasidagi moddiy va ma'naviy-madaniy rivojlanishning asoschisidir. Inson boshqa turdagi tirik mavjudotlar bilan genetik

bog'langan holatda, lekin ulardan ongining yuqoriligi, mehnat qurollarini ishlab chiqara olishi, nutqning rivojlanganligi, ijodiy faolligi, hamda ahloqiy, ma'naviy va ruhiy o'z o'zini anglay olishi bilan ajralib turadi.

Jamiyat - keng ma'noda insonlarning tarixan qaror topgan birgalikdagi faoliyatlari majmui yoki tor ma'noda - ijtimoiy munosabatlarning konkret tipi. Shunday qilib, aqliy mehnat faoliyatiga ega bo'lgan insonlar yig'indisi bo'lgan jamiyat atrof tabiiy muhit bilan passiv (sust) emas, balkim aktiv (faol) ta'sir doirasida bo'lishi mukarrardir.

Ingliz olimi CH.Darvinning ta'limotiga ko'ra insonlar hayvonlarning ma'lum bir turlarini mehnat faoliyati aktivlashuvi, ya'ni kengaytirilishi va chuqurlatirilishi mobaynidagi evolyutsion rivojlanish mahsuli deydi. Lekin fan va texnika yutuqlari bunday ta'limotning mutloq to'g'ri emasligi haqidagi ma'lumotlarga ega va boshqa gipotezalarni oldinga surmoqdalar. Nima bo'lganda ham kishilar jamiyati mana bir necha million yildirki Yer kurrasida tabiat bilan o'zaro uzviy bog'langan holda yashab kelmoqdalar va bu bog'liqlik kundan kunga kuchayib bormoqda.

Mutaxassislar ma'lumotlariga ko'ra, Yer yuzida sodir bo'layotgan tabiiy jarayonlarning 9/10 qismida inson faoliyatining mahsuli aks etmoqda. Bu jarayonlar doimo ham ijobiy deb bo'lmaydi. Chunki ekologik xavfsiz muhit, ya'ni insonlarning muhim hayotiy manfaatlari va avvalam bor toza, sog'lom, qulay tabiiy sharoitga ega bo'lish talabini to'la qondirishga qodir bo'la oladigan atrof tabiiy va ijtimoiy muhit holati inqiroz va talofat tomon intilib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "O'zbekiston XXI bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va rivojlanish kafolatlari" degan asarida "Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo'l qovushtirib o'tirish o'z-o'zini o'limga maxkum etish bilan barobardir"¹ degan edilar.

Agarda jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga inson hayotining tarixi nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, ularni quyidagi munosabat shakllariga ajratsak bo'ladi: oddiy, oddiy-iqtisodiy, iqtisodiy, iqtisodiy-ekologik, ekologik.

Jamiyat va tabiat o'rtasidagi oddiy munosabat shakli - kishilarni ekologik tizimni buzmaydigan soddalashtirilgan hayot tarzi. Ekologik tizim (ekotizim) - tirik organizmlar majmui va ularning yashash muhiti yig'indisi bo'lib, tirik organizmlar o'zaro va atrof tabiiy muhit bilan uzviy aloqadorlik qonuniyati asosida bo'lgan holati. Bu shakl kishilarning ibtidoiy jamoa tuzumidagi hayot tarziga, ya'ni insoniyat tarixining ilk ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyasi davriga xosdir. Bu davr o'z ichiga odamlarning Yer kurrasida paydo bo'lishi (3-4 mln. yil avval) davridan to sinfiy jamiyat yuzaga kelguniga qadar muddatni o'z ichiga oladi. Ibtidoiy odamlarda ishlab chiqarish kuchlari va qurollari nihoyatda past darajada bo'lganligi tufayli ularning hayot tarzi tabiatning ajralmas bir oddiy bo'lagi sifatida namoyon bo'lgan. Atrof tabiiy muhit holati esa tirik organizmlar uchun nisbatan qulay - ekologik xavfsiz muhit deyish mumkin.

Ibtidoiy jamoa bo'lib yashash davrida ham insonlar o'zlarining faoliyati tabiatga qanday ta'sir etayotganligi haqida o'ylab ko'rganlar va ularning hayotiy zarur ehtiyojlari bo'lgan tabiiy obyektlarni saqlab qolishga uringanlar. Mevali o'simliklarni saqlash, hayvonlarning ov qilish me'yoriy belgilashni yozma ravishda emas, balkim og'zaki ravishda kelishib olganlar. Bunday og'zaki qoidalarni buzganlarni jamoa boshlig'i tomonidan o'limgacha mahkum etganlar.

Sinfiy jamiyat shakllana borgan sari, kishilar soni va ishlab chiqarish qurollarining sifati o'sib borishi bilan tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning yangi shakli - oddiy-iqtisodiy ko'rinishi namoyon bo'lgan. Natijada, kishilarning hayot tarzi tabiiy muhitni ma'lum bir kichik maydon va makon bo'yicha ekologik xavfsizlik darajasini keskunlashuviga olib kelgan. Bundan "lokal" ko'rinishdagi buzilgan maydonlar kishilarni jamoa bo'lib to'plangan yerlarga xos bo'lgan. Lekin ular atrof muhitning ekologik xavfsizlik darajasiga to'lig'icha ta'sir eta olmaganlar.

Ko'pgina ekolog olimlar¹ jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabat shakllarini uch ko'rinishda ifo etadilar - oddiy, iqtisodiy, ekologik. Lekin, jamiyatda, ayniqsa tabiatdagi qonuniyatlarni vaqt mobaynida o'zgarib borishi revolyutsion holatda emas, balkim evolyutsion holatda kechadi². Shuning

uchun ham tabiat bilan jamiyat o`rtasidagi munosabatlar sekin-astalik bilan shakllana borgan va u bir shakl ikkinchi bir shaklga bosqichma-bosqich o`tgandir.

Hozirgi O`zbekiston hududida oddiy-iqtisodiy shakl ibtidoiy jamoa tuzumining so`ngi davri va quldorlik tuzumi davriga to`g`ri keladi. Eramizdan avval 12-15- ming yilliklardan boshlab (mezolit davri) mahalliy aholining ishlab chiqarish quroli sifatida nayza, kamon, aylanma yeylarni paydo bo`lishi hayvonot dunyosining kamaya borishiga, metal omoch va belkuraklarni yaratilishi - yerlarni o`zlashtirish va dehqonchilikni paydo bo`lishiga va ular o`z navbatida yerlarning holatiga ta'sir etishni boshladi. Irrigatsion shaxobchalarni oddiy ko`rinishdagi "tug`on" usuli - obikor (sug`orma) dehqonchilikni daryo o`zanlarida "liman" uslubini paydo bo`lishiga va daryolarning tabiiy suv rejimini o`zgarishiga sabab bo`ldi. Uy hayvonlarining ko`payishi Chirchiq, Zarafshon, Qo`yi Amudaryo, Sirdaryo daryolari vodiylarida o`simlik dunyosining tabiatiga ta'sir etdi.

Jamiyat va tabiat o`rtasidagi oddiy-iqtisodiy munosabat shakli tabiiy muhitning eng asosiy elementlari - yer va suvning ekologik tizimdagi kichik aylanishiga ta'sir etdi. Lekin bunday ijtimoiy muhit holati ekologik tizimlarning buferlik (qarshi turish va tiklanish) xususiyatiga salbiy ta'sir qila olmagan edi.

S.A.Semenovning xulosalariga ko`ra dehqonchilikning qadimiy o`choqlari avvalam bor Old va O`rta Osiyoda yuzaga kelgan, so`ngra Xitoy, Hindiston va Shimoliy Afrika mamlakatlarida jadal sur`atlarda rivojlanib ketgan. Eramizdan 4-5 ming avval Kavkaz va Kichik Osiyo orqali Yevropa qit`asiga ham o`tib olgan.

Kishilar faoliyatining tabiatga oddiy-iqtisodiy ta'siri davrida ma'lum bir hududlarda sezilarli darajada ekologik xavfsiz muhitga ta'sir etgani uchun ham qadimgi yozuv va qonun kuchiga ega bo`lgan kitoblarda tabiatga nisbatan insonlarning ehtiyotkorona munosabatda bo`lishlari ko`rsatilib o`tilgan. Masalan, Zardushtlarning "Avesto" kitobiga binoan bolalar yoshligidanoq daraxt ko`chatini o`tkazishlari shart bo`lgan. Inson butun umri davomida suv, tuproq, olov, umuman dunyodagi jamiki yaxshi narsalarni pok va bus-butun asrashga burchlidir. Yer, suv, havo, olovni asrash qoidalarini buzgan kishi 400 qamchi jazosiga mahkumdur. Lekin bu kitobda ekologik jazo sifatida bir turdagi tabiiy obyektini buzgani uchun ikkinchi bir turdagi tabiiy obyektidan qutilishni ham me'yor qilib qo`yganlar. Suvni iflos qilgan yoki ov itini o`ldirgan kishi 10 ming ruhiatni tetiklashtiradigan o`simlik bargi terishi, 1000 echkiemar, 1000 ta suv qo`ng`izi va kasallik tarqatuvchi pashshani o`ldirib, gunohini yuvishi lozim bo`lgan.

Qadimgi Vavilonda shox Xammurapi tomonidan "O`rmonlar muhofazasi"ga oid qonun bor yo`g`i shoxning tiriklik davrida (eramizdan avval 1792-1750 yillar) hukm surgan xolos. Xuddi shunday holat er. avval III asrda Hindiston imperatori Ashoki qaroriga "Hayvonot dunyosini ovlash qoidalari" ham ta`lluqlidir.

Jamiyatda ishlab chiqaruvchilar va amaldorlar sinfining shakllana borishi va ish quollarining takomillashib davlatlar orasidagi nizolarning kengayishi feodalizm va ilk bozor munosabatlari yuzaga kelgan kapitalizm davrlarida iqtisodiy munosabat shakli yuzaga keldi va rivojlandi. Jamiyat va tabiat o`rtasidagi iqtisodiy munosabat shakli -faqatgina iqtisodiy madaniyatlashgan kishilarning o`z iqtisodiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchungina atrof tabiatni iste'molchilik psixologiyasi pozitsiyasidan turib foydalanishi natijasida atrof muhit ifloslanishi, resurslar kamayishi va tabiat tizimlarining o`zgarishiga olib keladigan insonlarning hayot tarzi. Ekologik tizimlar katta maydonlarda va keng miqyosda (global) buzilishi kuzatiladi. Bu davrda garchi insoniyat tarixida ilk bor huquqiy elementlarining paydo bo`lishi va rivojlanishi hamda diniy va boshqa huquq institutlari manbalarining paydo bo`lishiga qaramasdan insonlarning ekologik ongi, bilimi va madaniyati juda past edi. Tavrotda ham, Qur`oni Karimda ham, Injilda ham odamzodning qiyomat kunlarini tabiat bilan bog`lash bejiz bo`lmagandir. Misrdagi Xeopsa piramidalaridagi toshlardan biriga, - "Insonlar tabiat kuchlaridan foydalana ololmasliklari va moddiy dunyoning asl mohiyatini tushunmasdan halok bo`ladilar", - deb bitilgani bejiz emas.

Uzoq tarixiy muddatni o`z ichiga olgan va xanuzgacha rivojlanayotgan mamlakatlarda o`z asoratini saqlab kelayotgan iqtisodiy munosabat shakli iqtisodni har qanday ekologiyadan ustuvor va ekologik siyosatdan mutlaqo holiligini namoyon etmoqdalar. Garchi bunday o`lka va mamlakatlarda

tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish borasidagi huquqiy-me'yoriy hujjatlar yetarli bo'lsada, ularni amaliy tadbirga ishlab chiqilmagan yoki talablar davlat miqyosda targ'ib qilinmagandir. Aks holda qanday tushunish mumkin-ki, haqiqiy demokratiya va adolat mezonining o'chog'i bo'lmish Amerikada XIX asr ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi yarmida son-sanoqsiz bo'lgan bizonlar yoppasiga qirib tashlandi, o'rmonlar maydoni 2 barobarga, yemirilgan va yuvilgan yerlar 40 mln.ga yetgan, qishloq xo'jaligi oborotidan 50 % tuproqli yerlar chiqib ketgan.

Ilmiy- texnika yutuqlari u davrda ekologik xavfsiz muhitni saqlab qolishga emas, balki global miqyosda qurolli to'qnashuvlarda va sovuq urushlarda g'olib chiqish, ma'lum bir qatlamdagi aholini boyitishga xizmat qilgan. Shuning uchun ham J.B.Lamark 1820-1960 yillarni "Inqilobiy sanoat yuksalish" davri ekologik xavfsizlikni keskin ravishda inqirozga tomon sudragan davri bo'ldi deb aytgan edi.

Shunday qilib ekologik xavfsiz muhit inqirozi kishilar faoliyatining atrof muhitga antropogen ta'sirining uch oqibatlar majmui - tabiiy resurslar kamayishi, atrof muhit ifloslanishi va ekologik tizimlarni buzilishi maxsulidir.

Tabiiy resurslar kamayishi - kishilarning xo'jalik va boshqa hayotiy faoliyati manbai bo'lgan tabiiy obyektlarni yo'qola borishidir. Mutaxassislarning ma'lumotlariga ko'ra "inson sivilizatsiyasi" davrida, to'g'rirog'i iqtisodiy madaniyatlashgan kishilarni izchil faoliyati davrida Yer kurrasidagi o'rmonlarning 2/3 qismi kesilib ketdi, 250 xil turdagi hayvon va o'simliklar yo'q bo'lib ketdi, 3-4 mlrd. gektar yer qishloq xo'jalik oborotidan chiqazib yuborildi, atmosfera havosidagi kislorodning zahirasi 10 mlrd.tonna kamaydi. Keyingi 100 yil ichida, fransuz olimi A.Gerrenning ma'lumotlariga ko'ra, tuproq eroziyasi va texnogen buzilishi 2 mlrd. gektar yerni unumdorligini yo'qotib yuborgan. Shu kunlarda Yer kurrasida 1 daqiqada 20 ga o'rmon kesilmoqda, kuniga bir turdagi hayvonot yoki o'simlik turi qizil kitobga kiritilmoqda.

Tabiiy resurslarni kamayib borishidan tashqari atrof tabiiy muhitning ifloslanishi ekologik tizimlarning buzilishiga, modda va energiya almashuvining tabiiy holatda kechishiga keskin ta'sir qilmoqda. Atrof tabiiy muhitning ifloslanishi deb tabiiy moddalar (tuproq, suv, yer osti boyliklari, atmosfera havosi...) tarkibining fizik va kimyoviy o'zgarishiga aytamiz. Agarda bunday o'zgarish inson hayotining faoliyati bilan kechsa - antropogen ifloslanish, uning ishtirokisiz kechsa - tabiiy ifloslanish deyiladi.

Atrof tabiiy muhitning antropogen ifloslanishi iqtisodiy munosabat shaklida umumiy ifloslanishning 90-97% ni tashkil etadi. Tabiiy moddalarning fizik va kimyoviy o'zgarishi shaharlarda asosan transport va sanoat hisobiga (80-85 %) bo'lsa, agrar tegralarda qishloq xo'jaligini (70-85%) ximiyalashtirish, mexanizatsiyalash, meliorativ va irrigatsion inshootlar qurish xaddan tashqari chorva mollari tuyoq sonini ma'lum bir maydonlarda oshib ketishi hisobiga amalga oshmoqda. Sanoat tegralarida ifloslanish metallurgiya va energetika tarmoqlarida juda yuqori darajadadir.

Atrof muhitning tabiiy ifloslanishi inson faoliyatini bevosita ishtirokisiz kechadigan tabiatdagi jarayon va hodisalar: quyosh-kosmik (meteoritlarning tushishi, magnit bo'roni); iqlim - gidrologik (tayfun, bo'ron, suv toshqini, havo-temperaturasi va yog'in yog'ishlarning kam qaytariladigan anomal o'zgarishlari...); geologik - geomorfologik (zilzila, sunami, vulkanning otilishi, sel ketishi, qor ko'chishi, surilma, o'pirilish va tosh tushishi, muzliklarning bostirishi...); geoximik (yer osti tabiiy gazlarning portlashi, sho'rlanish, botqoqliklardan zaxarli gazlardan chiqishi, sun'iy materiallarni korrozitsiyasi...); biologik (yoppasiga zararkunanda hashorat va qumursqalarning ko'payishi, o'rmonlarning qurib ketishi natijasidagi yong'inlar...). Ularning ekologik xavfsiz muhitga ta'siri iqtisodiy shaklda 3-10% tashkil etadi. Lekin tabiatga antropogen ta'sirning kuchayishi bilvosita atrof muhitning tabiiy ifloslanish darajasini kundan kunga ortirib yubormoqda. S.M. Myagkovning ma'lumotlariga ko'ra bu o'zgarishning yillik koeffitsiyenti - 0,2,-0,3 bo'lib, bu ko'rsatgich jarayon va hodisalarning turiga qarab o'zgarib boradi.

Tabiiy resurslarni kamayib va yo'qolib borishi hamda tabiiy obyektlarning ifloslanishi ekologik tizimlarning buzilishiga va ekologik inqirozlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Chunki kichik va katta ekologik tizimlarning aylanishi zanjirida turgan biron bir tabiiy obyektning yo'qolishi yoki uning ekologik xususiyatini ifloslanish natijasida kamayib qolishi tabiatni o'z-o'zini asrash,

tashqi kuchlarga qarshi turish (buferligi) va qayta tiklanish xususiyatlarini yo`qotib qo`yadi. Ekologik inqiroz - jamiyat va tabiat o`rtasidagi o`zaro munosabat muvozanatining barqaror ravishda buzilishi natijasida atrof tabiiy muhit holatini yomonlashib borishi, davlat boshqaruv va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yuzaga kelgan holatdan chiqq olmasliklari hamda ekologik tizimlarni tiklash imkoniyatlarining yo`qolishi, ya'ni tabiiy muhit inqirozi va ijtimoiy muhit falokati.

Ekologik inqirozga misol bo`lib Orol dengizi va uning atrofidagi holatni olsak bo`ladi. Qachonlardir dunyoda eng katta ko`llar toifasiga kirgan Orol dengizi 30-40 yil ichida eng sho`r, ifloslangan va xalq xo`jaligi ahamiyatiga kam ega bo`lgan o`rtacha ko`llar toifasiga kirib qoldi. Buning asosiy sabablaridan biri Amudaryo va Sirdaryo suv rejimini keskin o`zgarish, ya'ni 1982-1983 yillarga kelib ularning Orolga suv qo`yishining 12-13 barobarga kamayib ketishidir. Natijada suv sathi 16 metrga, suv yuzasi 2 barobarga, suv hajmi 4 barobarga kamayib ketdi. Suvdan qurigan yuz 3.3 mln.gektarni tashkil qilgani holda deflyatsiya (shamol eroziyasi) natijasida tuzlar minglab kilometrgacha bo`lgan masofada atrof muhitni ifloslantirdi, natijada Amudaryo va Sirdaryo suvlarini og`ir metallar, pestitsid, gerbitsid kabi kimyoviy moddalar bilan ifloslanishi va sho`rlanishi natijasida ularning suviniichimlik suvi sifatida foydalana bo`lmasligini mutaxassislar isbot qilib berishdi. Qachonlardir baliqchilik va ov qilish maskani bo`lgan qo`yi Amudaryo qurigan qoldiq ko`llar va sho`rlangan tuproqlar maskaniga aylanib qoldi.

Mustaqil O`zbekiston Respublikasi va Markaziy Osiyo davlatlarining birgalikdagi sayil-harakatlari tufayli 1995-1997 yillarda kelib Orolga suv qo`yilishi 15-17 kub km.gacha ko`paytirildi. Yopiq xavzaning suv taqsimoti xalqaro shartnoma va deklaratsiyalar orqali tartibga solinmoqda.

Jamiyat va tabiat o`rtasidagi iqtisodiy munosabat shakli fanda yangi ta'limotni - "Ekologiya"ni yuzaga keltirdi. Birinchi bor "ekologiya" so`zini (grekchada "oikos" - uy, yashash joyi, "logos" - fan, ta'limot) fanga nemis biolog olimi Ernest Gekkel tomonidan olib kirilgan. Charlz Darvinning tirik organizmlarning evolyutsion rivojlanish qonuniyatlarini keng tadbiq qilgan E.Gekkel 14 sentabr 1866 yil "Umumiy morfologiya" kitobining so`z boshida ekologiya haqidagi fikrlarni bayon etgan. Bu fan sohasi aynan XIX asrning ikkinchi yarmida Yevropa qit'asining eng rivojlangan qismida biolog olimlar tomonidan e'tirof etilishi bejiz emas edi, chunki o`sha vaqtda ayni sanoati burkirab rivojlangan Germaniyada atrof tabiiy muhit holatining keskin ravishda yomonlashuvi Rur xavzasida ekologik inqirozli vaziyatini yuzaga kelishi, kishilar va tirik organizmlar hayoti bilan shug`ullanuvchi aynan biologlarni tashvishga solishga va yangi fanni olg`a surushga asos bo`ldi.

Shunday qilib "Ekologiya" tor ma'noda - uyimiz haqidagi ta'limot bo`lsa, keng ma'noda - tirik organizmlar yashaydigan makon haqidagi ta'limotni anglatadi. Shu kunda bu fan sohasi tirik organizmlarning o`zaro va ular atrofini o`rab turuvchi tabiiy muhit bilan munosabatlar yoki aloqadorlik qonuniyatini o`rganadi.

Xo`sh savol tug`iladi, iqtisodiy munosabat shaklida ekologik qonunlar bo`lganmi? Bo`lgan bo`lsa, nima uchun ular bunday inqirozlarni oldini olmagan? Biz aytib o`tdikki jamiyat va tabiat o`rtasidagi iqtisodiy munosabat shakli insoniyat tarixi davrining juda katta qismini o`z ichiga oladi. Qadimgi diniy va mistik kitoblarda atrof tabiat insonning yashash makoni haqidagi fikr va mulohazalar, xattoki majburiy me'yoriy ko`rsatmalar bo`lib kelgani haqida ma'lumotlar beradi. Undan tashqari, yuzlab ekologik qonunlarni o`z ichida aks ettirgan Sovet Qonunchiligi tizimida ham tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish normalari ko`rsatilgan edi. Lekin insonlarning iqtisodiy tafakkurlari yoki siyosiy talablari har qanday ekologik talabdan yuqori edi. Shuning uchun ham ekologik qonunlar o`z yo`lida, insonlarning yoki davlatlarning raqobat, bosqinchilik, boyish va qo`shimcha bozorlarni egalash siyosati o`z yo`sinida ketar edi.

Iqtisodiy munosabat shakli davriga xos ekologik qonunlardan Mazovlarning XIII-XIV asrlarda "O`rmon, tur, zubr va tarpanlarni muhofazasi", litva knazi Sigizmund-II ning "Vолок nizomi"da baliqlarning urchish davrida ov qilish man etilgan. XIV asrda Fransiyada "Suvlar va o`rmonlar" maxsus boshqarmasi tuzilgan bo`lib, uning vazifasi o`rmonlarni muhofaza qilish edi. Qadimgi Vilgelm podshoxligi davrida kiyik, yovvoyi chuchqa va xattoki quyonlarni o`ldirganlari uchun kishilarga o`lim jazosi belgilangan. Ammo bu qonunlar umumiy atrof tabiiy muhitni emas, balkim feodal mulkni saqlab qolish va muhofaza qilishga qaratilgan edi.

Tabiatni hududiy muhofazalash to'g'risida chora tadbirlar XVI asrda Daniya qiroli Xristian-III qaroriga binoan amalga oshirilgan. Xuddi shunday dengiz bo'yidagi qumlarni ko'chishidan saqlovchi qonunlar Prussiyada, Niderlandiyada, Fransiyada ham qabul qilingan. XIX va XX asrning birinchi yarmida ham alohida bir tabiiy obyektlar yoki integral-hududiy obyektlar bo'yicha yuzlab qonunlar va shunga asosan boshqaruv va nazorat organlari tashkil etildi. Lekin ularning boshqaruv va nazorat funksiyalari siyosiy axvolga karab o'zgarib turar va ular ayrim mulk egalari xizmat qilar edi xolos.

Yer kurrasida ekologik inqirozli obyekt va hududlarning kengayishi, ommaviy kasalliklarni ko'payishi XX-asrning ikkinchi pallasiga kelib kishilar e'tiborini tabiatga qarashga majbur etdi. Yevropa, Ayrim Osiyo va Shimoliy Amerika mamlakatlarida nafaqat tabiatdan samarali foydalanish, balkim uni asrashga bag'ishlangan bir qator qonunlar qabul qilindi va o'sha asosida ekologik chora tadbirlar amalga oshirildi. Natijada tabiat bilan jamiyat o'rtasida yangi munosabat - iqtisodiy-ekologik shakl yuzaga keldi.

Jamiyat va tabiat o'rtasida iqtisodiy-ekologik munosabat shakli - mavjud ekologik tizimni saqlab qolish darajasidagi kishilarning tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan hayot tarzi.

Amerika Qo'shma shtatlari, Yaponiya, Shvetsariya, Germaniya, Shvetsiya kabi mamlakatlar ekologik qonunchilik tizimi ekologik munosabat shakliga moslashtirilgan bo'lib, davlat tomonidan kishilarning har qanday ekologik chora-tadbirlari to'lig'icha qo'llab quvvatlaniladi. Tabiiy resurslarni kamaytirish, tabiatni ifloslantirish nafaqat fuqarolarga, balki davlat idoralari xodimlariga ham na moddiy va na ma'naviy foyda keltirmaydi. Masalan, AQSH "Atrof tabiatni muhofaza qilish milliy siyosati" (NEPA) qonuniga binoan hamma jismoniy va yuridik shaxslar (davlat hokimiyati va boshqaruv organlari ham) biron bir tabiiy obyektidan foydalanishlaridan avval turli ko'rinishdagi test sinovlaridan o'tishadi va tabiatga ko'rsatishi mumkin bo'lgan "Ariza"ni topshiradilar. Bu test sinovlar natijasining boshidayoq 10% "Arizalar" sudlar ish faoliyatiga kirib qoladi. Prezident ijroiya ko'mitasi qoshidagi tabiatni muhofaza qilish Kengashi har oyda Kengashga kelib tushgan "Arizalar" ro'yxati va sudlarning qabul qilgan qarorlari to'g'risida ochiq ma'lumotnomalar e'lon qiladi. Undan tashqari tabiatni muhofaza qilish bo'yicha har bir Amerika shtati o'ziga yarasha qonun qabul qilish imkoniga ega. Chunki shtatdagi ekologik holat avvalam bor mahalliy aholiga ta'sir qilishi qonunchilik tizimni belgilab beradi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining ilk bor qabul qilgan qonunlaridan biri "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni. Bu qonun 9 dekabr 1992 yil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan bir qatorda qabul qilingan bo'lib, undagi prinsip va me'yorlar tabiat bilan jamiyat munosabatlari o'zaro uyg'unlashgan holda bo'lishini taqazo qiladi. Mamlakatimiz yosh, tez suratlar bilan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga tomon olg'a borayotgan davlatlar toifasiga kiradi. Iqtisodiy rivojlanish, vaqtinchalik, juda boy (100 ga yaqin mineral xom ashyo turidan foydalaniladi) tabiiy resurslardan foydalanishga suyangan holda amalga oshmasdan iloji yo'q. Shuning uchun ham milliy qonunchiligimiz orqali tabiat inomlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish shakli iqtisodiy-ekologik ko'rinishdadir. Qabul qilingan ekologiyaga oid 20 ziyod qonunlar tabiatni muhofaza qilishning huquqiy asosi bo'lib xizmat qila oladi, lekin bu qonun me'yorlarini hayotga tadbir qilishning iqtisodiy, huquqiy, siyosiy chora-tadbirlarini ishlab chiqish shu kunning dolzarb masalalari turkumiga kiradi.

Tabiiy muhitni inqirozga, ijtimoiy muhitni falokatga olib kelmaslik uchun biz yaqin kelajakda ekologik munosabat shakliga o'tib olishimiz kerak.

Jamiyat va tabiat o'rtasidagi ekologik munosabat shakli deb biz kishilarni tabiat resurslardan o'ta samarali foydalanishga, qayta tiklash va tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan hayot tarzini tushunamiz. Bunday hayot tarzi mavjud ekologik tizimni sog'lomlashtirishga olib keladi. Ekologik munosabat shaklida davlatning boshqaruv tizimi avvalam bor ekologik nobop hudud va obyektlarni tiklashga qaratilgan bo'ladi. Bu yerda ishlab chiqarish texnologiyasi birinchi navbatda kam chiqitli yoki yopiq holda bo'lishni talab etadi. Ekologik ong va madaniyat kishilarning jamiyatda tutgan o'rnini belgilovchi mezon omili bo'lib qoladi. Ekologik qonunlar va normativ xujjatlar nafaqat

bevosita, balki bilvosita ham ekologiyalashtirilgan va amaliy tabiiy mexanizmiga to'liq asoslangan bo'lishini talab qiladi. Tabiiy resurslardan foydalanishni cheklash va tabiiy obyektlar "rekonstruksiya" bir mamlakat miqyosida emas, balkim ekologik xavfli hududlar bo'yicha amalga oshiriladi va ular davlat tomonidan alohida muhofaza etish obyektiga kirishini taqazo qiladi.

2. Tabiiy resurslarning turlari va ularning guruhleri. Resurslarning "Tabiat-jamiyat" tizimida tutgan o'rni va ahamiyati.

TABIIY RESURLAR: tushunchasini ta'riflashdan oldin, bu tushunchani ko'pchilik mualliflar tomonidan turlicha talqin qilinishi haqida aytib o'tish kerak. Akademik I.P.Gerasimov bilan professor D.A.Armond tabiiy resurslarga eng to'liq ta'rif beradilar. «Tabiiy resurslar kishilar bevosita tabiatdan oladigan va ularning yashashlari uchun zarur bo'lgan xilma-xil vositalardir». Iqtisodiy geograf professor Y.G.Saushkin elektr energiya olish, oziq-ovqat maxsulotlarini ishlab chiqarish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan komponentlarni va sanoat uchun xom-ashyoni tabiiy resurslarga kiritadi. Yana bir geografik A.A.Mints bu haqda boshqacharoq fikr bildiradi. U tabiiy resurslardan foydalanish formalari va yo'nalishlariga qarab, ularni iqtisodiy jihatdan klassifikatsiya qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu klassifikatsiyada tabiiy resurslar moddiy ishlab chiqarishning asosiy sektorlaridan ishlab chiqarishdan tashqari sferada foydalanishga qarab gruppalariga ajratilgan. Tabiiy resurslarni yana shu tariqa klassifikatsiya qilish K.Marks asarlarida uchraydi. Shunday qilib tabiiy resurslar kishilarning yashashi uchun zarur manbalari va mehnat vositalari manblariga bo'linadi. Mukammalroq klasifikatsiya qilinganda tabiiy resurslar quyidagilarga bo'linadi: a) moddiy ishlab chiqarish resurslari -sanoatda yoqilg'i, metallar, suvlar, yog'och-taxta, baliq, qishloq xo'jaligida sug'orish uchun suv, ovlanadigan hayvonlar. b) ishlab chiqarishdan tashqari sfera resurslari, ichimlik suv, daraxtlar, kishilarni davolash uchun iqlim resurslari va hokozolar. Tabiiy jismlar va kishilar foydalanadigan energiya turlari RESURS lar deyiladi. Resurs so'zi fransuzcha so'z bo'lib «yashash vositasi» degan ma'noni bildiradi. Tabiiy resurslar kishilarning yashashi uchun zarur bo'lgan shunday vositalarki, bu vositalar jamiyatga bevosita emas balki ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish vositalari orqali ta'sir etadi. Tabiiy resurslar - ovqatga ishlatiladigan yovvoyi o'simliklar va hayvonlar, kishilar ichadigan va boshqa ko'p maqsadlarda foydalanadigan suvlar, metallar olinadigan rudalar, uylar quriladigan yogoch taxtalar, energiya va yoqilg'i manbalari bo'lgan kumir, neft, tabiiy gazlardir. Tabiiy resurslardan to'g'ri foydalanish va ularni muhofaza qilish uchun klasifikatsiya qilish zarur. Tabiiy resurslar ikki turga bulinadi: tugaydigan va tugamaydigan resurslarga.

Tugaydigan resurslar o'z navbatida 2 gruppaga bo'linadi - tiklanadigan va tiklanmaydigan. Tiklanmaydigan tabiiy resurslar yoki foydalanayotgan darajadan yuz ming marta va million - million marta sekin tiklanadigan tabiiy resurslar birinchi gruppaga kiradi. Butunlay yo'q bolib ketadigan va juda kamayib qoladigan yer osti boyliklari, foydali qazilmalar shular jumlasidandir. Demak, bunday resurslarni tiklab bo'lmas ekan, mineral resurslardan ratsional foydalanish ularni tejab-tergab ishlatish va qazib olayotganda xo'jalikning boshqa sohalariga, chunonchi yerlarga zarar etkazishga yo'l qo'ymaslik kerak. Havo, suv resurslari, energiya (quyosh energiyasi, yadro, geotermal, shamol, tcf Iqin energiyalari) Er osti qazilmalari (ko'mir, neft, gaz, ruda va h.k) Tuproq, o'simlik va hayvonlar, ba'zi mineral resurslar Tiklanadigan tabiiy resurslar butunlay yo'q bo'lib ketmaydi va qaytadan tiklanadi. Tirik mavjudotlar, o'simlik va hayvonlar, shuningdek, tuproq ana shunday resurslardandir. Chunonchi, tuproq yo'q bo'lib ketmaydi balki, asosiy xossasini umundorligini yo'qotadi. Bunday resurslardan foydalanayotganda shuni esda tutish kerakki, muayyan tabiiy sharoitning buzilishi ularning qayta tiklanishiga halaqit berishi mumkin. Masalan, hozirgi vaqtda butunlay qirib yuborilgan ko'pgina hayvon va o'simlik turlari, shuningdek erroziya natijasida butunlay buzilgan tuproqlar qaytadan tiklanmaydi. Bunda tiklanadigan tabiiy resurslarning paydo bo'lish protsessi muayyan tezlikda bo'lishini esda saqlash kerak. Masalan, otib tashlangan hayvonlarning qaytadan paydo bo'lishi uchun bir yil yoki bir necha yil kerak. Daraxtni kesib tashlagan o'rmon kamida 60 yildan keyin qayta tiklanishi mumkin. Tarkibi o'zgartirgan tuproqning yaxshilanishi uchun esa bir necha ming yil vaqt kerak. Shuning uchun ham tabiiy resurslarni ishlatish sur'atiga to'g'ri kelishi kerak.

Tiklanadigan tabiiy resurslarga zaruriy sharoit yaratib berilsa kishilarga abadiy xizmat qilish mumkin.

Tugamaydigan tabiiy resurslarga - suv, iqlim va kosmik resurslar kiradi. Suv resurslari- suv barcha jismlar orasida eng ajoyibdir. Suv tabiatda uchta fizik holatda: qattiq, suyuq va bug'simon holatda uchraydi. Dunyodagi suvlarning 92-94 % okeanlardadir. Bevosita foydalanishga yaroqli suv barcha suv zahirasining 1% iga ham etmaydi. Biroq bitmas tunganmas hisoblangan dengiz suvlari ham o'ta ifloslanishi xavfi ostida turibdi. Chuchuk suv esa miqdor jihatidan tugaydigan resurs hisoblanadi, chunki kishilarga ishlatish uchun yaroqli suv kerak. Yer sharining ko'pgina joylarida suvdan noratsional foydalanishi, daryolarning sayozlanib qolishi va boshqalar oqibatida chuchuk suv miqdori keskin kamaymoqda. Xolbuki, sugorish sanoat va kommunal xo'jalik uchun suvga bo'lgan ehtiyoj yildan yilga ortib bormoqda. Iqlim va kosmik resurslar quyosh radiatsiyatsiyasi yorug'lik va issiqlik, atmosfera havosi, shamol erroziyasi ham, iqlim resurslariga kiritiladi. Planetamizga kelgan quyosh nurlarining yarmidan ko'prog'i energiyaning boshqa turiga aylanadi. Quyosh nurlarining muayyan qismi tuproq, suv va havoni isitishga sarf bo'ladi va asta sekin havoga tarqaladi. Bir qismi o'simliklar tomonidan o'zlashtiriladi.

Quyoshning nurli energiya manbai milliard-milliard yilga etishi mumkin. Shuning uchun ham quyosh energiyasi bitmas tunganmasdir.

Atmosfera havosi kishilar, hayvonlar o'simliklarning nafas olishi uchun zarur. Havo bitmas tunganmas lekin uning tarkibi o'zgarishi mumkin. Havoni ifloslash ishiga sanoat korxonalari va transport mashinalaridan chiqayotgan gazlar sabab bo'lmoqda, bu esa inson organizmi uchun zararlidir.

3. Tabiat-jamiyat o'rtasidagi ekologik-iqtisodiy aloqalar va munosabatlarni takomillashtirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy tizimlar hamda tarmoqlararo iqtisodiy aloqalar samaradorligini oshirish muammolari.

Tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar natijasida turli ijtimoiy munosabatlar paydo bo'ladi. Ushbu sohada ijtimoiy munosabatlarni biz ijtimoiy ekologik munosabatlar deb ataymiz.

Shuni alohida ta'kidlash kYerakki, ijtimoiy ekologik munosabatlarning shakli, mazmuni jihatdan turli tuman bo'lib, ushbu munosabatlarni tartibga solishda keng qamrovli chora-tadbirlari amalga oshirilishini taqozo etadi.

Ijtimoiy ekologik munosabatlarning yo'nalishlarni ilmiy jihatdan asoslangan holda oqilona aniqlash o'z navbatida, ushbu munosabatlarni tartibga solish huquqiy mexanizmni ixchamlashtiradi va amalga oshirishga yordam bYeradi.

Bugungi kunda tabiat-jamiyat tizimidagi ijtimoiy munosabatlar uchta qo'yidagi asosiy yo'nalishlarda paydo bo'ladi:

1. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq ekologik huquqiy munosabatlar;
2. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bilan bog'liq ekologik huquqiy munosabatlar;
3. Aholining ekologik havfsizligini ta'minlash bog'liq ekologik huquqiy munosabatlar;

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish - jamiyatda yer, yer osti boyliklari, suv, o'rmon, hayvonot va o'simlik dunyosi hamda atmosfera havosini muhofaza qilish, tabiiy hosilalar va ekologik komplekslarni saqlash, qayta tiklash, atrof muhitning biologic xilma-xilligini ta'minlash bilan bog'liq qoida-talab, chora-tadbirlarning yig'indisi hisoblanadi.

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan qonunchilik hujjatlari, qoida-talablari muhofaza ahamiyatidagi ijtimoiy ekologik munosabatlarni tartibga soladi.

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish-jamiyatning ehtiyojlarini qondirish maqsadida yer, yer osti boyliklari, suv resurslari, hayvonot va o'simlik dunyosi hamda atmosfera havosidan foydalanishga qaratilgan ilmiy jihatdan davlat dastur va rejalari, qonunchilik hujjatlari qoida-talablari yig'indisidan iboratdir.

Tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq umummajburiy qonunchilik hujjatlari qoida-

talablari foydalanish ahamiyatidagi, ijtimoiy ekologik munosabatlarni tartibga soladi.

Aholining ekologik havfsizligini ta'minlash - antropogen ta'sirlar natijasida paydo bo'ladigan ekologik vaziyati va ofati mintaqalarida barqaror tabiiy muhitni saqlash, aholining hayoti va sog'lig'iga ta'sir ko'rsatuvchi ekologik havfli va zararli ta'sirlarni oldini olish bilan bog'liq keng qamrovli chora-tadbirlar tizimidan iborat.

Ekologik havfsizlik o'n yillar davomida respublikamiz hududida tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik va tabiatni muhofaza qilish qoida talablariga amal qilmaslik sharoitida xalq xo'jaligi sohalarida olib borilgan ishlab chiqarish jarayoni natijasida yuzaga keidi.

Ekologik havfsizlik- tabiat-jamiyat tizimining barqaror holati bo'lib, bunda atrof tabiiy muhit, tabiiy resurslar holati, jamiyat hayoti va inson sog'lig'iga havfli ta'sirlarni oldini olishni ko'zda tutadi.

Ekologik havfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq huquqiy munosabatlar tizimi- atrof tabiiy barqarorligi, aholining sog'lig'iga havfli ta'sir etuvchi omillarni kamaytirish, oldini olish, cheklash va bartaraf etishga qaratilgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy sohadagi quyidagi chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi;

-ekologik havfki hudud, ekologiya ofati mintaqalarini aniqlash;

-ekologik ekspertizani joriy etish;

-ekologik havfli va zararli ishlab chiqarish ob'ektlarini pasportlashtirish;

-havfli va zararli ishlab chiqarish turlari faoliyatiga ruxsatnomalar berish;

-tabiiy ofat, sel, toshqin va texnogen avariylarni aniqlash, oldini olish;

-aholining ekologik- huquqiy madaniyatini oshirish;

-aholining sanitariya- gigiena sharoitlarini yaxshilash va boshqalar. Ushbu tavsiflangan ekologik huquqiy munosabatlar davlat ekologik siyosatining asosiy yunalishlarini tashkil etadi.

4. Xalq xo'jaligida bosqichma-bosqich amalga oshirilgan o'zgarishlar.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida ekologik muammolarni bartaraf etish va ularning salbiy oqibatlarini oldini olish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Yurtimizning barqaror rivojlanishi, aholi farovonligi hamda salomatligi, shuningdek, ekotizimlar va atrof-muhitning tabiiy holatini saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va uni qayta tiklash ishlari izchillik bilan davom ettirilmoqda.

Bularning barchasi, albatta, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, jumladan, ekologik barqarorlikni ta'minlash, aholi salomatligini mustahkamlash, zamonaviy hamda toza texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning bugungi kundagi dolzarb masalalarini hal etish jarayonlarida nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat tuzilmalari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huquq va vakolatlarining kengaytirilishi amalga oshirilayotgan islohotlarning izchilligini ta'minlashda yanada kengroq imkoniyatlar yaratmoqda. Ayniqsa, bu borada O'zbekiston Ekologik harakati tashkil etilgani muhim ahamiyat kasb etdi.

Bugungi kunda mazkur sohadagi munosabatlarning huquqiy asoslari yaratilgan bo'lib, ular «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi, «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi, «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida»gi, «O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi, «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi, «Chiqindilar to'g'risida»gi, «Ekologik ekspertiza to'g'risida»gi, «Ekologik nazorat to'g'risida»gi kabi 30 dan ziyod qonunlar bilan tartibga solib kelinmoqda. Ushbu huquqiy hujjatlar yurtimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, aholi salomatligini mustahkamlash, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va ekologik muvozanatni ta'minlashdek muhim ijtimoiy masalalar ro'yobida salmoqli o'rin tutmoqda.

Ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga parlament tomonidan ham muhim masala sifatida qarab kelinmoqda. Bu borada sohaga oid qonunlarning joylardagi ijrosi quyi palata deputatlari faoliyatida nazorat-tahlil tartibida doimiy tarzda o'rganib borilmoqda.

Xususan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasida O'zbekiston Ekologik harakati deputatlar guruhi tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi raisining

“Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish, ekologik ta’lim sohasidagi qonunchilik va me’yoriy-uslubiy bazani rivojlantirish borasidagi tadbirlarining bajarilishi to’g’risida”gi axboroti eshitildi.

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan mazkur sohadagi qonunlarning talablari, shuningdek, hukumatimizning 27-may 2013-yilda tasdiqlangan “2013-2017-yillarda O‘zbekiston Respublikasida atrof-muhit muhofazasi bo‘yicha harakatlar dasturi” asosida bir qator ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi qonunning ijrosini samarali amalga oshirish maqsadida bir qator qonunosti hujjatlari, jumladan, “Davlat ekologik nazoratini amalga oshirish tartibi haqidagi nizom”, “Ekologik xizmat to‘g‘risidagi namunaviy nizom”, “Ekologik nazoratning jamoatchi inspektori to‘g‘risidagi nizom”, “Jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi Namunaviy nizom”lari ishlab chiqildi va tegishli tartibda tasdiqlandi. Bu esa mazkur sohada huquqni qo‘llash amaliyoti samaradorligi va natijadorligini oshirish, dasturda ko‘zda tutilgan chora-tadbirlarni o‘z vaqtida va to‘liq bajarilishini ta‘minlashga zamin yaratdi.

O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi e‘tiborini tizim xodimlarining hamda me‘yoriy-texnik hujjatlarni ishlab chiquvchi tashkilotlarning ekologik xizmatlari xodimlarining kasbiy malakalarini oshirish, ekologik tarbiya, ta‘lim tizimini rivojlantirish, ekologik bilimlarni targ‘ib qilish va aholi xabardorligini oshirish hamda jamoatchilikning ekologik bilimlarini yuksaltirish va uni atrof-muhit muhofazasi jarayoniga jalb qilish borasida olib borilayotgan ishlarni yanada jonlantirish zarur.

Shu bilan birga Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalari, qo‘mitalarning nazorat-tahlil sohasidagi faoliyatida atrof-muhitni muhofaza qilish masalalariga alohida e‘tibor qaratilishi, bu sohadagi me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish va ularni qo‘llash amaliyotini yaxshilash borasida qo‘shimcha chora-tadbirlar belgilanadi.

5. Qishloq xo‘jaligini bosqichma-bosqich isloh qilish va uning huquqiy asosi.

«Mamlakat iqtisodiyotini erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish haqida gapirganimizda iqtisodiyotimizning asosiy negizini tashkil etuvchi soha-qishloq xo‘jaligidagi ishlarning ahvoli bizning diqqat markazimizda turmog‘i lozim»¹ - deb ta‘kidlaydi, yurtboshimiz I. Karimov.

Agrar soha respublika iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlaridan bir bo‘lib qolmoqda va O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotining asosiy qismini yaratuvchi tarmoqlarning faoliyati mazkur sohaga bog‘liqdir. Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilgan tarkibiy o‘zgarishlar ishlab chiqarishni xususiy sektorda ishlab chiqarilishiga olib keldi.

Mamlakatimizda qaror topgan mustaqillik birinchi navbatda, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda ustuvor yo‘nalishlarni belgilab olishni talab etdi. Chunki mustaqillikgacha bo‘lgan davrda mamlakat iqtisodiyoti masalasi, uning yutug‘i va kamchiligi, umuman taqdiri Markaziy hokimiyat qo‘lida edi. Respublika mustaqil ravishda o‘zi tanlagan holatda iqtisodiy islohotlar o‘tkaza olmagan. Konstitutsiyada belgilangan demokratiya, erkinlik amalda qo‘llanilmagan. Qishloq aholisi faqatgina mahsulotni belgilangan vaqtda va belgilangan miqdorda yetishtirib berishi talab qilingan. Birgina mamlakatning asosiy boyligi bo‘lgan paxta yetishtirish yiliga 6 mln. tonna qilib belgilangan. Buni esa O‘zbekiston sharoitida yetishtirish mumkin bo‘lmagan. Chunki yerlarning mileorativ holati va suv tanqisligi mavjud bo‘lgan joylarda hosildorlik juda past yoki umuman bo‘lmagan. Mustaqil O‘zbekistonning hozirgi sharoitida ham 4 mln. tonnadan ortiqroq paxta yetishtirish mumkin xolos.

1991 yilda erishilgan mustaqillik halqimiz orzu - umidlarini ro‘yobga chiqardi. Mamlakat o‘z fuqarosiga ega bo‘ldi. Davlat boshqaruv apparati organlari, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari shakllandi. Armiya, militsiya, prokuratura va boshqa hokimlikar mustaqil O‘zbekiston bag‘rida o‘z halqi uchun faoliyat ko‘rsata boshladi. Mustaqillikka erishilgan dastlabki kunlardan oq O‘zbekiston o‘z yo‘lini tanlab olishi kerak edi. O‘zbekiston bozor munosabatlariga asoslanadigan

¹ Karimov I.A. «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz» T. «O‘zbekiston» 2000y. 57-bet.

huquqiy davlat qurish yo'lini tanladi. Tarraqqiyotning besh tamoyili Respublika Prezidenti tomonidan e'lon qilindi va hayotga joriy etildi. O'zbekiston davlati siyosiy, iqtisodiy- ijtimoy va ma'naviy-madaniy sohalarida islohotlar amalga oshira boshladi.

Ana-mana deguncha bugun mustaqil O'zbekiston davlati 15 yoshga to'lmoqda. Bu tarixiy qisqa davr mobaynida mamlakatda misli ko'rilmagan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Kechagi O'zbekiston bugungi O'zbekistondan yer bilan osmoncha farq qiladi. Mamlakatimizda soat sayin o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. O'zbekiston davlati borgan sari dunyoga o'zini ko'z-ko'z qilmoqda. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi sohasida tub o'zgarishlarning borishi eng dolzarb va zarur edi. Zero, avval iqtisod keyin siyosat tamoyiliga asosan, oddiy aytganda, halqning qorni to'q bo'lmasa ish ham samarali bo'lmaydi. Shuning uchun ham xalqning oziq-ovqat manbai bo'lgan, mamlakat iqtisodiyotining negizi bo'lgan qishloq xo'jaligini tubdan isloh qilish zaruriy chora-tadbir edi.

Respublikaning umumiy yer fondi 44797,7 ming ga, barcha qishloq xo'jalik yerlari 27987 ming ga, shundan sug'orishga yaroqli yerlar 5 mln. ga, sug'oriladigan yerlar maydoni 4238,6 ming ga, qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning umumiy maydoni salkam 32 mln. ga, ekiladigan yerlar 4090,2 ming ga, haydalma yerlar 4474,5 ming ga.

Respublika yer fondining asosiy qismi (62% ga yaqini) qishloq xo'jalik yer turlari toifalariga mansub, qolgan qismi fuqarolar yerlari-tomorqa (1%), o'rmon va to'qayzorlar (3,2%) va qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan yerlardan (34,2 %) iborat. Sug'oriladigan yerlar jami yer resurslarining 9,2 % ni tashkil etishiga qaramay Respublika qishloq xo'jaligida yetishtiriladigan yalpi mahsulotning 98,5 % shu yerlarda yetishtiriladi.

O'zbekistonda 20 asrda sug'oriladigan yerlar maydoni sezilarli ko'paydi (1914 yilda 1809,5 ming ga; 1994 yilda 4238,6 ming ga). Keyingi o'n yilliklarda irrigatsiya-melioratsiya ishlariga katta e'tibor berildi. Respublika aholisi sonining o'sish sur'atlari sug'oriladigan yerlarni kengaytirish sur'atlaridan o'sib ketish natijasida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'oriladigan haydalma yer maydoni yildan-yilga kamayib bordi. Yerlardan okilona foydalanish, ularni muhofaza qilish, tuproq unumdorligini tiklash, tabiiy muhitni asrash va yaxshilash, xo'jalik yuritishning hamma shakllarini teng huquqlar asosida rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish maqsadida respublikada yer munosabatlari O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi (1998 yil aprel; 1998 yilning 1 iyulidan amalga kiritilgan) bilan tartibga solinadi.

Mustakillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab hukumatimiz, shaxsan Prezidentimiz rahnamoligida qishloq xo'jaligini isloh qilishga qaratilgan ko'plab tadbirlar amalga oshirilmoqda. Qishloq xo'jaligida olib borilayotgan muhim iqtisodiy islohotlar allaqachon ijobiy natijalar bermoqda, ya'ni ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari bozor tamoyillari asosida shakllanmoqda. Xususiyl mulk, mulk egasi, mulkdorlar sinfi kabi iboralar hayotimizda kundalik ishlatiladigan va o'zining tub ma'nosi bilan yangi jamiyatni ifodalovchi iboralarga aylanib bormoqda. Xo'jalik yuritishning, yerga egalik qilish va undan foydalanishning yangi shakllari mujassamlanishi, boshqarish tizimining bozor munosabatlariga moslashib borishi, ekinlar strukturasi bozor talabiga karab takomillashtirilishi, mahsulot yetishtiruvchilar va ularga xizmat ko'rsatuvchilar hamda muhsulot sotib oluvchilar o'rtasidagi munosabatlarning shartnoma asosida olib borilishi, mamlakat qishloq xo'jaligidagi barqarorlikni ta'minlovchi asoslar bo'lib xizmat qilmoqda. Shuning bilan bir qatorda, qishloq xo'jaligining bundan keyingi rivojlanishi ishlab chiqarish munosabatlarini yangi bosqichga ko'tarishni talab qiladi. O'zbekiston hududi qishloq xo'jaligi jihatdan 3 mintaqaga bo'linadi:¹ tog' va tog' oldi mintaqasi, Respublika hududining 20% dan ko'prog'ini tashkil etadi. Asosan, lalmikor dehqonchilik (bug'doy, arpa, no'xat, zig'ir), bog'dorchilik va tokchilik tarqqiy

¹ «O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti» T. "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" 1998y. 105-bet.

etgan, bu mintaqada mavsumiy bahorgi – ko'zgi yaylovlar bor, chorvachidigi go'sht – jun yetishtirishga ixtisoslashgan. Sug'orma dehqonchilik mintaqasi, Respublika hududining 20%ni tashkil etadi. Farg'ona vodiysi, Mirzacho'l, Dalvarzin cho'li, Chirchiq - Ohangaron, Zarafshon, Qashqadaryo va Surxon – Sherobod vodiylari, Quyi Amudaryoni o'z ichiga oaldi. Asosan, paxta, shuningdek kanop, don (bug'doy, makkajo'xori, sholi), kartoshka, sabzavot-poliz ekinlari (qovun, tarvuz, qovoq), yem-hashak ekinlari (beda, sudano't, perko va boshqa) yetishtiriladi. Bog' va tokzorlar, tutzorlar, rezavor meva maydonlari bor, go'sht-sut chorvachiligi rivojlangan. Cho'l-yaylov mintaqasi, Respublika hududining 60% ni tashkil etadi. Asosan cho'l va suvsiz tekisliklardan iborat. Buxoro, Qashqadaryo viloyatlari, Qoraqalpog'istonda va Farg'ona vodiysining markaziy qismida joylashgan.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimovning 2003 yil 24 martda qabul qilingan «Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida»gi Farmoni qishloq xo'jaligida hozirgacha olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarga yakun yasash bilan bir qatorda, sohaning bundan keyingi rivojlanishining yo'nalishini belgilab berdi. Farmonda keltirilgan tovar mahsuloti ishlab chiqaruvchilarning qishloq xo'jalik ekinlarini mustaqil ravishda joylashtirish va mahsulot yetishtirish hajmini pastdan, mintaqalarning ixtisoslashganligiga qarab kontraktatsiya shartnomalari asosida belgilashini, shuningdek, dehqonlarga yetishtirgan mahsulotini, tegishli mol-mulkini, moliyaviy va moddiy resurslarini o'z xohishiga ko'ra tasarruf etish huquqi berilishi, mamlakatimizda bosqichma-bosqich demokratik tamoyillarni joriy qilib borilishining navbatdagi bosqichi bo'lmoqda. Tovar mahsulot ishlab chiqaruvchilarga erkinliklar berilishi, ulardagi mehnat va mahsulot yetishtirishga bo'lgan munosabatlarni mutlaqo o'zgartirib yubormoqda. Ular endi ishni ko'proq ishonch bilan tashkil qilmoqdalar.

Farmonda huquqiy masalalar, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan bog'lik barcha sub'ektlarning huquq va majburiyatlari bosh mezon qilib olingan. Bu bejiz emas, chunki qishloqda ishlab chikarish munosabatlarini takomillashtirar ekanmiz, buni huquqiy masalalardan boshlashimiz kerak. Qolaversa, iqtisodiy islohotning o'tgan davrdagi asosiy qiyinchiliklari va uning ba'zi joylarda oqsashiga – qishloq xo'jaligi xodimlarining va ularga xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning huquqiy bilimlari yetishmasligi sabab bo'lmoqda.

Farmonda qishloq xo'jaligini boshqarishni takomillashtirishga alohida e'tibor berilgan. Respublikamizda iqtisodiy islohotlarning bir necha bosqichlari o'tganligiga qaramasdan, hanuzgacha ma'muriy-buyruqbozlik uslubidan to'liq voz kecholganimiz yo'q. Farmongacha, qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tizimida respublika, viloyat va tumanlar miqyosida ish yuritishda bir – birini takrorlash, xo'jaliklar va fermerlarning ichki ishlariga aralshish hamda moddiy resurslarni markazlashtirilgan ravishda taqsimlash davom etib kelmoqda. Shuningdek, shirkat xo'jaliklarida rahbar kadrlarning qo'nimsizligi va shirkat rahbarlarining tez-tez almashtirib turilishi, xo'jalikning ishlab chiqarish va moliyaviy natijalarga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini alohida ta'kidlab o'tish kerak. 1998 yil 18 martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «1998-2000 yillardagi davrda qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturi to'g'risida»gi Farmoni - agrar sohada iqtisodiy islohotlar jarayonini chqurlashtirishni ta'minlash, qishloq xo'jalik kooperativlari(shirkat)larni shakllantirish, mulkiy paylar va oilaviy pudrat tizimini joriy etish asosida qishloqda haqiqiy mulkdorlar sinfini shakllantrish, tuproq unumdorligini oshirish, yerdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish, seleksiya va urug'chilikni yaxshilash, raqobatbardosh qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish maqsadida ushbu dastur qabul qilingan.

Qishloq xo'jaligini isloh qilishni chuqurlashtirishning ustuvor vazifalari mamlakat hayoti va iqtisodiyotida agrar sohaning tutgan o'rni, respublikaning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash, shu bilan birga xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirib borish va rivojlantirishning muhim ahamiyatga ega ekanligidan kelib chiqmoqda.

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish Dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining X sessiyasidagi ma'ruzasida qayd qilingan, qishloqda bozor munosabatlarini joriy qilish muammolarini yechishda mutlaqo yangicha yondashuv bo'lishi kerakligiga asoslangan.

Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning naqadar muhim ligi quyidagilar bilan belgilanadi:

Iqtisodiy masala – agrar sohada mamlakat yalpi ichki mahsulotining chorak qismi yaratiladi, agrar soha bilan ishlab chiqarish va intellektual salohiyatning yarmidan ortig'iga bevosita aloqador va shu qatori qishloq xo'jaligi mahsuloti mamlakat eksport salohiyatida asosiy o'rinni egallaydi;

Ijtimoiy masalada – qishloq xo'jaligini rivojlantirishning samaradorligi bilan faqat qishloq joylarida yashaydigan 60% aholining turmush darajasigagina bog'liq bo'lmay, balki butun mamlakat aholisining farovonligiga bog'liqdir;

Siyosiy masalada – qishloq xo'jaligini isloh qilishning borishi va samaradorligi bilan jamiyat yangilanishining hamma jarayonlari amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning natijalari, o'zgarishi va jamiyatda demokratik asoslarning rivojlanishiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligining rivojlanishi ko'p jihatdan ilm-fan yutuqlari va ilg'or tajribalarni joriy qilishga bog'liq. Shuni hisobga olib, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi qoshida qishloq xo'jaligining barcha sohalarini qamrab oluvchi va o'z tarkibida tajribali mutaxassislar hamda olimlarni biriktiruvchi oltita yo'nalishda maxsus Kengashlarning to'zilishi va Kengash raislari vazirlikning xay'at a'zolari bo'lishi hamda vazirlikning tegishli boshqarmalari va bo'linmalari Kengashning ishchi organlari vazifasini bajarishi sohani boshqarishni mutlaqo yangicha demokratik shakliga aylanmoqda. Bu o'z navbatida qishloq xo'jaligini boshqarishga keng miqyosda tajribali mutaxassislar va olimlarni jalb qilish imkoniyatini yaratib berayapti.

Ma'lumki, Prezidentimiz xo'jalik yuritish shakllaridan fermerlikni rivojlantirishga katta e'tibor berib, fermerlar muammolarini hal qilish hamda ularga yordam berish to'g'risida ko'pdan beri g'amxo'rlik qilib kelmoqda. Bunga misol qilib fermerlar huquqlarini kengaytirish, fermerlar haqidagi qonunlarga qator o'zgartirishlar kiritilishi, shu jumladan, ularga yerlarni uzoq muddatga ijaraga berish va ijara muddatida meros qilib qoldirish huquqining berilishi va bu yerlarni shirkatlar yer balansidan chiqarilishi, xizmat ko'rsatuvchi va tayyorlov hamda qayta ishlash korxonalarini bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzish huquqining, resurslardan foydalanish va yollanma ishchilar olib ishlatish huquqining berilishi kabilarni keltirish mumkin.

«Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi, «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi qonunlar qabul qilingandan sung o'tgan qisqa davrda dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish sohasida ijobiy o'zgarishlarga erishildi. Qishloqda haqiqiy mulkdorlar sinfiga asos solindi, dehqonning yerga, mulkka va o'zi ishlab chiqarayotgan mahsulotga egalik hissi paydo bo'ldi. Respublikamiz aholisining oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda dehqon va fermer xo'jaliklarining o'rni va rolini yanada oshirish masalalariga katta e'tibor berildi. Shuningdek, dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirishga qaratilgan qonunlar, hukumat qarorlari va boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlar bilan ularga bir qator imtiyozlar yaratildi.

Respublika qishloq xo'jaligida mulkchilik shakllariga ko'ra kooperativ (jamoat xo'jaliklari, xo'jaliklararo korxonalar, shirkatlar uyushmalari, davlat xo'jaliklari negizida tashkil etilgan xo'jaliklar, jamoat mulkiga aylantirilgan fermalar va boshqalar), davlat (davlat xo'jaliklari, naslchilik zavodlari, o'quv tajriba hamda tajriba xo'jaliklari), xususiy (dehqon va fermer xo'jaliklari, xususiylashtirilgan korxonalar), aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari (shaxsiy ehtiyojlar uchun ayrim qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish) sektorlari mavjud.

Respublikada qishloq xo'jalik mahsulotining 99% foizi iqtisodiyotning nodavlat sektorida ishlab chiqarilmoqda.

Mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligini isloh qilish va mustahkamlash chora-tadbirlari amalga oshirildi. Uning asosiy mazmuni quyidagilardan iborat:

Qishloqda agrar va iqtisodiy munosabatlarni isloh qilishning huquqiy asoslari yaratildi. Mustaqillikning birinchi yillarida qabul qilingan «Yer to'g'risida»gi, «Kooperatsiya to'g'risida»gi, «Ijara to'g'risida»gi, «Dehqon xo'jaliklari to'g'risida»gi Qonunlar va qishloq xo'jaligini isloh qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Hukumat qarorlari qishloqda yangi huquqiy munosabatlarni vujudga keltirishga imkon berdi, natijada ko'p ukladli iqtisodiyot shakllanishiga, fermer va dehqon xo'jaliklari rivojlanishiga sharoit yaratildi.

Qishloqda yangicha xo'jalik yuritish mexanizmining, qishloq xo'jaligini moliyalashtirish, kreditlash va sug'urta qilishning yangi tizimining, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulot va qishloqqa keltiriladigan texnika, yoqilg'i va mineral o'g'itlar uchun bo'ladigan o'zaro hisob-kitobning asoslari ishlab chiqildi va tadbiiq etildi. Qishloq xo'jalik korxonalarining iqtisodiy mustaqilligi kengaydi.

Amalga oshirilgan chora – tadbirlar natijasida 1997 yil jami Qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotlar hajmining 98,4 foizi nodavlat sektoriga to'g'ri keldi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin mamlakat qishloq xo'jaligida chuqur islohotlarni amalga oshirish davri boshlandi. Respublika hukumati mamlakat iqtisodiyotining eng muhim tarmog'i bo'lgan qishloq xo'jaligida bozor munosabatlarini shakllantirish, mulkchilik nodavlat shakliga o'tish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, dehqon (fermer) xo'jaliklari faoliyatini yo'lga qo'yish kabi masalalarni hal etishga e'tibor bermoqda. Respublika Parlamenti qishloq xo'jaligida tub burilishlarning huquqiy asoslarini yaratadigan qonunlarni qabul qildi. Jumladan, "Yer to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to'g'risida", "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida", "Ijara to'g'risida", "Dehqon xo'jaligi to'g'risida", "Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari to'g'risida", "Er solig'i to'g'risida", "Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida", 1998 yil aprel oyida Oliy Majlisning XI sessiyasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Yer Kodeksi, "Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida", "Dehqon xo'jaligi to'g'risida", "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi qonunlari hamda hukumat qarorlari qishloq xo'jaligida ko'p ukladli iqtisodiyot poydevorini yaratishga yo'l ochdi. Birinchi navbatda paxta yakka hokimligini bartaraf etish va ekin maydonlari tarkibini ilmiy asosda to'zish tadbirlari ko'rildi. Yangi iqtisodiy sharoitlarda O'zbekistonning eng muhim oziq-ovqat resurslari bilan o'zini-o'zi ta'minlashga erishish vazifasi qo'yildi. Respublika g'alla mustaqilligini ta'minlash yo'lida katta dastur ishlab chiqildi va bosqichma-bosqich amalga oshirila boshladi. Paxta maydonlari qisqartirildi, tarkibiy to'zilishi o'zgartirilib, g'alla maydonlarining ulushi 40-45 % ga yetkazildi va 5 mln. ton. G'alla tayyorlandi, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash ishlari davom ettirilmoqda. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda dehqonlarning shaxsiy tomorqa xo'jaliklariga 500 ming ga dan ko'proq hosildor yer ajratib berildi, uning umumiy maydoni 750 ming gektarga yetkazildi. Qishloq xo'jaligi sohasidagi zarar ko'rib ishlayotgan davlat xo'jaliklari, iqtisodiy jixatdan o'zini oqlamagan xo'jaliklar xo'jalik yuritishning shirkatlar, ijarachilar uyushmalari, xususiylashtirilgan fermalar kabi iqtisodiy samarasi ko'proq shakllarga o'tkazildi, jamoa xo'jaliklari rivojiga sharoit yaratildi. Bankrotlik yoqasida turgan korxonalar uchun sanatsiya choralari ko'rildi. Davlat xo'jaliklari mulkchilikning boshqa shakllariga aylantirildi, ularning negizida jamoa xo'jaligi, shirkat xo'jaligi, ijarachilar uyushmasi tashkil etildi, katta maydonlardagi bog' va tokzorlar xususiylashtirildi. Mahsuldorligi past davlat va jamoa xo'jaliklarining norentabel qoramolchilik fermalari mehnat jamoalari mulki qilib berildi.

Mustaqil O'zbekiston davlati bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyat qurish yo'lidan olg'a odimlamoqda.

Mamlakatimizda qaror topgan mustaqillik birinchi navbatda, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda ustuvor yo'nalishlarni belgilab olishni talab etdi.

«Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichida yangi bozor munosabatlarini faol shakllantirish, mulkni davlat tassarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarini amalga oshirish, tashqi savdoni erkinlashtirish hamda tashqi iqtisodiy

aloqalarni rivojlantirish ob'ektiv suratda muassasalarning Yangi bo'g'inlarini tashkil etishni taqozo etadi», - deb ta'kidlaydi I.Karimov.¹

Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish iqtisodiy islohotlar yo'lining negizidir.

Islohotlarning birinchi bosqichida qishloqda fermerlar va dehqon xo'jaliklari paydo bo'ldi. Respublika 1997 yil oxirida 20 mingdan ortiq fermer xo'jaligi ishladi. Ularning deyarli yarmi chorvachilikka ixtisoslashgan.

Respublika Prezidentining 1994 yil 21 yanvardagi "Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, Respublika Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 24 martdagi "Chorvachilikda xususiylashtirishni davom ettirish va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash chora- tadbirlari to'g'risida" va boshqa qarorlari iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, bozor tamoyillarining erkin ishlashi uchun shart-sharoitlar yaratish, xo'jaliklarni nodavlat shakllariga aylantirish, mahsuldorligi past chorva fermalarini jamoaga mulk qilib berish yo'li bilan qishloq xo'jaligida islohotlarni yanada chuqurlashtirishga, dehqon va fermer xo'jaliklari ishini yo'lga qo'yishga keng imkoniyatlar ochib berdi. Chorva mollari zotini yaxshilash tadbirlari ishlab chikildi. Andijon, Sirdaryo, Toshkent viloyatlarida shirkat xo'jaliklari negizida qoramolchilik, naslchilik zavodlari, Andijon, Jizzax Namangan, Sirdaryo, Toshkent, Xorazm viloyatlari jamoa xo'jaliklarida naslchilik xo'jaliklari tashkil etildi. Respublikaning barcha viloyatlardagi ixtisoslashgan xo'jaliklarda zotli mollar yetishtiriladigan va sotiladigan tayanch punktlar ishi yo'lga ko'yildi. Kim oshdi savdosi orqali qoramollar xo'jaliklarga va aholiga sotildi.

Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 18 martdagi Farmoniga muvofiq Respublika komissiyasi to'zilgan edi. Bu komissiya 1998-2000 yillarga muljallangan qishloq xo'jaligidada iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish Dasturini ishlab chiqdi. Darhaqiqat qishloq xo'jaligida islohotlar chuqurlashmas ekan, iqtisodiyotning boshqa sohalarida ham bu masalani hal etish oson ko'chmaydi. Qishloqda islohotlarni amalga oshirish yo'zasidan bir qator tadbirlar belgilanmoqda. Farmonlar, Qarorlar qabul qilinib, qishloq xo'jaligini moddiy va moliyaviy, texnikaviy jihatlardan qo'llab-quvvatlash choralari ko'rilmoqda.

Islom Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sagasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida ta'kidlaganidek: "Hozirgi vaqtda aynan iqtisodiyotning agrar sektorida katta-katta zahiralalar mavjud. Ularni ishga solish yaqin vaqt ichidayoq sezilarli natijalar berishi mumkin. Butun iqtisodiy o'zgarishlarning yakuni, barqarorlik va halq farovonligi ko'p jihatdan tub o'zgarishlar jarayonlari agrar sektorni qanchalik keng qamrab olishiga, qishloqda islohotlar qanchalik chuqur borishiga bog'liq bo'ladi".¹

Demak mustaqillikning o'n beshinchi yilida qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirish, qishloqda turmushni yangi pog'onaga ko'tarish jiddiy qo'yilgan ekan, bu avvalo, hayot taqozosi, qolaversa, kun tartibiga qo'yiladigan har bir shior, vazifa real imkoniyatga tayanmog'i lozim. Bugun ana shunday imkoniyatlar yuzaga kelmoqda.

¹ I.Karimov. «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida». T. «O'zbekiston» 1995y. 72-bet.

¹ I.Karimov. "O'zbekiston XXI asr bo'sagasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" T. "O'zbekiston" 1997 yil. 78-bet.

Iqtisodiyotning izchil tarzda ko'tarilib borishi, milliy valyutaning barqarorligi va yanada mustahkam bo'layotganligi, jahon iqtisodiyoti jarayoniga chuqurroq kirib borish hamda dunyo ishbilarmon diralari bilan yanada mustahkam aloqalar o'rnatish, bularning barchasi taraqqiyotning ilmiy asoslangan strategiyasi hamda davlat tomonidan olib borilayotgan oqilona siyosat samarasidir. Hatti-harakatning aniq yo'naltirilgan dasturi, voqelik rivojini oldindan ko'ra bilish qobiliyati, mavjud muammolarni yechish borasida to'g'ri yulni topish – respublika rahbariyati faoliyatining xususiyati va o'ziga xos belgisidir.

Respublikamizda iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichi bosib o'tildi. Bu bosqichda halqimizning turmush tarzi, an'analari va urf-odatlarini har tomonlama hisobga olinib, O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lini aniq belgilab oldi. Respublikamizda bozor munosabatlariga o'tishning nazariy asoslari va mezonlari aniqlandi. Bu – iqtisodiyotning mafkuradan holi bo'lishi va uning siyosatdan ustuvorligi, davlatning bosh islohotchi sifatida tutgan muhim roli, iqtisodiy islohotlarni huquqiy jihatdan ta'minlash, halqni himoya qilishga qaratilgan kuchli ijtimoiy siyosat, bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tishning tegishli shart-sharoitlar yaratilganda amalga oshirish. Bular ijtimoiy tafakkur nazariyasi xazinasiga Prezidentimiz I.Karimovning besh tamoyili bo'lib kirdi. Yurtboshimiz bu tamoyillar haqida BMT ning mo'tabar minbaridan turib gapirdi, endilikda buni butun jahon biladi. Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, uning ilmiy – nazariy qoidalari va ilgari surgan besh tamoyili amalda o'z hayotiyligini to'la tasdiqlamoqda.

Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichi iqtisodiy tizimning huquqiy asoslarini yaratishga, davlatchilikni shakllantirish va mustahkamlash, kishilar ongidagi eskicha fikrlash tarzini bartaraf etishga qaratildi. Shu maqsadlar uchun bozor munosabatlari va demokratiya taraqqiyotini belglovchi Yangi Konstitutsiyaning yaratilishiga alohida ahamiyat berildi. Jahon tajribasi va respublikamizning o'ziga xos xususiyatlari chuqur o'rganilib, har tomonlama yetuk va mukammal Konstitutsiya yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning XII bobini «Jamiyatning iqtisodiy negizlari»ga bag'ishlangan moddalar tashkil etadi. Jumladan:

«Har bir shaxs mulkdor bo'lishga xaqlidir», yoki bo'lmasa, «Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarining huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muxofaza etilishini kafolatlaydi. Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi dahlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin», deb ta'kidlangan. Shunga asosan, mamlakatimizda davlat mulki, yerlar yangi shakllarda xususiylashib, o'z egalarini topmoqda.

Respublikamizda qabul qilingan qonunlar, farmon va qarorlar qishloq xo'jaligi sohasida mulkchilik shakllarini o'zgartirish, xo'jaliklarga ko'proq erkinlik berish dehqon (fermer) xo'jaliklarining tadbirkorlik faoliyatiga keng yo'l ochish masalasida muhim omil bo'lib, hayotimizda o'z samarasini berayapti.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida»gi 1994 yil 21 yanvardagi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining «Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi hamda «Chorvachilikda islohotlarni takomillashtirish hamda dehqon (fermer) xo'jaliklari va xususiylashtirilgan fermalar manfaatlarini himoya qilish to'g'risida»gi qarorlari va shu kabi huquqiy xujjatlar misol bo'la oladi.

«Qishloqda boshqaruv tuzilmalarini qayta tashkil etish jarayonida birlamchi qishloq xo'jalik bo'g'ini qanday bo'lishi kerakligi aniq ma'lum bo'ldi. Bu – fermer xo'jaliklarini birlashtiradigan va ularga xizmat qiladigan, yo'l-yo'riq ko'rsatadigan va moddiy-texnikaviy ta'minot, texnika, agrokimyo xizmati ko'rsatish masalalarida yordam beradigan kooperativ bo'lishi lozim. Fermer xo'jaliklari qishloq xo'jalik ishlab chikarishni tashkil etishning asosi sifatida faoliyat ko'rsatishi lozim».

Agar 1991 yilda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi butun hajmining 63 % i davlatga qarashli bo'lmagan sektor hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, hozirda deyarli 100% ga yetdi. (1997 yilda 98,4%ni tashkil etgan.)

Qonunlarning yetukligi va barqarorligi – bu iqtisodiy islohotlar yo'lidan muvaffaqiyatli olg'a borishning zarur shartidir.

Iqtisodiy qayta o'zgarishlar davrining boshlang'ich bosqichida O'zbekiston o'z strategiyasini va islohot kursini shakllantirish modelini ishlab chiqdi va uni amalda muvaffaqiyat bilan qo'llay boshladi. Bu nazariy ishlar Prezidentimizning «O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li», «O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li», «O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy yo'nalishlari», «O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari» risolalarida, shuningdek, «O'zbekiston: milliy istiqbol, iqtisod, siyosat, mafkura», «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin» risolalarida ilmiy jihatdan har tomonlama asoslab va ochib berildi.

Keng jamoatchilik e'tiborini o'ziga tortgan va e'tirof etilgan mazkur fundamental tadqiqotlar O'zbekistonda olib borilayotgan jarayonlarga chuqurroq kirib borish, respublikaning iqtisodiy-siyosiy kelajagini aniq-ravshan tasavvur etish va islohotlar evalyutsiyasini ko'zatish imkonini beradi.

«Erkin bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan demokratik jamiyot barpo etishdan iborat pirovard maqsad, - deb yozadi I.Karimov, - unga olib boruvchi har bir bosqichda o'z ifodasini topmog'i kerak».

Bu oddiy deklaratsiya emas, balki asta-sekin hayotga tadbiiq etilayotgan aniq dasturdir. Bu maqsad yo'lida qadam-baqadam ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish, kuchli hamda har tomonlama hisob-kitob qilingan ko'p ukladli iqtisodiy tizimni yaratish, shaxsiy mulkchilikning davlat muhofazasini ta'minlash, korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinliklar berish, iqtisodiy o'zgarishlar chuqur to'zilmasini amalga oshirish, kishilarda yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirishga qaratilgandir.

Hozirgi paytda O'zbekiston jamiyatni isloh qilishning sifat jihatdan yangi, ikkinchi bosqichiga kirdi. Ushbu bosqich bozor munosabatlariga o'tish tuzilmalarini shakllantirishni yakunlashi, iqtisodiy tizimni va davlat mustaqilligini yanada mustahkamlash, milliy valyuta aylanishining barqarorligini va uning ichki konvertatsiyasini ta'minlash bilan bogliqdir.

Bu bosqichda davlat mulkini xususiylashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni yakunlash, ishlab chiqarishning pasayishiga barham berish, milliy valyuta - so'mni mustahkamlash, iqtisodni xom - ashyo yetishtirib berishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirish ko'zda tutiladi. Shu bilan bir qatorda kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy muhofaza qilish siyosatini yanada kuchaytirishga alohida ahamiyat beriladi.

Yurtboshimizning bevosita rahbarligida qishloq xo'jaligida islohotlar bosqichma-bosqich, izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Respublikamiz Prezidentining 2003 yil 24 martdagi «Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida»gi Farmoni mamlakatimiz agrar sohasini iqtisodiy, tashkiliy rivojlantirishning Yangi bosqichini boshlab bergan tarixiy xujjat hisoblanadi.

Ushbu Farmonga asosan:

- qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritish, mulkchilikning ijara shakli va shartnomaviy munosabatlarga asoslangan xolda amalga oshirilishi;

- qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining manfaatlari iqtisodiy va huquqiy jihatdan himoya qilinishi;

- tayyorlov, qayta ishlash korxonalari, moddiy-texnika resurslari yetkazib beruvchilar, moliya-bank massasalari hamda boshqa xizmat ko'rsatish tashkilotlarining faoliyati Ushbu maqsadga buysundirilishi;

- xo'jalik yuritishning shirkat, fermer va dehqon xo'jaliklari shakllari saqlab qolinib, istiqbolda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish eng muhim ustuvor yo'nalish ekanligi belgilab qo'yildi.

Farmon talablaridan kelib chiqib, yer kodeksi, «Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida», «Fermer xo'jaligi to'g'risida» va «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi qonunlarga tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi.

Shuningdek Prezident Farmonida:

- fermer xo'jaliklari tomonidan yetishtiriladigan mahsulotlarga ketadigan harajatlar ularning ishlab chiqarishdan olgan daromadlari hisobidan qoplanishi;

- agar fermer ijaraga berilgan yer maydonidan maqsadsiz foydalansa yoki shartnomada belgilangan ekin turlarini ekmasa, unga nisbatan qat'iy jazo choralari, ya'ni yerlardan foydalanish huquqidan mahrum qilishgacha bo'lgan choralar ko'rilishi;

- endi fermer xo'jaligiga yerni o'zoq muddatli ijaraga berish bo'yicha tuman hokimining qarori bilan tasdiqlangandan keyin kuchga kirishi belgilab berildi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, fermer xo'jaliklarini past rentabelli, zarar ko'rib faoliyat ko'rsatayotgan shirkat xo'jaliklari negizida to'zish va bir vaqtning o'zida ularga xizmat ko'rsatuvchi bozor infrato'zilmasi ob'ektlarini ham tashkil etilishi fermerlikning rivojlanishida qulay imkoniyatlar yaratmoqda.

Qishloq xo'jaligida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar o'zining natijasini bermoqda. Dehqonning yerga, o'zi yetishtirgan mahsulotga egalik hissi shakllanmoqda.

Iqtisodiy islohotlarning huquqiy zamini qanchalik mustahkam bo'lsa, shuncha muvaffaqiyat bilan olg'a siljiydi.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish imkoniyatlari sanoatda, umumiy iqtisodiyotda mujassamlangan. Qishloq xo'jaligini jadal olg'a siljitish uchun juda katta miqdorda moliyaviy resurslar zarur. Bu qadar salmoqli mablaglar yoki mamlakat ichkarisida ishlab topilishi yoki xorijiy davlatlardan, halqaro moliyaviy tashkilotlardan qarz olish hisobiga amalga oshirilishi mumkin. Qaysi yo'lni tanlashni, mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib, usha davlatning o'zi hal qiladi. Deyarli barcha mamlakatlarda, hatto rivojlangan mamlakatlarda ham qishloq xo'jaligi norentabel hisoblanadi, shuning uchun ham davlatdan ko'mak oladi. Qishloq xo'jaligiga yordam ko'rsatish uchun, avvalo, umumiy iqtisodiyotda, sanoatda jiddiy o'zgarishlar, siljishlar yo'z berishi kerak edi.

Jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatdiki, sanoatsiz qishloq xo'jaligini rivojlantirib bo'lmaydi. Qishloq xo'jaligi barcha halq xo'jaligi majmui tarmoqlari, eng avvalo, sanoat bilan chambarchas bog'lik. U hozir sanoatdan boshlanib (ishlab chiqarish vositalari, ma'danli o'g'itlar ishlab chiqarish), sanoat bilan tugallanadi (yetishtirilgan xom-ashyo va mahsulotlarni qayta ishlash, tayyor mahsulotga aylantirish). Bu ikki tarmoq o'rtasidagi aloqa vertikal integratsiya yoki agrosanoat integratsiyasi jarayoni bo'lib, borgan sari chuqurlashib boraveradi. Go'sht, sut, sabzavot va boshqa mahsulotlar iste'molchi dasturxoniga tushishdan oldin sanoatda qayta ishlovdan o'tadi. Bu ob'ektiv jarayon.

Faqat rivojlangan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan jamiyatgina respublikaning davlat mustaqilligini va iqtisodiy qudratini ta'minlay oladi.

Nazorat va mulohazalar uchun savollar:

1. Tabiiy resurslar nima?
2. Tugaydigan va tugamaydigan tabiiy resurslarni tushuntirib bering?
3. Tiklanadigan va tiklanmaydigan tabiiy resurslarni farqlang?
4. Tabiatni muhofaza qilish aspektlarini tushuntiring?

3-Mavzu: Tabiiy resurslarni iqtisodiy baholash va barqaror boshqarish mexanizmlari(8-soat).

Reja:

1. Iqtisodiy islohatlar davrida, tabiiy resurslarni iqtisodiy baholash tushunchasi.
2. Iqtisodiy baholashning ko'rsatkichlari. Iqtisodiy baholashning tarmoq va xududiy yo'nalishlari.
3. Tabiiy resurslarni iqtisodiy baholashning, ilmiy-amaliy ahamiyati.

1. Iqtisodiy islohatlar davrida, tabiiy resurslarni iqtisodiy baholash tushunchasi.

Tabiat har bir boylik turi inson uchun juda qadrli bo'lish bilan birga u o'z qiymatiga ega. Lekin resurslarni qanday baholash kerak yoki go'zal tabiat manzaralarini-chi? Beqiyos boylik-zilol suv qanday qiymatga ega, u inson tomonidan ifloslangan va deyarli yaramas holga kelgan bo'lsachi, bunday vaziyatda u qanday qiymatga ega bo'ladi? Insonning tabiiy muhitga yetkazgan zarari qanday baholanadi? Orol dengizi sathining tushib ketishi natijasida vujudga kelgan ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarining bir yillik zarari qancha? Bular va ularga o'xshash tabiiy muhitning boshqa iqtisodiy sohalarini bilish lozim, Tabiiy resurslarning haqiqiy qiymatini bilish ularning isrof bo'lishi, sifatining buzilishi, yo'qolishi kabi nomatlub hodisalarning oldini olishda o'ta zarur.

Tabiiy muhitni muhofaza qilish va qulay ekologik vaziyatlarni barqarorlashtirish, resurslardan oqilona foydalanish tamoyiliga amal qilishda boyliklarni iqtisodiy baholash va tabiat xizmatlarining aniq qiymatiga ega bo'lishi beqiyos darajada katta ahamiyatga ega. Tabiiy

muhitning jamiyat uchun bir necha vazifalari mavjud: 1. Tabiiy resurslar bilan ta'minlash; 2. O'z-o'zini tozalash va qayta tiklash; 3. Inson uchun qulay tabiiy xizmatlarni bajarish chunonchi, rekreasiya (dam olish, sog'liqni tiklash va boshqalar); 4. Estetik zavq olish, tabiatdan muruvvat va saxiylikni o'rganish. Bularning barchasi birgina bosh vazifa, ya'ni insonga hayot bag'ishlash deb ta'riflash mumkin.

Afsuski, ijtimoiyizm davrida tabiiy boyliklarning haqiqiy bahosi aniqlanmadi, bu muammo to'g'risida ma'lum tadqiqot ishlari bajarilda (Mins, 1968, 1973 va boshqalar), lekin u mantiqiy poyoniga yetkazilmaganligi tufayli resurslarni real baholash masalasi yechilmay qolabardi. Bu muammo xorijiy mamlakatlarda ham to'lig'i bilan hal qilinmagan. Shuning uchun ijtimoiyizm davrida resurslar haqiqiy bahosiga ega bo'lmaganligi sababli ulardan foydalanishda isrofgarchilikka va sifatining buzilishiga yo'l qo'yildi, qashshoqlanish jarayoni rivojlandi. Natijada atrof muhitning ifloslanishi, resurslar haqiqiy bahosining tushib ketishi, iqtisodiy samaradorlikning nihoyatda pasayib borish jarayonlari kuchaydi.

Tabiiy boyliklar narxini bilish, avvalo loyihalarning muqobil variantlarini tanlash, iqtisodiy samaradorlikka erishish, tabiat muhofazasiga keng yo'l ochish, aholining ekologik jihatdan yashash sharoitlarini yaxshilash uchun katta imkoniyatlar ochdi. Baholash asosida kapital qurilishlarning variantlariga ta'sir e'tishi mumkin.

Chunonchi, sug'oriladigan dehqonchilik rivojlangan hududda biror muhandislik loyihasi amalga oshiriladigan bo'lsa, avvalo sug'orma yer bahosi va uning ekin ekilganda har yilgi keltiradigan iqtisodiy samarasi hisob-kitob qilingandan so'ng loyihani amalga oshirish uchun ruxsat beriladi yoki rad etiladi. U loyihani boshqa tashlandiq joyda ham amalga oshirish mumkin. Shuni hisobga olish zarurki, O'zbekistonda sug'orma yerlar barcha qishloq xo'jalik mahsulotlarining qiymat jihatdan 95 % ini yetkazib beradi. Darvoqye, sug'orma yerlar oltin fond, ularnie'zozlash kerak, har bir gektar yerdan samarali foydalangan holda ekinlar hosildorligini muttasil oshirib borish ayni muddao hisoblanadi.

Tekisliklarda ba'zan yirik suv omborlari loyihasi amalga oshiriladi. Bu bilan sug'oriladigan yoki sug'orishga yaroqli yerlarning katta maydoni suv ostida qoladi. Balki mazkur suv ombori boshqa joyda qurilsa samarali bo'lishi mumkin, yer dehqonchilikda foydalanilsa ancha daromad keltirishini har bir kishi yaxshi biladi, lekin buning uchun yerning bahosi aniqlangan bo'lishi kerak. Masalan, Chordara (Suv sig'imi 5,9 km kub) va Qayraqqum (suv sig'imi 4,5 km kub) suv omborlari hozirda loyqa bosishi natijasida ancha sayozlashib qolgan, lekin katta maydonlarni band qilib turibdi. Aydar botig'ini suv bosishi natijasida katta maydondagi yaylovlar suv ostida qolib ketdi, Jizzax viloyati Forish tumaniga qarashli yaylovlarning maydonini qisqarishi qorako'l qo'ylarini boqishni murakkab ahvolga solib qo'ydi.

Tabiiy resurslarni qazib olish, ularni qayta ishlash korxonalariga tashish va tayyor mahsulot chiqarish, jarayonlarida ko'plab qismi isrof bo'ladi, yo'qoladi, to'kiladi. Ochiq usulda qazib olinayotgan ko'mirning yo'qolishi 3-8 % dan 10-12 % gacha boradi, shaxta usulida qazib olingan ko'mirning yo'qolishi o'rtacha 20-40 %, qora va rangli metallar rudasining yo'qolishi o'rtacha 15-25 %, tog'-kimyo xomashyosiniki esa 20-60% ga boradi. Ushbu boyliklarning narxi ma'lum bo'lgan holda iqtisodiy hisob-kitob qilinganda katta iqtisodiy zarar keltirayotgani o'z-o'zidan ma'lum bo'ladi. Rossiyaning neft quvurlarida avariya natijasida har yili 15-20 mln t neft gruntga oqib tushadi. Jami isrof bo'lganneft miqdori narx jihatdan taxminan 2 mlrd dollarni tashkil qiladi. Yerga singib o'tgan neftning atrof-muhitga yetkazgan zarari esa bundan ham katta miqdorni tashkil qiladi. Binobarin iqtisodiy zarar va tabiatga yetkazilayotgan ziyon, miqdori qo'shib hisoblangan, holda ushbu mablag'ni neft quvurlarini o'z vaqtida ta'mirlashga va nazorat ishini yaxshilashga sarf qilinsa davlat ham, tabiat ham shunchalik zarar ko'rmas edi.

Tabiiy resurslar mamlakatning milliy boyligi hisoblanadi. Lekin buning uchun ular to'liq baholangan bo'lishi lozim, ya'ni qiymatga ega bo'lishi kerak. O'zbekistonda faqat mineral-

xomashyo boyliklari hisob-kitob qilingan bo'lib, ularning potentsiali 3,3 trln. AQSh dollaridan ortiqroq baholanmoqda. Shundan 1 trln dollari neftga va gazga to'g'ri keladi.

Holbuki tabiiy boyliklarni baholash mamlakatning milliy boyliklarini sarhisob qilish bo'lib, uning tabiiy potentsialini aks ettiradi. Bu potentsial ijtimoiy ishlab chiqarish boyliklari bilan birga mamlakatda kelajakda rivvojlanish istiqbollarini aniqlab beradi. Lekin tabiiy boyliklarni tarmoqlar bo'yicha potentsial imkoniyatlari qotib qolgan bahoga ega bo'lmay doimo o'zgarib turadi. Gap shundaki, masalan, geologlar ko'pincha tez-tez yangi mineral xomashyo konlarini topib turadilar va ularni zahiralarni oldingi xomashyoga qo'shib boradilar, binobarin, u yoki bu mineral xomashyo zahirasi doimo ortib borish yo'nalishda bo'ladi. Yoki boshqa tabiiy boyliklar (yaylov, o'rmon) antropogen degradasiya natijasida miqdor sifat jihatidan o'zgarib boradi, bunday vaziyatda tegishli o'zgarishlar kiritishga to'g'ri keladi.

2. Iqtisodiy baholashning ko'rsatkichlari. Iqtisodiy baholashning tarmoq va xududiy yo'nalishlari.

Iqtisodchilar tabiiy resurslar va tabiiy muhit, ularning ekologik vazifalarini baholashga harakat qiladilar. Aslida tabiat va uning resurslarini, tabiat ko'rkamligini aniq baholash oson emas, ularni to'liq, ya'ni barcha xususiyatlarini e'tiborga olgan holda bozor narxini qo'yishga iloj yo'q. Go'zal tog' manzarasini qanday qilib baholash mumkin? Yoki tog' vodiysidagi so'lim joylar, sharsharalar, ko'llar, bahor tarovatini baholash uchun qanaqa narx qo'yish mumkin? Bunday tabiat obyektlarining baholash mezonlari hozirgacha ishlab chiqilmagan. Lekin, umuman olganda boyliklarni baholashda talay tajriba mavjud, ular asosida juda aniq bo'lmasada taxminiy qiymatlarni ishlab chiqish mumkin.

E.V.Girusovning fikricha, tabiiy resurslar va tabiat xizmatlarini iqtisodiy jihatdan baholashni aniqlash uchun mavjud yondashuvlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: bozor bahosi, renta, tabaqalashgan rent, sarflash, muqobil qiymat, umumiy iqtisodiy baholash (qiymat).

Bozorning muhim xususiyatlaridan biri resurslarni xo'jalikda samarali ishlatishni ta'minlashga imkon beradi, chunki boyliklarning taqchilligi to'g'risida oldindan narx xabarini beradi. Neft, tabiiy gaz, o'rmon va boshqa tabiiy resurslarni bozor narxi va ularning tez-tez o'zgarib turishi boyliklardan samaralifoydalanishniboshqarish uchun imkon tug'diradi. Aslida yoqilg'i turlari narxining oshib ketishi avvalo ulardan reja asosida ishlash, eng muhim samarali ishlashni ta'minlaydi, chunki jahon bozorida neft mahsulotlari narxining ko'tarilishi transport harakatining biroz bo'lsada kamayishiga ta'sir e'tadi, bu bilan atrof-muhitning ifloslanish jarayonida ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ladi, ya'ni havoga kamroq uglerod va boshqa chiqindilar chiqariladi. Biroq resurslarning qashshoqlanishi va atrof-muhitning ifloslanishi bozor mexanizmining tez-tez o'zgarishiga ta'sir e'tadi. Bunday vaziyatda bozor narxlari ko'pincha buzilgan holatni aks ettiradi, real sarf-xarajatlarni aniq ifodalamaydi, natijada talab va taklif ko'rsatkichlari resurslar taqchilligini to'g'ri hisobga olmaydi. Bunday vaziyatda resurslardan samarali foydalanish uchun rag'batlantirish past bo'ladi.

Shunday qilib, bozor yondashuvi tabiat muhofazasining faqat bir vazifasini, ya'ni tabiiy resurslar bilan ta'minlanishini baholashga imkon beradi qolgan vazifalari-o'z-o'zini tozalash va insonga tabiiy xizmatlar ko'rsatish bozort tizimida aks etmaydi.

Tabiiy resurslarni baholashda renta (nemischa-qaytarib berilgan) asosida yondashuv yaxshi natijalar beradi. Renta yondashuvi resurslarning cheklangan va noyob turlariga xos (masalan yer, sitrus mevalar, ba'zi sanoat ishlab chiqarish tarmoqlari va boshqalar). Iqtisodiy renta odatda cheklangan tabiiy resurslardan foydalangandagi (yoki ijara) haqi –baho tushiniladi. Bu vaziyatda passiv taklif negizida talab rentani aniqlovchi yagona ta'sir etuvchi omil sifatida oldinga chiqadi. Ko'pincha resurs egasining undan foydalangandan oladigan renta daromadi to'g'risidagi ma'noda ham qo'llash mumkin.

Yer resurslarini baholashda renta yondashuvi ko'proq samara beradi. E.V.Girusovning fikricha yer bahosini (R) quyidagi formula asosida aniqlash mumkin: $RqR:r$, bunda R-yillik renta kattaligi, r-koeffitsiyent.

Faraz qilinishicha renta ma'lum bo'lmagan muddatga olindi deylik, koeffitsiyent kam birlik sifatida olindi, uning kattaligi bank (ssuda) foizi bilan ko'pincha bog'lanadi. Masalan, agarda har yilgi yer uchastkasining rentasi 10 ming so'm bo'lsa, ssuda (qarz) foizi 10% ga teng deb olinsa, u holda uchastka narxi 100 ming so'mga teng bo'ladi. Bu holda yer resursi bahosi bankka qo'yilgan kapital mablag' o'lchamiga ko'pincha to'g'ri keladi, bu baho renta kattaligiga to'g'ri keladigan har yilgi daromad miqdoriga barobar bo'ladi.

Tabiiy resurslarni turli sifatga ega bo'lishi tabaqalashgan renta yondashuvini qo'llashga imkon beradi. Yuqori sifatli tabiiy boyliklar (mahsuldorligi yuqori bo'lgan yer, sho'rланmagan tuproq, ruda miqdori ko'p bo'lgan tog' jinsi va boshqalar) boshqa sharoitlar bir xil bo'lgan vaziyatda (zamonaviy jihoz va uskunalar, samarali texnologiya, malakali mutaxassislar va boshqalar)qashshoq yoki samarasi kamroq bo'lgan resurslarga nisbatan iqtisodiy natijalari yuqori bo'lgan ko'rsatkichga erishishga imkon beradi. Sho'rланgan tuproqlarda olinayotgan paxta, poliz, sholi ekinlari hosildorligi eng kamligi (pata hosildorligi 5-12 s, sholi 10-15 s), sho'rланmagan tuproqlarda esa eng ko'pligi (paxta o'rtacha gektariga 30-40 s, sholi 50-70 s) bilan tavsiflangan holda tabaqalashgan renta narxi ham yuqriligi bilan farqlanadi.

Xuddi shunday samara resurslarining joylashuvi va transport omilida ifodalanadi. Masalan, yirik shahar yaqinida joylashgan qishloq xo'jalik yerlari va tegishli transport turlarining mavjudligi ularni yuqori darajada bahoga egaligidag dalolat beradi. Bunda yerlarning mahsuldorligi kam bo'lgan taqdirda ham renta narxi juda yuqori bo'ladi. Shahar atrofiga qatnovchi transport turlari dehqonchilik mahsulotlarini qisqa muddatda shahar dehqon bozoriga eltadi va tadbirkor ko'p miqdorda arzon transport hisobiga mahsulotlarini tashib, aholiga sotishga ulguradi va yuqori daromad oladi. Yer egasi buning hisobiga tabaqalashgan renta yondashuvi asosida katta mablag'ga ega bo'ladi. Shaharlardan olisda joylashgan qishloq xo'jaligi jamoalari yerlarining ancha mahsuldorligiga qaramay uzoq masofa va transport murakkabliklari hamda mahsulotlarning sifati buzilishini e'tiborga olib shaharlarga kamroq tovar-mahsulot olib keladi, bunday vaziyatda tovar-mahsulot qiymati ancha yuqoriligi bilan tavsiflanadi, uni o'z vaqtida sotish qiyinlashadi, binobarin narx pasayib boradi, natijada daromad ham kamligi bilanajralib turadi.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, tabaqalashgan renta asosi va uning o'lchamlarini tabiiy boyliklar sifati va joylashuvida farqlar tashkil qiladi.

Tabiiy resurslarni baholashda **sarflash (xarjlash)** yondashuvi ham foydalaniladi. Tabiiy boyliklarni tayyorlash va foydalanish uchun sarf-xarajatlarni jamlash bilan hosil bo'lgan qiymatning resursni baholash uchun boshlang'ich nuqta deb qarash mumkin. Bu yondashuv tabiiy boyliklarning kamayishi, buzilishi va sifatini yo'qotishida qayta tiklash qiymatini baholashdan foydalaniladi. Bu holda ma'lum joyda tabiiy resursning yo'qolishi yoki buzilishini tiklovchi tadbirlarga qilingan sarf-harajatlar hisob-kitob qilinib, ma'lum baho aniqlanadi. Masalan, neft yoki tabiiy gaz quduqlari burg'ulanganda katta maydonda tuproq qatlami buziladi, relyef o'ydin- chuqurlashadi, yaylov ishdan chiqadi va b. Bunday vaziyatda burg'ulash ishlari tugagandan so'ng geologik tashkilot tabiiy resurslarga yetkazilgan barcha zararni yo'qotib, avvalgi tabiiy holatga keltirish uchun texnik va biologik rekultivasiya tadbirlari o'tkazib, resurslardan foydalanuvchilarga rasmiy ravishda topshirish shart. Bu tadbirlar majmua holda iqtisodiy jihatdan hisob-kitob qilinib, qayta tiklash sifati aniqlanadi.

Sarflash yondashuvi qanchalik sodda va keng foydalanishi bilan birga o'zida qarama-qarshiliklarga ega. Agar tabiiy resurs yuqori darajada sifatga ega bo'lsa, u holda sarf-xarajat tamoyiliga muvofiq kamroq bahoga ega bo'ladi. Masalan, kuchli bosim bilan otilib chiqadigan neft quvurlarga to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilib, rezervuar yoki neftni qayta ishlaydigankorxonalariga yuboriladi. Katta bosim hatto kompressor stansiyalarini qurishni talab etmaydi. Ko'pincha neft quduqdan maxsus nasoslar yordamida tortib olinadi, bunga nasos va elektr energiya, quvurlarda neftni bosim ta'sirida harakat qilish uchun kompressor stansiyalari qurilishi zarur bo'ladi. Binobarin

neftni quduqdan tortib olish va kerakli korxonaga yetkazib berish uchun transport xarajatlari zarur. Bunday vaziyatda mantiqqa to'g'ri kelmaydigan holat yuz beradi, ya'ni resursning sifati qanchalik yuqori bo'lsa, undan foydalanish shuncha kam xarajatlar talab qiladi va shunga mos ravishda kam iqtisodiy bahoga ega bo'ladi va aksincha. Shunga muvofiq sarf-xarajat yondashuvining tabiiy resurslarni iqtisodiy jihatdan baholashda foydalanishni chegaralaydi.

Muqobil qiymat (boy berilgan foyda) baholash konsepsiyasi iqtisodiyotda keng qo'llaniladi. Tabiatdan foydalanishni iqtisodiy baholash, bu baholashni yondashuvning ko'p sohalarida qo'llash mumkin. Tabiatda resurslar barcha hududlarda ham turli darajadagi mahsuldorlikka ega, ba'zan mahsuldorlik umuman bo'lmasligi ham mumkin, masalan barxan qumlari, harakatdagi qum uyumlari yaylov jihatdan nol mahsuldorlikka ega, o'ta sho'r sho'rxoklar ham xuddi shunday tavsiflanadi. Agar barxan qumlarini fitomeliorasiya (maxsus o'simliklar ekish bilan qum harakatini to'xtatish) usuli bilan ularning harakatini to'xtatishga erishilsa ma'lum vaqtdan so'ng mahsuldor yaylov tarkib topadi, qorako'l qo'ylarini boqish bilan ma'lum miqdorda daromad olish mumkin.


Alohida qo'riqlanadigan hududlar-qo'riqxonalar, milliy parklar, zakazniklar-parvarishxonaning tabiiy resurslari davlat qonuniga binoan xo'jalikda foydalanilmaydi, daraxtlarni kesish, pichan o'rish, mol boqish qat'iy man e'tiladi. Demak, bu hududlarda tabiiy resurslar boyligi bilan ajralib turadi. Muqobil qiymat yondashuviga binoan bu hududlarda ko'plab boyliklardan foydalanmaslik natijasida iqtisodiyot «zarar» ko'rmoqda. Aslida xalq xo'jaligi katta miqdorda foyda ko'rmoqda, chunki bu hududlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladi, yo'qolib borayotgan noyob fauna va flora vakillarini saqlab qolishga erishildi, ularning soni ortib bormoqda, tabiat yodgorliklari, geologik kesmalar, tog' jinslari, paleontologik yodgorliklar muxofaza qiladi.

Muqobil qiymat konspeksiyasi ma'lum darajada sarf xarajat yondoshuvi bilan bog'liq. Tabiat boyliklarining muqobil qiymati qanchalik kam bo'lsa. Bu boyliklarni saqlab qolish uchun zarur bo'ladigan iqtisodiy tovon (xaq uchun xam shunchalik kam sarf xarajat kerak).

Muqobil qiymat yondoshuviga misol sifatida Chirchiq daryosi irmog'i Piskom daryosida loyihalangan suv ombori va uning tarkibidagi gidroelektr stansiyalarni ko'rsatish mumkin. Agar suv omborini qurish uchun rasmiy ravishda ruxsat berilsa vodiyning noyob vam ulkan tog' tabiat boyliklari suv ostida qolib ketadi. Mutaxassislarning xisob-kitob qilishicha suv omborini qurish va uning iqtisodiy foydasi tabiat boyligidan kamroq bo'lishi taxmin qilinmoqda. Chunki suv ombori faqat arzon elektr energiya ishlab chiqarish uchun zarur suv omborida yig'ilgan suvni Chorvoq suv omborida ham jamg'arish mumkin. Xozirgi mazkur loyixani amalga oshirish to'xtab turibdi. Bu loyixani boshqa daryoda xam amalga oshirish mumkin bu muqobil variantda Piskom vodiysining ajoyib betakror tabiati saqlanib qoladi.

3. Tabiiy resurslarni iqtisodiy baholashning, ilmiy-amaliy ahamiyati.

Tabiatni baholashda majmualiy yondoshuv nuqtai nazaridan va nafaqat to'g'ri resurs funksiyalarini xisobga olishdan tashqari yana tabiiy muxitining o'zlashtiruvchi xususiyatlarini xisobga olish bo'yicha istiqbolli konsepsiyalardan biri umumiy iqtisodiy baholash (qiymat) xisoblanadi. E. V. Girusovning fikricha umumiy iqtisodiy baholash to'rt ko'rsatkichining jami kattaligidan iborat yani foydalanish qiymati qo'shuv foydalanilmagan qiymat teng to'g'ri foydalanish qiymati qo'shuv bilvosita foydalanish qiymati qo'shuv imkon qiymati qo'shuv mavjud bo'lish qiymati (1-chizma).



Umumiy iqtisodiy baholash (qiymat) ning tuzilma

Umumiy baholashga foydalanish qiymati eng ko'p mos keladi (shuningdek iste'mol qiymati xam) masalan o'rmonlar beruvchi barqaror to'g'ri qiymati qo'ydagilardan iborat bo'ladi: barqaror o'tin tayyorlash, dorivor o'simliklar, qo'shimcha mahsulotlar (qo'ziqorin, mevalar, yong'oq), sayyohlik, barqaror ovchilik va baliqchilik. Ushbu barcha ko'rsatkichlar amalda ma'lum va o'zining qiymatiga ega ularni jamlash natijasida to'g'ri qiymat vujudga keladi.

Foydalanishni bilvosita qiymatini aniqlash ancha murakkab bu ko'rsatkich ko'pincha sayyora miqiyosida qo'llaniladi. Shuning uchun global ahamiyatga ega. Bu global va maxaliy foydalarning mos kelmasligi bilan tushuntiriladi. Masalan bilvosita qiymat biror mamlakat yoki xududga foydali bo'lmasa balki boshqa mamlakat yoki butun sayyora uchun naf bo'ladi. Nam tropik o'rmonlarning ayyovsiz qirqilayotganligi va buni oqibatida noyob o'simlik va xayvonot turlarining yo'qolib borayotgani sayyora yoki biosfera miqiyosida noxush xodisalarni rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. O'rmonlarni qirqishning maxalliy foydasi biosfera miqiyosidagi salbiy xodisalar nisbatan bir necha marta kam, xattoki falokatlidir, chunki o'rmon tuproqlari qisqa muddatlarda xo'jalik muomalasida chiqib ketadi. Bunda botqoqlanish, eroziya, sho'rланish, defleyasiyakabi xodisalar faol rivojlanadi.

Bu ziddiyatni amaliy jixatdan xal qilish uchun xalqaro miqiyosida global ekologik jamg'arma tashkil qilingan uning asosiy maqsadi tabiatni muxofaza qilish tadbirlarini investisiya bilan ta'minlash bo'lib bu maxalliy foydaga ustivorlik bermay balki butun dunyo uchun naf berishni nazarda tutadi. Bilvosita qiymatidan foydalanish ko'rsatkichi kattaroq xududlar uchun foydani yig'ishga xarakat qiladi. O'rmonni bilvosita qiymatidan foydalanish tadqiqoti ba'zan quyidagi ko'rsatkichlardan iborat bo'ladi: is gazi bilan bog'lanish (issiq xona samarasini yumshatish); suvni tartibga solish funksiyasi (xududni suv toshishidan muxofaza qilish).

Xisob kitob uchun imkoniy qiymat yanada murakkabligi bilan tafsivlanadi. Bu xol kelajakda foydalanish uchun xududning bioresurlarini konservasiya (asrash) qilish bilan bog'liq. Bunda imkoniy qiymati to'g'ri (bavosita) va bilvosita qiymatlarning foydalanish qiymatidan iborat bo'ladi. Foydalanilmaydigan qiymat mavjud bo'lish bahosiga asoslanadi, bu tabiatning nozik etik va estetik soxalarini baxolashga as qotadi. Chunki inson uchun tabiatning estetik baxosi juda yuqori xisoblanadi

uni kelajak avlod uchun saqlash burchi, merosning baxosi va boshqalar e'tiborga olinishi lozim. Mavjud bo'lishning qiymati tabiatni muxofaza qilish uchun muxim sabab bo'lishi mumkin. Bu qiymatni baholashda sodda iqtisodiy yondashuvlar qo'llaniladi, eng avvalo «to'lashga tayyorligi» nazariyasi bilan bog'liq «qalbaki» bozorlarni tuzish uchun urinishlar asosida xarakat qilinadi. Anketa va so'roq qilish uslublari keng qo'llaniladi. Me'yordagi bozor mavjud bo'lmaganda qiymatni subyektiv baholash usulidan foydalaniladi. Bu usulda tabiat go'shasining baxosini aniqlashda uni shu joydagi mavjud subyektlardan so'rab bilishga asoslangan. Shuning uchun uni ifodalangan afzal ko'rish uslubi deb xam yuritiladi. Rekreasiya jixatidan boy bo'lgan xududlar (daryo yoki suv ombori sohili, tog' ko'li) dagi maxalliy aholi dam oluvchilarga ma'lum baxoda dam olishga ruxsat berishini taklif etadilar. Lekin bu jarayonda obyektning iflos qilmaslik sharti bilan bir qarorga kelishadi. Xisob kitob asosida «to'lashga tayyor» tamoyili bo'yicha o'rtacha baxo aniqlanadi va uni dam oluvchilar sonini ko'paytiriladi va o'rtacha jami baho aniqlanadi.

Xuzur qilishni baholash uslubi tabiiy resurslar qiymatini aniqlashda keng qo'llaniladi. Bu usul ko'proq uy-joy oldi sotdisida qo'llanilib. Mulk egasi yaxshi daromad qilish mumkin. Talabgor tayyor uy-joy sotib olishda tabiatni go'zal joylari, quyosh nuri tushib turadigan, shamol esib turadigan, suv obyektlari mavjud bo'lgan, daraxtzor, avtomabil xarakati kamroq bo'lgan, xullsa tabiat insonga xuzur bag'ishlaydigan joylaridan bo'lishini xoxlaydi. Tayyor uy joy narxiga. Albatta ekologik jixatdan toza va tabiat chiroyi kabi xususiyatlar qo'shiladi. Bu bilan mulk egasi ma'lum miqdorda daromad qiladi. Demak tabiat xissasi bu jarayonda sotib oluvchining xuzur qilish uslubiga asoslanganligidan darak beradi.

Nazorat va mulohaza uchun savollar:

- 1. Tabiiy resurslarni iqtisodiy baholashning qanday usullarini bilasiz?**
- 2. Asosiy iqtisodiy baholash ko'rsatkichlarini ayting.**
- 3. Iqtisodiy baholash qanday yo'nalishlarga bo'linadi?**

4-Mavzu: Yer-suv resurslaridan samarali foydalanish(8-soat).

Reja:

1. Suv resurslarining xususiyatlari. Suv resurslaridan foydalanish ko'rsatkichlari.
2. Yer fondini o'ziga xos jihatlari va tarkibi.
3. Yer resurslarini iqtisodiy baholash va uning asosiy ko'rsatkichlari.
4. O'zbekistonning yer resurslaridan samarali foydalanish muammolari va ularni bartaraf etishni muhimligi.
5. Yerning ifloslanishi, eroziyasi, sho'rlanishi va uning oldini olish tadbirlari.
6. Davlat yer kadastrini, ball banitirovkasining mazmuni va mohiyati.

1. Suv resurslarining xususiyatlari. Suv resurslaridan foydalanish ko'rsatkichlari.

Tabiat boyliklari orasida suv alohida o'rin tutadi. Chunki barcha tirik jonzorlar hayotining asosiy manbai suvdir. Suvsiz hayot bo'lishi mumkin emas. Hattoki ota bobolarimiz suvni toza saqlashga, undan oqilona foydalanishga alohida e'tibor berganlar. Shuning uchun ham ular "Suv zar - suvchi zargar", "Suv uchun kurash - hayot uchun kurash", deb bejiz aytishmagan. Demak, planetamizda suv paydo bo'lganidan keyingina hayot paydo bo'lgan.

Zero, insoniyat hayoti davom etishi uchun odamlar suvni, yerdagi suv manbalarini, avvalo chuchuk suvni ehtiyot qilishlari lozim.

Sahron Kabirdagi qabilalardan biriga mehmon bo'lgan sayohatchilarning yuvinayotganini ko'rib, mezbonlar ancha ranjishgan. Chunki, ular butun qabilaga bir necha kunga yetadigan suvni bir pasda tugatishgan. Ma'lum bo'lishicha, suv bu yerda eng aziz ne'mat hisoblanib, uni qat'iy nazorat ostida tarqatishar ekan.

Yaponiyaday rivojlangan mamlakatga borgan bir mutaxassisimizning dastlabki olgan maoshi foydalangan suviga yetmagan.

Hindistondagi qadimgi shaharlardan biri Moxendjo-Darodagi xarobalar tekshirilganda diametri 0,5 dan 2,5 metrgacha keladigan quduq topilgan, chamasi u ayrim uylarni suv bilan ta'minlagan hamda jamoat joylarida odamlar cho'miladigan hovuzlar shu suv bilan to'ldirilgan. Qadimgi Rimda suvning yangi manbalari haqida muntazam qayg'urishgan. 312 yilda shaharga 16,5 km uzoqdagi toza suv manбайдan vodoprovod o'tkazilgan. Taxminan oradan 50 yil o'tgach, shaharga Anion daryosidan vodoprovod o'tkazilgan. Uning uzunligi 63 km dan ortiq bo'lgan, biroq keyingi vodoprovod uzunligi 91 km edi. Shunisi qiziqki, vodoprovod suvi maxsus rezervuarlarda yig'ilib, tindirilgan. Unda suv bosimi kerakligicha bo'lib, shu bosim tufayli jamoat hovuzlari, fontanlar, hammomlar, shuningdek shaxsiy uylar suv bilan ta'minlangan.

Peruda "Suv xudosi" ibodatxonasi topilgan. Unda fontan va kanallar bo'lgan, ular ibodatxona yaqinidagi sharshara suvi bilan to'ldirilgan. Afinada esa eramizdan oldingi VI asrdayoq quduq suvidan foydalanish tartibini belgilaydigan qonun chiqarilgan.

Yunonlar o'z davrida Feodesiyada, Kerchda, Yevpatoriyada ajoyib vodoprovod qurganlar. Qadimgi Misrda fir'avnlr davrida parmalab qovlangan quduqlar mavjud bo'lgan.

Ichimlik suvining odam organizmi uchun ahamiyatini Sharqning ko'pgina olimlari yaxshi bilishgan. Masalan, Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari" kitobining birinchi jildida "Suvning sifati" haqida ko'pgina ma'lumotlar keltirilgan, suvning inson hayoti uchun zarur elementlardan biri ekani, suvning xususiyatlarini yaxshilaydigan bir necha usullarni bayon qilgan.

Ibn Sino o'sha davrdayoq suvni toza saqlash, uni qaynatib ichish kerakligini odamlarga uqtirgan. U suvni qaynatib ichishga qarshi nodon tabib va duoxonlarga e'tiroz bildirgan.

Ko'rinib turibdiki, har doim odamlarni suv bilan ta'minlash masalasi muammo bo'lib kelgan. Hattoki, hozirgi paytda ham Gretsiya, Gollandiya, Germaniya, Shveysariya, AQSH va boshqa ko'plab mamlakatlarda ichimlik suvi bilan ta'minlash bosh masaladir.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida va ekologik tanglik bor paytda mustaqil O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tabiatning barcha boyliklar qatori, suv resurslariga ehtiyojlari benihoya katta. Kelajak avlodimizning taqdiri, baquvvatligi, sog'ligi obi-hayotimiz bilan bog'liq ekan, demak, ayni shu kunlarda qabul qilinayotgan suv to'g'risidagi qonun, qaror va farmonlar, suv boyliklaridan oqilona foydalanish, uni bulg'anish va ifloslanish hamda kamayib ketishidan saqlash ishiga ko'maklashishi lozim. Asosan suv resurslarini huquqiy ekologik muhofaza qilish maqsadida huquqiy ilmiy yo'nalishni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi talablar hamda suv resurslaridan foydalanish va ularni huquqiy muhofaza qilish, umuman olganda suv resurslari bilan bog'liq barcha muammolar, O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi 1993 yil 6 mayda qabul qilingan qonunida o'z aksini topdi.

O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 6 mayda qabul qilingan "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonunning 3-moddasiga asosan, "Suv O'zbekiston Respublikasining davlat mulki - umummilliy boylik hisoblanadi, suvdan oqilona foydalanish lozim bo'lib, u davlat tomonidan qo'riqlanadi."

Ushbu qonunga asosan, O'zbekiston Respublikasining yagona davlat suv fondi:

daryolar, ko'llar, suv omborlari, boshqa yer usti suv havzalari va suv manbalari, kanal va havuzlarning suvlaridan;

Yer osti suvlari va muzliklardan iboratdir. Davlatlararo daryolar - Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon daryosi, Orol dengizi va boshqa suvlardan foydalanish huquqi davlatlararo bitimlarda belgilab beriladi.

Mazkur qonunning 18-moddasida ko'rsatilganidek, "mulkchilikning barcha shaklidagi korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, dehqon xo'jaliklari va O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslar suvdan foydalanuvchilar bo'lishlari mumkin. Qonunlarda nazarda tutilgan hollarda boshqa tashkilotlar va shaxslar ham suvdan foydalanuvchi bo'lishlari mumkin."

O'zbekiston Respublikasining "Yer Kodeksi"¹ning 39-moddasi "Yer egasi, yerdan foydalanuvchi, ijarachi va yer uchastkasi mulkdorining huquqlari" sifatida barcha yer egalari, yerdan foydalanuvchichlar, yer uchastkalari ijarachilari va mulkdorlari ham suv resurslaridan oqilona foydalanishlari va ularni muhofaza qilishlari shart.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Qishloq xo'jalik kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida"² gi 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan qonunining 16-moddasida qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari) uchun suvdan foydalanishlari, "Fermer xo'jaligi to'g'risida"¹ gi qonunning 14-moddasida fermer xo'jaliklari uchun suvdan foydalanish, "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"² gi qonunning 11-moddasida dehqon xo'jaliklari uchun suvdan foydalanishning huquqiy tartiblari ko'rsatilgan.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"³ gi qonunining 19-moddasida "Suvlar va suv havzalaridan foydalanish shartlari" ham aniq ko'rsatilgan.

Jumladan, unda O'zbekiston Respublikasi hududidagi yer usti, yer osti va dengiz suvlaridan zarur miqdordagi suvning tabiiy aylanishini saqlash, uning normativida ko'rsatilgan darajada tozaligini ta'minlash, suv o'simliklari va hayvonlarini asrash, suv havzalarning ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik, ularda ekologiya muvozanatini saqlash va suv havzasiga landshaft elementi sifatida ziyon yetkazmaslik sharti bilan yo'l qo'yiladi.

Mahalliy hokimiyat idoralari, o'rmon va suv xo'jaligi idoralari daryo irmoqlari hosil bo'ladigan joylarda, suv havzalari sohili mintaqalarida daraxtzorlarni tiklashlari va dov-daraxtni ko'paytirishlari hamda ularni saqlashini ta'minlashlari shartdir.

Suv resurslarini huquqiy ekologik jihatdan muhofaza qilish O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonunning XXIV bobi, 97-102 moddalarida ko'rsatilgan.

Mustaqil respublikamizda suvni muhofaza qilish vazifalari shundan iboratki, "Hamma suvlar (suv obyektlari) aholi sog'lig'iga zarar yetkazishi, shuningdek baliq zahiralarning kamayishi, suv ta'minoti sharoitining yomonlashishi hamda suvning fizikaviy, kimyoviy va biologik hossalari pasayishi, suvning tabiiy tozalanish xususiyati kamayishi, suvning gidrologik va gidrogeologik rejimining buzilishi natijasida kelib chiqadigan boshqa ko'ngilsiz hodisalarga olib kelishi hollaridan muhofaza qilinishi kerak.

Shunisi e'tiborliki, suv to'g'risidagi ushbu yangi qonunda, suvni muhofaza qilishni, shuningdek uning holati va rejimini yaxshilashni ta'minlovchi tadbirlarni amalga oshirish, faoliyati suvlarning holatiga ta'sir etuvchi korxonalar, tashkilot va muassasalar, mahalliy hokimiyat organlari, tabiatni muhofaza qilish, suv xo'jaligi, sanitariya nazorati organlari hamda boshqa manfaatdor idoralar bilan kelishilgan holda texnologiya, o'rmon melioratsiya va agrotexnika, gidrotexnika, sanitariya-texnika tadbirlarini o'tkazishlari shart"-deb ko'rsatilgan.

Hozirgi sharoitda suvlarni ifloslantirish asosan chiqit va chiqindilarni befarqlik oqibatida tashlash, oqizish natijasida bo'lmoqda. Ayni, mana shu muammo ushbu qonunning 99-moddasida ifodalangan. Korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va fuqarolarga quyidagilar taqiqlanadi:

- ishlab chiqarish chiqitlari, maishiy va boshqa xil chiqitlar hamda chiqindilarni suv obyektlariga tashlash;

- moylarning, yog'ochlarning, kimyoviy va neft mahsulotlarining hamchda boshqa mahsulotlarning to'kilib-sochilishi natijasida suvni bo'lg'atish va ifloslantirish;

- suv havzalarining yuzi, suv havzalarini qoplab turgan yaxlar va muzliklarning yuzasi, sanoat chiqitlari, maishiy chiqindi va boshqa tashlandiq chiqitlar, shuningdek, yer usti va yer osti suvlarning sifatini yomonlashtirib yuboradigan neft va kimyoviy mahsulotlar bilan bulg'atish va ifloslantirish;

- suvni o'g'itlar va zaharli ximikatlar bilan bulg'atish.

Oqindi suvlarni suv obyektlariga oqizishga ushbu qonunning 73, 74 va 75-moddalarida ko'rsatib o'tilgan talablarga rioya qilingan taqdirdagina yo'l qo'yiladi. Shuningdek amaldagi qonunda, aynan yer osti va kichik daryolarni suvlarini huquqiy ekologik muhofaza qilishga e'tibor berilgan.

Mazkur qonunning 101-moddasida, yer osti suvlarini muhofaza qilish tartibi ifodalangan.

Yer osti suvlari chiqarish va undan foydalanish bilan shug'ullanuvchi idoralar suv chiqarilayotgan uchastka va unga tutash hududlarda yer osti suvlariga doir rejimlarga rioya etilishini kuzatib borishlari, shuningdek foydalanilayotgan suvning miqdori va sifatining hisobini yuritishlari shart.

Basharti foydali qazilmalar konlarini qidirish, ularni o'rganish va ulardan foydalanish bilan bog'liq burg'ilash hamda boshqa kon qidiruv ishlarini bajarish chog'ida yer osti suvyalari bor qatlamlar aniqlangan taqdirda, bu haqda tabiatni muhofaza qilish, suv xo'jaligi organlariga ma'lum qilinishi hamda belgilangan tartibda yer osti suvlarini muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rilishi lozim. Sanoat oqindi suvlarini oqizish uchun qaziladigan quduqlar suvli qatlamlarni ifloslantirish manbaiga aylanishi mumkin bo'lsa, bunday quduqlar qazish hollari man etiladi.

O'z-o'zidan suv chiqarib, suvi foydalanish uchun yaroqsiz bo'lgan quduqlarga suvni boshqarish uskunalari o'rnatilishi, ular qonunlarda belgilangan tartibda to'xtatib qo'yilishi yoki tugatilishi lozim.

Sifatli yer osti suvlari to'planadigan manbalar tegrasida qattiq va suyuq chiqindilar to'plash, axlatxonalar barpo etish, yer osti suvlarining ifloslanish manbaiga aylanish ehtimoli bo'lgan sanoat, qishloq xjalik obyektlari va boshqa obyektlar qurilishiga yo'l qo'yilmaydi. Yer osti suvlarini muhofaza qilish chora-tadbirlarini ko'rish, shu jumladan quduqlarni kuzatish tarmog'ini yaratish faoliyati yer osti suvlarining holatiga ta'sir ko'rsatuvchi korxonalar tomonidan amalga oshiriladi.

Ko'rinib turibdiki, ushbu moddada yer osti suvlarini huquqiy ekologik muhofaza qilishga har tomonlama e'tibor berilgan.

Yoyinki, xo'jalik faoliyati kichik daryolarning holati va rejimiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, dehqon xo'jaliklari suv xo'jaligi, tabiatni muhofaza qilish organlari bilan birgalikda suvni, uning musaffoligi va sifatini saqlash chora-tadbirlarini ko'rishlari lozim.

Kichik daryolarning suvini muhofaza qilish mintaqalari, bu mintaqalardagi korxonalar, tashkilotlar, muassasalarning xo'jalik faoliyati rejimi qonunlar bilan belgilanadi.

Suv manbalarini ifloslanishdan muhofaza qilishning eng yaxshi yo'li markazlashgan suv ta'minotini tashkil qilishdan iborat.

Ochiq suv havzalaridan suv olinadigan joyni tanlashda suvning ifloslanmasligi, suv havzasiga yetarli miqdorda suv tushib turishini, suv havzasi atrofining to'silganligini, qirg'oqning buzilmasligini hisobga olish kerak. Suv olinadigan joyni tanlash har safar murakkab sanitariya masalasi hisoblanadi. Muhimi, suv olinadigan joy oqava suvlar tushadigan joydan va aholi yashaydigan territoriyadan ancha yuqori yerda bo'lishi kerak. Bunda aholi yashaydigan punktning istiqboli, ya'ni kengayishi nazarda tutiladi. Shuningdek, suv olinadigan joy daryo irmoqlari va soylardan yuqorida bo'lishi lozim. Suv daryo qirg'og'i chuqurligi kamida 2,5 metr bo'lgan, qirg'og'i yuvilmaydigan joydan olinadi. Bu qoida suv omborlariga ham tegishlidir.

Har qanday suv manbai, ayniqsa ochiq suv havzalari tashqi muhit bilan bog'langanligi va suv sifatiga suv oqimi hosil bo'lishi sharoitlari, tabiiy hodisalar, sanoat va kommunal qurilishlar, aholining xo'jalikdagi va turmushdagi faoliyati ta'sir qilishni hisobga olib, vodoprovod qurilishida albatta sanitariya zonasi tashkil etish kerak.

Mavjud qonunchilikka asosan vodoprovodi bor tashkilotlar barcha vodoprovodlar uchun sanitariya muhofazasi zonasi tashkil qilishlari kerak.

Suvni muhofaza qilish tadbirlarini barcha ochiq suv havzalari, yer osti suv manbalarida ular markazlashgan yoki markazlashmagan suv ta'minoti uchun foydalaniladimi-yo'qmi, bundan qat'iy nazar, amalga oshirish shart.

Sanitariya maishiy suv ta'minotidan foydalanadigan rayonlarda sanitariya muhofaza zonasi yaratish zarur. Bunday hollarda sanitariya nazorati organlari va shu territoriyadagi suvdan foydalanishni va muhofaza qilishni boshqaradigan organlarga quyidagi hajmda yer ajratiladi:

- ochiq suv havzalari uchun 100 m. Suvning ikkala qirg'og'iga inspektorlik yo'llari qilinadi, ko'kalamzorlashtiriladi, shahar doirasida esa qirg'oqlar qo'shimcha ravishda obod qilinadi;
- o'zanli va suv quyilib turadigan suv ombori uchun 300 m chor atrofi muhofaza qilinadi;

- artezian quduq uchun foydalaniladigan ayrim quduqlar, buloqlar va chashmalar yoki yer osti suvlari usti 30 m radiusda suvga chidamli materiallar bilan tom qilib, yopiladi, maydoni kamida 0,25 ga bo`ladi;

- ayrim quduqlar uchun yer osti suvi yoki infiltratsion suvdan foydalanganda 30 m radiusda usti yopiladi, maydoni kamida 0,75 ga bo`ladi.

Ayrim rayonlarda, masalan, yirik shaharlar yoki korxonalarida qishloq xo`jaligida zaharli ximikatlarni ko`p ishlatilganda sanitariya nazoratining tegishli organlari talabiga ko`ra bu zonalar kengaytirilishi mumkin.

Shuningdek, hozirgi sharoitda qishloq xo`jaligi va boshqa korxonalar, muassasa, tashkilotlarda hamda respublikamizda suvdan foydalanish va uni huquqiy muhofaza qilishning bir qator ilmiy huquqiy ekologik yechimlari ayrim huquqiy adabiyotlarda yoritilgan.

Ammo hozirgi bozor iqtisodiyoti va turmush tarzi yana yangi-yangi huquqiy-ilmiy va ekologik yechimlarni qo`llashni talab qiladi.

Zero, suv resurslarini huquqiy ekologik muhofaza qilish aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlashga xizmat qilib, gigiyenik jihatdan muhim ahamiyatga ega, hattoki kasallik tarqalishining oldini olishda ham ahamiyati kattadir.

Suv manbalarini ekologik muhofaza qilish, hayoti suv bilan bog`liq bo`lgan butun jonzotni o`simliklar va hayvonot dunyosini, umuman olganda ona tabiatni saqlab qolishga yordam beradi.

Xullas, suvdan huquqiy ekologik foydalanish, suvdan foydalanish huquqiga ega bo`lish, uni tasarruf etish, undan oqilona, tejamkorlik bilan foydalanish, uni ekologik muhofaza qilish, foydalanilayotgan suv manbalaridan tegishli qonunlar asosida foydalanish, suvni sanitariya - epidemiya qoidalari asosida saqlash va undan foydalanish, agarda yuqoridagi talablarga rioya qilinmasa hattoki suvdan foydalanish huquqidan mahrum qilish kabi elementlar bilan chambarchas bog`liq. Umuman olganda suvni ekologik muhofaza qilish ishini yanada yaxshilash - demak bu hayotni yaxshilash, uzoq-umr ko`rishdir, desak xato qilmaymiz.

2. Yer fondini o`ziga xos jihatlari va tarkibi.

Mamlakatimizda yerlar foydalanish maqsadlari, aholining talab va ehtiyojlarini qondirishni e'tiborga olib, xalq xo`jaligining barcha tarmoqlarini jonlashtirish va rivojlantirishni ko`zlab, ishlab chiqarishni tashkil etishni hisobga olib toifalarga bo`linadi. Yerlarni toifalarga bo`lishda birinchi navbatda ulardan qaysi maqsad uchun foydalanish mumkin yoki mumkin emasligi e'tiborga olinadi. Masalan, suv fondi yoki o`rmon fondi yerlaridan paxta ekish, yoxud boshqa qishloq xo`jalik ekinlari yetishtirish uchun foylanib bo`lmaydi. Bundan tashqari, yerlarni toifaga bo`lishda ularning tabiiy xususiyatlariga ham ahamiyat beriladi. Chunonchi, qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtirish maqsadida foydalaniladi.

O`zbekiston Respublikasining Yer Kodeksiga ko`ra (8-modda) mamlakatimizda yer fondi yerlardan foydalanishning belgilangan asosiy maqsadiga binoan quyidagi toifalarga bo`linadi: 1) qishloq xo`jaligiga mo`ljallangan yerlar; 2) aholi punktlarining (shaharlar, posyolkalar va qishloq aholi punktlarining) yerlari; 3) sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo`ljallangan yerlar; 4) tabiatni muhofaza qilish, sog`lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo`ljallangan yerlar; 5) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar; 6) o`rmon fondi yerlari; 7) suv fondi yerlari; va 8) zahira yerlar.

Sanab ko`rsatilgan yer toifalari yagona davlat yer fondini tashkil etib, ular bir toifadagi ikkinchisiga o`tib turishi mumkin, ya'ni ular belgilangan toifada qotib qolmaydilar. Masalan, qishloq xo`jaligiga mo`ljallangan yerlarning ba'zi qismlari aholi punktlari yerlari toifasiga kiritilishi, yoki zahira yerlari fondidan sanoat, transport, aloqa yerlari toifasi hosil qilish mumkin. Yerlarni birtoifadan boshqasiga o`tkazish, - O`zbekiston Respublikasi Yer Kodeksining 9-moddasiga ko`ra, - yerlardan asosiy foydalanish maqsadi o`zgargan taqdirda amalga oshiriladi. Yerlarni yer fondi toifalariga bo`lish va bir toifadan boshqasiga o`tkazish yerni egalik qilishga va foydalanishga berish huquqiga ega bo`lgan organlar tomonidan amalga oshiriladi.

Har bir toifadagi yer fondlari foydalanish maqsadi va tartibiga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Mamlakatimiz yer fondi tarkibida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar mustaqil toifani tashkil etib muhim o'rinni egallaydi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida ular alohida ahamiyatga ega bo'lib, asosiy vosita sifatida harakat qiladi. Qonunga ko'ra, qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun berib qo'yilgan yoki ana shu maqsadlar uchun belgilangan yerlar qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar hisoblanadi (Yer Kodeksi, 43-moddasi).

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar qishloq xo'jaligi yuritish uchun zarur bo'lgan qishloq xo'jaligi yerlari va daraxtzorlar, ichki xo'jalik yo'llari, kommunikatsiyalar, o'rmonlar, yoriq suv havzalari, binolar, imoratlar va inshootlar egallagan yerlarga ajraladi. Haydaladigan yerlar, nichanzorlar, yaylovlar, tashlandiq yerlar, ko'p yillik dov-daraxtlar (bog'lar, tokzorlar, tutzorlar, mevali daraxt ko'chatzorlari, mevazorlar) egallagan yerlar qishloq xo'jaligi yerlari jumlasiga kiradi.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar qishloq xo'jalik kooperativlariga, boshqa qishloq xo'jalik korxonalar, muassasa va tashkilotlariga, tajriba-ishlab ishlab chiqarish, o'quv, o'quv-tajriba va o'quv-ishlab chiqarish xo'jaliklari, ilmiy-tadqiqot muassasalariga, O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga, qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanmaydigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga qishloq xo'jalik maqsadlarida beriladi.

Yer fondi tarkibidagi ikkinchi toifa yerlarni aholi punktlarining yerlari tashkil etadi. Bu yerlar o'z navbatida shaharlar, posyolkalar va qishloq aholi punktlarining yerlariga bo'linadi.

Shahar yerlarining tarkibi foydalanish maqsadlariga qarab bir necha turlarga bo'linadi. Bulardan birinchisi, shahar qurilishi yerlaridir. Bu yerlarga uy-joy, kommunal-maishiy, madaniy-ma'rifiy, sanoat, savdo, ma'muriy va boshqa binolar hamda inshootlar qurilgan va ularni qurish maqsadida berilgan hamma yerlar kiradi. Shahar qurilishi yerlari korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga uy-joy, madaniy-maishiy, sanoat obyektlari qurish va kapital qurilishning boshqa turlari uchun foydalanishga, fuqarolarga esa yakka tartibda uy-joy qurish va uy-joy obodonlashtirish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga beriladi.

Shaharlar yer tarkibining ikkinchi turi umumiy foydalanishdagi yerlardir. Bu turdagi yerlarga maydonlar, ko'chalar, tor ko'chalar, yo'llar, sohil bo'ylari, aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olish uchun foydalaniladigan bog'lar, hiyobonlar, bog'chalar joylashgan yerlar kiradi.

Uchinchi turdagi shahar yerlariga qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar kiradi. Bunday yerlar toifasiga qishloq xo'jaligida foydalaniladigan va boshqa yerlarga qishloq xo'jaligi korxonalariga egaligidagi haydaladigan yerlar, bog'lar, uzumzorlar, tokzorlar, mevazorlar, polizlar, pitomniklar, yaylovlar, pichanzorlar, sug'orish, zax qochirish va yo'l tarmog'i, imoratlar, hovlilar, maydonlar egallab turgan yerlar kiradi.

Daraxtzorlar egallab turgan yerlar ham shahar yerlarining alohida bir turini tashkil etadi. Shaharlardagi daraxtzorlar egallagan yerlar aholining dam olishini tashkil etishga, shahardagi mikroiklimni, atmosfera havosining holatini va sanitariya-gigiyena sharoitlarini yaxshilashga, aholining madaniy-estetik ehtiyojlarini qondirishga, shahar hududini suv va shamol eroziyasidan muhofaza qilishga mo'ljallangan bo'ladi.

Shahar yerlarining navbatdagi turini sanoat, transport, aloqa, mudofaa maqsadlariga mo'ljallangan yerlar tashkil etadi. Bunday yerlarga korxonalar, muassasa, tashkilotlar zimmasiga yuklatilgan maxsus vazifalarni amalga oshirish uchun berib qo'yilgan yerlar kiradi. Bu yerlar aeroportlar, tramvay yo'llari, poyezdlar qatnaydigan yo'llar, quvurlar qurish va shunga o'xshash maqsadlar uchun foydalaniladi.

Shahar yerlari tarkibidagi alohida muhofaza etiladigan hududlarning yerlariga tarixiy, madaniy xarakterdagi obyektlar, tabiat yodgorliklari joylashgan yer maydonlari kiradi. Ular aholining madaniy, ma'naviy ehtiyojlari maqsadlarida foydalaniladi.

Qishloq aholi punktlari yerlariga yer tuzish tartibida belgilab qo'yilgan chegaralar doirasidagi hamma yerlar kiradi. Bunday yerlar jumlasiga, birinchidan, qishloq aholi punktlarining qishloqlar va ovullar hududidagi yerlari; ikkinchidan, qishloq xo'jaligi hamda o'rmon xo'jaligi korxonalariga hududidagi yerlar kiradi.

Qishloq aholi punkti yerlari deganda ichki xo'jalik yer tuzilishi rejalariga muvofiq ravishda tasdiqlangan va belgilangan chegara doiralari joylashgan, aholining turar-joy, boshqa madaniy-maishiy ehtiyojlariga kerakli binolar, shuningdek dehqon xo'jaligi uchun beriladigan yer uchastkalari tushuniladi.

Qishloq aholi punkti yerlari asosan qishloq xo'jalik korxonalari egallab turgan yerlarda joylashgan bo'lib, ular jamoat yerlaridan natura tarzida ajratib qo'yiladi. Lekin, bu ikkala yer fondi o'rtasida o'tib bo'lmaydigan chegara bo'lmaydi. Aholining o'sib borayotgan ehtiyojlarini e'tiborga olib aholi punkti yerlarini tegishli idoralar qaroriga muvofiq kengaytirish mumkin.

Qishloq aholi punkti yerlari o'z tarkibiga ko'ra bir xil emas. Ular qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan va qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlarga bo'linadi. Bundan tashqari, bu yerlarni kimning egaligidaligiga qarab ham tasniflash mumkin. Bular o'z-o'zini boshqarish organlari ixtiyoridagi yerlar va qishloq xo'jalik korxonalari ixtiyoridagi yerlardir. O'z-o'zini boshqarish organlari ixtiyoridagi qishloq aholi punkti yerlaridan maydonlar, ko'chalar, sohil bo'ylari, bog'lar, madaniyat va istirohat bog'lari, hiyobonlar, daraxtzorlar barpo qilish, shuningdek madaniy-maishiy, uy-joy ehtiyojlari uchun foydalaniladi.

Qishloq aholi punkti doirasida qishloq xo'jalik korxonalari o'zlariga berilgan yer uchastkalaridan uy-joy binolari, madaniy-maishiy binolar, ishlab chiqarish binolari qurish uchun hamda dehqon xo'jaligi yuritish uchun foydalanadilar.

Yer fondi tarkibidagi navbatdagi toifani sanoat, transport, aloqa, mudofaa maqsadlariga mo'ljallangan yerlar tashkil qiladi. Sanoat maqsadlariga mo'ljallangan yerlar deganda sanoat korxonalariga, shu jumladan, kon sanoati, energetika korxonalariga ishlab chiqarish va yordamchi binolar hamda inshootlar qurish uchun doimiy foydalanishga berilgan yerlar tushuniladi.

Transport maqsadlariga mo'ljallangan yerlar deb Temir yo'l, Ichki suv transporti, avtomobil, havo va truboprovod transporti korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga transport inshootlari, qurilmalari va boshqa obyektlaridan foydalanish, saqlash, qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash, takomillashtirish va rivojlantirish sohasida ular zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun doimiy foydalanishga berilgan yerlarga aytiladi.

Aloqa maqsadlariga mo'ljallangan yerlar jumlasiga aloqa liniyalarini hamda ularga tegishli inshootlarni joylashtirish uchun aloqa, radioeshittirish, televideniye va axborot korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga doimiy foydalanishga berilgan yerlar kiradi.

Qurolli kuchlar, chegara, ichki ishlar va temir yo'l qo'shinlarining harbiy qismlari, harbiy o'quv yurtlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning joylashuvi hamda doimiy faoliyati uchun berilgan yerlar mudofaa ehtiyojlari uchun mo'ljallangan yerlar deb e'tirof etiladi.

Sanoat, transport, aloqa, mudofaa maqsadlariga mo'ljallangan yerlar ushbu tashkilotlarning o'z oldiga qo'ygan vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Alohida muhofaza etiladigan hududlarning yerlari respublikamiz yer fondi tarkibida alohida, mustaqil toifani tashkil qiladi. Bu toifa yerlarning turlari, ulardan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Yer Kodeksining 71-75-moddalari bilan tartibga solinadi.

Yer Kodeksining 71-moddasida ko'rsatilishicha, alohida muhofaza etiladigan hududlarning yerlari jumlasiga, birinchidan, tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga mo'ljallangan yerlar; ikkinchidan, sog'lomlashtirish maqsadlariga mo'ljallangan yerlar; uchinchidan, rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar; to'rtinchidan, tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar kiradi.

Tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga mo'ljallangan yerlar deganda davlat qo'riqxonalari, milliy va dendrologiya bog'lari, botanika bog'lari, zakazniklar, tabiat yodgorliklarining belgilangan tartibda korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga maxsus maqsadlar uchun berilgan yerlar tushuniladi. Bu toifa yerlarda belgilangan maqsadga zid faoliyat taqiqlanib, ularga zararli ta'sir etadigan faoliyat ta'qiqlab qo'yiladi.

Sog'lomlashtirish maqsadlariga mo'ljallangan yerlar deb tabiiy shifobaxsh omillarga ega bo'lgan, kasalliklarning oldini olish va davolashni tashkil etish uchun qulay, belgilangan tartibda tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan yer uchastkalariga aytiladi.

Sogʻlomlashtirish maqsadlariga moʻljallangan yerlar aholining davolanishi va dam olishini taʼminlash uchun foydalaniladi.

Alohida muhofaza etiladigan hududlarning yerlari tarkibida rekreatsiya maqsadlariga moʻljallangan yerlar muhim oʻrinni egallaydi. Rekreatsiya maqsadlariga moʻljallangan yerlar deganda aholining ommaviy dam olishi va turizmni tashkil etish uchun tegishli muassasalar va tashkilotlarga berilgan yerlar tushuniladi. Rekreatsiya maqsadlariga moʻljallangan yerlar daryo, koʻl, dengizlar boʻyida aholining ommaviy dam olishi uchun moʻljallangan, shuningdek obidalar joylashgan hududlarda turizm uchun moʻljallangan obodonlashtirish va turizm tashkilotlariga berib qoʻyilgan yerlar hisoblanadi. Bu yerlardan odamlarni dam olishi, madaniy ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida foydalaniladi.

Yer fondi tarkibida tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar mustaqil toifadagi yerlar sifatida oʻrin olishligi belgilangan. Oʻzbekiston Respublikasi Yer Kodeksining 75-moddaga koʻra, tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar deganda tarixiy-madaniy qoʻriqxonalar, memorial bogʻlar, mozorlar, arxeologiya, tarix va madaniyat yodgorliklarining tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan yerlar tushuniladi. Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlarning arxitektura ahamiyatiga egalari xalqaro tashkilotlar hisobida turib, ular davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Tarixiy-madaniy yerlarda tarixiy obidalar, arxitektura yodgorliklari, inshootlar, qabristonlar yoki yakka tartibdagi mozorlar joylashgan boʻladi. Bu toifadagi yerlardan aholining maʼnaviy ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida foydalaniladi.

Mamlakatimiz yer fondi tarkibidagi muhim toifalardan biri oʻrmon fondi yerlaridir. Ushbu toifa yerlari Oʻzbekiston yer fondi tarkibida mustaqil fondni tashkil etadi. Oʻzbekiston Respublikasi Yer Kodeksining 76-moddasida koʻrsatilishicha, oʻrmon xoʻjaligi ehtiyojlari uchun berilgan yerlar oʻrmon fondi yerlari deb eʼtirof etiladi. Oʻzbekiston Respublikasi Yer Kodeksining 87-modda 6-bandiga koʻra, oʻrmon fondi yerlari ikki qismga: 1) oʻrmon bilan qoplangan va 2) oʻrmon bilan qoplanmagan boʻlsa ham oʻrmon xoʻjaligi ehtiyoji uchun berib qoʻyilgan yerlarga boʻlinadi.

Oʻrmon fondi yerlaridan foydalanishning asosiy vazifasi yogʻoch yetishtirishdan iborat. Bu yerda yer bosh ishlab chiqarish vositasi sifatida boʻladi. Shuning uchun oʻrmon fondi yerlarining katta qismini oʻrmonlar bilan qoplangan yerlar tashkil etadi.

Shu bilan bir qatorda oʻrmon fondi yerlariga oʻrmon bilan qoplanmagan, lekin oʻrmon xoʻjaligiga moʻljallangan yerlar ham kiradi. Bularga boʻsh joylar, nihollar vayron boʻlgan joylar, yongan uchastkalar va boshqalarni aytish mumkin.

Bundan tashqari, oʻrmon fondi yerlariga oʻrmon bilan qoplanmagan va daraxt oʻstirishga ham moʻljallanmagan, lekin, oʻrmon xoʻjaligi uchun zarur boʻlgan yerlar ham kiradi. Bularga oʻrmondagi yoʻllar, ariq-zovurlar, botqoqliklar, qumliklar kiradi.

Yer Kodeksida keltirilgan "oʻrmon bilan qoplangan" va "oʻrmon bilan qoplanmagan yerlar" tushunchasidan farqli oʻlaroq Oʻzbekiston Respublikasi Oʻrmon toʻgʻrisidagi qonunida oʻrmon fondi yerlari sostavida "oʻrmon maydonlari" va "oʻrmon bilan qoplanmagan maydonlar" borligini koʻrsatadi. Bu tushunchalar bir-biriga mos kelmaydi. Negaki, oʻrmon toʻgʻrisidagi qonunchilik oʻrmon bilan qoplangan maydonlarga na faqat daraxt bilan qoplangan maydonlar, balki u bilan qoplanmagan boʻsh joylar, ariq-zovurlar, qumliklarni ham kiritadi. Oʻrmon bilan qoplanmagan maydonlarga esa qishloq xoʻjalik uchun moʻljallangan ugodyalar, yoʻllar va boshqalarni kiritadi.

Oʻzining geografik holati, suv tanqisligi, havoning quruqligi, kuchli shamollar boʻlganligi uchun Oʻzbekiston hududining faqat 5 foizi oʻrmonlar bilan qoplangan. Respublika togʻlaridan archazor oʻrmonlar anchagina maydonlarni (191 ming ga) tashkil etadi. Oʻrmon taqchilligi uchun ular uzoq vaqt davomida yogʻoch tayyorlash, koʻmir sifatida, mol boqadigan maydonlar sifatida foydalanildi. Har yili kesishlar, mol boqishlar, pioner lagerlari qurish, turistik bazalar joylashtirish - bu qimmatbaho oʻrmonlarni kesilgan, kunda maydonlarga aylantirib qoʻydi, natijada ular oʻzining muhim ekologik vazifasini yoʻqotdilar. Bularning hammasi oʻrmonlarga oʻta muhim munosabatda boʻlishlikni talab etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Yer Kodeksining 76-moddasida Oʻrmon fondi yerlarini boshqa yer fondi hisobiga kengaytirish mumkinligi belgilangan. Bunda qanday maqsadlar uchun oʻrmon fondi

yerlari sostaviga yer uchastkalari berish mumkinligi ko'rsatilgan. Bu o'rmonzorlar barpo etish, jarliklarning kengayishini to'xtatish, shaharlar va sanoat markazlari tevaragida ixota o'rmonzorlar va ko'kalamzorlar maydonlar yaratish, shuningdek kam o'rmonli va o'rmonsiz rayonlarni atrofini o'rmonlashtirish, daryo va suv havzalarini qirg'oqlarini daraxtlashtirish, tuproq eroziyasini bartaraf etish, tuproq unumdorligini saqlash va boshqalarga qaratiladi.

Qoidaga ko'ra, o'rmon fondi yerlari sostaviga birinchi navbatda kamhosilli, tashlandiq yerlar, foydalanilmayotgan yerlar, zaxira yerlar, butazor yerlardan beriladi. O'rmon fondi yerlari sostaviga yer berish tartibiga kelganda bu faqat belgilangan tartibda beriladi. Shunday qilib, bunda faqat yerdan foydalanishning asosiy belgilangan maqsadi o'zgaradi, ya'ni bir toifadagi yer uchastkalari ikkinchisiga aylantiriladi.

O'rmon fondi yerlari qishloq xo'jaligi maqsadlarida ham foydalanishligi mumkin. O'rmon fondi yerlarida o'rmon xo'jaligi uchun ishlatilmayotgan, lekin qishloq xo'jaligi uchun muhim ahamiyat kasb etadigan yerlar bo'ladi. Bular, masalan, pichanzorlar va o'tloqlardir.

Tuman xokimliklari o'rmon xo'jaligi organlari bilan kelishib, bu yer uchastkalarini vaqtinchalik foydalanish uchun yoki ijaraga qishloq xo'jalik korxonalariga berishga haqlidirlar. Bunda qishloq xo'jaligi maqsadlariga ishlatilayotgna o'rmon fondi yerlari o'rmon xo'jaligiga zarar yetkazmasligi kerak. Qishloq xo'jalik korxonalarining faoliyati shunday yo'llar bilan amalga oshirilishi lozimki, ular o'rmonlar yong'in xavfsizligi va sanitariya holatlariga rioya qilishlari shart.

O'rmon fondi yerlaridan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasining maxsus qonunlari bilan tartibga solinadi. O'rmon fondi yerlaridan foydalanish huquqi o'rmonlardan foydalanish huquqi bilan chambarchas bog'liqdir, shuning uchun bu yerlardan foydalanish tartibi ma'lum darajada o'rmon yerlari kimga va qanday maqsadlar uchun berib qo'yilganligiga bog'liq.

arakatdagi o'rmon qonunchiligida yer uchastkalarini berish va foydalanish tartibi quyidagicha belgilangan: o'rmonchilik uchun foydalanish, o'rmonlarda turistik lagerlar, dam olish bazalari va boshqa shunga o'xshash obyektlar joylashtirish (49-modda), ilmiy maqsadlarda foydalanish (50-modda), ovchilik maqsadida foydalanish (52-modda), yem-xashak yig'ish, mol boqish (69-modda) va boshqalar.

Suv fondi yerlari ham yer fondi tarkibidagi mustaqil toifa yerlardan biridir. O'zbekiston Respublikasining Yer Kodeksining 77-moddasiga ko'ra, suv havzalari (daryolar, qo'llar, suv ombarlari), gidrotexnika va boshqa suv xo'jaligi inshootlari egallab turgan, shuningdek suv havzalarining va boshqa suv obyektlarining qirg'oqlari bo'ylab ajratilgan mintaqadagi suv xo'jaligi ehtiyojlari uchun korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga berilgan yerlar suv fondi yerlari jumlasiga kiradi.

Suv fondi yerlarining asosiy qismini suv bilan qoplangan yerlar tashkil etadi. Suv bilan qoplangan yerlar deganda yil davomida doimo yoki yilning ko'p qismid suv tagida bo'lgan yerlar tushuniladi. Qisqa vaqt davomida - sug'orishda, yomg'ir vaqtida, daryo toshgan vaqtda suv bilan qoplangan yerlarni biz bu toifaga kiritmaymiz. Suv bilan qoplanmagan yerlarga yana vaqtinchalik sug'orish kanallari, sho'ri yuviladigan maydonlar, basseynlarni ham kiritish mumkin.

Asosiy suv fondi yerlarining boshqa qismi bo'lib, suv havzalarining qirg'oqlari bo'ylab ajratib qo'yilgan mintaqadagi yerlar hisoblanadi. Bunga quyidagilar kiradi: 20 metr kenglikdagi qirg'oq mintaqalari, kemalar uchun ajratilgan mintaqalar, hamda muhofaza qilish uchun ajratilgan zonalar.

Suv fondi yerlariga yuqoridagilardan tashqari, suv obyektlariga tutashgan yerlardagi gidrotexnika va boshqa suv xo'jaligi qurilmalari tegishli bo'ladi.

Davlat suv fondi yerlarining asosiy xo'jalik vazifasi suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish faoliyatiga xizmat qilishdir. Shuning uchun bu yerlarning huquqiy holati suv obyektlarining huquqiy holati xususiyatlarini aks ettiradi.

Hamma suvdan foydalanuvchilarga suv havzalari qirg'oqlarini, boshqa suv obyektlari yer maydonlari ustki qismini yaxshi saqlash majburiyati yuklatilgan.

Ko'pchilik daryolar, magistral kanallar va kollektorlar, suv omborlari va boshqa suv havzalarining, shuningdek ichimlik va ro'zg'or suv ta'minoti, aholining davolash hamda madaniy sog'lomlashtirish ehtiyojlariga xizmat qiladigan manbalar maxsus himoya qilinadi. Shu maqsadda

qonun shunday suv havzalari atrofida himoya zonalari tashkil qilishni belgilaydi. Xususan, sanitariya zonalari o'rnatiladi. Sanitariya zonalari 3ta mintaqaga bo'linib, ularning har biriga yerdan foydalanishning alohida holatlari (rejimi) o'rnatiladi. Masalan, birinchi mintaqada yashash, qandaydir qurilish inshootlari qurish man etiladi.

Suv ta'minoti manbalarini muhofaza qilish zonalari va ularni mintaqalarga bo'lishni belgilash tuman hokimliklarining qarorlariga binoan amalga oshiriladi.

Suv havzalari qirg'oq mintaqalarida yer haydash, mol boqish, yadoximikalar qo'llash, ishlab chiqarishga xizmat qiladigan qurilishlar qurish, dam olish bazalari qurish man qilinadi.

Suv fondi yerlaridan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasining maxsus qonunlari bilan belgilanadi.

Ichki suvlar qirg'oq mintaqalarida qurilmalar va inshootlar qurish faqat tegishli mahalliy hokimiyat organlarining roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin. Bu qurilma va inshootlar suv xo'jaligi maqsadlariga xizmat qilishi lozim.

Zaxira yerlar - O'zbekiston yer fondi tarkibidagi so'ngi mustaqil toifani tashkil etib, doimiy egallash va foydalanishga berilmagan yer maydonlaridir. O'zbekiston Respublikasi Yer Kodeksining 78-moddasida ko'rsatilishicha, yuridik va jismoniy shaxslar egaligiga hamda foydalanishiga, ijaraga berilmagan, mulk etib realizatsiya qilinmagan barcha yerlar zaxira yerlardir. Bunday yerlar jumlasiga egalik qilish va foydalanish huquqi, ijaraga olish huquqi, mulk huquqi bekor qilingan yerlar ham kiradi. Respublika yer fondi maydonlari o'zgarishsiz emas. Davlatning yerga bo'lgan egalik huquqini amalga oshiruvchi Respublika hokimiyat organlari yer uchastkalarini korxonalar, muassasalar, tashkilotlar o'rtasida taqsimlaydilar. Bir qism yerlar esa bo'linmasdan qoladi. Bular, asosan, o'zlashtirilmagan yerlardir, bular keyinchalik xo'jalik oborotiga kiritiladigan rezerv yoki ekologik tenglikni ta'minlab turadigan yerlardir. Shunday qilib, zaxira yerlarni ikki gruppaga bo'lish mumkin - yerdan foydalanishda rezerv rolini o'ynaydigan, baza bo'lib xizmat qiladigan, va, foydalanishga umuman noloyiq bo'lgan yerlar.

Bu toifadagi yerlarning manbalaridan biri bo'lib, oborotda bo'lgan yerlar hisoblanadi. Ular qonunda ko'rsatilgan asoslarga ko'ra zaxira yerlar fondiga o'tadilar, keyinchalik esa boshqa yerdan foydalanuvchilarga berib yuboriladi. Bu qatorga rekultivatsiya qilingandan so'ng qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda ma'lum vaqt ishlatib bo'lmaydigan yerlarni ham kiritish mumkin.

Zaxira yerlar asosiy foydalanish maqsadiga ko'ra har qanday boshqa yer fondi toifasiga o'tib ketishi mumkin. Bunday holatlarda ularga o'sha yer fondining huquqiy holati qo'llaniladi.

Davlat zaxira yerlari qisqa muddatli - 3 yilgacha, va uzoq muddatli - 3 yildan 10 yilgacha muddatga berilishi mumkin.

Qoidaga ko'ra, qisqa muddatga berilgan yer uchastkalari zaxira yerlar sostavida hisoblanadi. Muddatning tugashi bilan esa u boshqa yerdan foydalanuvchilarga berilishi yoki zaxira yerlar tarkibida qolishi mumkin. Boshqa hamma holatlarda - uzoq muddatga foydalanish uchun berilganda - bu yerlar zaxira yerlar fondi toifasidan chiqib ketadilar.

Zaxira yerlar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni ko'paytirish, sanoat, transport, boshqa noqishloq xo'jalik maqsadlari uchun jamoa bog'dorchiligi va polizchilikni rivojlantirish uchun rezerv bo'lib xizmat qiladi.

Hech kimga foydalanish uchun berilmagan zaxira yerlar biron bir kishi tomonidan o'zboshimchalik bilan egallab olinishi mumkin emas. Ular tuman hokimliklari ixtiyorida bo'ladi. Ular zaxira yerlarni yuqorida sanab o'tilgan maqsadlardan tashqari, yana uy-joy qurish, dachalar qurish, yakka tartibda uy-joy qurish uchun fuqarolarga, xizmat yuzasidan chek yerlar uchun berishlari mumkin. Bunda, albatta, bu yerlarni qishloq xo'jaligi maqsadlarida ishlatib bo'lmaslik e'tiborga olinishi lozim.

Zaxira yerlardan foydalanish ustidan nazoratni tuman (shahar) hokimliklari olib boradilar. Tuman (shahar) hokimliklarining qaroriga ko'ra uzoq muddatga yoki doimiy foydalanishga berilgan zaxira yerlar shu yer fondidan chiqarilib, foydalanish uchun berilgan yer fondi tarkibiga kiritiladi.

3. Yer resurslarini iqtisodiy baholash va uning asosiy ko'rsatkichlari.

Yer resurslarini iqtisodiy baholash, ulardan ko'p maqsadda foydalanish, yetishtiriladigan ekinlarning xilma-xilligi, olinadigan foydaning har xilligi, tabiiy iqtisodiy sharoitlarning har xilligi tufayli juda murakkabdir. Yer qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning asosi bo'lib, uni iqtisodiy baholash bozor iqtisodi sharoitida iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish va qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Yer resurslari qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarishning hajmi va samaradorligi bo'yicha baholanadi, bu esa ob-havo sharoiti, ekinlar turi, infratuzilma holati, iste'molchining uzoq- yaqinligi, qayta ishlashning imkoniyatlari kabi bir qancha omillarga bog'liqdir. Yer resurslarini iqtisodiy baholash bir necha yilgi ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi. Differensial renta bir yoki ikki yil muddatni hisobga olib hisoblab chiqiladi.

Yerni iqtisodiy baholash deganda qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish vositasi sifatidagi nisbiy bahosi tushuniladi yoki boshqacha aytganda, turli sifatli ko'rsatkichlarga ega bo'lgan yerlarning nisbiy daromad miqdori anglanadi. Yerni iqtisodiy baholashning bosh mohiyati uni sifatining qishloq xo'jaligidagi ijtimoiy ishlab chiqarishda mehnat unumdorligiga ta'sirini aniqlashdan iborat.

Odatda, yerning tabiiy, sun'iy va samarali hosildorlik xususiyatlari ajratiladi. Yerning tabiiy hosildorligi tuproqning hosil bo'lish jarayonlari bilan bog'liq. Sun'iy hosildorlik inson tomonidan unga turli ishlov berish (haydash, o'g'it solish, sug'orish, agrotexnik va boshqa tadbirlar) jarayonida vujudga keladi. Samarali yoki iqtisodiy hosildorlik tabiiy va sun'iy hosildorliklarning o'zaro qo'shilishidan hosil bo'ladi. Aslida, bu ikki guruhdagi hosildorlik yaqindan bog'liq bo'lib, birbirlarini o'zaro taqozo etadi. Sun'iy hosildorlikning buzilishi tuproq degradasiyasiga olib keladi. Yerning hosildorligi qotib qolgan hodisa emas, u o'zgarib turadi: tabiiy va inson omillari ta'sirida yuqori bo'lishi yoki aksincha pasayishi mumkin. Shuning uchun ham yerning iqtisodiy bahosini butun bir umrga yetarli qilib aniqlanmaydi, uni ma'lum vaqtlarda qaytadan aniqlab turish lozim. Yerni iqtisodiy baholashda uning faqat hosildorligigagina emas, shuningdek, joylashgan o'rni, chunonchi, shaharlarga yaqinligi, sanoat markazlaridan uzoqligi, transport qatnovi yo'lga qo'yilganligi ham hisobga olinadi.

Yerni iqtisodiy baholash jarayoniga relyefning o'ydim-chuqurligi, parchalanganligi, qiyaligi, tuproqning qalinligi, toshloqligi, mexanik tarkibi, tuproq turi va kichik turi, yer osti suvlari sathining joylashuvi, tuproq tarkibida birlamchi tuz va gipsning mavjudligi, shamol va boshqa hodisalar faol ta'sir etadi. Bu omillarni tahlil qilish bilan tuproq ball tizimida baholanadi, so'nggida yer kadastri ishlab chiqiladi.

Yerni iqtisodiy baholash maqsadida uni materiallar bilan ta'minlash uchun, shuningdek, qishloq xo'jaligini rejalashtirish va tashkil qilish niyatida hamda yer balansini, yerni baholashning hududiy birliklarini hisobga olish uchun barcha yerlarni toifalarga bo'lish maqsadga muvofiq: xo'jalik ichidagi va umumiy yer(baholash birliklari). Bu birliklar xo'jalikning ichida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini rejalashtirish va tashkil qilish talablariga mos kelishi lozim. Bu toifadagi yerlar o'z navbatida yana ikki guruhga ajratilishi mumkin: birinchi guruhdagi yerlarga xo'jalikning yerdan foydalanish tuzilmasiga muvofiq xo'jalik uchun umuman ajratilgan yerlar, fermerlar dehqon xo'jaligi va boshqalarga foydalanish uchun berilgan yerlar kiradi; ikkinchi guruhga xo'jalik jihatidan foydalaniladigan (ekinzorlar) yer massivlari, chunonchi, paxta, sholi, bug'doy, yem-xashak, poliz, bog', o'rmon va boshqalar ekiladigan yerlar, o't-almashlab ekish maydonlari, ayrim dalalar, partov, ishdan chiqqan maydonlar, yaylov, pichanzor va boshqalar kiradi. Jamoa xo'jaligi hududida barcha ekinzorlarni shu tartibda o'zaro bog'liq holda solishtirish yo'li bilan yerning nisbiy bahosini aniqlash mumkin.

Shuni nazarda tutish kerakki, ekinzorlar joylashishida avvalo ularni ma'lum relyef elementlariga (qavariq, botiq, yonbag'ir, tekislik, qiya va to'lqinsimon tekisliklar va b.) qarab joylashuvi, tuproq turlari, yer osti suvlari, iqlimiy xususiyatlar, yaylov turi va boshqalarning aniq hisobga olinishi baholashning asoslanganligiga jiddiy ta'sir etadi. Bunda suv manbalari va ularning sifati alohida e'tiborda bo'ladi.

Tuproqning sifati yoki mahsuldorligi uning turi, fizik-kimyoviy xususiyatlari, mexanik tarkibi, gumus qatlamining qalinligi va miqdori, yer osti suvlari sathining joylashuvi va boshqa omillarga

bog'liqligini hych kim inkor etmaydi. Tuproq qanchalik qulay tabiiy xususiyatlarga ega bo'lsa, shunchalik katta hosildorlikka ega bo'ladi. Lekin bu ko'rsatkichlar tuproqning iqtisodiy mahsuldorligi mezonlari bo'lib xizmat qila olmaydi. Tuproqni iqtisodiy jihatdan baholaganda undagi ekinlarning hosildorligi va maydon birligi (ga) dan olingan daromad eng yaxshi va ishonchli mezonlar hisoblanadi.

Hosildorlik - qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining so'ngi natijasi, shuning uchun ham yerning bahosini qayd qiladi. Ekinlardan olingan hosil miqdoriga qarab, dalalarning bahosini aniqlash mumkin, tuproqning mahsuldorligi qiymati ravshan bo'ladi. Tuproq mahsuldorligi barcha tabiiy va sun'iy sug'orish ahvolni to'liq mujassamlashtiradi. Yerni itisodiy baholash ikki ko'rsatkichda amalga oshiriladi; yalpi mahsulot bo'yicha amalga oshirish yerning ishlab chiqarish vositasi sifatida maydon birligi bo'yicha qiymatini bilishga imkon beradi. Bu ko'rsatkich ishlab chiqarish hajmini maydon birligida tabaqalashgan holda rejalashtirish uchun, ekin maydonidan oqilona foydalanish, soliq tizimini to'g'ri amalga oshirish va boshqalarni aniqlashda zarur. Sof daromad bo'yicha yerni iqtisodiy baholash maydon birligidan olinadigan daromadni chamalashda qo'l keladi, bu hol tabaqalashgan soliq, rentalarni aniqlashda zarur omil hisoblanadi.

Hosildorlik va sof daromad jamoa xo'jaligi hududida oldindan qishloq xo'jalik mahsulotlarining hajmi va undan keladigan sof daromadni rejalashtirishda eng ishonchli mexanizm bo'lib xizmat qiladi.

4. O'zbekistonning yer resurslaridan samarali foydalanish muammolari va ularni bartaraf etishni muhimligi.

O'zbekistonning umumiy yer resurslari 44,79 mln ga shundan 27,9 mln ga (63,3%) qishloq xujaligiga qarashli yerlar hisoblanadi. Mamlakat umumiy yer maydoning 5,6 mln ga. yer dehqonchilikda foydalaniladigan yerlardir. Shundan 4,447 ming ga. (15,9 %) haydaladigan yerlar hisoblanadi, 1,2 mln ga yer lalmikor yerlardir. Sug'oriladigan yerlar 4,2 mln ga (mamlakat hududining 9,4 %)

Mamlakat hududining (22,8 mln ga yerlar) 50,9 % cho'l zonasiga to'g'ri kelada. 21 % yerlar tog' va tog' oldi yerlari hisoblanadi. O'rmon fondi 10 mln ga. dan oshadi. Shundan 3 mln. ga. o'rmonlar tog' o'rmonlari, qolganlari esa cho'l o'rmonlaridir, so'gorilayotgan yerlar qishloq xo'jaligi mahsulotining 90 % ini beradi. O'zbekiston xo'jaligi uzoq yillar davomida asosan qishloq xo'jaligiga, paxta xom ashyosiga ixtisoslashtirilishi natijasida obikor yerlarning meliorativ ahvoli yomon ahvolga tushib qoldi. Bundan tashqari O'zbekiston yerlarining ancha qismini Qoraqum, Qizilqum, Ustyurt kabi cho'l yerlar tashkil etadi.

5. Yerning ifloslanishi, eroziyasi, sho'rlanishi va uning oldini olish tadbirlari.

Yerning cheklanganligi va sifat tarkibining pastligi, tuproq eroziyasi, sho'rlanishini ifloslanishi, eroziya, yaylov depressiyasi bilan bog'liq bo'lgan ekologik xavf-xatar to'xtovsiz ortib bormoqda. Respublika sug'oriladigan yerlarning 2 mln gektari (50 % ga yaqin) buzilish xavfi ostida qolgan. Ular asosan sho'rlangan yerlardir. Bu yerlarning 0,8 mln. gektari o'rtacha va kuchli darajada sho'rlangan. Qoraqalpog'iston, Buxoro, Sirdaryo viloyatlari yerlarining 90-95 %, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlarining 60-70 % yerlari sho'rlangan. Respublika tuprog'ining asosiy sifat ko'rsatkichi hisoblangan unumdorlik (gumus) 30-35% ga pasayib ketgan. Shamol eroziyasiga (deflyasiya) uchragan yerlar maydoni 2,1 mln gektarga, suv eroziyasi ta'siridagi maydonlar esa 0,7 mln ga teng. Mamlakatdagi 22 mln yaylovning 6 mln gektari – shamol, 3 mln gektari esa suv eroziyasi ta'siridadir. DDT pestisididan foydalanish 1983 yil ta'qiqlanganiga qaramay, uning tuproqdagi miqdori hamon normadan 2-4 barobar ortiqdir.

Tuproqning har xil sanoat chiqindilari va maishiy chiqindilar bilan ifloslanishi real tahdid tug'dirmoqda. Tuproqqa ortiqcha ishlov berish uning nurlanishiga va pestisidlar, og'ir metallar

changi bilan ifloslanishiga, tarkibidagi chirindining kamayishiga, eroziyaning avj olishiga va boshqa salbiy oqibatlariga olib keldi.

O'zbekistonda yerning ishdan chiqishiga asosan sug'orish va zovur tizimining eskirishi, sug'orish texnikasining qo'liqligi va suvdan foydalanishda isrofgarchilikka yo'l qo'yilishi sabab bo'ldi, bu esa yerning meliorativ holati yomonlashuviga va tuproq tarkibida tuzining ko'payib ketishiga olib keldi. Yerning yaroqsiz holga tushishi muammosini tubdan hal etish uchun sug'orish tizimini butunlay qayta ta'mirlash, tabiat bergan tekin ne'mat suvga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, shuningdek eroziyaga qarshi agrotexnik, xo'jalik, o'rmon meliorativ, gidro texnika tadbirlarini amalga oshirish zarur.

Yerdan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari.

Yerdan foydalanish sohasida vujudga kelgan amaliyotning kamchiliklari keltirib chiqargan ekologik muammolar tuguni faqat mamlakat qishloq xo'jaligini izchil suratida isloh qilgan taqdirdagina yechilishi mumkin.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligining o'zini ham, dehqon va qishloq aholisining yashash muhitini ham sog'lomlashtirish uchun ekinlarni almashlab ekiladigan turlarini ko'paytirishga o'tish (bedazorlar va boshqa o'tzorlarni kengaytirgan holda) muhim ahamiyatga ega. Mamlakat iqtisodiyotining mustahkamlashishi va uning eksport imkoniyatlarini oshirish buning uchun yaxshi sharoitlar yaratadi.

Bunda quyidagilar asosiy o'rinni egallashi kerak; qishloq hujalik yerlaridan foydalanishni yaxshilash, qishloq hujalik ishlab chiqarishi tarkibini qayta ko'rib chiqish, yaylov yerlaridan foydalanishni yaxshilash, samaradorligini oshirish yerni sho'rlanishini bartaraf etish va boshqalar.

Yerdan foydalanish, uni asrash, muhofazalash sohasidagi ekologik xavfsizlikni kuchaytirish va o'tmish davr asoratlarini bartaraf etishning asosiy yunalishlari quyidagilardan iborat; 1). Zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish. 2). Zaharli kimyoviy moddalarni qo'llash ustidan qattiq nazorat o'rnatish. 3). Ekin zararkunandalariga qarshi kurashishda biologik usullardan keng foydalanish. 4). Sug'orish suvidan me'yoridan ortiqcha foydalanish oqibatida ikkilamchi sho'rlanishining avj olishiga qarshi kurash tadbirlarini amalga oshirish. 5). Tuproqlar eroziyasiga qarshi kurashish. 6). Yerdan foydalanishni oqilona tejab tergap foydalanishning intensiv yo'lga o'tish. 7). Yerdan foydalanishda iqtisodiy rag'batlantirish, ifloslantirganlik uchun solinadigan maxsus soliqlardan keng foydalanish.

6. Davlat yer kadastrini, ball bonitirovkasining mazmuni va mohiyati.

Kadastr (*fransuzcha-reyestr, ro'yxat*) - obyekt yoki hodisa to'g'risida jamlama sifatida va miqdoriy ma'lumotlarning tizimli majmuasi hisoblanadi, ko'p hollarda ular iqtisodiy baholashni nazarda tutadi. Kadastrning turlari ko'p. Yer kadastrini quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: a) yerga egalik qilish va yerdan foydalanishni ro'yxatdan o'tkazish; b) yerni miqdoriy hisobi; v) yerning sifati; g) tuproq bonitirovkasi; d) yerlarni iqtisodiy baholash.

Tuproq bonitirovkasi (*lotin tilida - asl, sifatli*) - tuproqning unumdorligi bo'yicha nisbiy baholashdan iborat. Qiyosiy baholash tuproqlarni majud obyektiv xususiyatlari va belgilari asosida amalga oshirish, bular qishloq xo'jalik ekinlarining o'sishida eng muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bonitirovkada miqdoriy ko'rsatkichlar (ballar) qo'llaniladi. Ular bir tuproqni ikkinchi tuproqdan qanchalik yaxshi yoki yomon ekanligini aniqlashga imkon beradi. Bunda tuproqning eng muhim xususiyatlari va hosildorligi e'tiborga olinadi. Boshqacha aytganda, tuproq bonitirovkasi-bu, tuproqning hosildorligini ball hisobida agronomik inventarizasiya qilish bo'lib, ball tuproqning asosiy xususiyatlari va eng muhim qishloq xo'jalik ekinlarining o'rtacha hosildorligi hamda tabiiy yaylov (pichanzor) larning mahsuldorligi hisoblangan ko'rsatkichidir.

Tuproq bonitirovkasi yer kadastrining asosiy qismlaridan biri bo'lib, yer fondini miqdor va sifat jihatdan hisobga olish hisoblanadi. Miqdoriy hisobga olishning mohiyati yerdan foydalanish va ekinlarning turi bo'yicha maydoni hisobida taqsimlanishni ko'rsatadi. Haydaladigan, sug'oriladigan

yerlar, bog'lar, pichanzor, yaylovlar va boshqalarning maydoni hisobga olinadi. Sifat jihatidan ro'yxatdan o'tkazishga tuproqning asosiy xususiyatlari, ayniqsa, unumdorligi hamda mehnat mahsuli-ekinlarning hosildorligi (ko'rsatkichi) hisobga olinadi. Bunda har bir yer maydonining haqiqiy imkoniyati mahsuldorligi, shuningdek, butun jamoa xo'jaligi, tuman va viloyat bo'yicha ko'rsatkichlar aniqlanadi. Bunday tartibda yer uchastkalarini hisobga olish qishloq xo'jalik yerlarini (ekinzorlarini), haydaladigan yerlar, pichanzor, yaylov, o'rmon va boshqalarning mahsuldorligini oshirish tadbirlarini ishlab chiqishda zarur bo'ladi. Xo'jaliklarning ixtisoslashuvi va tarmoqlarning oqilona almashib kelishi, yerlarni sug'orish qilishda kapital mablag' sarflashni rejalashtirishda asos bo'ladi. Shu bilan birga tuproq bonitirovkasi mustaqil ahamiyatga ega bo'lib, ma'lum hududlarni (jamoa xo'jaligi, tuman, viloyat) tuproqlarining unumdorligi bo'yicha guruhlariga birlashtirish va solishtirish uchun imkon beradi, jamoa xo'jaliklari va ishlab chiqarish faoliyatiga hududning iqlimiy va iqtisodiy sharoitlarini e'tiborga olib to'g'ri baho berish, tuproqlardan oqilona foydalanish asosida qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish, bu boradagi imkoniyatlarni aniqlashga yordam beradi.

Bonitirovkada paxta, don, sholi, yem-xashak, qand lavlagi yetishtirish, tabiiy o't va o'rmonlar, bog'lar tashkil qilish uchun eng qulay sharoitlarni aniqlash maqsad qilib qo'yiladi. Qishloq xo'jalik mutaxassislariga sug'orma, lalmi yerlardan, yaylovlardan jadal foydalanish tadbirlarini ishlab chiqishda yordam beradi. Bonitirovka asosida tuproq sifatiga mos keladigan hosildorlikni oldindan belgilash, tuproqqa solinadigan mineral va organik o'g'itlar miqdorini aniqlash mumkin. Bonitirovka tuproqning qanday chora-tadbirlarga muhtojligi, eroziya va defoliyasiya, quritish sug'orishi, fitosug'orish tadbirlarini amalga oshirish zarurligini hudud bo'yicha hamda ayrim areallarda muntazam keng miqyosda qo'llashni asoslaydi.

Bonitirovka usullari va bonitirovka mezoni baholash mezonlari bo'yicha farqlanadi. Bunda tuproqning ayrim tabiiy xususiyatlari yoki ushbu xususiyatlaridan jami baholashda foydalaniladi. Lekin baholash jarayonida tuproqning qishloq xo'jalik ekinlari rivojlanadigan sharoitlarini belgilovchi xususiyatlari va belgilari asos qilib olinadi. Shuning uchun ham ma'lum xususiyatlarga ega bo'lgan tuproq bir turdagi ekin uchun qulay, boshqa turdagi ekinlar uchun esa noqulay bo'lishi mumkin.

Tuproqlarni xususiyatlari bo'yicha baholash mantiqan qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini nazorat qiladi. Tuproqlarni baholashda ularga jiddiy ta'sir etuvchi omillar, ya'ni relyef, grunt suvlari sathi va mineralashuv darajasi, iqlim xususiyatlari, gruntning suv o'tkazuvchanligi, yotqiziqslarning litologik tarkibi, yerning o'lchamlari va boshqalarga katta ahamiyat beriladi.

MDH mamlakatlarida, shu jumladan, O'zbekistonda 100 ballik baholovchi shkala qabul qilingan. Ballarni ishlab chiqish yer tuzish davlat loyiha instituti, oliy o'quv yurtlarining tuproqshunoslik kafedralari, Tuproqshunoslik va agrokimyo institutida mahalliy tabiiy va iqlimiy sharoitlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Bonitirovka ballarini har bir baholash belgisi bo'yicha hisob-kitob qilish qabul qilingan quyidagi formula asosida amalga oshiriladi:

$$B = \frac{3\phi \times 100}{3M}, \text{ Bunda: } B\text{-tuproq balli; } Z_f\text{-biror belgi (gumus miqdori, azot, fosfor, kaliy va b.);}$$

Z_m -shu belgining qiymati, u 100 ball hisobida olinadi.

Balli baholash tuproqlarning andozali ko'rsatkichlari asosida bajarilishi lozim, o'shanda tuproqdagi gumus miqdori 100% ga teng bo'ladi. Masalan, sug'oriladigan och bo'z tuproqda gumus miqdori, aytaylik, 1,3% bo'lsa, u andozali tuproqda 2,3% teng deb hisoblash bilan yuqoridagi formula asosida quyidagi miqdorga ega bo'lamiz: $1,3 \times 100 : 2,3 = 57$. Bu misoldagi sug'orma och bo'z tuproq 1 ga maydonda 57 ballga teng.

Mutaxassislar tuproq bonitirovkasi ballarini tasniflash natijasida quyidagi shkalani taklif qilishgan (1-jadval).

1-jadval.

Tuproq boniteti klasslarining mezoni.

Bonitet klassi	Bonitet bali	Tuproqning sifatli tavsifi
8-10	91- 100 81-90 71-80	Yaxshi
5-7	61-70 51-60 41-50	O'rta
2-4	31-40 21-30 11-20	Yomon
1	1-10	Dexqonchilikda foydalanilmaydi

Nazorat va mulohaza uchun savollar.

1. Yer resurslarini ekologik-iqtisodiy xususiyatlarini ta'riflang.
2. Yer resurslarini iqtisodiy baholash va uning asosiy ko'rsatkichlarini ayting.
3. O'zbekiston yer resurslarini iqtisodiy tarifini berig.
4. Yerning ifloslanishi, erroziyasi sabablarini va ularni oldini olish tadbirlarini ko'rsating.
5. Yerdan foydalanish samaradorligini oshirish nimalarga bog'liq?
6. Yer kadastiri to'g'risidagi qonun qachon va nima maqsadda chiqarilgan?
7. Ball baniterovkani nimalarga asoslanib aniqlanadi va undan nima maqsadda foydalaniladi?
8. O'zbekiston yer resurslarini hozirgi axvolini qanday izoxlaysiz?
9. Yer resurslarini xususiylashtirish qanday natijalar beradi?

5-Mavzu: Biologik resurslardan foydalanish va ulardan muhofaza qilish(6-soat).

Reja:

1. Iqtisodiyotni modernizasiya qilish sharoitida, bioxilma-xillikni saqlab qolishni ahamiyati.
2. Barqaror rivojlanish konsepsiyasini mazmun va mohiyati.
3. Biologik resurslar to'g'risida tushuncha.
4. Biologik resurslarning asosiy ko'rsatkichlari va ulardan amaliyotda foydalanish.
5. Biologik resurslarni iqtisodiy baholash va barqaror boshqarish masalalari.
6. Biologik resurs, produsent, konsument, reyedusent, moddalarning biologik aylanishi, biosanoat kompleksi.

1. Iqtisodiyotni modernizasiya qilish sharoitida, bioxilma-xillikni saqlab qolishni ahamiyati.

Bioxilma-xillik - bu Yerdagi turli tuman hayotning xilma-xilligidir. Bioxilma-xillik deganda ko'z oldimizga o'simliklar, hayvonlar va mikroorganizmlarning boy xilma-xil turfa olami keladi. Bioxilma-xillik o'z ichiga quyidagilarni oladi.

1. Genetik xilma xillik;
2. Turlar xilma-xilligi;
3. Ekotizimlarning xilma-xilligi.

Genetik xilma-xillik - Yer sayyorasidagi tarqalgan organizmlarning genetik axborot hajmini o'z ichiga oladi.

Turlar xilma-xilligi - Yer sayyorasidagi tirik organizm turlarning turli-tumanligini o'z ichiga oladi.

Ekotizimlarning xilma-xilligi - biosferadagi yashash (hayot) muhirlari va biotik jamoalarni turli xil tumanligini, kechayotgan ekologik jarayonlar xilma-xilligini o'z ichiga oladi.

Olimlarning fikricha, Yerdagi taksonomik jihatdan aniqlangan turlarning soni 13 millionga yaqindir. Hozirgi paytgacha, Yer yuzida 1,75 million turlar aniqlangan bo'lib, ulardan 750000 - hasharotlar, 41000 - umurtqali hayvonlar, 250000 - o'simliklar tashkil etadi. Qolgan turlar-murakkab tarkibdagi umurtqasiz hayvonlar, suv o'tlari, mikroorganizmlar va boshqa organizmlardan iborat. Hozirgi kunda biz ko'rayotgan bioxilma-xillik Yerdagi tashqi va ichki tabiiy jarayonlar natijasida yuz million yillar davomida kechgan murakkab evolyutsiya jarayonining natijasi va hosilasidir. So'nggi yillarda tabiatda antropogen (shuningdek, texnogen) ta'sirning zo'rayganligi, ekologik o'zgarishlarning sodir bo'layotgani hamda o'rmonlar (ayniqsa, nam tropik o'rmonlar) egallagan hududlarning o'rmonlarning kesilishi natijasida qisqarishi natijasida bioxilma-xillikka putur yetdi, ko'plab o'simlik va hayvonot turlari butunlay yo'qoldi yoki ularning soni keskin kamaydi. Bioxilma-xillik bu sayyoramizning hayot resurslarini saqlab qolish demakdir. BMT ma'lumotlariga binoan, Yer yuzi aholisi tez ko'payib borayotgan bir paytda, hayvonot dunyosi 3/1 qismga kamayib bormoqda. Xususan, 21 % sut emizuvchilar, 30 % sudralib yuruvchilar, 12 % qushlar, 17 % akulalar hamda 27 % korallar Yer yuzidan batamom yo'qolib ketishi mumkin. Ayniqsa, Yevropada industrial rivojlanish

tufayli qishloq xo'jaligi hududlaridagi qushlar soni 40 % ga, iqlim o'zgarishi tufayli dengiz qushlari soni esa 44 % ga kamaygan. Bu ma'lumotlarga qaraganda bioxilma-xillik misli ko'rilmagan darajada kamayib bormoqda, o'simlik va hayvonot turlarining yo'qolish sur'ati nihoyatda yuqoridir.

1992- yil Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida o'tkazilgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Atrof-muhit va rivojlanish" bo'yicha Xalqaro anjumanida "Biologik xilma-xillik to'g'risida Konvensiya" qabul qilingan. Bioxilma-xillik to'g'risida Konvensiyaning maqsadi sayyoramizda bioxilma-xillikni saqlash, uning tarkibiy qismlaridan va genetik resurslaridan barqaror, adolatli va teng foydalanishdir. O'zbekistonda bioxilma-xillikni saqlashda qonun muqofazasi ostida olingan tabiiy quduqlar alohida muhim o'rin tutadi. 2004 -yil 3- dekabrda "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilingan. Mazkur qonunning vazifasi - tipik, noyob, qimmatli tabiiy ob'ektlar va majmualarni, o'simliklar va hayvonlarning irsiy fondini saqlab qolish, inson faoliyatining tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatishi oldini olish, tabiiy jarayonlarni o'rganish, atrof tabiiy muhit monitoringini olib borish, ekologik ma'rifat va arbiyani takomillashtirishdan iboratdir. 1998 -yil 1 – aprelda O'zbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyaga qo'shilgan bo'lib bu borada hukumatimiz tomonidan Biologik xilma-xillikni saqlash Milliy strategiyasi va harakat rejasi ishlab chiqilgan bo'lib, Konvensiyaning muhim tamoyillari O'zbekiston Respublikasining "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi (26.12.1997y.), "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi (26.12.1997y.) hamda boshqa qonunlarida o'z aksini topgan. Aytib o'tish lozimki, O'zbekistondagi flora va fauna tarkibi, ya'ni bioxilma-xilligi 27 000 o'simlik va hayvonot turlari dunyosidan tarkib topgan. O'zbekiston faunasi ya'ni hayvonlar olami o'z ichiga 97 tur sutemizuvchilarni, 424 tur qushlarni, 58 tur hasharotlarni, 83 tur baliqlarni oladi. O'zbekiston florasi, o'simliklar olami esa 4100 dan ortiq o'simliklarni o'z ichiga oladi. Olimlar fikricha, Tabiat - bu uzun chambarchas zanjirdir, binobarin har bir o'simlik va hayvonot turining yo'qolishi Yer sayyorasi ekotizimini, Biosferani xavf ostiga qo'yadi. O'z navbatida bioxilma-xillik Biosferadagi modda va energiya almashuvida kechayotgan biogeokimyoviy sikllarning barqarorligini ta'minlashda asosiy omil hisoblanib, yerdagi hayotning asosidir. Tabiiy ekotizimlar xilma-xilligi o'z navbatida o'simlik va hayvon turlarining turli-tumanligini ta'minlaydi hamda tuproq sifatini yaxshilaydi, suv va havoni tozalaydi. har bir tur esa tegishli ekotizimning zarur uzviy elementi hisoblanadi. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, bioxilma-xillik - hayot mezonidir, uni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash bizning umumiy manfaatimizdir. Bu jarayonda yoshlarimizning atrof tabiiy muhit muhofazasi yo'nalishdagi yaratuvchanlik, bunyodkorlik sifatlarini namoyon etish hamda dahldorlik hissiyotini uyg'otish ayniqsa hozirgi kunning muhim vazifasidir.

Insoniyat tabiatning bir bo'lagi. O'simliklar olami, hayvonot dunyosi, bioxilma-xillik butun borliq bir ekotizimdir. Hududimiz biologik turli-tumanligi mamlakatimizning milliy boyligidir.

O'zbekiston o'zining barqaror rivojlanishi uchun 1995-yilda bioxilma-xillik to'g'risidagi xalqaro Konvensiyaga qo'shildi.

Istiqlolning dastlabki yillaridan hududimiz bioxilma-xilligini muhofazalashga katta e'tibor qaratilib kelinadi. Uning huquqiy asoslari yaratildi va takomillashtirilmog'da. 1992 -yil «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida», 1993 yil «Alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar to'g'risida», 1993 yil «Suv va suvdan foydalanish haqida» qonun qabul qilindi.

Ma'lumki, o'simliklar va hayvonot olamini muhofaza qilish, bioxilma-xillikni saqlashda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tarmog'i katta ahamiyatga ega. Respublikamizda umumiy maydoni 2164 km² dan iborat bo'lgan 9 ta davlat qo'riqxonasi, umumiy maydoni 6061 km² bo'lgan 2 ta milliy bog', maydoni 12186,5 km² bo'lgan 9 ta davlat buyurtmaxonasi va noyob hayvon turlarini ko'paytirish bo'yicha respublika «Jayron» ekomarkazi hamda «Sayxun» parvarishxonasi mavjud.

Yovvoyi hayvonlar va o'simliklarning noyob turlarini ko'paytirish bo'yicha muassasalar tabiatni muhofaza qilish va bioxilma-xillikni saqlab qolishning eng samarali yo'lidir. Respublikamizdagi mavjud davlat qo'riqxonalari, davlat buyurtmaxonalari va markazlarida hududimiz faunasida turlari kamayib, yo'qolib borayotgan noyob hayvon va o'simliklar muhofaza ostida, tabiiy sharoitda yashaydi, o'sadi. Masalan, qo'mitamiz tasarrufidagi Buxoro viloyatida

joylashgan «Jayron» ekomarkazi hududida hayvonlarning 8 turi mavjud, maydoni 7 122 gektarni tashkil etadi. Toshkent viloyatidagi Chotqol davlat biosfera qoʻriqxonasining umumiy maydoni 35 724 gektardan iborat, hayvonlarning 152 turi, oʻsimliklarning 700 turi uchraydi.

Mutaxassislarning taʼkidlashicha, yer yuzida insonning tabiatga notoʻgʻri munosabati oqibatida, oʻsimliklarning ming yillar davomida tashkil topgan tabiiy manzarasi oʻzgarib, qashshoqlashib, yashil olam oʻzining koʻrkini yoʻqotmoqda, tabiatning ekologik muvozanati buzilmoqda. Yana tabiiy maydonlar shiddat bilan oʻzlashtirilayapti. Oqibatda oʻsimliklarning noyob turlari, endem turlar tabiatdan yoʻqolib ketish xavfi ostida. Bu esa oʻsimliklar genofondining kamayishiga sabab boʻlmoqda.

Tabiatda har qanday oʻsimlik turining yoʻqolishi uni tiklab boʻlmaydigan oqibatlarga olib keladi. Respublikamiz florasini nihoyatda boy. Hududimizda 4 500 ga yaqin yovvoyi oʻsimlik va 2 000 dan ortiq zamburugʻ turlari mavjud. Ular orasida muhofazaga muhtoj koʻpgina kamyob, endem va relikt turlar ham bor. Bunday turlarning soni 400 atrofida, ular Oʻzbekiston florasining 10-12 % tashkil etadi. Yurtimiz tabiatidagi lola va sallagullar, qimmatbaho oʻsimliklarimiz noyob turlar hisoblanadi, dunyoga dongʻi ketgan.

«Botanika» ilmiy ishlab chiqarish markazi olimlarining tadqiqotlari oʻz samarasini berayapti. Keyingi yillarda viloyatlarda olib borilgan ilmiy izlanishlarimiz tufayli baʼzi yoʻqolib borayotgan oʻsimliklarimiz turi koʻpaydi va areallari kengaydi. Masalan, Korolkov zaʼfaroni, Noksimon normushk, Suvorov piyozi, Anzur piyoz...

Floramizning koʻrki — Nurota moviyguli faqat Nurota togʻlarida, Oqtogʻ moviyguli — Janubi-gʻarbiy Qizilqumdagi qoldiq togʻlarda, Buxoro tangaoʻti — Xisor togʻ tizmasidagina oʻsadi va juda nodir hisoblanadi. Bunday noyob turlarni asrash, kelgusi avlodlarga yetkazish har birimiz uchun ham qarz ham farzdir.

Tabiatimizning biologik va landshaft xilma-xilligi milliy boyligimiz. Bu boylik bir necha ming-ming yillik evolyutsiya davomida paydo boʻlgan hamda ajdodlarimiz ulardan oqilona foydalanib, bizga meros qoldirgan.

Afsuski, oʻtgan yuz yillikning soʻnggi 50-60 yilida tabiiy yaylovlarimiz shiddat bilan oʻzlashtirildi, suv, botqoq tizimiga putur yetdi. Oqibatda choʻl, yarim choʻl, dashtlardagi betakror choʻl biologik majmualarimiz keskin qisqarib ketdi.

Fauna — bioxilma-xillikning muhim boʻgʻini. Oʻzbekiston hayvonot olami juda qadimiy hamda oʻta murakkab genetik rishtalar orqali oʻzaro bogʻlangan. Hududimizda Yevroosiyo choʻllari, Hindi-Xitoydan, Oʻrta Yer dengizi atroflaridan kirib kelgan guruhlarning ham muayyan oʻrni bor. Hududimiz faunasida umurtqali hayvonlarning 677 turi (sut emizuvchilar — 108, qushlar 432, sudralib yuruvchilar 58, amfibiyalar — (suvda va quruqlikda yashovchi) 2, baliqlar 77 turi mavjud. Faunaning har bir turi — tarixan takrorlanmas, genetik jihatdan yagona, har qanday biologik hamjamoada faqat oʻziga xos oʻringa ega.

Istiqlolning dastlabki yillaridan davlatimiz hududimiz faunasini rivojlantirish masalasiga alohida eʼtibor qaratib keladi. Tizimni takomillashtirishning mustahkam huquqiy asoslari yaratildi. Oʻzbekiston 1997- yilda «Yoʻq boʻlib ketish xavfi ostidagi yovvoyi fauna va flora turlarining xalqaro savdosi toʻgʻrisida»gi xalqaro konvensiya, 2001- yilda esa «Xalqaro ahamiyatga ega, ayniqsa suvda suzuvchi qushlarning yashash joylari boʻlgan suv-botqoqli joylar toʻgʻrisida»gi (Ramsar) konvensiyalariga qoʻshildi.

Bu boradagi ilmiy salohiyat oshirildi, hayvonot olamining areallari, suv-botqoq tizimi, toʻqayzor, oʻrmonzorlar kengaytirildi. Markaziy Osiyo mintaqasida kamyob hayvonlarni koʻpaytirish, ularni saqlash va reintroduksiya qilish uchun «Jayron» ekomarkazi faoliyat koʻrsatyapti. Bu yerda yaqin oʻtmishda tabiatda yoʻqolib ketish xavfi ostida boʻlgan qulon, yoʻrgʻa tuvaloq, jayron kabi kamyob turlar koʻpaytirilyapti.

Umumjahon atrof-muhit kunini nishonlash toʻgʻrisida 1972 -yilda Stokgol'm shahrida BMTning atrof-muhitga bagʻishlangan Konferensiyasida qaror qabul qilingan edi. Ushbu qarorning maqsadi - xalqaro hamjamiyatning eʼtiborini atrof-muhit muhofazasi muammolariga hamda global ekologik inqirozning oldini olish boʻyicha chora-tadbirlarni qabul qilishga qaratilgan. Oʻzbekiston

Respublikasi Tabiatni muhofaza hilish davlat qo'mitasi "Barkamol avlod yili" Davlat dasturining ijrosi yuzasidan hamda ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mahsadida, joriy yilning 5 iyun-kuni Umumjahon atrof-muhit kuniga bag'ishlangan bayram tadbirini tashkil etayapti. Joriy yilda 5-iyun Umumjahon atrof-muhit kuni "turlarning ko'pligi - yagona sayyora - yagona kelajak" mavzusida o'tkazilmoqda. Ma'lumki, BMT Bosh Assemblyasi tomonidan 2010 yil - "Xalqaro bioxilma-xillik yili" deb e'lon qilindi. Ushbu yilning ustuvor vazifalaridan biri - aholi o'rtasida bioxilma-xillikni saqlab qolish zamon talabi ekanligi, unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish borasida samarali va sifatli targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish, atrof-muhit muhofazasi hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida hamkorlikda faoliyat ko'rsatish hisoblanadi. Bioxilma-xillikni saqlab qolishda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning ahamiyati kattadir. O'zbekiston Respublikasida Biologik xilma-xillikni saqlash Milliy strategiyasi va harakatlar rejasining tasdiqlanishi bioxilma-xillikni saqlab qolish yo'lidagi ulkan ishlardan biri bo'ldi. Bu strategiyaning asosiy vazifalaridan biri - mamlakat umumiy maydonining 10 % ga yaqin qismini qamrab oladigan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar barqaror tizimini tashkil qilishdan iboratdir. 2004 yilning dekabr oyida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri qabul qilindi. Mazkur qonun "Biologik xilma-xillikni saqlash to'g'risida"gi, "Yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan, asosan suvda suzuvchi qushlar yashash joylari hisoblangan suv-botqoq hududlar to'g'risida"gi Xalqaro Konvensiyalar yuzasidan olingan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlashga qaratilgan. O'tgan 2009 yilda Buxoro viloyatining To'dako'l, Xadicha, Zikri suv havzalaridagi qushlarni hisobga olish ishlari bajarildi va natijada qishlaydigan qushlar sonining keskin kamayganligi qayd etildi; Toshkent viloyatida kamyob va ovbop qushlar turlari bo'yicha kadastr tadqiqotlari o'tkazildi; Xisor qo'riqxonasi atrofida umurthali hayvonlarni, "Dalvarzin" ovchilik xo'jaligida qirg'ovullarni hisobga olish ishlari amalga oshirildi, natijada qirg'ovullar sonining ancha ko'paygani ma'lum bo'ldi.

Sirdaryo viloyatidagi "Sayxun" xo'jaligida hayvonlarning ovbop turlarini hisobga olish ishlari natijasida: sirdaryo qirg'ovuli - 610-630 bosh; katta tomoq - 450-500 bosh; to'ng'iz - 8-10 bosh; tolay quyoni 40-45 bosh; tulki - 10-15 bosh ekanligi; bo'rsiq - uch-to'rt oilaligi aniqlandi; Farg'ona vodiysi tabiiy o'simliklari va yer usti umurtqalilar faunasini inventarizatsiyadan o'tkazish ishlari bajarildi; global miqyosda yo'qolib ketish xavfidagi qush turi - sterxning O'zbekiston hududidan uchib o'tish yo'lini aniqlash bo'yicha ikkinchi xalqaro ekspeditsiya o'tkazildi. "Jayron" ekomarkazida buxoro qo'yini ko'paytirish ishlari amalga oshirilmoqda. hozirgi kunda ekomarkazda bir bosh burama shohli echki, 10 bosh buxoro qo'yi saqlanmoqda, o'tgan yili 3 bosh qo'zi dunyoga keldi. "Jayron" ekomarkazi hududini kengaytirish uchun Buxoro viloyat hokimining qarori bilan qo'shimcha 9 369 ga yer maydoni ajratildi hamda qo'shimcha 4500 ga yer maydonini berish bo'yicha fermer xo'jaliklari bilan tushuntirish ishlari olib borilmoqda. "Jayron" ekomarkazini yanada jihozlash uchun Sho'rtangazkimyo kompleksi tomonidan 100 mln.so'm va tabiatni muhofaza qilish mablag'lari hisobidan 6 mln.so'm ajratildi. Joriy yilning 17- mart kuni Qozog'iston Respublikasi Prezidentining Toshkent shahriga tashrifi chog'ida O'zbekiston Respublikasi hukumati hamda Qozog'iston Respublikasi hukumati o'rtasida "Sayg'oqning muhofazasi, uni ko'paytirish va foydalanish bo'yicha" O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi milliy ijrochi agentlik bo'lgan xalqaro tabiatni muhofaza hilish loyihalarini ro'yobga chiqarilishi davom ettirilmoqda: bunga "Qoraqalpog'iston hududidagi Amudaryo deltasida to'qay o'rmonlari va muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimlarini saqlab qolish" loyihasi, BMT TDG/GEFning "Rio Konvensiyalarini bajarilishi bo'yicha maqsadli institutsional kuchaytirish va mahoratni rivojlantirish orqali milliy salohiyatni mustahkamlash", "O'zbekistonning neft va gaz sektoriga bioxilma-xillik tamoyillarini integrallashtirish" kabi o'rta masshtabli loyihalari bajarilmoqda. Umuman, O'zbekistonda barqaror rivojlanishni ta'minlash borasida bioxilma-xillikni saqlash va muhofaza qilish muhimligiga alohida e'tibor qaratiladi.

2. Barqaror rivojlanish konsepsiyasini mazmun va mohiyati.

O‘zbek modeli tushunchasining hayotimizga, ongu shuurimizga shiddat bilan kirib kelganiga mana 20 yildan oshdi. Bu tarix uchun katta muddat emas. Lekin ana shu nisbatan qisqa davr mobaynida O‘zbek modeli ulkan hayotbaxsh kuch sifatida ikkita katta sinovdan muvaffaqiyatli o‘tdi.

Birinchi sinov — o‘tgan asrning 90-yillarini o‘z ichiga olgan, yosh mustaqil mamlakatimiz boshidan kechirgan o‘tish davri edi. O‘shandayoq O‘zbekiston sobiq ittifoq mamlakatlari orasida birinchi bo‘lib makroiqtisodiy barqarorlikka erishdi, sanoat va yalpi ichki mahsulot (YaIM) ishlab chiqarishda oldingi yillardagi ko‘rsatkichlardan o‘zib ketdi. Boshqacha aytganda, inqirozdan rivojlanish orqali chiqib ketish birdan-bir to‘g‘ri yo‘l ekanini isbotladi.

Ikkinchi sinov — 2008 yilda boshlangan global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz bo‘ldi. Taraqqiyotning ushbu modeli nafaqat butun jahonni qamrab olgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz zarbalariga qarama-qarshi tura oldi, balki dunyodagi 10 mamlakat qatorida iqtisodiy o‘shishning eng yuqori (yiliga 8–9 foizdan kam bo‘lmagan) sur‘atlarini ta‘minlab kelmoqda.

O‘zbekiston Prezidentining shu munosabat bilan chop etilgan «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari» asarida hamda mamlakatimizda jahon iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha 2009–2012 yillarga mo‘ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturida O‘zbekiston iqtisodiyotining inqirozdan keyin yanada kuchli, barqaror va mutanosib rivojlanishi konsepsiyasi ilgari surildi. Inqirozdan keyingi rivojlanish, deb nom olgan bu ta‘limot iqtisodiyot nazariyasiga qo‘shilgan munosib hissa bo‘ldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

«Shuni doimo yodda tutishimiz kerakki, hayot hech qachon bir joyda to‘xtab turmaydi va erishgan natijalari bilan kifoyalanmasdan, dunyoda kechayotgan tub o‘zgarishlar jarayonidagi o‘z o‘rniga haqqoniy va tanqidiy baho beradigan, davrning tobora ortib borayotgan talablari va jahon bozorida kuchayib borayotgan raqobat kurashiga mos holda qadam tashlaydigan davlatgina birinchi navbatda muvaffaqiyat qozona oladi».

XX asrning 80-yillari oxiriga kelib iqtisodiy tanglik keskin va halokatli tus oldi. Bu avvalo, mahsulot ishlab chiqarishning butunlay pasayib ketishida, ishlab chiqarish quvvatlarining ish bilan ta‘minlanmaganida, ishsizlik darajasining o‘shishida, pul-kredit va valyuta tizimining izdan chiqishida namoyon bo‘ldi. YaIM, milliy daromad kabi asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar, mehnat unumdorligi uzluksiz pasayib bordi. Tashqi savdo aylanmasi qisqardi, tashqi savdoning salbiy saldosi va davlat qarzi o‘tdi.

Surunkali inflyatsiya hammaning tinkasini qurita boshladi. Natijada shusiz ham nochor ahvolda kun kechirayotgan aholining daromadlari va turmush darajasi muttasil pasaya boshladi. Ishlab chiqarish ko‘lami va hajmining tinimsiz qisqarishi, ayniqsa, O‘zbekistondan keskin demografik sharoitda yashayotgan aholi turmush darajasiga yanada og‘irroq ta‘sir ko‘rsatdi. O‘zbekiston aholi jon boshiga milliy daromad ishlab chiqarish, real daromadlar, ish haqi, mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlari bo‘yicha sobiq sho‘ro respublikalari orasida eng oxirgi o‘rinlardan biriga tushib qoldi.

Islom Karimov o‘zining «O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» asarida bu ayanchli vaziyat haqida shunday ta‘kidlagan edi: «O‘zbekiston kishi boshiga yalpi ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha mamlakatda 12-o‘rinni egallab turibdi, aholi jon boshiga milliy daromad ishlab chiqarish bo‘yicha esa ittifoqdagi o‘rtacha darajadan ikki hissa past». Bu davrda sanoatdagi mehnat unumdorligi jihatidan O‘zbekiston o‘rtacha ittifoq ko‘rsatkichidan 40 foiz, qishloq xo‘jaligidagi mehnat unumdorligi jihatidan esa ikki barobar orqada edi. Respublika aholi jon boshiga xalq iste‘moli mollari ishlab chiqarish bo‘yicha ittifoq darajasining 40 foizini tashkil etardi. Qisqasi, mamlakat xo‘jaligining amal qilib kelgan tarkibi ekstensiv rivojlanish mahsuli edi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov bugun jahonda taraqqiyotning «o‘zbek modeli» sifatida keng e‘tirof etilgan milliy taraqqiyotimizning mazmun-mohiyati va o‘ziga xos jihatlarni mustaqillikning dastlabki yillarida belgilab berdi.

Keyinchalik bu taraqqiyot yo‘limiz nemis, shved, xitoy va yapon modellari orasidan munosib o‘rin egalladi. «O‘zbekiston boshqa davlatlar taraqqiyoti jarayonida to‘plangan va respublika

sharoitiga tatbiq qilsa bo‘ladigan barcha ijobiy va maqbul tajribalardan shak-shubhasiz samarali foydalanadi,— deb ta’kidlaydi Islom Karimov o‘zining «O‘zbekistonning o‘z istiqloq va taraqqiyot yo‘li» asarida. —Gap biron-bir modelni, hatto u ijobiy natijalar bergan taqdirda ham, ko‘r-ko‘rona ko‘chirib olish to‘g‘risida borayotgani yo‘q. Aniq-ravshan vositalar va usullar qaysi mamlakat uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, o‘sha mamlakatning o‘ziga xos sharoitidagina ijobiy natija beradi».

Davlatimiz rahbari belgilab bergan O‘zbekistonda bozor munosabatlariga o‘tishning besh asosiy tamoyili ko‘p o‘tmay o‘zining har tomonlama to‘g‘ri, hayotiy va uzoqni ko‘zlab yuritilayotgan izchil va oqilona siyosat samarasi ekanini ko‘rsatdi. Ushbu tamoyillar keyinchalik haqli ravishda bozor iqtisodiyotiga o‘tishning o‘zbek modeli, fenomeni, degan nom oldi.

Bugun bundan 22 yil ilgari qo‘yilgan «Nima qilmoq kerak, nimadan boshlamoq kerak?» degan savollarga dalil javob topganimizni dunyo ahli ko‘rib, bilib, samaralarini o‘rganib turibdi. Lekin o‘sha davrda vaziyat ancha murakkab va noaniq edi. Xususiylashtirishning dastlabki bosqichi hali yakunlanmagan, yoqilg‘i-energetika, don mustaqilligiga, sanoatda ham, butun iqtisodiyotda ham makroiqtisodiy barqarorlikka erishilmagan, mamlakat rubl mintaqasidan chiqolmagan, sobiq ittifoqdosh respublikalar o‘rtasidagi kooperativ aloqalar chok-chokidan so‘kilib, yangilari esa shakllanib ulgurmagan, taqchilik va inflyatsiya, baholar va soliqlarning chalkashgan, tartibga solinmagan tizimi, beqaror valyuta kursi va bank foizi tinkani quritadigan darajaga yetgan edi.

Mana shunday sharoitda o‘z ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo‘li va andozalarini tanlash g‘oyat muhim ahamiyatga ega edi. Dastlab ayrimlar tomonidan O‘zbekiston boshqa mamlakatlarda tajribadan o‘tgan muayyan iqtisodiy taraqqiyot modelini qabul qilishi lozim, degan fikrlar ham aytildi. Chunonchi, Turkiya yoki Xitoy modellaridan birini joriy etish maqbulligi haqida tavsiyalar bo‘ldi.

O‘zbek modelining qaysi global yoki mintaqaviy model bilan uyg‘unlashuvi tez va oson kechadi, degan savolning qo‘yilishi ham tabiiy edi. Bunda G‘arb andozalari afzalmi yoki Sharq? Qaysi bozor qadriyatlarini biz uchun qulay?

Islom Karimov O‘zbekistonning o‘z yo‘li, o‘z taraqqiyot modeli bo‘lishi zarur, degan fikrda qat’iy turdi.«Agar aynan nusxa olinsa mamlakatning o‘ziga xos shart-sharoitlari, mavjud imkoniyatlari, yaqin va olis hamkorlik bilan ko‘p yillar davomida tarkib topgan iqtisodiy hamda ma’naviy aloqalari e’tibordan chetda qoladi».

O‘zbekiston yuqorida sanalgan yo‘llardan o‘zining iqtisodiy taraqqiyot modelida samarali va oqilona foydalanish bilan bog‘liq muhim vazifalarni belgilab oldi. Chunki «bizning qat’iy nuqtai nazarimiz jahon tajribasi va o‘z amaliyotimizdan oldingi jamiki foydali tajribalarni rad etmagan holda o‘zimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo‘limizni tanlab olishdan iboratdir».

O‘zbekistonning iqtisodiy taraqqiyot modeli xalqimizning tarixiy tajribasi, milliy va madaniy an’analariga asoslanadi.

Bu borada ilgari surilgan muhim nazariy xulosalardan biri bozor iqtisodiyotiga inqilobiy yo‘l («shok terapiyasi») bilan emas, balki evolyutsion yo‘l bilan, bosqichma-bosqich o‘tish edi. Bu konsepsiya O‘zbekiston Prezidenti ilgari surgan va keyinchalik butun jahonga mashhur bo‘lib ketgan «Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmag» tamoyilida o‘zining yorqin ifodasini topdi.

Yangi bozor munosabatlariga avvalgi tizimni va tarkib topgan iqtisodiy munosabatlarni batamom sindirib tashlash orqali ham, eski iqtisodiy munosabatlarni bosqichma-bosqich yangi bozor munosabatlariga moslashtira borib, samarali bozor iqtisodiyotini barpo etish yo‘li bilan ham o‘tish mumkin. Mamlakatimiz iqtisodiyoti va aholisi tarkibini, taraqqiyotning o‘sha davrdagi darajasini e’tiborga olsak, yurtimizga ikkinchi, siyosiy larzalarsiz, beozor yo‘l ancha maqbul edi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv masalalari ham mustaqillikni endi qo‘lga kiritgan mamlakat uchun o‘ta murakkab, qiyin kechadigan jarayondir. Davlatimiz rahbari bu borada ham eng ustuvor yo‘nalishlarni aniq belgilab berdi. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatining teng huquqli a‘zosi sifatida dunyoning barcha mamlakatlari bilan ikki va ko‘p tomonlama savdo-iqtisodiy aloqalar olib borish imkoniyatlari jadallashdi. Eksport va import tarkibini takomillashtirish ham muhim vazifalardan edi. Zero, istiqloqimizning dastlabki yillarida eksportning

60 foizdan ziyodrog'ini bitta tovar — paxta xomashyosi, importning esa 50 foizdan ziyodrog'ini don mahsuloti tashkil qiladi. Monokulturaga asoslangan eksport-import tizimi hukmron edi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston orttirgan boy tajriba «resurslar cheklangan sharoitda hamma muammolarni bir yo'la hal qilishga urinish hech qanday samara bermaydi. Shu sababli islohot yo'nalishlarini belgilab olish chog'ida shunday asosiy bo'g'inlarni topish muhimki, ularga asoslanib jamiki muammolarni hal qilish mumkin», degan g'oyaning naqadar o'z vaqtida ilgari surilganini tasdiqlab turibdi.

Yangilanishlarning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida agrar sohadagi o'zgarishlarga doimiy e'tibor qaratildi. Yerga egalik mulkchilik masalasini hal qilish, davlat xo'jaliklarini, ayniqsa, zarar keltirib ishlayotgan hamda samarasi past jamoa va kooperativ xo'jaliklarni tugatib, ularning yerlarini uzoq muddatga fermer xo'jaliklariga yoki umrbod meros huquqi bilan dehqon xo'jaliklariga berish, qishloq xo'jaligida band bo'lgan ortiqcha ishchi kuchini sanoat korxonalariga jalb qilish masalalari O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish strategiyasidagi, agrar siyosatidagi asosiy yo'nalishlardan bo'ldi. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, aniq-puxta ishlab chiqilgan moliya-kredit siyosatini amalga oshirish, iqtisodiyotda tub tarkibiy o'zgarishlarga erishish xalq xo'jaligining xomashyoviy qiyofasiga barham berish ham muhim ustuvor vazifalardan hisoblandi.

O'zbek modelining hayotga izchil tatbiq etilishi yurtimizning iqtisodiy va ijtimoiy qiyofasini tubdan o'zgartirib yubordi. Bugun O'zbekiston iqtisodiyoti izchil, barqaror va jadal o'sayotgan jahondagi juda kam sonli mamlakatlar safidan mustahkam o'rin oldi. Ijtimoiy, madaniy sohalarda erishilayotgan ulkan yutuqlar nufuzli xalqaro tashkilot va ekspertlar tomonidan keng e'tirof etilib, yuksak baholanmoqda.

Berlingagi Xalqaro iqtisodiyot akademiyasi direktori, professor Xans Yoaxim KNAUPE bu xususda shunday fikr bildiradi: «O'zbekistonning g'oyat mukammal, to'g'ri va aniq ishlab chiqilgan Inqirozga qarshi choralar dasturi bo'hron sharoitida iqtisodiy islohotlarni qamrab olish barobarida, kelgusida — inqirozdan keyingi davrda ham taraqqiyot sari eltuvchi muhim ustuvor yo'nalishlarni, chora-tadbirlarni aks ettirgan. Unda belgilangan vazifalar ko'pgina mamlakatlar uchun istiqbolli dastur sifatida xizmat qilishi shubhasiz».

Haqiqatan ham, mamlakatimizda YaIM ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davrida ham 8 foizdan yuqori bo'lgani jahon ahlida, jumladan, xalqaro ekspertlar, mashhur iqtisodchilarda ham katta hayrat va havas uyg'otmoqda. Jumladan, Xalqaro valyuta jamg'armasining mamlakatimizga kelgan missiyalari bayonotida O'zbekiston izchil o'sishga erishgani va global moliyaviy inqirozga qarshi muvaffaqiyatli choralar ko'rayotgani qayd etildi, shuningdek, o'rta muddatli istiqbolda iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari saqlanib qolishi haqida ijobiy prognoz bildirildi.

Bu davlatimiz rahbarining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisidagi ma'ruzasida ham alohida ta'kidlandi. Jahonda umume'tirof etilgan rivojlanishning «o'zbek modeli» jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan inqirozli holatlarga qaramay, 2012 yilda mamlakatimiz iqtisodiyotini o'stirishning yuqori sur'atlari barqarorligi va makroiqtisodiy muvozanatni to'la ta'minladi. Xususan, o'tgan yilda mamlakatimiz YaIMning o'sishi 8,2 foizni, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'sishi 7,7 foizni, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi o'sishi 7,0 foizni tashkil etdi. Davlat byudjeti YaIMga nisbatan 0,4 foiz miqdorida profitsit bilan ijro etildi. Inflyatsiya darajasi belgilangan prognoz ko'rsatkichidan oshmadi.

Taraqqiyotning o'zbek modeli yuksak zamonaviy texnika va texnologiyaning mavjudligi, ishlab chiqarishning industrial tavsifi, rivojlanishda axborot texnologiyalarining o'rni va ahamiyatining yuqoriligi, xizmat ko'rsatish sohasining muttasil o'sib borishi, iqtisodiy o'sishning intensiv yo'li ustuvorligi, iqtisodiyotning ochiqligi, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, raqobat muhitini yaratish, erkin tadbirkorlikka keng yo'l ochish orqali bozor munosabatlarini chuqurlashtirish, iqtisodiyotning ijtimoiy yo'naltirilganligi, xalq farovonligining izchil yuksalishi,

milliy iqtisodiyotning global iqtisodiyot bilan integratsiyalashuvining kuchayishi tendensiyalari bilan tavsiflanmoqda.

Taraqqiyotning o'zbek modeli qotib qolgan statik tushuncha emas, albatta. Uning xarakteri va shakl-shamoyilini belgilaydigan asosiy tamoyillar saqlanib qolgan holda doimo yangi vazifa va qoidalar bilan boyitilib, takomillashtirilib borilmoqda. Zero, hayot barcha tartib-qoidalarga o'z tuzatishlarini kiritib boraveradi. Jamiyat hayotining barcha jabhalarini modernizatsiyalash, ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiyalash, innovatsion texnologiyani izchil rivojlantirish, sanoat mahsulotlari yetkazib berishni yanada kengroq mahalliyashtirish — «o'zbekcha taraqqiyot»ning mantiqiy davomidir.

Yuqorida qayd etilgan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi davlatimiz rahbari ma'ruzasida O'zbekistonni joriy yilda rivojlantirishning 6 ta eng muhim ustuvor yo'nalishi orasida iqtisodiyot va uning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik hamda texnologik yangilashni jadallashtirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish markaziy o'ringa qo'yildi. Shu maqsadda 370 dan ortiq strategik loyihani ko'zda tutadigan investitsiya dasturi ishlab chiqilgan. Barcha investitsiyalarning to'rt dan uch qismi ichki manbalar hisobidan moliyalashtirilib, ular yangi quvvatlarni yaratish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga yo'naltirilmoqda.

Bularning hammasi oxir-oqibatda milliy iqtisodiyotimiz rivojlanishini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, o'zbek modelining hayotbaxsh kuchini butun dunyoga yana bir bor namoyish etish imkonini beradi.

3. Biologik resurslar to'g'risida tushuncha.

Yerning biologik resurslarini biologik "tirik" organizmlar ya'ni, o'simlik va hayvonlar tashkil etadi. Tiriklikning asosiy belgilari organizmlarning nafas olishi, oziqlanishi, o'sishi, rivojlanishi, ko'payishi, harakatlanishi kabilardir.

Yerning o'simlik resurslari (Yer biomassasini 97% ini tashkil etadi) madaniy va yovvoyi holda o'suvchi o'simliklardan iborat. Hozirda Yer sharida 500000 ga yaqin o'simlik turi bor, shundan 6000 ga yaqini madaniy o'simliklar (ya'ni navlar) hisoblanadi. Lekin Yer sharida ko'p tarqalgan qishloq xo'jalik ekinlari 80-90 turni, eng ko'p tarqalganlari esa 15-20 turni tashkil qiladi. Ular asosan oziq-ovqat va sanoat uchun xom-ashyo ekinlari hisoblanadi.

Yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar orasida o'rmon resurslarini hosil qiluvchi o'rmon o'simliklari ko'pchilikni tashkil etadi. O'simlik resurslari ham hayvon resurslari singari tugaydigan, lekin tiklanadigan resurslari hisoblanadi. Ulardan turli xil maqsadlarda foydalaniladi. Masalan: o'rmondan qurilishdan tashqari, smola, skipidar, bo'yoqlar, lak ekstraktlar, yelim, mebel, selluloza, qog'oz, spirt va h. k lar olinadi.

Jahon o'rmon resurslari 2ta ko'rsatkich bilan ifodalanadi:

1. Egallagan maydoni (jahondagi barcha o'rmonzorlar 4,2mlrd ga ni tashkil etadi yoki 40 mln. km² ya'ni jahon yer fondini 30% ini tashkil etadi).

2. Yog'och zaxirasi bilan (jami yog'och zaxirasi 350mlrd m³), yog'ochning sifatiga ko'ra. Doim o'sib turganligi sababli yog'och zaxirasi har yili 5,5mlrd m³ ko'payadi. Shunday ekan, kelajakda yog'och muammosi bo'lmaydigandek tuyuladi. Aslida unday emas. Chunki yog'och qadimdan qurilish va ishlov berish materiali sifatida foydalanib kelingan va hozirda ham ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Chunki yog'ochdan XIX-asrning o'rtalarida 4,5-5 ming xil mahsulot olingan bo'lsa, hozirda 20 ming xil mahsulot ishlanadi. Hozirgi vaqtda ham yog'ochga talab doimiy oshib bormoqda.

Dehqonchilik paydo bo'lgan neolit davridan boshlab minglab yillar davomida o'rmonlar ekin ekish uchun yo'qotib borildi. Ayniqsa keyingi 200yil davomida quruqlikdagi o'rmonlar maydoni 2 barobarga kamaydi va u havfli tus oldi.

Tuproq erroziyasi va atmosferada O₂ ni kamayishi o'rmonlarni yo'qolishi bilan bog'liqdir. Masalan: dunyoda o'rmonlar maydoni har yili kam deganda 25mln ga. ga yoki 0,5% qisqarmoqda. Dunyoda tayyorlanadigan yog'och miqdori 2000 yil 4,5 - 5mlrd m³ tashkil etdi. Bu esa yillik paydo bo'ladigan yog'och zaxirasi to'liq foydalaniladi degan so'z.

Dunyodagi o'rmonlar juda katta masofaga cho'zilgan. 2mintaqani hosil qiladi. Ular shimoliy va janubiy mintaqalardir.

Shimoliy o'rmon mintaqasi mo'tadil va qisman subtropik iqlim mintaqasida joylashgan. Dunyodagi butun o'rmon maydonining yarmi va yog'och zaxirasining deyarli yarmi shu mintaqaga to'g'ri keladi.

Asosiy o'rmon kesish ishlari, ayniqsa, yog'ochi yaxshi sifatli igna bargli daraxtlarni kesish shu mintaqada olib boriladi. Daraxt kesish jadal olib borilayotganligiga qaramay o'rmonlarni tiklash va daraxt ekish ishlari tufayli AQSH, Kanada, Finlyandiya, Shvesiya kabi mamlakatlarda va umuman shimoliy o'rmon mintaqasida o'rmonlar maydoni kamayayotgani yo'q. Biroq Rossiyada daraxtni kesish uni ekishga qaraganda ko'proq bo'lyapti.

Janubiy o'rmon mintaqasi asosan tropik va ekvatorial iqlim mintaqalarida joylashgan. Dunyodagi o'rmon maydonining deyarli yarmi shu mintaqada joylashgan. Ilgari yog'ochdan faqat o'tin sifatida foydalanilgan bo'lsa, keying vaqtlarda Yaponiya, AQSH va G'arbiy Evropa mamlakatlariga eksport qilish ko'p marotaba oshdi. Janubiy mintaqada o'rmonlariga bir necha yuz yillar davomida o'rmonni yoqib er ochish va ekstensiv yaylov chorvachiligi katta zarar etkazdi. Masalan: sernam doimiy yashil tropik o'rmonlar hozir ham 1mlrd. dan ortiq maydonni egallagan, ularning yarmidan ortig'i Lotin Amerikasida joylashgan. Biroq hozirda Lotin Amerikasi va Osiyo shunday o'rmonlarning 40%ini, Afrika 50%ini yo'qotdi. Ayrim mutahassislarning fikriga ko'ra bu o'rmonlar XXI-asrning o'rtalariga borib to'liq yo'q bo'ladi.

Tropik o'rmonlarni saqlash yuzasidan BMT rahbarligida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin hozircha u kutilgan natija bergani yo'q.

Jahonda o'rmonlar ulushi materiklar va regionlar bo'yicha quyidagicha taqsimlangan: (foiz hisobida 2008-yil)

1. Janubiy Amerikada - 52%
2. MDH da - 37 %
3. Yevropada - 31 %
4. SHimoliy Amerikada - 31 %
5. Afrikada - 26 %
6. Avstraliya va Okeaniyada - 18 %.
7. Osiyoda - 17 %

4. Biologik resurslarning asosiy ko'rsatkichlari va ulardan amaliyotda foydalanish.

Respublika tabiiy sharoitlarining turli-tumanligi, uning biologik boyliklarining ham har xil bo'lishiga ta'sir etadi. Hozirda o'simliklarning 4168 turi mavjud bo'lib, ularning 577 turi dorivor hisoblanadi.

O'zbekistonning o'rmon fondi 10 mln.. ga, shundan qariyb 2 mln.. ga. maydon o'rmon bilan qoplangan. O'rmonli Yerlar tekislikda, qumli hududda 3 mln.. ga, tog' yonbag'irlarida 0,5 mln.. ga. dan ziyod, qayirlardagi o'rmonlar maydoni 31 ming ga, tog' vodiylaridagi to'qay o'rmonlar maydoni 23 ming ga. Respublikamiz o'rmonlarga ancha kambag'al, mamlakat hududining 5 %ini tashkil qiladi. Avvallari, hattoki, XIX asrning o'rtalariga qadar tog' yonbag'irlarining 700-800 m. balandligigacha keng bargli va mayda bargli o'rmonlar tushub kelgan. Adirlar va past tog'lar pista va bodomzorlar bilan qoplangan edi, Zarafshon, Surxondaryo, Qashqadaryo, Zomin, Sux, Sangzar va boshqa daryolar orqali kesilib bog'langan holda (sol qilib) o'rmon yog'ochlari oqizilgan. "Turkistanskie vedomosti" gazetasida bosilgan (V.Lim, 1996) xabariga qaraganda XIX asr oxirlarida Samarqandga har yili Panjkent va Qoratepadan keng bargli o'rmon yog'ochlarini yoqish natijasida tayyorlangan 13440 pud (1pud-16kg), archalarni kesib tayyorlagan 21120 pud ko'mir keltirilgan, ya'ni yiliga 16800 keng bargli va 17 ming dona archa daraxtlari kesilgan. Tog'lardagi archazorlar, bodomzorlar, olmozorlar, olchazorlar tekislik va tog' etaklaridagi shaharlarda yashovchi aholi tomonidan qurilish materiali, "pista" ko'mir tayyorlash uchun to'xtovsiz qirilib turgan, tog'lardagi daryo va soy vodiylarida topilgan mis, temir rudalaridan metal olishda ko'plab daraxtlar kesib

yoqilgan, shuning uchun ham tog' yonbag'irlari va daryolar bo'ylaridagi to'qayzorlar o'rmonlarga juda ham kambag'al. Archazorlar siyrak, ba'zan katta maydonlarda archa uchramaydi, ularni asosan 1800-2000 m balandlikdan boshlab o'sishi kuzatiladi.

Tekisliklarda ham qora va oq saksovul, cherkez, qandim, shuvoq, to'qayzorlardagi turang'il, jiyda, tol asosan yoqilg'i sifatida qirqilib turganligi tufayli ular endilikda siyrak uchraydi. Qashqadaryo, Zarafshon, Amudaryo, Surxondaryo, Chirchiqning to'qayzorlari XX asrga qadar asosan qirqib bo'lingan edi, faqat onda-sonda kichik maydonlarda dov-daraxtlar saqlanib qolgan. To'qayzorlar keyingi yillarda bearmon yo'q qilindi. Binobarin, insonning xo'jalik faoliyati o'rta asrlar, xususan XVIII-XIX asrlarda o'simlik qoplamini ancha siyraklashuviga jiddiy ta'sir etgan, XX asrda dov-daraxtlarni qirqish, yangi Yerlar ochish maqsadida to'qayzorlarni yo'q qilish davom etdi.

O'zbekistonda o'rmonlar geografik joylashuviga muvofiq uch toifaga bo'linadi: 1)tog', 2)cho'l va 3)to'qay o'rmonlari. Tog'li hudud mamlakatda 6634 ming ga. ga teng. O'zbekiston Respublikasi O'rmon qo'mitasi (1995) ma'lumotiga ko'ra, shu maydonning 601,1 ming ga. qismida o'rmon o'sishi mumkin, hozirgi kunda esa atiga 105 ming ga. dan ziyodroq hudud o'rmon bilan band. Tog' yonbag'rlarining o'rmon bilan qoplanganlik darajasi 2,5 %. Tog' o'rmonlariga uning siyrakligi, yakka holda o'suvchi daraxtlarning ko'pligi, daraxtzorlar orasida yalang bo'sh joylarning bisyorligi xos. Tog' o'rmonlari asosini archazorlar, pistazorlar va yong'oq, mevali daraxtzorlar tashkil qiladi.

Archa o'rmonzorlari uch turdagi, ya'ni yarimsharsimon, Zarafshon va Turkiston archa turlaridan iborat. Zarafshon archasi (qora archa) keng tarqalgan va 1500-2300 m. balandlikda uchraydi. Yarimsharsimon (sovur) archa 2000-2700 m balandlikda tarqalgan. Turkiston archasi asosan Turkiston tizma tog'larida 2200-3100 balandlikda uchraydi.

Tog' o'rmonlari orasida pistazorlar maydon jihatidan ikkinchi o'rinni egallaydi. Pistazurg'oqchilikka chidamli va qimmat mevali daraxt. Pistazorlar sof holda qurg'oqchil tog' etaklari va past tog'lar yonbag'irlarida tarqalgan. Pistazorlarning asosiy qismi Bobotog' tizmasida (Surxondaryo, maydoni 50 ming ga), qisman Samarqand atrofida va boshqa tog'li hududlarda uchraydi. Archazorlar bilan pistazorlar oralig'ida bodomzor, yong'oq, tog'olcha, olma, o'rik, do'lana, na'matak, qora qand va boshqa daraxtlar hamda butali o'rmonzorlar joylashgan. Ular ko'plab meva berishi bilan birga, yonbag'irlarni surilma va Eroziyadan muhofaza qiladi.

Tog' o'rmonlarining ahamiyati beqiyos katta, lekin aholi yoqilg'i va qurilish materiallari bilan barcha joylarda etarli ta'minlanmaganligi tufayli o'rmonlarni qirqish hollari uchrab turadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida, ayniqsa qurilish materiallarining qimmatligi aholini yonbag'irlardagi daraxtlarni qirqishga undaydi. Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida har bir oila bir yilda yoqilg'i sifatida o'rtacha 15-20 m³ o'tin to'playdi. Qurigan daraxt va butalar bilan birga o'sib turgan daraxtlar ham qirqiladi. Umuman Ugom, Chotqol mintaqasida har yili kamida 21 ming m³ daraxt va butalar qirqiladi. Agarda bu miqdorni boshqa tog'li viloyatlarni ham qo'shib hisoblasak katta hajmda o'tin tayyorlanishi ayon bo'ladi.

Cho'l mintaqasida o'rmonlarning ahamiyati nihoyatda ulug'vor. Qumli cho'lda qumlarning ko'chib yurishini to'xtatsa, sug'orma Yerlarda tuproqni uchib ketishiga tug'anoq bo'ladi, yaylovlarda buta va daraxtlarning mavjud bo'lishi qorako'l qo'ylari iste'mol qiladigan turli xil o't-o'lanlarning o'sishiga imkon beradi. Oq va qorasaksovul, cherkez, chog'on, qandim o'rmon hosil qiluvchi daraxt va butalar hisoblanadi. Ular zich o'sgan joylarda yaylovlar mahsuldorligi gektariga 2 ts. dan kam bo'lmaydi, ba'zan 4-5 ts. gacha ko'tariladi.

Ammo Respublikaning cho'l qismida geologik-qidiruv ishlarining faollashuvi, avtotransport harakatining kuchayishi, turli ma'danlarni qazib olishning keng miqyosda amalga oshirilayotganligi, shaharchalar qurilayotganligi yaylovlar maydonini qisqarishiga sabab bo'lmoqda, mavjud o'rmonlar qirqilmoqda. Hisob-kitoblarga qaraganda 1 km. masofada magistral quvurlar yotqazilishi kamida 4 ga. maydondagi yaylovlarning buzilishiga ta'sir etadi.

Cho'l mintaqasida hozirga kelib 1 mln. ga. maydonda harakatdagi qumlar vujudga kelgan, ularda hech qanday o'simlik o'smaydi va yaylov sifatida foydalanilmaydi. Shuningdek, 5 mln. ga. maydonda mahsuldorligi juda ham kam bo'lgan (gektariga 0,5 ts.) yaylov vujudga kelgan, bu hududda harakatchan qum massivlari ustuvorlikka ega. Ular mavjud yaylovlardan to'g'ri

foydalanmaslik oqibatida tarkib topgan. Vohalar(Buxoro, Qarshi, Qorako'l, Qoraqalpog'iston, xususan To'rtko'l, Ellikqal'a) bilan qumli cho'llarni bir-birlari bilan tutashgan mintaqalarida 200 ming ga. maydonda harakatdagi (barxanli) qum shakllari mavjud. Bu hol yoqilg'i sifatida saksovullar, chYerkez, chog'onni qirqish natijasida vujudga kelgan.

To'qayzorlar yildan yilga kamayib bormoqda. 1978 yilda ularning maydoni 78 ming ga., 1983 yilda-34 ming ga., 1992 yilda-31 ming ga. cha kamaydi. Amudaryo deltasida daraxtli-butali to'qaylarning maydoni cho'llashish munosabati bilan, ayniqsa, juda tez qisqarmoqda. 60-yillarga qadar hududda to'qayzorlar maydoni 270 ming ga. bo'lgan holda ularning maydoni hozirda 10-15 marta kamaydi. 70-80-yillarda paxta maydonlarini kengaytirish bahonasida daryolar o'zanlariga qadar yangi Yerlar ochildi, shuning uchun ham ko'p to'qayzorlar ayni shu davrda butunlay yo'qoldi.

O'zbekistonda hayvonot dunyosining 600 ga yaqin turi yashaydi, sut emizuvchilarning 97 turi, qushlarning 379 turi, sudralib yuruvchilarning 58 turi mavjud. Respublika tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining ma'lumotiga ko'ra, O'zbekistonda ov qilinadigan va baliq tutiladigan joylarining maydoni 38 mln. ga. dan iborat, shundan 0,5 mln. ga. suv havzalariga to'g'ri keladi. Har yili o'rtacha 60 ming tacha suvda suzuvchi qushlar, taxminan 2 ming tustovuq, 13 ming kaklik, 500 bosh yovvoyi to'ng'iz, bir necha mingta sayg'oq, 50 mingdan 100 mingtagacha toshbaqa, 10000-100000 tagacha qurbaqa va boshqa hayvonlar ov qilinadi. Albatta, bular rasmiy ma'lumotlar, aslida ov qilinadigan hayvonlar, ayniqsa, qushlar soni bundan ko'p, brokonYerlar tutgan va otgan hayvonlar miqdorini hech kim hisob-kitob qilmaydi. Shuning uchun ham respublikada nazorat o'rnatilishiga qaramasdan ov qilinadigan hayvonlarining soni borgan sari kamayib bormoqda.

5. Biologik resurslarni iqtisodiy baholash va barqaror boshqarish masalalari.

O'rmonning amaliy ahamiyati g'oyatda ulug'vorligi va respublikada ularning maydoni nihoyatda kamligini hisobga olib yangi o'rmonzorlar bunyod etish ishlari muttasil olib borilmoqda. Cho'llarda qum relief shakllari harakatlarining oldini olish uchun ixotazorlar vujudga keltirilgan, tog' yonbag'irlarida Eroziya, surilma va sel hodisalarini rivojlanishini to'xtatib qolish borasida joylarda tog' o'rmonzorlari yaratildi. Sug'oriladigan Yerlardagi ihotazorlar tuproqni Eroziya va deflyatsiyadan saqlashda xizmatlari benihoya yuqori. Lekin shunga qaramasdan mamlakatda o'rmonlar maydonini kengaytirish ishlarini ko'ngildagidek deb bo'lmaydi. 80-yillarda yiliga o'rtacha 40-50 ming ga., 1990, 1992 yillarda 40 ming, 1994-1995 yillarda-30 ming, 1996 yilda 34 ming ga. maydonda yangi o'rmonlar bunyod qilindi va tiklandi.

Bizningcha, yangi o'rmonlarni kamida yiliga 100-120 ming ga. maydonda bunyod etish ko'zlangan maqsadga Erishishga imkon berada. Bu borada vohalar bilan qumli cho'l tutashgan mintaqada oraliq ixotazorlar vujudga keltirish maqsadga muvofiq. Chunki, bir necha maxsus qatorlarda (oraliq masofa 100-200 m.) ihotazorlar cho'ldan esadigan issiq va quruq changli shamollarni tutib qoladi, harakatdagi qumlarning mustahkamlanishini ta'minlaydi. Cho'l sharoitida avtomobil yo'llarining ikki chekkasida yo'l ihotazorlari (cherkez, qandim, oqsaksovul va b.) vujudga keltirilishi avvalo yo'lni qum bosishdan saqlasa, boshqa tomondan, yo'lovchilar estetik zavq oladilar, yo'l chekkalarida o'ziga xos mikroiklim vujudga keladi. Qumli cho'llarda bir tomondan, yaylovlar mahsuldorligining kamligi, ikkinchi tomondan,harakatdagi qumlarning mavjudligini hisobga olgan holda ihotazorlarni vujudga keltirish loyihalaniadi. Bunda aholi punktlari (quduqlar, shaharchalar), turli inshootlar, suv, neft, gaz quvurlari chekkalari ham hisobga olinishi maqsadga muvofiq.

Tog' yonbag'irlarda o'rmonlarni bunyod etishda bir qator omillarni e'tiborga olish darkor. Eng avvalo surilma va Eroziyaga moyil yonbag'irlarni, sel kelishi xavfi bo'lgan soy yonbag'irlari va o'zanlar chekkalari, qor ko'chkilari rivojlanishi mumkin bo'lgan hududlar o'rmon bilan qoplanishiga Erishish zarur. Qishloqlar va turli xo'jalik inshootlari, binolar, avtomobil va temir yo'llar, rekreatsiya ob'ektlari atroflari va ularning hududlari zich daraxtzorlar bilan qoplanishi yuqorida ko'rsatib o'tilgan tabiiy ofat keltiruvchi hodisalarni vujudga kelishiga imkon bermaydi. Yangitdan vujudga kelayotgan jarliklar, surilishi ehtimol qilinayotgan yonbag'irlar ayniqsa, tez muddatlarda daraxtzorlar bilan mustahkamlanishi yaxshi samara beradi. Bunday joylarda mol boqishni ta'qiqlash zarur.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 8 fevralda tasdiqlagan qarorida 1994-2003 yillar mobaynida har yili kamida 10 ming ga. maydonda Terak va boshqa tez o'suvchi imoratbop daraxtlar ekish ta'kidlangan. Rossiyadan keltirilayotgan yog'och va taxta respublikaga juda ham qimmatga tushmoqda. Terak va boshqa tez o'suvchi daraxtlar ekish bilan 8-10 yil mobaynida ko'p miqdorda imoratbop yog'och tayyorlash mumkin. Prof. A.Xonazarovning hisob-kitobiga ko'ra 1 ga. Terakzordan 10 yilda kamida 500m³, 10 ming ga. maydondagi Terakzordan esa 5 mln.. m³ yog'och olinishi mumkin. Kaliforniya tYeragi esa tez 5-6 yilda voyaga etadi, biroq u mo'rtroq va tez sinadi. Bu jihatdan ko'k terak bilan mirzaterak yog'ochi ancha qattiq va zichligi bilan ajralib turadi.

Teraklarni barcha sug'orish tarmoqlarining chekkasida, shaharlar, aholi punktlari, vohalarning ekin ekilmaydigan va notekis joylarida o'stirish imkoni bor, undan ihota o'rmoni sifatida ham foydalanish mumkin. Terakdan nafaqat yog'och, taxta, shuningdek, undan a'lo sifatli qog'oz tayyorlanadi. Teraklarni respublikada mavjud bo'lgan qariyb 200 ming km masofaga cho'zilgan sug'orish shoxobchalarining chekkalarida vujudga keltirish mumkin. Chunki, ularning atigi 7 ming km. dagi qismida daraxtzorlar mavjud, xolos. Terak va mevali daraxtlarni temir-betonli novlar bo'ylab ekilsa, avvalo suv bo'yida o'ziga xos mikroiklim tarkib topar edi, keyin esa turli mevalar etishtirilgan bo'lardi. Bu borada ayrim tumanlarda (Mirzacho'l, Qarshi cho'li, Xorazm) namunali ishlar qilinmoqda. Suv omborlari va selxonalar atroflari daraxtzorlarni vujudga keltirish ob'ekti bo'lishi lozim, respublikadagi deyarli barcha suv havzalari chekkalari o'rmonzorlar bilan band emas.

Yirik sanoat tugunlari va korxonalari hududlarida va atroflarida maxsus ihotazor bunyod etish har jihatdan ham zarur. Chunki, daraxtlar zararli moddalarni, ayniqsa changlarin yutib, havoni tozalaydi, havo namligi va haroratni rostlab turadi. Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 31 dekabrda qaroriga muvofiq Qoravulbozor neft sanoati korxonalari atrofida 18 ming ga maydonda o'rmonzorlar vujudga keltirish ishlari qizg'in olib borilmoqda. Xuddi shunday xayrli ishni Muborak, Sho'rtang gaz-kimyosanoati, Navoiy kimyo ("Azot" birlashmasi) korxonalari va boshqa sanoat ob'ektlari atroflarida vujudga keltirish ayni muddao.

Orol bo'yida ro'y berayotgan cho'llashish hodisasi boshqa tabiat komponentlari qatori o'simlik olamining jiddiy zarar ko'rishiga keng miqyosda ta'sir etmoqda. O'simliklar tabiatda bo'layotgan barcha nohush o'zgarishlarning eng ishonchli indikatoridir. Ularning bir turdan ikkinchi boshqa bir tur(lar) bilan almashishi makonda relef, grunt suvlari rejimi, tuproq va boshqa komponentlarida o'zgarishlar sodir bo'layotganligi natijasida yuz beradi. Amudaryo va Sirdaryoning hozirgi deltalarida (sug'oriladigan mintaqada) avvalgi daraxtli to'qayzorlar suvsizlik va sho'r muhit ta'sirida qattiq zarar ko'rdi, ularning qurishi tufayli shamol ta'sirida ko'chma qumlar harakati faollashmoqda. Orol dengizining qurigan qismida qum va tuzlarni migratsiyasi kuchaymoqda.

Ushbu tadrijiy tabiiy sharoitda zaminni mustahkamlash g'oyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada eng ishonchli, arzon, tez muddatlarda samara beradigan tadbir ma'lum loyihalar asosida ixotazorlar vujudga keltirish hammadan ham qulay va iqtisodiy jihatdan arzon hamda zaruriy chora hisoblanadi. Fitomeliorsiya (o'simliklarni ekish va o'stirish bilan meliorsiya qilish) yo'li bilan tuproqni Eroziya va deflyatsiyadan saqlab qolish Amudaryo deltasi va Orolning qurigan qismida 80-yillarning 2-yarmida boshlangan. Orolning qumli hududlarida (O'zbekiston qismida) 1989 yildan e'tiboran har yili kamida 10 ming ga. maydonda qora saksovul, cherkez, qandim, chog'on va boshqa quruq sevar va sho'rni xush ko'ruvchi o'simliklarning urug'i va qalamchasini ekish bilan fitomeliorsiya amalga oshirilmoqda. Keyingi vaqtlarda (90-yillardan boshlab) ish maydoni ortib bormoqda. 1998 yilning boshlarida jami fitomeliorsiya qilingan maydon jami 150 ming ga. dan ortdi. Albatta, bu raqam unchalik ko'p emas, agar barcha qurigan qism 3,8 mln. ga. deb hisoblansa, uning qariyb 2 mln. ga. qismi respublikamizga tegishli. Hozirga kelib o'simlik ekish mumkin bo'lgan maydon taxminan 400-500 ming ga ni tashkil qiladi. Binobarin, endigina uning uchdan bir qisminigina o'simlik bilan mustahkamlashga erishildi, xolos. Bizningcha fitomeliorsiya ishlari sur'ati va qamrab olinayotgan maydon hajmi kamida 2 marta oshirilishi ayni muddao. Chunki dengiz chekingan sari uning qurigan qismida fitomeliorsiya qilinadigan maydon miqyosi ham ortib bormoqda, demak, shamolning o'yuvchanlik va harakat maydoni tobora ortib bormoqda.

Amudaryo deltasida ham ihotazorlar vujudga keltirish borasida ancha ishlar qilinmoqda. Chimboy, Mo'ynoq, Bo'zatov, Qo'ng'iroq, Qorao'zak tumanlari o'rmon xo'jaliklari o'zanlar bo'ylarida to'qayzorlarni qaytadan tiklash borasida va qumli hududlarda fitomeliioratsiya ishlari amalga oshirilmoqda. Eng qizig'i shundaki, deltaning botiqlar oralig'idagi balandroq qismlarida o'tloq-taqir tuproqlarning taqirsimon tuproqlarga rivojlanib o'tishlari tufayli joylarda (Qo'ng'iroq-Mo'ynoq avtomobil yo'lining ikki chekkasi va uning ichkari hududlari) tabiiy yo'l bilan qora saksovul keng tarqalmoqda. Gap ana shu tabiiy yo'l bilan kengayib borayotgan qora saksovulning aholi tomonidan kesib ketilmasligida. Agarda ularni vegetatsiyasi uchun inson tomonidan to'sqinlik qilinmasa, u tabiiy yo'l bilan zaminni mustahkamlab boradi.

6. Biologik resurs, produsent, konsument, reyedusent, moddalarning biologik aylanishi, biosanoat kompleksi.

Ma'lumki tabiatda moddalarning aylanishi uchun uch guruh organizmlarning bo'lishi shart.

1. *Produsentlar (hosil qiluvchilar).*
2. *Konsumentlar (iste'molchilar).*
3. *Redusentlar (parchalovchilar).*

Hayotni produsentlarsiz tasavvur qilish qiyin. Ular birlamchi biomahsulotlarni hosil qiladi. Konsumentlar birlamchi va ikkilamchi biomahsulotlarni iste'mol qilgan holda, organik moddalarni bir holdan ikkinchi holga o'tkazadi va hayot xilma-xilligini keltirib chiqaradi. Bu o'z navbatida turlarning evolyusiyasiga olib keladi.

Redusentlar organik moddalarni mineral moddalarga parchalab, sayyoramizni o'lik qoldiqlardan iborat bo'lgan katta "mazor" ning kelib chiqishiga imkon bermaydi.

Yerda boradigan har qanday jarayonlarning manbai va boshlanishi quyosh nuri energiyasi hisoblanadi. Yorug'lik ta'sirida boradigan yashil o'simliklardagi fotosintez jarayoni natijasida organik modda to'planadi. Fotosintezning foydali ish koeffisienti nihoyatda past. Yer yuziga tushadigan quyosh nurlarini atigi 1% idan foydalaniladi. Foydali qazilmalarda (toshko'mir, neft, torf, gaz) quyosh energiyasi konservalangan holda saqlanadi. Ba'zi bir organizmlar organik moddalarning oksidlanishi natijasida ajralib chikadigan energiyadan foydalanadi. Bu jarayon xemosintez deb ataladi.

Biosferada modda va energiya almashinuvi. Ma'lumki, Yerga keladigan energiyaning 99%ini Quyosh nurlari tashkil etadi. Bu energiya atmosfera, gidrosfera va litosferada bo'lib o'tadigan turli fizik kimyoviy jarayonlarga sarf qilinadi, ya'ni: havo va suv to'lqinlari, tog'-toshlarning emirilishi, bug'lanishi, tirik moddalarning hosil bo'lishi va taqsimlanishi, minerallarning erishi, gazlarning yutilishi va ajralishi kabi holatlarga sarflanadi.

Biosferada turli mikroorganizmlar faoliyati natijasida oksidlanish va tiklanish kabi kimyoviy jarayonlar bo'ladi.

V.R. Vilyams fikricha, Quyosh energiyasi Yer yuzida ikki xil moddalar almashinuvini ta'minlaydi.

1. Biologik (kichik doirada) aylanish.
2. Geologik (katta doirada) aylanish.

Har yili Quyoshdan $21 \cdot 10^{20}$ kJ yorug'lik energiyasi Yerga keladi. Shu energiyaning 50%i bug'lanishga sarf qilinadi. Biosferada suvning aylanishi – Yer er yuzi va suv havzalaridan suvning bug'lanishi va namlik sifatida qaytib erga tushishi geologik (katta) aylanishdir.

Biosferada tirik moddalarning yuzaga kelishi bilan atmosfera, suv va mineral moddalarning aylanishi hosil bo'ladi, ya'ni abiotik va geologik asosda organik moddalar almashinishi yoki kichik biologik aylanish paydo bo'lgan.

Biosferada geologik moddalar aylanishiga 50%ga yaqin, biologikka esa 0,1-0,2% Quyosh energiyasi sarflanadi. Biologik aylanishga juda kam energiya ketsa ham biosferadagi bu jarayonda birlamchi mahsulot yaratiladi.

Biosferada kimyoviy elementlar doim sirkulyatsiyada bo'lib, tashqi muhitdan organizmga o'tib turadi. Bu holatni biogeokimyoviy sikl deb aytiladi. Bunda O₂, CO₂, N₂O, azot, fosfor, oltingugurt va boshqa elementlar aylanib turadi.

Atmosferada kislorod fotosintez hisobiga to'planadi. Uning to'planishiga ikkinchi manba suv molekulasidir. O'simliklar tomonidan ajratilgan kislorodning molekular soni CO₂ ning molekular soniga proporsionaldir. O'simliklarning nafas olishida ajralgan kislorod o'z navbatida uglerodning oksidlanishida ishlatiladi, ma'lum qismi atmosferada qoladi. Atmosferadagi erkin kislorodning fondi $1,6 \cdot 10^{15}$ g bo'lib, yashil o'simliklar uni 10000 yilda yaratadi. Har bir kimyoviy element katta va kichik sikllarda o'ziga xos tezlik bilan migrasiya qiladi. Jumladan, atmosferadagi jami O₂ tirik organizmlar tanasidan 2 ming yilda o'tsa, CO₂ – 300 yilda o'tadi. Boshqa elementla esa tezroq o'tadi.

Suvning tabiatda aylanishi. Suv biosferaning barcha tarkibiy qismlarida uchraydi. U suv havzalaridan tashqari tuproqda, havoda va boshqa tirik organizmlarning 80-90% biomassasini tashkil etadi. Suvni tabiatda aylanishi kuyidagicha boradi. Suv er yuziga atmosfera yog'inlari tarzida tushib, atmosferaga asosan o'simliklarning suv bug'latishi va dengizlar yuzasining bug'lanishi hisobiga qaytadi.

Uglerodning aylanishi. Biosferaning eng muhim jarayonlari uglerod elementining aylanishi bilan bog'liq. Biosferadagi murakkab birikmalar tarkibidagi uglerod etakchi rol o'ynab, uning birikmalari doimo sintezlanib, parchalanib turadi. Bunda uglerodning bir qismi aylanishdan chiqib ham ketadi. Inson har yili qazilma holdagi uglerodning $5,6 \cdot 10^9$ t sidan har xil maqsadlarda foydalanadi.

Azotning aylanishi. Atmosferadagi erkin holatdagi azot miqdori 70% dan ortiq bo'lsa ham undan foydalanish uchun birikma holiga o'tkazilishi kerak. Azotning tabiiy birikishi momoqaldiroq, chaqmoq chaqishi, ionlanish jarayonlari, meteoritlarning kuyib ketishi kabilarni ko'rsatish mumkin. Ammo erkin azotni birikma holga o'tkaziladi.

Dukkakli o'simliklarning ildizida yashovchi tuganak bakteriyalar esa yiliga 350 kg/ga azot birikmasini to'playdi. Azotni birikma holatiga o'tkazish uchun ma'lum energiya talab etiladi. Tuproqda bakteriyalar tomonidan ammoniy nitrat va nitritlarga oksidlanadi, hamda denitrifikasiyalovchi bakteriyalar tomonidan esa ular gaz holiga azot oksidi tarzida qaytariladi. Ammoniy ionlarining nitrit va nitratlarga oksidlanishi energiya ajralishi bilan boradi. Ammoniy birikmalari, nitrit va nitratlar eritma tarzida organizm tomonidan o'zlashtiriladi.

Keyinchalik ulardan organik moddalar birinchi navbatda, aminokislotalar va ulardan oqsillar sintezlanadi. Hosil bo'lgan oqsillar o'simlikni iste'mol qiladigan konsumentlarda qayta ishlanadi. Keyingi bosqichda organik moddalar mineral moddalarga parchalanadi. Bunda ammonifikasiyalovchi bakteriyalar guruhi organik moddalardagi azotni ammoniy tuzlarga aylantiradi. Suvning toza qatlamida azot miqdori quruqlikdan kelib qo'shilgan azot miqdori hisobiga bir oz ko'proq bo'ladi. Shuningdek atmosferadagi ammiakni erib tushishi okeandagi o'simlik va hayvonlar qoldiqlarini parchalinishi hisobiga ortadi.

Nazorat va mulohaza uchun savollar:

- 1. Bioxilma-xillikning tabiatdagi ahamiyati nimada?**
- 2. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi deganda nimani tushunasiz?**
- 3. Biologik resurslarning asosiy ko'rsatkichlari nimalar?**
- 4. Biologik resurslarni iqtisodiy baholashning qanday xususiyatlari mavjud?**
- 5. Biologik resurs, produsent, konsument, reyedusentlar nimalar?**

6-Mavzu: Mineral xom-ashyo resurslardan foydalanish va ularni muhofaza qilish(6-soat).

Reja:

- Iqtisodiyotni modernizasiya qilish sharoitida, mineral xom-ashyo zahiralaridan foydalanishning holati va uni yaxshilash uchun qilinayotgan ishlar.
- Mineral xom-ashyo resurslari va ularning ekologik-iqtisodiy xususiyatlari.
- Mineral xom-ashyo resurslarini hisobga olish va ularning ko'rsatkichlari.

4. Mineral xom-ashyo resurslarini iqtisodiy baholash va barqaror boshqarish.
5. Mineral xom-ashyo zahiralardan foydalanishdagi ekologik muammolar va ularni bartaraf etishni ahamiyati.

1. Iqtisodiyotni modernizasiya qilish sharoitida, mineral xom-ashyo zahiralardan foydalanishning holati va uni yaxshilash uchun qilinayotgan ishlar.

Ishlab chiqarish kuchlarining tezkorlik bilan taraqqiy qilayotganligi sanoatni ko'plab Mineral xom-ashyo bilan uzluksiz ta'minlashni taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida Yer qa'ridan ko'plab foydali qazilma boyliklarni qazib olishga undaydi. Qattiq foydali qazilmalar konlarda turli chuqurlikda joylashganligi tufayli ularni qazib olish jaryonida ko'plab bo'sh tog' jinslarini Yer betiga chiqarish lozim. Buning ustiga rudalarda kerakli foydali ma'dan juda oz qismni tashkil qilishi mumkin (o'rtacha 0,1% dan 10% gacha). Binobarin, ko'plab bo'sh tog' jinslari konlar atrofida to'planib boradi. 90-yillarda dunyo bo'yicha yiliga qariyb 150 mlrd.. t. tog' jinslari qazib olingan, shundan 20 mlrd.. t. si foydali qazilma bo'lgan. Bu raqam XXI boshlariga kelib 4-6 marta ko'payishi taxmin qilinmoqda.

Shu munosabat bilan foydali qazilmalardan oqilona foydalanish muammosi Yer kurrasida tobora jiddiy tus olmoqda, bu borada qazib olish va ularni qayta ishlash texnologiyasiga katta ahamiyat berilib iqtisodiy jihatdan kamroq chiqim-xarajatlar sarflash ustida keng miqyosda tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Mutaxassislarning hisob-kitobicha Yer qatlamlaridan olinayotgan ma'danlarning bor yo'g'i-1-5%i ishlab chiqarish uchun mahsulot bo'lib, qolganlari chiqindi hisoblanadi.

O'zbekiston zamini turli tabiiy Mineral boyliklarga ega. Bu hol hududning geologik jihatdan uzoq o'tmishlarda murakkab rivojlanish jarayonlarni boshdan kechirganligi, ilk bor tog' hosil bo'lish hodisalarini, dengiz havzalarining vaqt-vaqti bilan quruqlikka bostirib kirganligi, qobiq nurashining kuchli tarzda ro'y berganligi, vulqon harakatlari, Yer osti magmatik jinslarni turli qatlamlarga kirib, qotib qolishi va boshqa geologik hodisalar natijalari bilan bog'liq.

Hozirgi kunga kelib O'zbekistonda 2700 dan ziyod qazilma boylik konlari va istiqbolda ochilishi mumkin bo'lgan yangi konlar aniqlangan. Ushbu konlarda Yer yuziga yaqin joylashgan xilma-xil Mineral xom-ashyolar mavjud. Ularning 60 hilidan iqtisodiyotda foydalanilmoqda. O'zbekistonning umumiy Mineral xom-ashyo salohiyati 3,3 trl. AQSh dollarida baholanmoqda. Har yili konlardan umumiy qiymati 5,5 mlrd.. AQSh dollariga teng bo'lgan turli qazilma boyliklar qazib olinadi.

Bir qator muhim foydali qazilmalar, chunonchi, oltin, uran, mis, tabiiy gaz, kaliy tuzlari, fosforidlar, kaolin bo'yicha O'zbekiston zahiralarning ko'pligi va istiqbolda foydalanish bo'yicha nafaqat MDH mamlakatlari balki, jahonda oldingi o'rinlarni egallaydi. Masalan, oltin zahiralari bo'yicha dunyoda 4- o'rinni, qazib olish bo'yicha esa 7-o'rinni egallaydi, mis bo'yicha 10-11-o'rinni, uran bo'yicha esa 7-8-o'rinni egallaydi (Karimov, 1997). Tabiiy gazning umumiy zahirasi qariyb 2 trln. m³, ko'mirniki 2 mlrd.. t. dan ziyodroq. Mutaxassislarning dastlabki baholash natijalariga ko'ra mamlakat hududining taxminan 60% qismi neft va gaz zahiralari bilan band.

O'zbekiston hududida Farg'ona, Surxondaryo, Janubi-Farbiy Hisor, Buxoro-Xiva va Ustyurt neft va gazli mintaqalardir. Hozirgi vaqtda eng ko'p neft va tabiiy gaz Buxoro-Xiva neft-gaz rayonida-O'rtabuloq, Ko'kdumaloq, Sho'rtan, Toshli, Sho'rtepa, Zevar va boshqa ularga yaqin bo'lgan konlardan qazib olinmoqda. Birgina Qashqadaryodagi gaz konlari butun respublikada qazib olinayotgan tabiiy gazning 90%ini etkazib bermoqda. Keyingi vaqtlarda Ustyurt platosi va Orol dengizining suvdan bo'shab qolgan qismida neft va gaz konlarini qidirish ishlar jadallik bilan olib borilmoqda. Bu hududlarda tabiiy gaz va neft konlari ochilishi mumkinligiga mutaxassislar katta ishonch bilan qaramoqdalar (hozirgacha Shohpaxta, Urga, Berdaq, Shibirli, Qizilqayir, Oqshuloq, Qorashuloq kabi joylardagi konlar istiqbolga ega), dastlabki gaz konlari ishga tushirilgan (hozirgi kunda Urga gaz konidan kuniga 1,2 mln.. m³ gaz olinmoqda, shuningdek, har kuni 25 t. gaz kondensati qazib olinmoqda).

O'zbekistonda 20 dan ortiq ko'mir konlari va ko'mirli havzalar aniqlangan. Ko'mirning sanoat zahiralarini Angren, Sharg'un va Boysun konlarida joylashgan. Boysun (jami zahirasi taxminan 150 mln. t.) konida ochiq usulda tosh ko'mir qazib olish boshlangan. G'uzor-Qumqo'rg'on temir yo'lini ishga tushirilishi bilan bu kondan ko'plab ko'mir olish mumkin bo'ladi.

O'zbekiston noyob va nodir metallar-oltin, kumush, uran va boshqalar qazib olish bo'yicha oldingi o'rnlarni egallaydi. Oltinning umumiy zahirasi 4 ming t. dan ko'p, respublikada tarkibida oltin va kumush mavjud bo'lgan 30 dan ortiq ruda konlari topilgan. Yirik oltin konlari Muruntov, Marjonbuloq, Qurama va Chotqol tizma tog'larida topilgan. Kumush Qizilnura tarmoqlarida, Qizilqumda katta zahiralariga ega. Odatda oltin boshqa elementlar bilan birga uchraydi.

Rangli va nodir metallar-mis, qalayi, qo'rg'oshin, volfram, litiy, alyuminiy xom-ashyosi(alunitlar,kaolinlar) va boshqalardan iborat. Mis rudasi Qurama tog'larida Qalmoqqir, Saricheka, Qizota konlarida, volfram, molibden, qalayi, vismut, simob, surma Janubiy va O'rta Tyanshandagi Qoratepa, Langar, Qo'yto'sh, Ingichka, Yaxshon, Sargardon va boshqa joylarda mavjud, 20 ta molibden koni aniqlangan. Vismut rudasi, mishyak-vismut, mis-vismut konlari Chotqol-Qurama tog'larida (Burchmulla, O'rtasaroy) bor. Janubiy Farg'onada 100 dan ortiq simob va 10 dan ziyod surma konlari mavjud.

Qora metallar (temir,titan, marganets va xrom)ning bir necha yuz konlari mavjud. Ulkan titan marganetsli kon Sulton Uvays tog'larida (Tepabuloq, zahirasi 4 mlrd. t.), Nurota tog'larida, marganetsli cho'kindi konlari Zarafshon-Zirabuloq, Qoratepa, Lolabuloq va boshqa joylarda topilgan.

Tog'-kimyo sanoati xom-ashyosi bo'lgan fosforitlar (Qizilqum), osh tuzi va boshqa tuzlarning katta zahiralarini Borsakelmas, Xo'jaikon, Boybichakon va boshqa joylarda aniqlangan. Qurilish materiallarining 370 dan ortiq koni borligi hisobga olingan. Oq, qora, qizg'ish, marmar konlari ishga tushgan. Geologiya qidiruv ishlari keng miqyosda jadallik bilan davom ettirilmoqda, istiqbolda yangi konlarning topilish ehtimoli katta.

2. Mineral xom-ashyo resurslari va ularning ekologik-iqtisodiy xususiyatlari.

Mineral xom ashyo resurslari jonsiz tabiat resurslari bo'lib, ulardan konstruksiya materiallari, kimyoviy qo'shilmalar, o'g'itlar, har xil buyumlar, qurilish materiallari, asbob uskunalar, yoqilg'i kabi xalq xo'jaligida ishlatilayotgan mahsulotlar ishlab chiqariladi. Bu resurslar qayta tiklanmaydigan resurslarga kiradi, yo'qolib ketmaydi va shu bilan birga o'zining xususiyatlarini ham o'zgartirmaydi. Geologik va xo'jalik modda aylanishida esa o'z shakllarini va joylarini o'zgartiradi. Litosfera va qisman gidrosfera mineral xom ashyo resurslarini manbai bo'lib xizmat qiladi.

Mineral xom-ashyo resurslari hududlar, rayonlarga joylashish chuqurligi bo'yicha notekis joylashgan va xom-ashyo tarkibi bo'yicha xilma-xil. Shu sababdan ulardan foydalanish samarasi ham har xil. Bunda yuqori sifatli resurslar cheklangan, ayniqsa hududlar bo'yicha, chunki ular tiklanmaydigan resurslarga kiradi. Shunga bog'liq holda resurslar tugashi va xom-ashyo yetishmasligi to'g'risida tasavvur paydo bo'ladi. Haqiqatda esa bunday tasavvur shartli va faqat xom-ashyoni qazib olishning iqtisodiy sharoitlarini ifodalaydi. Amaliyotda mineral xom-ashyo resurslardan undagi xom-ashyoning turli tarkiblarida mavjudligi sharoitida foydalaniladi. Masalan, temir rudasi sof xom-ashyosi 80 foiz, oltin konlarida esa foizning kichik bir qismini sof oltinlar tashkil etadi. Bir xil xom-ashyoning tarkibi va sifatiga qo'yiladigan talablar ham hududlar bo'yicha ijtimoiy zarur harajatlarga bog'liq holda har xil bo'ladi.

Barcha mineral resurslarni bir qancha belgilariga qarab quyidagicha tasniflash mumkin. Masalan, sanoat-tarmoq ishlatilishiga qarab bir qancha guruhlariga ajratish mumkin. Bular yoqilg'i energetika xom ashyosi, qora va rangli, nodir, kam uchraydigan metallarga, agrokimyoviy xom-ashyo, texnik va olovga bardosh xom-ashyo, qurilish mollar, qimmatbaho toshlar, suvosti suvi va mineral moddalar kabilarga.

Yoqilg'i energetika xom-ashyolariga neft, tabiiy gaz, qo'ng'ir va tosh ko'mirlar, yonuvchi slanets, uran va toriy kiradi. Bular ko'pchilik transport vositalari, atom elektr stansiyalarining asosiy energiya manbai hisoblanadi. Uran va toriydan tashqari barchasi kimyoviy sanoatda qo'llaniladi.

Jahon iqtisodiyotida eng asosiy o'rin tutuvchi mineral resurs qora metall hisoblanadi. Bu guruhga kiruvchi temir, temir rudalari zamonaviy mashina qurilishi va qurilishning asosini tashkil qiladi.

Rangli metallar guruhiga quyidagilar kiradi: mis, rux, alyuminiy, titan, xrom, nikel, kobalt, magniy, qalay. Mis ikkinchi eng asosiy metall hisoblanadi. Uni asosan elektr simlar tayyorlashda qo'llaniladi. Undan tashqari benzin sifatini yaxshilashda ham keng ishlatiladi.

Asl metallar orasida asosiy o'rin tutuvchi metallar bu – platina, oltin, kumush; kamroq o'rin tutuvchilar esa platina guruhiga kiruvchi metallar (palladiy, iridiy, rodiy, ruteniy va osmiy). Bu metall o'zining chiroyli tashqi ko'rinishi bilan ajralib turadi, shuning uchun ham ular asl metallar deb guruhlanadi.

Noyob, kam uchraydigan metallar guruhiga ittriy, lantan va lantanoidlar (14 kimyoviy element oilasi) kiradi. Ittriy asosan radiotexnikada ishlatilsa, lantan esa optik oynalarda qo'llanilib, lazer material hisoblanadi.

Kimyo va agrokimyo xom ashyolari orasida eng asosiy o'rin tutuvchi xom ashyolar bu - oltingugurt, tuz, fosforit, apatit, shpatlardir. Oltingugurtdan oltingugurt kislotasi, tosh tuzidan tuzli kislota, tuzlarni olishadi. Texnik va olovga bardoshli xom ashyolarga grafit, pyesokvarts, asbest, magnezit, slyuda, texnik olmos va loylar kiradi. Ko'p tog'dan olinadigan mineral xom-ashyolar qurilishda yoki qurilish mollari tayyorlashda ishlatiladi. Grafit baland haroratda erishish xususiyatiga ega bo'lgani uchun qurilishda ko'p ishlatiladi.

Qimmatbaho toshlar orasida olmos eng asosiysi hisoblanadi, chunki u tabiatdagi eng qattiq va shu bilan birga eng shaffof tosh hisoblanadi. Olmosdan keying eng qadrlanadigan toshlar yoqut, zumrad, feruzalardir.

1-jadval

MDH mamlakatlari mineral xom-ashyo resurslarining tasniflanishi¹

Mineral resurslar	Turlari	O'zbekiston	Qozog'iston	Rossiya
Yoqilg'i energetika	Neft, qo'ng'ir ko'mir, tosh ko'mir, tabiiy gaz, uran, toriy va yonuvchi slanets	Tabiiy gaz- Xisor, Buxoro, Xiva, ko'mir – Angren, Boysun, neft – Ustyurt, Farg'ona, Surxondaryo	Ko'mir – Qarag'an, Pavladar, Kostanay viloyatlarida, Sariark tepaliklarida, tabiiy gaz – Karashiganak, Janajol, Qiziloy	Neft – Shimoliy Kavkaz, Ko'mir – Pechorskiy, Kuznetskiy, Irkutskiy, Podmoskovniy viloyatlarida, uran - Aldanskiy
Qora metallar	Temir, temir rudalari, marganets	Marganets – Zarafshon, Zirabuloq, Qoratapa	Marganets – Ataturv, Jezdinda, temir rudalari – Kachar, Sokolov-Sarbay	Temir – Kursk, marganets – g'arbiy Sibir, Ural tog' tizmalarida
Rangli metallar	Mis, rux, alyuminiy, titan, xrom nikel kobalt, magniy, qalay, qo'rg'oshin,	Mis – Olmaliq, Vismut – Chotqol, simob – Farg'ona viloyatida, xrom – Farg'ona viloyatida	Mis – Jezqazg'an, Qo'ng'irov, xrom – Mugodjar tog'larida, nikel – Mugodjara, Ostona, qo'rg'oshin, qalay – Qaratav tog' tizmalarida, volfram,	Nikel – Norils, mis – Ural tog' bo'yi, qalay – Sibir va Dalnevostok, Xabarovskda, qo'rg'oshin, volfram, molibden – Kavkaz, Ural tog'larida, Zabaykalye, xrom – Perm, Murmansk

¹ “Экономическая и социальная география стран ближнего зарубежья”, Ратанова М.П, Москва, 2006.

	volfram, litiy, vismut, simob		molibden – Altay, Jungarda	shaharlarida, alyuminiy, mis– Shimoliy Uralda,
Noyob metallar	Ittriy, lantan, lantanoid, germaniy, sirkoniy		Lantan – Sirimbet, Donetsk, ittriy-Kundibay	Ittriy, lantan, lantanoid - Kol yarim orolida, Lovko'li atrofida, Yakutiya
Asl metallar	Platina, oltin, kumush, paladdiy, iridiy, rodiy, ruteniy, osmiy	Kumush – Qurama tog' tizmalari, Qizilqumda, oltin – Navoiy, Namangan viloyati (Oqtepa)da	Oltin – Altayda, Kostanay viloyatida,	Oltin – Sharqiy Sibir, Irkutsk, Yakutiya, Buryatiya, kumush – Chita, Altay
Qimmat baho toshlar	Olmos, feruza, yoqut, zumrad, nefrit	Feruza – Qizilqumda, Oq tuproq, Olmaliq (Toshkent viloyatida), Uchquduq (Buxoro) yoqut – Uchquduqda	Olmos – Kumdiko'l (Akmalin viloyatida), feruza – Sultaniuzdag, Nuratov tog'ida, Isfarin tumanida, Yoqut – Kishtim tumanida	Olmos – Yakutiya, Arxangelsk, Perm, yoqut – Uralning Ilmen tog'larida, nefrit – Buryatiya, Tiva Respublikasida, zumrad – Sverdlov viloyati, feruza – Komi Respublikasi
Nometal xom-ashyo resurslar	Fosforit, apatit, fosfor, magniy, grafit, barit, kaliy tuz	Fosforit – Qizilqum, Jeroy Sardara, kaliy tuz – Surxandaryo (Xurapkon), Qashqadaryo (Tubakat), grafit – Qoratepa, Zirabuloq, Quljuqtov, Qizilqumda	Fosforit – Qaratav tog' tizmasida	Fosfor, kaliy tuzi, barit – Uralda, Xakasiyada, Vorkut shahrida, apatit – Murmansk viloyati, Kol yarimorolida, grafit - Krasnoyarskda

Metall mineral xom ashyo resurslari. Metall mineral xom ashyo resurslari, minerallar xom ashyo tarkibiga kirib, sanoatning “noni”, mamlakat iqtisodiy qudratini yuksaltirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, xom ashyoga minerallardan tashqari qishloq xo'jaligida, sanoatda qayta ishlash uchun yetishtiriladigan materiallar ham kiradi. Barcha mineral xom ashyo resurslarini ikki katta guruhga – metallardan iborat mineral xom ashyo va nometal mineral xom ashyoga ajratish mumkin. Metallning o'zi ham asl metallar, rangli, nodir yoki kam uchraydigan va qora metallarga bo'linadi.

O'zbekistonning yer osti turli-tuman qazilma boyliklarga serob. Bu yerda mineral xom ashyoning yuzga yaqin turi topilgan. Oltin zahiralari bo'yicha u MDH davlatlari orasida ikkinchi, kumush, mis, qalay, qo'rg'oshin va volfram bo'yicha uchunchi o'rinda turadi. Gaz, ko'mir, kaolin tuprog'i, kaliy tuzlari, alyuminiy xom ashyosi, xasham va ishlov beriladigan hamda qimmatbaho toshlar va boshqa ma'danlarning boy zahiralari bor.

Asl metallar. Oltin va kumush ana shunday asl metallar jumlasiga kiradi. O'zbekistonda 30 dan ortiq tarkibida oltin va kumush mavjud bo'lgan ruda konlari aniqlangan.

Oltin – noyob metall. U yer ostida ham, namlikda ham o'z xususiyatini yo'qotmaydi. Oltinni izlab topish, uni boshqa tog'-kon jinslaridan ajratib olish juda ko'p mehnat sarfini talab etadi. Ular

ko'pincha qotgan shag'al toshlar, qumlar orasida uchraydi. Oltin konlari bir necha yuz million yillar oldin hosil bo'lgan, degan taxminlar bor. U uran kabi boshqa kon rudalari bilan ustma-ust yoki yonma-yon uchraydi.

Oltin keyingi davrlarda, pul va zargarlikdan tashqari, elektronika-kompyuter ishlab chiqarishda, tish protezi sohasida va atom reaktorlari (reaktorning bitta ichki devori 16 kilogramm oltin bilan qoplanadi)da qo'llana boshladi.

Qurama tog' tizmalarida yirik kumush konlari topilgan. Toshkent oldi rayonida kumush hozir katta miqdorda ajratib olinmoqda. Qizilqumda kumush ishlab chiqarishni ko'paytirish borasida katta tadbirlar amalga oshirilmoqda. Oltindan keyin turadigan bu asl mineral xom ashyoning sanoat va iste'mol ahamiyati hammaga ma'lum.

Rangli va nodir metallar. Rangli va nodir metallar, ular jumlasiga mis, qalay, qo'rg'oshin, volfram, litiy, alyuminiy xom ashyosi, alunitlar, kaolinlar, stronsiy va uranni kiritish mumkin. O'zbekistonda bu mineral xom ashyolarning yirik zahiralari mavjud.

O'zbekistonda mis chiqaruvchi asosiy korxonalar Olmaliq tog'-metallurgiya kombinatidir. Mis konlari mis-porfir formatsiyasiga mansub bo'lib, O'rta Tyanshan, ayniqsa Qurama tog'lari uchun xosdir. Olmaliqda uning Qalmoqqir, Saricheka, Dalniy, Qizota konlari bor.

Volfram, molibden, qalay, vismut, simob va surmaning Janubiy Tyanshan va O'rta Tyanshan tog' tizmalariga kiradigan Qoratepa, Langar, Qo'ytosh, Ingichka, Yashton, Sargardon va boshqa konlari bor. 20 ta molebdenli formatsiya va ularning turlari aniqlangan.

Vismut ruda konlari Chotqol-Qurama tog'larida topilgan. Mishyak-vismut, mis-vismut formatsiyalari O'rtasaroy, Burchmullada topilgan. Simob-surma sanoat-rentabel konlarining uchramaganligi uchun qazib chiqarilmas edi. Ularning ko'plab konlari aniqlangan. Ular kelgusida sanoat ob'ekti bo'lishi mumkin. Istiqbolli konlar Janubiy Farg'onada topilgan. U yerda 100 dan ortiq simob va 10 dan ortiq surma turlari bor.

Qora metallar asosan temir, titan, marganes va xromdan iborat bo'lib, ularning bir necha yuz konlari mavjud. Turli genetik tipdagi temir konlari va ruda to'plamlari, magnit anomalialari bor. Ular Tepabuloq titan-magnetik koni, Surenota, Shabrez, Mingbuloq va boshqa konlardir. Marganesning cho'kindi konlari Zarafshon, Zirabuloq, Qoratepa, Lolabuloq va boshqa tog'larda, respublikaning shimoliy va shimoli-sharqiy qismida, gidrotermal to'plamlari Chotqol tog'larida joylashgan. Xrom konlari ofiolit mintaqalari bilan bog'liq bo'lib, Qizilqum Farg'ona ofiolit belbog'ida, Tomditog' va Sulton-Uvays rayonlarida ko'proq uchraydi.

O'zbekistonda temir va marganesning katta miqdordagi zahiralari ma'lum. Ammo foydalanishga topshirilgan konlari hali yo'q. Tayyor mahsulot (stanoklar, mashinalar, trubalar va metallprokat va boshqa) ko'rinishdagi qora metallarga respublikaning 90 foiz ehtiyoji sobiq ittifoqdosh davlatlar hisobiga qondirilgan. Bekaboddagi o'zbek metallurgiya zavodi metallom hisobiga ishlaydi. Mustaqillik tufayli respublikaning o'z temir ruda bazasiga ega bo'lishi taqazo etilmoqda. Shuni hisobga olgan holda Samarqand, Qoraqalpog'iston va Markaziy Qizilqum geologik-iqtisodiy rayonlarida temir va marganes ruda konlari qidirib topish ishlari jadal olib borilmoqda.

Nometall qazilma boyliklar. Bu turdagi mineral xom ashyolarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: tog'-ruda xom ashyosi, tog'-kimyo xom ashyosi, qurilish materiallari, yer osti suvlari.

Yoqilg'i-energetika zahirasi va turlari. Asosiy yoqilg'i-energetika resurslari neft, gaz, ko'mir va elektroenergiya hisoblanadi.

Neft o'ta muhim yonilg'i-energiya manbai bo'lib, benzin, kerosin yonilg'isi, mazut, moylash materiallari va bitumlar olishda asosiy xom ashyo sifatida ishlatiladi.

MDH mamlakatlarining har birida neft ishlab chiqarilishi, uni eksport yoki import qilishini ko'rib chiqiladigan bo'lsa, Ukraina va Belorussiya asosan neft va neft mahsulotlarini Rossiyadan import qiladilar. Rossiyaning kapitali Ukrainadagi neftni qayta ishlab chiquvchi zavodlarning 6 tadan 4 tasini, ya'ni 80 foizini boshqaradi. Ukraina Neftegaz Kompaniyasi (NAK) Ukrainaning 97 foiz neftini qazib oladi. Belorussiya Ukraina kabi neftga boy hisoblanmaydi. 2004 yilda neft qazib olish

2 mln tonnani tashkil etgan edi. 2009 yilda esa 1,720 ming tonna neft qazib olindi. Dunyoda neft qazib olish bo'yicha Ukraina 52-o'rinni egallaydi. Bir kunda 73 ming tonna, bir yilda esa 3,6 mln tonna neft qazib olinadi². Belarus esa dunyoda neft qazib olish bo'yicha 66-o'rinni egallaydi. Hisoblar bo'yicha kuniga 30 ming tonna, yiliga esa 1,5 mln tonna neft qazib olinadi.

Qozog'iston MDH mamlakatlari ichida neft zahirasi bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi va Rossiya bilan eng yaxshi hamkorlik o'rnatgan davlatdir. Qozog'iston o'zining neftining bir qismini Rossiyaga qayta ishlov berish uchun jo'natadi. 2012 yilda neft ishlab chiqarish Qozog'istonda 80 mln tonnani tashkil etdi. Qozog'istonda uchta eng asosiy neftni qayta ishlab chiqaruvchi zavodlar bor va ular yiliga hammasi bo'lib 19,4 mln tonna neftni qayta ishlab chiqara oladilar. 2012 yilning oxirida Angliya tashkiloti Qozog'istondagi neft zahirasini 30 mlrd barrel deb hisobladi, ya'ni 3,9 mlrd tonna, dunyo zahirasining 1.8 foizi. Dunyoda neft qazib olish bo'yicha 17-o'rinni egallaydi³.

2 - jadval

MDH mamlakatlari bo'yicha neft qazib olish hajmi (2012 yilda)⁴

Mamlakat	Kuniga qazib olinadigan neft hajmi	Yiliga qazib olinadigan neft hajmi	Dunyoda neft qazib olish bo'yicha o'rni
Rossiya	10 mln tonna	805 mln tonna	2
Ukraina	73 ming tonna	3,6 mln tonna	52
Belorus	30 ming tonna	1,5 mln tonna	66
Qozog'iston	-	80 mln tonna	17
O'zbekiston	104 ming tonna	5 mln tonna	48
Ozərbayjon	98 ming tonna	31 mln tonna	20
Tojikiston	215 tonna	10 ming tonna	99
Qirg'iziston	1 ming tonna	49,7 ming tonna	95

Ozərbayjon ham Qozog'iston kabi quvur yo'li orqali neftni eksport qiladi. 2006 yildagi izlanishlarga ko'ra Ozərbayjondagi neft zahirasi 7 mlrd barrelni, ya'ni 1 mlrd tonnani tashkil qilardi. Kuniga 98 ming barrel neft qazib olinadi. 2013 yilda qazib olinga neft hajmi 31 mln tonnani tashkil etadi. Dunyoda neft qazib olish bo'yicha 20-o'rinni egallaydi⁵.

O'zbekistonda neft zahirasi 5 mlrd tonnani tashkil etadi. Yiliga 3,5 mln tonna neft qazib olinadi. O'zbekistondagi "O'zbekneftegaz" kompaniyasi dunyo bo'yicha gazni qazib olish bo'yicha 11-o'rinda turadi. Dunyoda neft qazib olish bo'yicha 48-o'rinni egallaydi. Kuniga 104 ming tonna, yiliga esa 5 mln tonna neft qazib oladi⁶.

Tojikiston, Qizg'iziston, Moldova va Armaniston davlatlarida neft boyligi juda ham kam hisoblanadi. Masalan Tojikiston dunyoda neft qazib olish bo'yicha 100 tadan 99-o'rinda turadi. 1 kunda 215 tonna, 1 yilda esa 10 ming tonna neft qazib olinadi⁷. Qizg'iziston esa bu ro'yxatda 95-o'rinni egallaydi va kuniga 1000 tonna, yiliga esa 49,7 ming tonna neft qazib olinadi⁸.

Rossiya eng yirik neft zahirasiga ega mamlakat hisoblanadi. Dunyoda neft qazib olish bo'yicha Rossiya, Saudiya Arabistonidan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi. Bir kunda o'rtacha 10 mln tonna, bir yilda esa 508 mln tonna neft qazib olinadi. Rossiyaning eng yirik neft qazib oluvchi va qayta ishlab chiqaruvchi kompaniyalariga "Rosneft" va "Lukoil" kiradi. 2012 yilda Rossiya o'z neftining 14,4 foizini MDH mamlakatlariga, 7,7 foizini Yevro-Osiyo iqtisodiy tashkiloti davlatlariga, 49,2 foizini Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga va 23,5 foizini APEC tarkibidagi mamlakatlariga eksport qilgan. 2013 yilning birinchi yarmida esa MDH mamlakatlariga 13,3 foiz, Yevro-Osiyo

² www.energetika.in.ua Ukraina Energetika Boshqarmasi

³ www.kazenergy.com. Qozog'iston Milliy Energetika Vazirligi

⁴ www.eia.gov AQSh Energiya Ma'lumotlar Boshqarmasi

⁵ www.azerbajjans.com Ozərbayjon Sanoat va Energetika Vazirligi

⁶ www.unk.uz. O'zbekneftegaz Milliy Holding Kompaniyasi

⁷ www.minenergoprom.tj Tojikiston Savdo va Energetika Vazirligi

⁸ www.energo.gov.kg Qirg'iziston Savdo va Energetika Vazirligi

iqtisodiy tashkilota davlatlariga 7,5 foiz, Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga 50,1 foiz va APEC mamlakatlariga 24,3 foiz neft eksport qildi⁹.

Rossiya hukumati neft sohasini yanada yaxshilash niyatida 2020 yilgacha qilinishi kerak bo'lgan ishlar ro'yxatini tuzib o'z oldiga bir qancha yangi islohotlar o'tkazishni maqsad qilib qo'ydi.

Ammo MDH mamlakatlarida neft sohasidagi iqtisodiy muammolar ham mavjud. Bular jumlasiga, MDH davlatlaridagi eskirayotgan, neft qazib olinishini yaxshi ta'minlab bera olmaydigan uskunalar, samarasiz bo'lgan soliqlar, investitsiyalarning rag'batlantirishning pastligi, iqtisodiy mexanizmlarning yaxshi o'rganilmaganligi va boshqalar misol bo'lishi mumkin. Tahlilchilarning fikriga ko'ra MDH mamlakatlari neft narxining monopollashuvi, ya'ni ma'lum bir hududlarda o'z hukmronligini o'rnatgan kompaniyalar orasida neft narxini o'z ixtiyoriga qarab o'rnatishi neft sohasining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ham qator neft-gaz konlari topildi. Farg'ona viloyati hududida yirik konlardan Shimoliy So'x, Andijon viloyatida Janubiy Olamushuk, Polvontosh, Chung'ara, Chimyon, Sho'rsuvni ko'rsatish mumkin. Farg'ona vodiysidagi konlarda, asosan, neft uchraydi. Ular bir necha o'n yillardan beri xalq xo'jaligiga xizmat qilib kelmoqda. Namangan viloyatida Mingbuloq konining ochilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Farg'ona nefti asosan yengil, oltingugurti kam, parafini ko'proq. Janubda neft konlari Surxondaryo viloyatida joylashgan.

Neft konlarining katta zahiralari Ustyurtda topilgan. Bulardan tashqari neft-gaz kondensat konlari Muborak, Sho'rtan, O'rtabuloqda joylashgan. Buxoro viloyatidagi Ko'kdumaloq koni ayniqsa beqiyosdir.

O'zbekistonda gazning aniqlangan zahiralari 2 trillion kubometrni, ko'mirniki 2 milliard tonnadan ziyodroq tashkil etadi. Mamlakatda topilgan konlarning zahiralari nafaqat ichki ehtiyojlarni to'la qondirishga qodir, balki energiya manbalarini tashqariga eksport qilish imkonini ham beradi¹⁰.

Neft va gazga boy beshta mintaqa aniqlangan: Ustyurt, Buxoro-Xiva, Janubi-g'arbiy Hisor, Surxondaryo va Farg'ona. Gazning hozirgi aniqlangan zahiralari mamlakat ehtiyojlarini 35, neftniki 30 yil mobaynida qoplashga yetadi. Ammo O'zbekistonda gaz va neft zahiralarni izlab topish darajasi hozir 30-32 foizdan oshmaydi. Gaz qazib olish sanoati va uni ishlab chiqarishning rivojlanishi, tabiiy gaz va gaz kondensatini qayta ishlash istiqbollidir. Gazning tarkibida etan, propan va butan bo'lib, ulardan polimer materiallari olinadi. Sho'rtan gaz-kimyo majmuidan olinayotgan propandan kelgusida nitron tolasi ishlab chiqarish mumkin.

O'zbekistonda 3 ta yirik ko'mir koni mavjud. Ular Angren (Toshkent viloyati), Sharg'un va Boysun (Surxondaryo viloyati) konlaridir. Angren koni Ohangaron daryosi voydisida joylashgan bo'lib, bu yerda qo'ng'ir ko'mir ochiq usulda qazib olinadi. Uning asosida, Angren GRESi ishlaydi. Sharg'un koni 600-800 metr balandlikdagi tog'likda joylashgan. Ko'mir qazib olish jarayonida qimmatli mineral xom ashyo resurslari ham ajratib olinadi. Ular kaolin, kvars kumlari va boshqalar bo'lib, ko'plab yangi zamonaviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishda xom ashyo bazasi bo'lib xizmat qiladi.

3 - jadval

Mineral xom ashyo resurslarining iqtisodiy o'sishdagi ulushi (foizda)

Mineral xom ashyo	YaIMdagi ulushi			Sanoatdagi ulushi(qazib olish)			Qayta ishlash			Eksport		
	O'zbekis ton	Qozog'is ton	Rossiya	O'zbekis ton	Qozog'si ton	Rossiya	O'zbekis ton	Qozog'is ton	Rossiya	O'zbekis ton	Qozog'is ton	Rossiya
Neft-gaz		20,12	6,7	8,9		20	14,0		23	34,2	27	38

⁹ «Развитие регионов мира» Ашимбаева, Казахстан, 2012 г. Стр 50

¹⁰ www.uzbekenergo.uz O'zbekenergo Davlat Aksiyadorlik Kompaniyasi

Qora va rangli metallar			3	14,1	14		4,1			5	30	12
-------------------------	--	--	---	------	----	--	-----	--	--	---	----	----

Iqtisodchilar mineral xom ashyo resurslari majmuasi baholayotganda ikkita bir-biriga zid guruhlarga bo'linadilar. Ayrim iqtisodchilarning fikricha, mineral xom ashyolar har qanday davlatning barqaror rivojlanishining manbai, jahon sivilizatsiyasining kelajagi va asosi hisoblanadi. Mavjud xom-ashyolarga ko'ra mamlakatning jahon bozorida o'rni belgilanadi, tog'da qazib olinadigan mineral resurslar sanoatida esa yirik mamlakatlar AQSh, Kanada, Avstraliyaning ulushi kattadir. Boshqa iqtisodchilar aksincha tog'-kon resurslari qazib chiqarishni kamaytirish kerakligini uqtiradilar, chunki ular mamlakat iqtisodini orqaga totuvchi omil sifatida baholanadi. Ularning fikriga ko'ra, tog'-kon resurslari sanoati iqtisodning eng pasti va YaIMda ulushi doimo kamayishga moyilligi bor tarmoq sifatida qaraydilar. Bunga yaqqol misol sifatida rivojlangan, ammo mineral xom ashyo resurslari zahirasiga ega bo'lmagan davlatlar Yaponiya, Janubiy Koreya, Yangi Zelandiya va boshqa davlatlarni keltirishadi.

Ikkinchi guruh iqtisodchilarning fikriga ko'ra mineral xom ashyo resurslari iqtisodiy taraqqiyotda muhim o'rin tutadi, u mamlakat iqtisodiy qudratining asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib xizmat qiladi. Keyingi o'n yillikda uglevodorod va alyuminiy xom ashyosi, olmos va nodir metallar, legirlovchi metallar, marganesli va xromli rudalar, platinalar guruhiga kiruvchi metallar, agrosanoat kompleksi uchun xom ashyo qazib olish, iste'mol qilish yuqori sur'atlarda rivojlandi. BMT ekspertlari hisob-kitoblariga ko'ra, yaqin o'n yillikda bu an'ana saqlanadi.

O'zbekistonda 2500 dan ortiq konlar, 100 ga yaqin xom ashyo turlari ochilgan. Mamlakatimiz ayrim mineral xom ashyo turlari bo'yicha jahonda ko'zga ko'ringan o'rinni egallaydi – oltin zahiralari bo'yicha to'rtinchi, uni qazib olish darajasi bo'yicha sakkizinchi, mis bo'yicha o'ninchi-o'n birinchi, kumush, tabiiy gaz zahiralari bo'yicha yetakchi o'rnini egallaydi¹¹.


Topilgan va sanoat o'zlashtirishiga tayyorlangan rangli, nodir va asl metallar, yonilg'i-energetika, tog'-ruda, tog' kimyo, rangli tosh xom ashyosi, qurilish materiallari va yer osti suvlari zahiralari asosida respublikada yuzlab neft-gaz sanoat korxonalarini, konlar, shaxta va karerlar, suv bilan davolaydigan shifoxonalar ishlab turibdi. Olmaliq va Navoiy tog'-metallurgiya, Sho'rtan gaz-kimyo, Ohangaron, Navoiy, Bekobod sement, Angren ko'mir koni va boshqa qudratli sanoat komplekslari ishlab turibdi.

1917 yilga qadar Rossiya ko'p xom-ashyolarni import qilardi: ko'mirni Buyuk Britaniyadan, fosforni Marokashdan, kaliy tuzini Germaniyadan, qurilish mollarini Shvetsiyadan olar edi. Sovet hukumati davridagina mineral xom-ashyo buyuk davlatiga aylandi. Hozirgi kunda ko'p iqtisodchilar aynan mineral resurslar Rossiya bilan qattiq hazil qilganini aytadilar, chunki aynan shu resurslarning ko'pligi tufayli Rossiyada texnik rivojlanish ancha orqada qolgan. Hech qanday resursga ega bo'lmagan Yaponiya va Janubiy Koreya transport vositalari ishlab chiqarish bo'yicha ilg'or o'rinlarni egallaydilar. Ular uchun arzon xom ashyoni sotib olib, qimmat tayyor mahsulotni sotish ancha foydaliroqdir. Masalan, xom-ashyo avtomobil tannarxida atigi 10 foizni tashkil qiladi.

¹¹ www.undp.org Birlashgan Millatlar Rivojlanish dasturi tashkilotining rasmiy sayti

4 - diagramma

Rossiya YaIMida 2008-2012 yillar mobaynida neft va gaz tarmog'ining ulushi (foizda)¹²



Rossiya iqtisodiyotida mineral xom-ashyo resurslarining o'rni katta. Neft va gazning o'zi Rossiya YaIMining 6,8 foizini tashkil qilmoqda, ayni paytda esa mineral xom –ashyo resurslar qazib olish YaIMning 9 foizini tashkil qiladi. Neft - gaz qazib olish natijasida Rossiya byudjetiga 1 mlrd dollardan ortiq mablag' tushadi. Ushbu resurslarni qayta ishlash va undan olinga mahsulotlar esa Rossiya YaIMida 23 foizini tashkil qilmoqda. Har yili Rossiya eksportining 11 foizini gaz, 9 foizini esa neft tashkil qiladi¹³.

Oxirgi yillarda Qozog'istonda ham iqtisodiy o'sish asosan mo'tadil tashqi konyunktura, mamlakat eksportining asosini tashkil etuvchi neft, qora va rangli metallar narxining balandligi natijasida kuzatilmoqda. Agar ushbu mineral xom-ashyolarning narx omilini olib tashlasa, iqtisodiy o'sish 2-3 foizni tashkil qiladi, vaholanki so'nggi yillarda iqtisodiy o'sish Qozog'istonda 6-7 foizni tashkil qilmoqda. Qozog'iston YaIMining 80 foiz o'sishi mamlakat mineral xom-ashyosiga bo'lgan talabning ko'payib borayotganligi sabab bo'lmoqda.


5 - diagramma

2012 yilda Qozog'iston iqtisodida tarmoqlar bo'yicha eng yirik kompaniyalar tuzilmasi¹⁴

¹² www.eia.gov AQSh Energiya Ma'lumotlar Boshqarmasi


¹³ www.minenergo.gov.ru Rossiya Energetika Vazirligi Boshqarmasi

¹⁴ www.raexpert.ru. Xalqaro Reyting Agentligi



Ushbu diagrammadan ko'rinib turibdiki, Qozog'iston iqtisodiyotida mineral xom-ashyo resurslari, ayniqsa neft va gaz resurslari juda katta ulushga ega. Qozog'iston iqtisodiyotida deyarli 63 foiz eng yirik kompaniyalar mineral xom-ashyo resurslari bilan shug'ullanadi.

O'zbekiston Respublikasi yer bag'rida milliy xo'jalikda foydalanilyotgan deyarli barcha turdagi foydali qazilmalar mavjud. Hozirda 1717 dan ortiq kon va 118 turdagi mineral xomashyoning 1000ga yaqin foydali qazilmalarining istiqbolli namoyonlari aniqlangan, ularning 65 tasi o'zlashtirilmoqda.



O'zbekiston Respublikasi foydali qazilmalar zaxiralari Davlat balansi ma'lumotlariga ko'ra (01.01.2015 yil holati bo'yicha), O'zbekiston hududida 1838 ta kon, shu jumladan: 235 ta uglevodorodlar koni; 151 ta metallar koni; 5 ta ko'mir va yonuvchi slanetslar koni; 55 ta tog' ruda; 28 ta tog' kimyo va 30 ta rangli toshlar xom ashyolari koni; 714 ta turli maqsadda foydalaniladigan qurilish materiallari va 620 ta yer osti chuchuk va mineral suv koni.

Respublika oltinning tasdiqlangan zaxiralari bo'yicha dunyodagi davlatlarning birinchi beshtaligiga kiradi, qazib olish bo'yicha esa to'qqizinchi o'rinni egallaydi. Uchta tog'-kon-iqtisodiy

rayon - Qizilqum (Muruntov, Mutenboy, Triada, Basapantov, Omontoytov, Ko'kpatos, Dovg'iztov va b.), Nurota (Zarmiton, Gujumsoy, Sarmich, Biron, Marjonbuloq va b.) va Toshkentoldi (Ko'chbuloq, Qayrag'och, Qizilolmasoy, Qovuldi, Pirmirob, Guzaksoy va b.) da joylashgan tub konlar asosiy ahamiyatga ega. Respublikaning bashoratga oid resurslari chamalangan zaxiralardan ikki karra ortiq.

Respublika hududida kumush zaxiralari 26 ta konda hisobga olingan bo'lib, zaxiralarning 80,4 foizi Qalmoqqir va Dalneye, Uchquloch, Xondiza, Ko'chbuloq, Qizilolmasoy, Muruntov kompleks va oltinma'danli konlarga to'g'ri keladi. Visokovoltnoye, Kosmonachi, Oqjetpes kumush konlari hisoblanadi.

O'zbekiston uran zaxiralari va uni qazib olish bo'yicha dunyo davlatlarining birinchi o'ntaligiga kiradi. Uranning tayyorlangan zaxiralari tog'-kon-metallurgiya kompleksini 20 yildan ortiq muddatga barqaror ishlashiga kafolat beradi.

Respublikada rangli, nodir va tarqoq metallarning katta negizi yaratilgan. Mis zaxiralari Olmaliq tog'-kon ma'danli rayonidagi mis-porfirli kompleks konlarida jamlangan. Olmaliq konlari ma'danlari misdan tashqari oltin, kumush, oltingugurt, tellur, selen, reniyning katta zaxiralarini o'z ichiga oladi.

Volfram zaxiralari Langar, Ingichka, Qo'ytosh, Yaxton, Sargardon, Saritov va Sovutboy konlari ma'danlarida jamlangan.

Qo'rg'oshin va rux konlari sanoatga oid uch turdagi karbonatli jinslarda qo'rg'oshin-ruxli stratiformali (Uchquloch, Qulcho'loq), skarn-qo'rg'oshin-ruxli (Qo'rg'oshinkon, Kumushkon) va vulqonogen jinslardagi kolchedan-polimetalli konlar bilan ifodalangan.

Mamlakatda temirning o'nlab namoyonlari aniqlangan. Tebinbuloq titan-magnetitli, Temirkon gematit-magnetitli va magnetitli ma'dan konlari baholangan, Surenota skarn-magnetitli koni chamalangan.

Respublika hududida marganetsning ko'plab namoyonlari ma'lum. Dovtosh, Qizilbayroq, Taxtakaracha qatlamli konlari ko'proq o'rganilgan.

Yonuvchi slanetslar neft mahsulotlari va bir qator rangli va nodir metallarni olish uchun xom ashyo bo'lishlari mumkin. Janubiy va G'arbiy O'zbekiston hududida Boysun, Jom, O'rtabuloq, Sangruntov, Oqtov, Uchqir, Kulbeshkak konlari zaxiralari baholangan.

Respublika nometall foydali qazilmalarning katta resurslariga ega. Ushbu guruhni (70 turdan ortiq) asosan tog'-kon, tog'-kimyo ma'dani va shisha-keramika xom ashyolari, agroma'danlar, qurilish materiallari, sorbentlar va abrazivlar konlari tashkil qiladi. Ular sirasiga fosforli angidritning umumiy zaxirasi 122 mln.t., bashorat qilingan resurslari 100 mln.t. bo'lgan fosforitlar konlari, grafit, kaliy tuzlari konlari (Tubegaton konining chamalangan zaxiralari 686 mln.tonnani tashkil qiladi); miqdori 90 mlrd.t. baholangan tosh tuzi zaxiralari (Xo'jaikon, Tubegaton, Janubiy O'zbekistonda - Boybichekan va Qoraqalpog'iston Respublikasida - Borsakelmas, Oqqal'a).

Respublikada qimmatli agroma'dan xom ashyolari - bentonitlar va bentonit tarkibli gillar, glaukonitlarning (Arabdasht, Xovdag, Azkamar va b.) katta zaxiralari mavjud.

Mavjud geologik ma'lumotlar O'rta Osiyodagi yangi olmosli mintaqa mavjudligidan dalolat beradi, uning doirasida tarkibida olmos mavjud bo'lgan turli xildagi nokimberlitli jinslar (lamproitlar, lamprofirlar, ishqorli bazaltoidlar, pikritlar, giperbazitlar, melankratli karbonatitlar) namoyon bo'lgan. Bugungi kunda respublikada 20 ga yaqin trubka ma'lum bo'lib, ulardan uchtasi sanoatga oid bo'lishi mumkin deb hisoblanadi.

Gidromineral xom ashyolari hozircha O'zbekiston uchun noan'anaviy hisoblandi va ular yanada chuqurroq o'rganishni talab qiladi. Buxoro - Qarshi, Surxondaryo, Ustyurt va Farg'ona artezion havzalari yer osti suvlarini tadqiq qilish natijasida yod, brom, litiy, rubidiy, seziy, stronsiy va boshqa sanoat konsentratsiyalari aniqlandi. Ushbu havzalar chuqur gorizontlarining yer osti suvlari uglevodorodlar konlari bilan birga uchraydi. Ularni tabiiy gaz, neft va kondensatlarni qazib olish chog'ida kompleks tarzda o'zlashtirish katta iqtisodiy samara olishdan tashqari, atrof muhitga ta'sir qilayotgan texnogen bosimni kamaytirish imkonini beradi.

Yer osti suvlari suv resurslarining talaygina qismini tashkil qiladi. Chamalangan konlar umumiy miqdorining 90 foizidan foydalanilmaydi va u ichimlik suvi ta'minotini yaxshilashda zaxira bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonning mustaqilligi yillarida geologiya tarmog'i muvaffaqiyatli rivojlanishda davom etdi, 950 yangi konlar va turli foydali qazilma uchastkalari qidirib topildi.




Fig. 2. Global production of fossil energy from 1800 to 2010. Adapted from Höök et al. (2012).

Ushbu resurslar jonsiz tabiat resurslari bo'lib, ulardan konstruksiya matiriallari, kimyoviy qo'shilmalar, o'g'itlar, xar xil buyumlar, qo'ruvish materiallari, asbob uskunalar, yoqilg'i kabi halq xo'jaligida ishlatilayotgan mahsulotlar ishlab chiqiladi. Bu resurslar qayta tiklanmaydigan resurslarga kiradi va yuqolib ketmaydi, o'zining xususiyatlarini ham yo'qotmaydi. Geologik va xujalik modda aylanishida esa o'z shakllarini va joylarini o'zgartiradi. Litosfera va kisman gidrosfera mineral xom-ashyo resurslarini manbasi bo'lib xizmat qiladi. Foydalanayotgan kimyoviy elementlar resurslari Amaliy jixatdan ularning xar yili qazib olinayotgan xajmidan 100 mln marotaba ko'proqdir.

O'zbekiston hududlari turli foydali qazilma xom ashyolariga boy. Ular 100 ga yaqin mineral xom ashyo turlarini o'z ichiga oladi. Oltin, mis, qo'rg'oshin, rux, radioaktiv elementlar, tabiiy gaz, neft va boshqa foydali qazilmalar miqdori bo'yicha ko'pgina davlatlar orasida yetakchi o'rinda turadi. Respublikada tuzlar, alyuminiy xom ashyosi, qoplama bezak va qimmatbaho toshlar, ba'zi kamyob elementlarning katta resurslari aniqlangan. O'zbekiston qurilish materiallari va yoqilg'i energetika resurslariga ham boy. Hozirgi qadar 2700 dan ziyod turli foydali qazilma konlari va istiqbolli joylar aniqlangan. 900 dan ortiq kon qidirib topilgan bo'lib, tasdiqlangan resurslari 970 mlrd AQSh dollarini tashkil etadi. Respublikaning umumiy xom ashyo imkoniyati 3,3 trillion AQSh dollariga teng. Har yili respublika konlarida o'rtacha 5,5 mlrd dollarga teng miqdorida foydali qazilmalar olinmoqda va ular yoniga 6-7 mlrd dollarlik yangi resurslar qo'shilmoqda.

O'zbekiston hududlarida neft va gaz kondensati tabiiy gazning 155 ta istiqbolli konlarida qimmatbaho metallar bo'yicha 40 tadan ortiq nodir va radiaktiv metallar bo'yicha 40, konchilik kimyo xom ashyosi bo'yicha 15 ta konlari qidirib topilgan. O'zbekiston oltin, uran, mis, tabiiy gaz, volfram, kaliy tuzlari, fosforitlar, kaolin resurslari bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinni egallaydi. Masalan, oltin resurslari bo'yicha respublika dunyoda 4-o'rinda turadi, uni qazib olish bo'yicha 7-o'rinda, mis resurslari bo'yicha 10-16 o'rinda, uran resursi bo'yicha 7-8 o'rinda turadi.

Ko'pchilik mineral xom ashyo resurslari mavjud tog'-kon sanoati majmualarining uzoq muddat jarayonida ishlab chiqarishni ta'minlaydi. Ular yirik konlarda to'plangan bo'lib, ularni qazib olingan joyning o'zidayoq majmua qayta ishlash imkoniyati bor. Hozir 650 dan ortiq tog'-kon korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Shu bilan bir qatorda respublikada tog'-kon sanoati resurslarini qazib olishda muntazam yo'l qo'yib kelingan xatolar quyidagi salbiy oqibatlariga olib keldi:

- Tog' kon sanoati rayonlardagi tabiiy landshaftlarning buzilishi, izdan chiqishi;

- atrof-muhit ekologik holatining yomonlashuvi;
- qazilma boyliklardan samarasiz foydalanish;
- ko'plab chiqitlarning paydo bo'lishi va atrof muhitning ifloslanishi;
- chiqitlardan foydalanishning yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi.

Har yili respublikada 100 mln tonnadan ortiq har xil chiqitlar paydo bo'lmoqda, ularning yarmi zaharlidir. Ularning umumiy hajmi 2 mlrd tonnadan ortiqroqdir. Har yili tog' kon sanoati faoliyati oqibatida 50-60 mln tonna turli jinslar to'planib, ular 10 mln gektar yerni egallayotir.

Umuman olganda tog' kon sanoatida mineral xom ashyodan unimli va majmua foydalanishni iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmi ishlab chiqilmagan.

Bular buzilgan landshaftlarni tiklash, ya'ni landshaftlar rekultivatsiyasi yuzasidan chora tadbirlarning keng tizimini amalga oshirishni taqozo etadi. Konlardan majmua foydalanish resurslarini tejash, ishlab chiqarishning chiqitsiz va kam chiqitli texnologiyasini keng joriy etish, iqtisodiy rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish va uni keng qo'llash mineral xom ashyo resurslaridan samarali foydalanishning istiqbolli yo'nalishlari

3. Mineral xom-ashyo resurslarini hisobga olish va ularning ko'rsatkichlari.

Mineral xom - ashyo resurslari xududlar, rayonlar bo'yicha yotish cho'qurligi bo'yicha noteks joylashgan va xom-ashyo tarkibi bo'yicha xilma-xil. Shu sababdan ulardan foydalanish samarasi ham bir xil emas. Bunda yuqori sifatli resurslar cheklangan, ayniqsa hududlar bo'yicha, chunki ular tiklanmaydigan resurslarga kiradi. Shunga bog'liq holda resurslar tugashi va xomashyo yetishmasligi to'g'risida tasavvur paydo bo'ladi. Haqiqatda esa bunday tasavvur shartli va faqat xomashyoni qazib olishning iqtisodiy sharoitlarini ifodalaydi. Amaliyotda mineral xomashyo resurslardan undagi xomashyoning turli tarkiblarda mavjudligi sharoitida foydalaniladi. Masalan, temir rudasida sof xomashyo 80%, oltin konlarida esa foizning kichik bir qismini sof oltin bo'lgan sharoitda ular qazib olinadi. Bir xil xomashyoning tarkibi va sifatiga qo'yiladigan talablar ham hududlar bo'yicha ijtimoiy zarur xarajatlarga bog'liq holda har xil bo'ladi. Bularning hammasi xom Ashe resurslari qazib olishning hajmi imkoniyatlari va xom ashyo yetishmasligi to'g'risidagi tasavvurning ijobiy ekanligini ko'rsatadi.


Shuningdek, mineral xom ashyo resurslarning hisob kitoblari ham nisbiydir. U xalq xo'jaligida Ushbu resurslardan foydalanish nuqtai nazaridan o'tkaziladi, ya'ni hisob kitoblar iqtisodiy jihatdan o'zgartirish ma'qul va oson bo'lgan konlar bo'yicha ularni o'rganish darajasi va o'zlashtirishga tayyorlanishi bo'yicha olib boriladi. Amaliyotda xom Ashe resurslari A, V, S va yana balansdan tashqari kategoriyalarga bo'linadi. Ko'pincha mineral xom ashyolari resurslaridan olinadigan elementlar bo'yicha hisobga olinadi. Lekin yo'ldosh elementlar va ochilgan jinslarning resurslarini ham hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

4. Mineral xom-ashyo resurslarini iqtisodiy baholash va barqaror boshqarish.

Mineral xom ashyo resurslarining holatini baxolashda quyidagi asosiy ko'rsatkichlardan foydalanish lozim. Ehtimol tutilgan resurs resurslarida hisobga olinadigan resurslarning salmog'i, hisobga olingan resurslardan foydalanish muddatlari, hisobga olingan resurslarning o'rganish darajasi va o'zlashtirishga tayyorlanishi bo'yicha tizimi, ya'ni A,V,S kategoriyalari bo'yicha; hisobga olingan resurslarning ularning o'zlashtirish samaradorligi bo'yicha tizimi. Hisobga olingan resurslar birligiga to'g'ri keladigan yo'ldosh elementlar va olingan jinslar hisobiga olish davrida mavjud resurslarning yangi resurslar hisobiga o'sishi. Ayrim resurslar bo'yicha ma'lumotlarga asoslanib tabiiy majmualar baholanadi va bunda resurslarning ayrim turlari, ularning majmualigiga va o'zlashtirish samaradorligining iqtisodiy ahamiyati hisobga olinadi.

Mineral xom ashyo resurslari tog'-kon permajmua shakllanishining moddiy asosi bo'lib xizmat qiladi va uning tarkibiga metallurgiya, kimyo, va qurilish sanoati tarmoqlararo majmualari kiradi.

**OIL AND GAS LIQUIDS
2005 Scenario**



Mineral xom ashyo resurslaridan foydalanish jarayonida xom ashyo yerning chuqur qatlamlaridan yer yuziga chiqadilar, undan foydali elementlar olinadi, so'ngra qayta ishlash uchun xo'jalik korxonalarida to'palanadi yoki mahsulot iste'moli uchun tarqatiladi. Bu jarayonlarni hisobga olish quyidagi nisbat asosida amalga oshiriladi.

$$M_o = M_b + X - K - T$$

bunda: M_o – obyektidagi materialning oxirgi resursi;

M_b – obyektidagi materialning boshlang'ich resursi;

X – obyektidagi materialning ko'payishi va ularning kamayishini to'ldirish uchun zarur bo'lgan materialni ishlab chiqarish hajmi;

K – qaytariladigan materiallarning hajmi.

Bu nisbatlarni har qanday tizim yoki obyektga, xo'jalik birliklariga, yer yuzasiga va boshqalarga barobar qo'llash mumkin. Ushbu nisbatlar asosida materiallarni qayta ishlash va ularni iste'mol qilish bosqichlari bo'yicha balanslarini tarmoqlararo va hududiy majmualar bo'yicha tuzish va ular asosida ushbu jarayonlarni tartibga solish mumkin.

Materiallardan foydalanishda baholash uchun quyidagi ko'rsatkichlar darajasi qo'llaniladi: xom ashyodan umuman va qayta ishlash bosqichlari bo'yicha foydalanish, qayta ishlash bosqichlaridan isrof qilish qazib olishda xom ashyodan material olish, hududiy tizimlar uchun maydon birligiga elementlarning tarqalishi. O'zbekiston uchun mineral xom ashyo resurslarini to'liq hisobga olish va ulardan unimli foydalanish ushbu yo'nalishdagi jarayonlarni tartibga solishga imkon beradi.

5. Mineral xom-ashyo zahiralardan foydalanishdagi ekologik muammolar va ularni bartaraf etishni ahamiyati.

Ochiq usulda qazib olinadigan ma'dan konlari atrof-muhitni ko'proq ifloslaydi. Qazilma boylikning yuzini ochishda ko'pincha portlashlar qilinib, yuzadagi tog' jinslari ma'lum qalinlikda yumshatiladi. Portlash natijasida jinslar turli tomonga sochilishi va ular qo'porib tashlanishi tufayli havoga ko'p miqdorda chang ko'tariladi. Mutaxassislarining ma'lumotiga ko'ra, ruda ochiq konlarda bir yo'la o'rtacha zichlikdagi gruntlar portlatilganda osmonga 100-200 t. gacha chang ko'tarilishi qayd etilgan. Gruntlarni transportga ortish va tekislash ishlarida ham 10 t. gacha chang havoga chiqishi mumkin. Yuk tashuvchi bir avtomashinadan bir sutkada 10 kg. chang havoga chiqadi. Chang, shuningdek, ag'darma yuk avtomashinalari, ag'darma yarim vagonlar va konveylarda tog' jinslarini tashishda, ularni maydalovchi qurilmalarda maydalanishi, buldozerlar harakatida ham katta hajmda chiqadi. Qurilish materiallari konlarida tosh kesish mashinalari ishlaganda havoning chang bilan

to'yinishi 1m³ da 1500 mg. ga yetadi. Yirik yuk mashinalari, masalan, KrAZ-256 avtomashina sekundiga 202,2 mg. uglerod oksidi, 175,9 mg azot oksidi, 138,6 mg. akrolein, BelAZ-548 avtomashinasi esa sekundiga 1156 mg. uglerod oksidi, 130,0 mg. azot oksidi va 6,0 mg. akrolein chiqaradi. Bu hol ochiq konlar havosini zaharlash bilan birga inson organizmining turli kasalliklarga chidamligini kamaytiradi.

Yer qa'rida yashirinib yotgan ma'danlarni qidirib topish va aniqlash ancha mushkul. Buning uchun geologik seymka, qidiruv, tekshirish ishlari amalga oshirilib, bu ishda avtomashinalar, burg'ulash qurilmalari, traktorlar va boshqa texnika jihozlari ishtirok etadi. Yo'l yo'qligi tufayli texnika yaylovda o'ziga ma'qul bo'lgan joydan yo'l solib, belgilangan yo'nalish bo'yicha harakat qiladi. Buning oqibatida g'ildirak ostidagi o't-o'lan eziladi, sinadi, oxiri yo'qoladi, vujudga kelgan iz shamol ta'siriga berilib, turli chuqurlik va botiqlar hosil bo'ladi. Xullas, hisob-kitoblarga qaraganda, har 1 km masofada 4 gacha maydondagi yaylov yo'qoladi, 0,3-0,4 ga maydonda to'zima qumliklar vujudga keladi. Burg'ulash qurilmasini traktorlar yordamida bir joydan ikkinchi joyga ko'chirishda esa o'simlik olami katta maydonda zarar ko'radi. Agar burg'ulash qurilmasi 15 km masofaga ko'chirilsa, u holda kamida 100 ga maydondagi yaylov nobud bo'ladi, yangi barxanlar tarkib topadi.

Nazorat va mulohaza savollari.

1. Mineral xom ashyo resurslari qanday resurslar hisoblanadi?
2. Mineral xom ashyo resurslarining ekologik xususiyatlari nimalardan iborat.
3. Mineral xom ashyo resurslarining iqtisodiy xususiyatlarini aytib bering.
4. Mineral xom ashyo resurslarini iqtisodiy baholash mezonlari nimalardan iborat.
5. O'zbekistonning mineral xom ashyo resurslari imkoniyati va ulardan foydalanishni tariflang.
6. Rekultivasiya necha hil bo'ladi va u qanday amalga oshiriladi.
7. Mineral xom ashyo resurslaridan oqilona foydalanish deganda nimani tushunasiz?
8. Mineral xom ashyo resurslaridan foydalanishni istiqbolli yunalishlarini tushunting?
9. Tugaydigan tabiiy resurs deganda qanday resurslarni tushunasiz?
10. O'zbekistonda rekultivasiya ishlari kanday ahvolda?

7-Mavzu: Ikkilamchi resurslardan foydalanishning ekologik-iqtisodiy xususiyatlari va yo'nalishlari(4-soat).

Reja:

1. Ikkilamchi resurslar va ularning asosiy manbalari.
2. Ikkilamchi resurslardan foydalanishda chet el tajribalarini o'rganishning ahamiyati.
3. Ikkilamchi resurslardagi foydalanishning xuquqiy asoslari va hozirgi holati.
4. Ikkilamchi resurslardan foydalanishning ekologik-iqtisodiy istiqbolli yo'nalishlari va mazmun mohiyati.

1. Ikkilamchi resurslar va ularning asosiy manbalari.

Inson xo'jalik faoliyati, ayniqsa sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda ko'p miqdorda chiqindilar paydo bo'ladi. Ularning paydo bo'lish manbalariga ko'ra 3 asosiy guruhga bo'linadi:

- 1) ishlab chiqarish chiqindilari;
- 2) iste'mol chiqindilari;
- 3) utilizasiya chiqindilari;

Ishlab chiqarish jarayonlarida paydo bo'ladigan xom ashyo qoldiqlari, materiallari, yarim fabrikatlar kiradi va ular dastlabki iste'mol sifatlarini qisman yoki to'liq yo'qotgan bo'ladi. Iste'mol chiqitlari o'zlarining iste'mol sifatlarini yo'qotgan va iste'molda bo'lgan mahsulotlar hamda ularga yo'ldosh buyumlardir.



Foydalanish imkoniyatlariga ko'ra utilizasiya qilinadigan (foydalaniladigan, ishlatiladigan) va utilizasiya qilinmaydigan chiqindilarga bo'linadi. Birinchisi uchun qayta ishlash texnologiyasi va xo'jalik oborotiga kiritish texnologiyasi mavjud, ikkinchisi uchun hozirda shunday texnologiya ishlab chiqarilmoqda.

Chiqindilarni hosil bo'lushiga ko'ra guruhlariga bo'lish bilan bir qatorda, ularni xosil bo'lishini xududiy xususiyatlarini ham o'rganish iqtisodiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Chunki ishlab chiqarish korxonalarini, qayta ishlash texnologiyalarini xududiy joylashtirish chiqindilarni tarkibiy va miqdoriy xususiyatlariga bog'liqdir. Quyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha qattiq maishiy chiqindilarni hosil bo'lishini viloyatlar bo'yicha taqsimlanishini ko'rib chiqamiz.

Respublikada 2013 yilda qattiq maishiy chiqindilar to'planishi (jamiga nisbatan foizda)

Viloyatlar	%
Toshkent viloyati	42,8%,
Farg'ona viloyati	9,8%
Navoiy viloyati	7,9%,
Toshkent viloyati	7,7%
Andijon viloyati	5,6%
Samarqand viloyati	5,4%
Jizzax viloyati	4,6%
Qashqadaryo viloyati	4%
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3,5%
Surxondaryo viloyati	2,8%
Buxoro viloyati	2,6%
Sirdaryo viloyati	1,4%
Xorazm viloyati	1,1%
Namangan viloyati	0,7%.

Yuqoridagi jadvalda berilgan ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, mamlakatimizda hosil bo'ladigan qattiq maishiy chiqindilarni 42,8 % zi, ya'ni yarmiga yaqini Toshkent viloyatiga to'g'ri kelishini ko'ramiz.




2. Ikkilamchi resurslardan foydalanishda chet el tajribalarini o'rganishning ahamiyati.

Inson xo'jalik faoliyati oqibatida bir necha yuz xil chiqindilar paydo bo'ladi. Ularning bir necha turlari: metall, plastmassa, qog'oz, shisha, yog'ochlardan foydalaniladi xolos. Materiallardan ikkilamchi foydalanish atrof muhit muhofazasining qator majmua muammolarini yechishga xizmat qiladi: birlamchi xom ashyo iste'moli kamayadi, atrof muhitning ifloslanishi kamayadi, mehnat resurslari xom ashyoni qayta ishlash jarayonidan ozod bo'ladi. Ko'pchilik mamlakatlarda birlamchi xom Ashe resurslarining tugashi texnologiyalarni faqat ikkilamchi xom ashyoni qayta ishlashga ko'chirishga olib keladi, bu esa katta iqtisodiy samara berayotir. Masalan, makulaturani qayta ishlashdan olingan qog'ozga yog'ochdan olinadigan qog'ozga nisbatan 60% kam energiya sarflanadi va bunda havoning ifloslanishi 15% ga, suvning ifloslanishi 60% ga kamayadi. Temir tersakdan olinadigan po'lat rudadan olinishga nisbatan 70% ga arzonga tushadi.



Hozirgi paytda chet ellarda gazeta makulaturasini, plastmassa, shisha idishlar, temir, rangli metallar hamda eskirgan texnologiyalarni utilizatsiya qilishning eng samarali va tejamli texnologiyalari ishlab chiqilib, amaliyotda qo'llanilmoqda.

Germaniyada plastmassa chiqindilarining umumiy hajmi 2,5 mln tonna. Shundan 1 mln tonnadan ko'prog'i ishlab chiqarilmasdan axlatxonalarga tashlab yuboriladi.



Tabiiy moddalar asosida bioparchalanadigan plastmassalar (tabiiy polisaxaridlar, polietilen va kraxmal aralashmasi) va kimyoviy sintez yo'li bilan olinadigan plastmassalar (sintetik poliefirlar) AQSh, Yaponiya, Yevropa mamlakatlarida suvda va tuproqda o'z-o'zidan parchalanadigan plastmassalar (biogegradabil plastinka) tajriba tariqasida ishlab chiqarilgan. Shisha bankalar ikki xil yo'l bilan utilizatsiya qilinadi: qayta foydalanish orqali yoki zavodlarda qayta ishlab chiqarish uchun foydalanish orqali. Ayrim Yevropa mamlakatlarida shisha idishlari bir marta foydalanish uchun ishlab chiqariladi. Ishlatilgan alyuminiy va temir bankalarning utilizatsiyasi G'arbiy Yevropa mamlakatlarida 13% ga, AQSh da 55% ga yetgan. Metallom sanoat chiqindilaridan 67%, amartizatsiya lomlaridan 31%, sanoat chiqindilaridan 45%, metallurgiyada 22% metall qayta ishlatilmoqda.

Amartizatsiya lomlari ishlab chiqarishdan chiqarilgan va ishdan chiqqan jihozlar, texnologiyalar, asbob-uskunalar, ma'naviy yoki moddiy eskirgan texnika va texnologiyalar, harbiy asbob-uskunalar va texnikalari hamda inventarlar kiradi. Bunda metall yoki texnika va texnologiyalarning xizmat muddati va utilizatsiyada ishlatish darajasi bilan xarakterlanadi.

O'rtacha oboroti: Avtomobillar- 12 yil, relslar-30 yil, ko'priklar-100 yil, vagonlar-30 yil, kemalar-25 yil, elektor uzatish leniyalari- 50

Sanoatda ilmiy –texnika progressi va tabiiy xom-ashyoni mavjudligi chiqindilarni hozirgi baholashni o'zgartirishi mumkin va ilgari foydalanilmaydigan chiqindilarni iqtisodiy samarali xom-ashyoga aylantirishi mumkin.

O'zbekistonda chiqindilarni boshqarish bo'yicha Milliy Strategiya loyixasi va ulardan foydalanish.

O'zbekistonda har yili 100 mln tonnadan ortiq sanoat chiqindilari hosil bo'lib uning atiga 0,2 % zi qayta ishlanadi. Bu chiqindilarni asosiy qismi tog' – kon soatida hosil bo'ladi. Shundan; 25

Ikkilamchi resurslardan foydalanishni yaxshilash uchun maxsus majmua va unda quyidagilar muhim yo`nalishlardan xisoblanishi kerak.

Ikkilamchi resurslardan foydalanishni uzoq muddatli bashoratini ishlab chiqish (har bar xudud shaharlar uchun alohida).

Ikkilamchi resurslardan foydalanishning aoiy yo`nalishlarini yelgilash va undan tayyor mahsulot ishlab chiqarishni birlamchi resurslar bilan qo`shib olib borish, kimyo, neft – kimyo yarim fabrikatlarlaridan foydalanishga asoslanish.

Respublika hududida ikkilamchi resurslarni tayyorlash va qayta ishlash rejalarini tuzish.

Ikkilamchi resurslardan foydalanish bo`yicha ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish.

Ikkilamchi resurslardan unimli foydalanishni iqtisodiy rag`batlantirish mexanizmini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

4. Ikkilamchi resurslardan foydalanishning ekologik-iqtisodiy istiqbolli yo`nalishlari va mazmun mohiyati.

Sanoat ishlab chiqarishi ko`p miqdorda chiqindilarning vujudga kelishi bilan bog`liq. Bular qattiq, suyuq, gazzimon chiqindilar bo`lib, ularning bir qismi zaharli hisoblanadi. Zararli chiqindilarning vujudga kelishi ko`p hollarda ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarini to`liqroq takomillashmaganligi bilan bog`liq. Inson turmushida vujudga keladigan maishiy chiqindilar borgan sari miqdor jihatidan ortib bormoqda. Binobarin, chiqindilarning vujudga kelishi bo`yicha ularni ikki guruhga ajratish ayni muddao va ularni shu yo`nalishda o`rganish ma`qul.

Chiqindilar-ikkilamchi resurs sifatida dunyo bo`yicha borgan sari global muammoga aylanmoqda, shu bilan birga u milliy davlat chegarasida undan ham kattaroq hududiy muammoga, ayrim shaharlarda esa jiddiy mahalliy muammoga aylandi. Dunyo miqyosida atom elektr stantsiyalarida yoqilgan uran yoqilg`isining kullari(shlak)ni ko`mish bosh muammo bo`lib, ba`zi davlatlar Afrika, Osiyodagi mamlakatlar bilan kelishgan holda ularning hududlarida ko`mishga rozilik olmoqdalar. Tog`-kon sanoati, kimyo, issiqlik elektr stantsiyalari, ma`danlarni qazib olish karerlari va shaxtalarida tarkib topayotgan chiqindilar miqdor va xavflilik jihatidan ustuvorlik qiladi. Maishiy chiqindilar ham yirik shaharlarda asosiy muammoga aylanib bormoqda, gap ularni shahardan chetga tashib borish va utilizatsiya qilishda. Buning uchun maxsus transport va korxonalar mavjud bo`lishi taqozo etiladi.

Ikkilamchi resurslardan foydalanishning ekologik asoslari. Har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida jiddiy muammolardan biri chiqindi muammosi hisoblanadi. O`zbekistonda ham bu muammo borgan sari murakkablashmoqda. Qazilma boyliklarni qazib olish, rudadan sof xom-ashyoni ajratish jarayonlarida juda ham ko`plab qoplama jinslar, rudadan bo`shagan jinslar vujudga keladi. Ular qayta ishlanayotgan massaning 90-95% ini tashkil qiladi. Konlardan olinayotgan rudalarda foydali ma`dan miqdori 1-5%(rangli metallarda) ni tashkil qilishi mumkin, qolgan bo`sh(puch) jinslar chiqindi sifatida terrikonlar-(uyum)da yig`iladi.

O`zbekistonda keyingi yillarda jami bo`lib 1,25 mlrd.. m³ qoplama jinslar, chiqindi omborlarida 1,3 mlrd.. t. rudalarni boyitishda vujudga kelgan chiqindilar to`plangan. Ular 30 ming ga. maydonni egallagan. Vujudga kelgan bo`sh tog` jinslariga har yili o`rtacha 25 mln.. m³ qoplama jinslar, 42 mln.. t. rudalarni boyitishda vujudga kelgan chiqindilar, 300 ming t. metallurgiya korxonalarining shlaklari qo`shilib boradi. Chiqindilarning bu tezlikda ko`payib borishi yaylovlar maydonining qisqarishiga, atrof-muhitning ifloslanishiga jiddiy tasir etadi.

Kimyo va neft kimyosi sanoatida chiqindilarni asosan mis va rux Eritmalari oqavasi, ammiakli oqava suv, marganets shلامي (kukunsimon modda), fosfogips, lignin, neft quyqasi va boshqalar tashkil etadi. Shuningdek, mashinosozlik, issiqlik energetikasi, engil va oziq-ovqat sanoatlari ishlab chiqarish jarayonida ko`p hajmda ikkilamchi chiqindilar vujudga keladi. Ularning bir qismi zaharli bo`lib, Yer usti suvlari, havoni ifloslashi mumkin.

Vujudga kelgan sanoat chiqindilarining to'planib borishi ekologik va iqtisodiy jihatdan butunlay zararli, ularni Mineralogik va kimyoviy tarkiblariga ko'ra turli sohalarda foydalanishni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Qattiq tog' jinslarini radioaktivlik xususiyati bo'lmasa maydalab qurilish materiali sifatida foydalanish ayni muddao. Ulardan sifatli shag'al, qum, gil, qirrali g'ola tosh va boshqa foydali qurilishbop materiallarni tayyorlash imkoni bor. Tog' jinslari jarlik, pastqamlik va botiqlarni to'ldirishda asqotadi. Ba'zan qattiq jinslar ohaktosh, angidritdar, gips, lyoss, gil, kaolin bo'r va boshqa foydali elementlardan iborat bo'lishi mumkin, bu holda ularni turli sohalarda ishlatishga imkon bo'ladi. Angren qo'ng'ir ko'mir Karerida ko'mirga qadar qoplama jins sifatida kaolin qatlami mavjud bo'lib, hozirga qadar mazkur qatlam deyarli foydalanilmay pastqamliklarni to'ldirib borildi. Kaolin qog'oz, atir-upa, dorishunoslik, hunarmandchilik (turli idish-tovoqlar yasash) sanoatlarida keng qo'llaniladi. Hozirda ushbu boylik asosida Germaniya bilan birgalikda qo'shma korxonalar tashkil qilingan, yaqin vaqtdan boshlab bir necha mahsulotlarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi.

Kimyo va neft kimyosi sanoati chiqindilaridan turli foydali (mis, rux, qo'rg'oshin va b.) xom-ashyolarni ajratib olish maqsadga muvofiq, ba'zilaridan o'g'it (lignin) sifatida, issiqlik elektr stantsiyalarida ko'mir yoqish natijasida vujudga kelgan kuldan shlaka-blok: tayyorlashni yo'lga qo'yish, o'g'it sifatida foydalanish yaxshi natija beradi.

Endilikda maishiy chiqindilarning miqdor jihatidan borgan sari ko'payib borayotganligi insoniyatni jiddiy tashvishga solmoqda. 80-yillarda Nyu-York aholisi jon boshiga kuniga 2 kg, Singapur-0,87, Gonkong, Gamburg-0,85, Rim-0,69 kg dan maishiy chiqindi to'g'ri kelgan. Nyu-Yorkda ko'plab maishiy chiqindilarni vujudga kelishi bu shaharga uzoq masofadan oziq-ovqat mahsulotlarni ularni buzilib qolmasligi va idishlarni sinishini ehtiyot qilish maqsadida qog'oz karton va boshqa materiallar bilan o'rab kelinishi bilan bog'liq.

Keyingi vaqtlarda yarim tayyor, muzlatilgan va konserva qilingan mahsulotlarni ko'plab ishlab chiqarilishi munosabati bilan ularni maxsus yashik, quticha, maxsus idish, qog'oz va tselofan xaltachalarda o'ralib sotuvga chiqarilmoqda. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda o'ram materiallar maishiy chiqindini 30% ini, og'irlik jihatdan va hajmi bo'yicha 50% ni tashkil qiladi, qolgani oziq-ovqat va uy axlatlariga to'g'ri keladi. O'rash tarkibini avvalo qog'oz, oyna, metal, tselofan, plastmassa tashkil qiladi. Qizig'i shundaki, ulardan ikkinchi marta foydalanib bo'lmaydi, ya'ni qayta quyish (eritish) zarur.

O'zbekistonda maishiy chiqindilar har yili 30 mln. m³ hajmda vujudga keladi, ular 230 dan ortiq maydonchalarda yig'ilib bormoqda. Axlat yig'iladigan maydonchalar shaharlardan tashqarida ko'proq pastkamlik, jarlik, Karerlardan iborat. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra har bir mln. t. maishiy chiqindiga nisbatan 360 ming t. oziq-ovqat chiqindilari, 160 ming t. qog'oz va karton, 55 ming t. latta-putta, 45 ming t. gacha plastmassa va boshqalar to'g'ri keladi. Uning tarkibida shuningdek, metall (ayniqsa rangli metallar), oyna, yog'och, rezina kabi materiallar ham ko'p miqdorda mavjud bo'ladi.

Respublika mustaqillikka Yerishgandan so'ng chet ellardan ko'plab spirtli, alkogolsiz ichimliklar, sigaretlar, oziq-ovqatlar keltira boshlandi. Yirik shaharlarda "Koka-kola", "Fanta", "Sprayt" ishlab chiqarila boshlandi. Ichimliklardan bo'shagan shisha va plastmassa idishlar andozaga to'g'ri kelmasligi bois ularni qayta topshirishning iloji yo'qligi sababli ko'chalarda to'plana boshladi. Germaniyadan keltirilgan pivo idishlari alyuminiydan ishlanganligi va qayta foydalanishning imkoni yo'qligi sababli axlatxona, ko'cha, ariqlarda yig'ilib bormoqda. Bularning barchasi maishiy chiqindilar hajmini bir necha barobar ko'paytirdi. Ko'cha, xiyobon, maydon, baland qavatli binolar yaqinidagi maishiy chiqindilarning yig'ilib borishi aholi orasida turli yuqumli kasalliklarni tezda tarqalishiga sabab bo'lmoqda. Pashsha, chivin kabi mayda hashoratlar mikroob, virus, bakteriyalarning ko'payishiga kuchli ta'sir etadi. Kuzda daraxt barglarining ko'plab yoqilishi esa shahar havosini og'irlashtiradi, havoda SO₂ miqdorini ko'paytiradi.

Aslida shaharlarda maishiy chiqindilardan qutulishning ikki yo'li mavjud: 1) ularni shaharning chetidagi pastqamliklarga eltib ko'mish, 2) axlat yoqish korxonalarini vujudga keltirib, ularda chiqindilarni yoqish. Birinchi yo'l qulay, lekin axlat grunt suvlariga aralashib ketishi mumkin,

bu hol ularni ifloslanishiga olib keladi. Ikkinchi yo'l ko'plab katta quvvatga ega bo'lgan axlat yoqish korxonalarini qurishni talab etadi. Rivojlangan mamlakatlarda axlatning katta qismi (50-80%) korxonalarda yoqiladi, buning natijasida arzon energiya yoki suv bug'i ishlab chiqilmoqda. Yaponiyada 1850 taaxlat yoqish korxonalari mavjud bo'lib, ularda butun maishiy chiqindining 80%dan ziyod qismi yoqiladi.

O'zbekistonda bunday korxonalar mavjud emas, ammo yirik shaharlar yaqinida ularning qurilishi maqsadga muvofiq. Toshkentda bunday korxonani (loyiha quvvati yiliga 400 ming m³) tung'ichi 1977 yilda qurilgan edi, lekin u ma'lum sabablarga ko'ra faoliyat ko'rsatmayapti, uni biror chet el firmasi bilan birgalikda qo'shma korxonaga tashkil qilish bilan takomillashtirish va samaradorligini oshirib, ishga tushirish vaqti keldi.

Respublika shaharlarida kuzda daraxtlar bargi to'kilishi boshlanishi bilan ko'cha farroshlarining ishi bir necha barobar ortadi. Bu muammodan oson qutilish uchun ularni to'plab yoqadilar. Bu o'ta ketgan ekologik savodsizlik. Eng qulayi ularni yig'ib, maxsus avtotransportda shahar chetiga chiqarib maxsus o'ralarda bir yil chiritilsa qo'lbola go'ng vujudga keladi, uni issiqxona, bog'larda tuproqqa o'g'it sifatida solish yuqori samara beradi.

Qisqasi chiqindilar ikkilamchi resurs, faqat ulardan oqilona foydalanish yo'llarini bilish, bekorga isrof qilmaslik, atrof muhitga bo'lgan ta'sirini borgan sari kamaytirib borish ustida izlanishlarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkilamchi resurslardan foydalanishning iqtisodiy asoslari. Chiqindilarning tarkibi xilma-xil. Zotan, ulardan foydalanish yo'nalishlari, sohalari, guruhlari, iqtisodiy samaradorligi, ekologik tozaligi ham turli tuman. Chiqindilarni umumiy holda iqtisodiy ahamiyatini baholash mushkul, shuning uchun ham uning tarkibi aniqlangandan so'ng samaradorlik to'g'risida fikr bildirish mantiqqa to'g'ri keladi. Masalan, chiqindi tarkibida alyuminiy, shisha idishlar, po'lat, qog'oz, plastmassa, singan oyna kabilarning bo'lishi ulardan ikkinchi marta foydalanish samaradorligini oshiradi.

Alyuminiy juda ham ko'p energiya talab qiluvchi metall, u xalq xo'jaligida keng foydalaniladi. Bazan alyuminiy xom-ashyosini sotib olishga sarf etilgan xarajat miqdori energiya qiymatidan arzon turadi. Metallomdan qo'yilgan alyuminiy boksitdan olingan metallga nisbatan jami bo'lib 5% xarajat talab etadi. Ikkilamchi metallomdan quyilgan 1 t. alyuminiy 4 t. boksit, 700 kg. neft mahsulotini tejaydi, shuningdek Atmosfera havosiga chiqadigan 35 kg. alyuminiyli ftorli chiqindi birikma kamayadi.

Qog'oz makulaturasi muammosi jahon miqyosida borgan sari jiddiylashmoqda. Aniqlanishicha, makulaturani qayta ishlash yo'li bilan qog'oz mahsulotlarini tayyorlash katta maydonlarda o'rmonlarni qirqishdan saqlab qolishga va energiyani tejashga, atrof-muhitning ifloslanishi oldini olishga imkon beradi. Makulaturani qayta ishlaydigan korxonaga tsellyuloza-qog'oz korxonasini qurishga nisbatan 50-80% arzon tushadi. AQShda 200 dan ortiq makulaturani qayta ishlaydigan korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda, faqatgina "Nyu-York Tayms" gazetasining yakshanba sonini qayta ishlab, undan qog'oz tayyorlash 75 ming tup daraxtni qirqishdan saqlab qolishi mumkin. Rivojlangan yirik mamlakatlarda (Kanada, Italiya, Meksika, Janubiy Koreya, Germaniya) chet ellardan makulatura xarid qilib, tayyor qog'oz ishlab chiqarmoqda. Bu iqtisodiy jihatdan juda ham samarali hisoblanishi isbotlangan.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining ma'lumoticha dunyo bo'yicha foydalanilayotgan qog'ozning 50%ini qayta ishlanishi unga bo'lgan talabni 75%ini qondiradi, bu esa 8 mln. ga. maydondagi o'rmonni kesilishdan saqlaydi.

Ikkilamchi resurslar tabiiy boyliklar kabi barcha sifat ko'rsatkichlariga ega, iqtisodiy jihatdan yuqori baholanadi. Shuning uchun ham rivojlangan mamlakatlarda rangli metall, po'lat, singan oyna, qog'oz, plastmassa, tselofan va boshqa materiallar qayta ishlanib yana foydalanishga yuboriladi. Ikkilamchi chiqindilardan foydalanish ko'plab xom-ashyoni va energiyani tejaydi, atrof-muhitning ifloslanishini kamaytiradi. Gap ularni sifatli qilib qayta ishlab chiqarishda, darvoqe, buning uchun kichik va o'rta korxonalar samarali hisoblanadi.

Salqin ichimliklar, yog'dan bo'shagan plastmassa idishlari to'g'ridan to'g'ri ikkinchi marta ishlatilishga yaramaydi, ularni qayta quyish zarur. O'zbekistonda keyingi vaqtda ulardan keng miqyosda foydalanilayotganligi tufayli bo'shagan idishlar turli joylarda uyum-uyum bo'lib to'planib, ko'chalarning gigienik ahvolini buzmoqda. Axir, ularning har birini ishlab chiqarish uchun qancha mablag' sarflangan-ku, nima uchun ularni yana qayta yig'ib eritish mumkin emas? Chiqindini qayta ishlash va undan tayyor mahsulot chiqarish xom-ashyodan tayyor mahsulot tayyorlashga nisbatan iqtisodiy jihatdan ancha arzon tushishi barchaga ayon. Buning uchun ushbu plastmassa idishlarni ishlab chiqarayotgan chet el korxonalarining respublikada qo'shma kichik korxonalarini tashkil etish ayni muddao. Agar ushbu bo'shab qolgan idishlarni yana qaytadan topshirish imkoni topilsa, nafaqat iqtisodiy samara, shuningdek, ko'chalar ham ilgari tozalik xususiyatini qayta tiklagan bo'lur edi.

Qog'oz muammosi mamlakatda emas, balki dunyo miqyosida katta qiyinchiliklarga sabab bo'lmoqda. O'zbekistonda qog'oz, ya'ni makulatura qayta ishlash kombinatlari mavjud, ularning eng yirigi Toshkent qog'oz kombinati, biroq uning ishlab chiqarish quvvati ancha kam (25-30 ming t makulaturaning ishlay oladi), xom-ashyo hajmi esa bir necha barobar ko'p. O'quvchilar, talabalar har yili darslar bo'yicha to'ldirgan daftarlarining faqat 5-10% i makulaturaga topshirilishi mumkin. Agar ular maktab, litsey, gimnaziya, kollej, institut, univYersitetlarda yig'ib olinib markazlashgan holda qabul punktlariga topshirilsa respublika bo'yicha kamida 150-200 ming t qog'oz makulaturasi yig'iladi. Ulardan qaytatdan daftar tayyorlash texnologik jihatdan arzon, iqtisodiy jihatdan samarali bo'ladi.

Respublikada makulatura miqdorini ko'paytirish manbalari ancha, buning uchun har bir shunday manbalar (korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va b.) ga yil davomida topshirishi zarur bo'lgan makulatura hajmini aniq belgilab uning topshirilishi qattiq nazorat qilinishi lozim.

Ishlab chiqarish asosan iqtisodiy samaradorlik barqaror bo'lgan taqdirdagina rivojlana oladi, shunday ekan sanoat, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida va turmush, maishiy xizmat doirasida vujudga kelgan chiqindilar negizida tayyor mahsulotlarni ishlab chiqish iqtisodiy jihatdan eng samaralidir. Bekobod metallurgiya korxonasi faqat metallom asosida sifatli qora metall, prokat va po'lat tayyorlaydi. Unga butun respublika hududidagi turli korxonalar, jamoa xo'jaligi va boshqa tashkilotlardan majburiy ravishda metallom etkazilib beriladi, bu jarayon Respublika Vazirlar Mahkamasi tomonidan maxsus nazorat qilinadi. Shu bois korxonalar xom-ashyo bilan yil bo'yi ta'minlanadi.

Chet elda ham endilikda kichik va o'rta korxonalarda metal lom asosida po'lat quyish, prokat yasash, qora metall tayyorlash ustuvor bo'lib bormoqda. To'la tsikli ulkan metallurgiya korxonalarini xom-ashyo tanqisligi yoki yo'qligi sababli inqirozga uchrarmoqda.

Ikkilamchi resurslarning sohalar bo'yicha bir bosqichda kamida 60%, keyingi bosqichlarda 75-80%ining qayta ishlanishi va tayyor mahsulot chiqarishni tashkil etish ham ekologik ham iqtisodiy jihatdan asoslidir. Buning uchun shunday ulkan, lekin juda ham xayrli ishni bosqichma-bosqich amalga oshirish jamiyatni barqaror rivojlantirishga katta ijobiy ta'sir etadi. Buni quyidan (qo'shma korxonalar, firma) boshlab katta (davlat-xissadorlik) qo'shma korxonalarigacha bir maromda amalga oshirish maqsadga muvofiq. Ikkilamchi resurslar beqiyos katta iqtisodiy bo'yluk, ulardan omilkorlik bilan foydalanish bozor sharoitida alohida ahamiyatga ega

Nazorat va mulohaza savollari.

1. Ikkilamchi resurs deb nimaga aytiladi?
2. Ikkilamchi resurslarning ekologik asoslarini tushuntiring.
3. Ikkilamchi resurslarning iqtisodiy asoslarini ayting?
4. Chiqindilarning xosil bo'lishiga ko'ra tasnifini ayting?
5. O'zbekistonda ikkilamchi resurslardan foydalanishni hozirgi xolatini tushuntiring.
6. Nima uchun chet el tajribasini o'rganishimiz kerak?
7. Amartizasiya chiqindilari deb qanday chiqindilarga aytiladi?
8. Zaharli va radiaktev chiqindilar qanday chiqindilar hisoblanadi?
9. O'zbekistonda chiqindilardan foydalanishni yaxshilash uchun nimalar qilishimiz kerak?

10. “Resurs-chiqindi-resurs” sikli deganda nimani tushunasiz?

8-Mavzu: Atrof muhitning ifloslanishi va uni baholash(4-soat).

Reja:

1. Atrof-muhit va uning tarkibiy qismlari (havo, suv,yer) ifloslanishining asosiy turlari, ifloslanish manbalari va ta'sir etish omillari.
2. Atrof-muhitning ifloslanishidan olinadigan iqtisodiy zarar, uning tarkibi va iqtisodiy zararni aniqlash uslubiyoti, shuningdek, tabiatni muhofaza qilishni tartibga solishning iqtisodiy usullari.

1. Atrof-muhit va uning tarkibiy qismlari (havo, suv, yer) ifloslanishining asosiy turlari, ifloslanish manbalari va ta'sir etish omillari.

Atrof-muhitning ifloslanishida *tabiiy* va *antropogen* omillar asosiy rol o'ynaydi.

Tabiiy omillar asosida atrof-muhitning ifloslanishi, avvalo, tabiiy yo'l bilan — chaqmoq chaqishi, o't-o'lanlar va o'rmonlarning yonishi, vulqonlar otilishi, shamol harakati biosferada uzluksiz boradigan chirish (o'simlik va hayvonot qoldiqlari) va boshqa jarayonlar natijasida yuz beradi. Ular yiliga millionlab tonna chang-to'zonlarni havoga chiqarib yuboradi.

Ammo hozirgi vaqtda tabiatning ifloslanishida sun'iy omillar (antropogen jarayon) eng ko'p qatnashmoqda. Atmosferaga chiqarilayotgan iflosliklarning 2/3 qismi uning hissasiga to'g'ri keladi.

Atrof-muhitning ifloslanishi natijasida yer yuzasining o'simlik va hayvonot dunyosi, ko'p asrlik tarixiy yodgorliklar va inshootlar birdek zarar ko'rmoqda. Xalqimiz orasida «Suv yetti yumalab toza bo'ladi» degan tushuncha bor. Darhaqiqat, tabiat me'yorida bo'lsa, turli oqova, chiqindilarni zararsizlantirish, tozalab olishdek noyob xususiyatga ega. Biz atmosferaga chiqarib kelinayotgan is (SO) gazi fotosintez jarayoni tufayli o'simliklar tomonidan uzluksiz qayta ishlanib, kislorodga aylantirilib tabiatga yana qaytarilishini bilamiz. Ammo tabiatga chiqarib tashlanayotgan *iflosliklar* so'nggi davrlarda shu darajada me'yoridan oshib ketyaptiki, oqibatda tabiat o'z-o'zini tiklash, tozalash xususiyatidan tobora mahrum bo'lib bormoqda.

Atrof-muhitning ifloslanishi barcha geografik qobiqlarda kuchayib bormoqda.

Quruqlik (litosfera)ning ifloslanishi yerosti boyliklarini o'zlashtirish, ayniqsa, ularni ochiq usulda qazib chiqarish natijasida yuzaga kelmoqda. Tuproq, ayniqsa, sanoat va qishloq xo'jaligi chiqindilari bilan ifloslanmoqda. Bunda asosiy ifloslovchi unsurlar turli metallar va ularning birikmalari, mineral o'g'itlar, kimyoviy zaharli vositalar, radioaktiv moddalardir. Maishiy xizmat va chorvachilik chiqindilari tufayli paydo bo'lgan axlat uyumlari gigiyena-sanitariya holatining yomonlashuviga olib kelmoqda.

Gidrosfera (daryolar, ko'llar va dengizlar), asosan, sanoat, qishloq xo'jaligi va uy-ro'zg'or, maishiy xizmat sohalarining oqova suvlari qo'shilishi natijasida ifloslanmoqda. Oqibatda chuchuk suv yetishmasligi holati tobora kuchaymoqda. Bunday holatlar dunyoda aholisi eng zich yashaydigan hududlar bo'ylab oquvchi **Reyn, Sena, Temza, Dunay, Dnepr, Volga, Don, Missisipi, Nil, Gang, Yanszi** kabi daryolar havzalarida kuzatilmoqda.

Dunyo okeani ham tobora ifloslanib boryapti. Uning ifloslanishi daryolardan qo'shilayotgan notoza suvlar, sohillardan tashlanayotgan chiqindilar, kemalar harakati va halokati sababli tushayotgan neft mahsulotlari tufayli sodir bo'lmoqda. Hozirgi vaqtda O'rta, Shimoliy, Boltiq, Qora, Azov, Karib, Yapon, Yava dengizlari, Biskayya, Fors, Meksika qo'ltiqlari jahonda eng ko'p ifloslangan.

Dunyo okeanining havzasi, ayniqsa, neft va neft mahsulotlari tashlandiqlari tufayli ifloslanmoqda.

Kosmik kuzatishlar hozirgi vaqtda Dunyo okeani yuzasining 1/3 qismi neft pardasi bilan qoplanganligini ko'rsatadi. Bu jahondagi eng katta ekologik muammolardan biri demakdir. Zero, neft pardasi okeanning quyosh nurlarini qabul qilib olishiga to'sqinlik qiladi, suv bug'lanishini va kislorod bilan to'yinish imkoniyatini pasaytiradi, tirik organizmlar rivojlanishini susaytiradi. Neft bilan, ayniqsa, Atlantika okeani, Hind okeanining shimoliy qismlari eng ko'p ifloslangan.

Atmosfera elektr energetika, metallurgiya, kimyo kabi sanoat tarmoqlari, transport vositalari, fazoga kosmik kemalarni uchirish yoki turli xil yong'inlar tufayli ifloslanmoqda. Bular natijasida har yili milliardlab tonna qattiq, gazsimon, aerozol chiqindilar atmosferaga chiqarib yuborilmoqda. Atmosferada, ayniqsa, is gazi (SO), oltingugurt gazlari (SO₂) salmog'ining oshib borishi katta ekologik muammolarni keltirib chiqara boshladi. Yadroviy ilmiy-tadqiqotchi, mashhur olim Yu.B. Xaritondan dahshatli termoyadro qurollarining ishlab chiqarilishi va uning tarqalishi insoniyatni yo'q qilib yuborish xavfini tug'dirmaydimi, deb so'rganlarida u planetamizga oxir-oqibat termoyadro qurollari emas, balki «parnikoviy effekti» («issiqxona samarasi») katta xavf tug'diradi, ya'ni

iqlimning global miqyosda isib borishi yerdagi hayot uchun haqiqiy talafot xavfini keltiradi, deb javob bergandi.

Darhaqiqat, atmosferaning is gazi, oltingugurtli, azotli, fluor-xloridli, fosforli, qo'rg'oshin, simob, aluminiy kabi metall birikmali turli aerosol gazlar bilan ifloslana borishi natijasida quyoshning isitish tartibi buzila boshladi. O'z navbatida bu iqlimning o'zgarib borishiga, sayyoramiz qutblari va baland tog'lardagi abadiy muzliklarning sekin-asta tugab borishiga olib kelishi mumkin.

Atmosferaning ifloslana borishi insoniyat oldiga yana bir murakkab muammoni qo'ymoqda. Keyingi yillarda havoga fluor-xlorli birikmalarning tobora ko'p chiqarib yuborilishi natijasida yerdagi hayotning qalqoni hisoblangan ozon qoplaminig tobora yupqalashib borishi kuzatilmoqda. «Ozon tuynugi» deb nomlangan ana shu holat dastlab Janubiy Amerikaning Antraktidaga tutash hududlari, so'nggi yillarda esa Yevrosiyooning shimoliy kengliklari ustida ham kuzatila boshlandi.

Bunday muammolarning kelib chiqishining asosiy sababi jamiyat bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlarning buzila borishi, atrof-muhitning ifloslanib borishi bilan bog'liq. Demak, insoniyat oldida tabiatga Siz deb munosabatda bo'lish vazifasi turadi.

Atrof-muhitning ifloslanib borishi tabiatni muhofaza qilish yo'llarini izlash va bu murakkab muammolarni hal qilishga undaydi.

Atrof-muhitni himoya qilishning qator samarali yo'llari ishlab chiqilgan. Ulardan birinchisi atrof-muhitni ifloslaydigan korxonalarda shunga yo'l bermaslik choralari ko'rishdir. Buning uchun turli chiqindilarni tozalovchi tizimlarni barpo etish, iflos yoqilg'ilarni ishlatishdan voz kechish, axlatlarni qayta ishlash korxonalarini barpo etish, ishdan chiqqan yerlarni rekultivatsiya qilish kabi yollaridan foydalanish lozim.

Ikkinchi yol ishlab chiqarishda tabiat muhofazasini har taraflama uddalay oladigan yangi texnologik imkoniyatlardan keng foydalanish, chiqindisiz ishlaydigan ishlab chiqarish tizimlarini joriy qilishdir.

Uchinchi yo'l aholi zich yashaydigan hududlarni «iflos» ishlab chiqarish tarmoqlaridan holi qilish. Atrof-muhitni eng ko'p ifloslaydigan sanoat tarmoqlari qatoriga issiqlik elektr energetikasi, metallurgiya, kimyo va neft-kimyo, selluloza-qog'oz, sement kabi sanoat tarmoqlari kiradi. So'nggi davrlarda dunyoning ko'pchilik yetakchi industrial mamlakatlarida bunday «iflos» ishlab chiqarish tarmoqlarini iqtisodiy jihatdan kam o'zlashtirilgan kimsasiz hududlarda joylashtirishga ahamiyat berilmoqda. Ana shunday tamoyillarga mustaqillik yillarida O'zbekistonda ham alohida ahamiyat berila boshlandi. So'nggi yillarda bunyod etilgan Buxoro neftni qayta ishlash, Qo'ng'iro't soda va Sho'rtan gaz-kimyo sanoat markazlari keng yaydoq choi hududlarida joylashtirildi. Bu holat ekologik sharoitni yaxshilashga samarali xizmat qiladi.

Ekologik siyosat. Tabiiy resurslardan xo'jasizlarcha foydalanish, atrof-muhitning ifloslanib borishi, shunday qilib, biz yashayotgan, nafas olayotgan muhitni tobora betoblik girdobiga boshlamoqda. Bu o'z navbatida, jamiyat oldiga qarshi choralarni ko'rishdek murakkab vazifalarni qo'ymoqda.

Ekologik siyosat — ekologiya fani talab va tavsiyalarini hisobga olgan holda bizni o'rab turgan tabiiy muhitni muhofaza qilish va uni sog'lomlashtirishga, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va ularni boyitishga qaratilgan siyosatlar majmuasidir. Odatda, bunday siyosat davlat, regional va global doirada olib borilishi mumkin va o'zida tabiatni muhofaza qilishning huquqiy asoslari (qonunlar)ni yaratish va ularga amal qilishni ko'zda tutadi.

Keyingi o'n yillarda AQSh, Yaponiya ko'pgina G'arbiy Yevropa va MDH davlatlari, ayrim rivojlanayotgan mamlakatlar murakkab ekologik holatni sog'lomlashtirishga qaratilgan zaruriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqdilar, qonunlar qabul qildilar va amaliyotda qo'llay boshladilar.

Ularda ekologiyani sog'lomlashtirishga bel bog'lagan xalq harakatlari va partiyalari (masalan, «Yashillar», «Grinpis» va boshqalar) faol ish olib bora boshladi.

Natijada, o'tgan 80 yillar mobaynida, asosan, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda, atrof-muhitning ifloslanish darajasi sekin-asta pasayib bordi. Bu ijobiy holatni aynan ana shunday harakatlarning natijasi deb baholamoq kerak.

Shunga qaramay, ko'pchilik mamlakatlarda ekologik vaziyat hamon keskinligicha qolmoqda. Keng doirada amaliy natijalarga erishish uchun butun jahon doirasida kuchlarni birlashtirish zaruriyati mavjud. Shu maqsadda 1972-yilda Stokgolmda, 1975-yilda Xelsinkida, 1992-yilda Rio-de-Janeyroda, 1998-yilda Kiotada atrof-muhit muhofazasiga oid yirik xalqaro anjumanlar bo'lib o'tdi va muhim qarorlar qabul qilindi.

Muhim tomoni shundaki, atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologiyani sog'lomlashtirish muammolarini hal qilishda BMT va uning ko'plab bo'limlari faol ish olib bormoqda. Jumladan, BMTning atrof-muhitni muhofaza qilish dasturi (YUNEP)dir. Bu dastur atrofida shakllangan rasmiy idoralar turli mamlakatlarda bu sohada olib borilayotgan ishlarni muvofiqlashtirib turadi, mamlakatlarda to'plangan tajribalarni umumlashtiradi, istiqbolli ishlarni qo'llab-quvvatlaydi. YUNEPning bosh idorasi Nayrobi (Keniya) shahrida joylashgan.

Atrof-muhitni sog'lomlashtirishda, ekologik muammolarni ijobiy hal qilishda jamoatchilik ham katta xizmat qilishi kutiladi. Aynan shu maqsadlarda O'zbekistonda jamoatchilik asosida «Ekosan» harakati tashkil topdi. U nafaqat O'zbekistonda, balki butun O'rta Osiyo mintaqasida tabiatni muhofaza qilish, aholi yashash muhitini sog'lomlashtirish yo'lida faol harakat qilmoqda.

Shunday qilib, tabiatdan foydalanishni takomillashtirish, barcha hudud va davlatlarda ilmiy asoslangan samarali ekologik siyosatni yuritish hozirgi davr oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir.

2. Atrof-muhitning ifloslanishidan olinadigan iqtisodiy zarar, uning tarkibi va iqtisodiy zararni aniqlash uslubiyoti, shuningdek, tabiatni muhofaza qilishni tartibga solishning iqtisodiy usullari.

Ekologik monitoring. Ekologik monitoring atrof tabiiy muhit va uning resurslari holatini ma'lum dastur asosida muntazam kuzatish, baholash, bashoratlashning ma'lum tizimi bo'lib ekologik – iqtisodiy boshqarishni axbarotlar bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasidagi milliy monitoring tizimi uch turni o'z ichiga oladi: sanitariya – gigiyena monitoringi, ekologik monitoring, iqlim monitoringi. Ularning funksiyalari quyidagilar: atrof muhit holatini kuzatish, holatini baholash, va bashoratlash.

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tahliliy nazorat davlat inspeksiyasi hozirgi vaqtda respublikamizning havo muhiti, tuproq va ochiq suv havzalari yagona monitoring tizimini barpo etish ishlarini amalga oshirayotir. Uning asosiy faoliyati ifloslantirish manbalari monitoring dasturini amalga oshirishga yo'naltirilgan.

Monitoring tizimini yanada takomillashtirish uchun muntazam kuzatuvlarning texnologik darajasini takomillashtirish va monitoring tarmog'ini kengaytirish lozim.

Ekologik standartlar va normativlar. Har bir mamlakatda bo'lgani kabi atrof muhitni muhofaza qilishning va tabiiy resurslardan foydalanishning standartlari va normativ huquqiy tizimi O'zbekistonda ham yaratilgan. Mazkur standart va normativlar atrof muhit sifatiga qo'yilgan cheklashlar va talablarning o'zaro bog'liq kompleksi, shuningdek ishlab chiqariladigan mahsulot va xizmatlarning ishlab chiqarish texnologik va tashkiliy boshqaruv jarayonlariga talablar bo'lib, ular vositasida aholi va ishlab chiqarishning ekologik xavfsizligi kafolatlanadi. Genetik fondni saqlash, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni takror ishlab chiqarishni ta'minlash ham uning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda qabul qilingan standart va normativlarga quyidagilar kiradi:

- ifloslantirishning turg'un va harakatdagi manbalari chiqaradigan ifloslantiruvchi moddalariga normativ va limitlar;
- zaharli chiqindilarning shakllanishi va joylashish normativi;
- suv olish va o'rmondan foydalanish limitlari;
- bioresurslardan foydalanishga kvotalar;
- muhofaza qilinadigan hududlardan foydalanish va borib ko'rish normativlari;

- yovvoyi o'simlikni yig'ish va hayvonlarni ovlash normativlari ;
- alohida xududlarda ifloslantiruvchi hamda zaharli moddalardan foydalanishni taqiqlash normalari

“Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida” gi qonunning oltinchi bo'limi atrof muhit sifatini normativlar va standartlar bilan tartibga solishga bag'ishlangandir. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi “Davlat sanitariya nazorati to'g'risidagi”gi qonunining qator moddalarida sanitariya normalari, qoidalari va gigiyena normativlariga qo'yiladigan talablar berilgan.

Atrof muhitga ta'sirining yo'l qo'yish mumkin bo'lgan eng yuqori darajasi normativlarning iqtisodiy, ijtimoiy, rekreatsiya, tabiiy muhitga fizik, kimyoviy, biologik, o'zgarishlari ko'rsatkichlarini belgilashga asos bo'ladi. Atrof muhit sifatiga ta'sirining yo'l qo'yish mumkin bo'lgan normativlari vakolatli davlat organlari tasdiqlagan texnik normalardir.

Ekologik normativlar ikki guruhga bo'linadi:

1. sanitariya-gigiyena;
2. ishlab chiqarish-xo'jalik;

1. Sanitariya-gigiyena normativlari inson salomatligiga muvofiq keluvchi atrof muhit ko'rsatkichlarini belgilaydi. U aholini sanitariya-epidemiologiya masalalarida xotirjamlikligini ta'minlash asosining tarkibiy qismiga kiradi. Bunda zaharli moddalar, radiaktev moddalar, hamda shovqinning yo'l qo'yish mumkin bo'lgan normalarini belgilaydi.

2. Ishlab chiqarish-xo'jalik normativlari zararli ta'sir manbalarining zararli moddalar ni chiqarib yuborish va tashlash normativlari bo'lib, ular faoliyatining ma'lum boshlang'ich holatini cheklaydi.

Ishlab chiqarish-xujalik normativlari zararli ta'sir manbalarining zararli moddalarni chiqarish va tashlab yuborish normativlari bo'lib, ular faoliyatini ma'lum boshlang'ich holatini cheklaydi. Bu kategoriyaga atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning ekologik talablarnio'z ichiga olgan texnologik, qurilish, shaharsozlik qoidalari kiradi. Yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan chiqarmalar korxonalar, muassasalar, tashkilotlar bo'yicha emas, balki inventarizatsiya asosida tashlanmalar va chiqindilar manbalari bo'yicha aniqlanadi, chunki bir korxonada bir nechta shunday manbalar bo'lishi mumkin. Tabiatni muhofaza qilish faoliyatini standartlashning uchta asosiy yo'nalishi bor:

1. Atrof-muhitga yuqori ta'sir ekologik normativlarini belgilash. Atrof-muhitga ta'sir normativlari ta'sir manbalaridan atrof muhitga moddalar yoki energiyaning yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan shakldagi miqdorda tushishini belgilaydi; xududiy-mamuriy birliklar doirasida turli xujalik va boshqa obyektlarning atrof muhitga umumiy ta'siri miqdori(atrof-muhitga ta'sirining xududiy normativlari).
2. Ekologik-tashkiliy standartlarni belgilash. Bu atrof-muhitni muhofaza qilishni tashkil etishga qo'yiladigan asosiy talablarni ifoda itadi.
3. Ekologiya atamalarini standartlashtirish U yordamchi ahamiyatga ega bo'lib, atamalarni talqinini o'rnatishga imkon beradi, hamda yangi standartlarni ishlab chiqish va mavjudlaridan samarali foydalanishga imkon beradi.

O'zbekistonda standartlashtirish va normativlashtirish borasida qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunda atrof muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan samarali foydalanishga yo'naltirilgan.

O'zbekistonda standartlashtirish va normativlash bo'yicha asosiy organ davlat standartlashtirish va metrologiya qo'mitasi hisoblanadi. Tabiatni muhofazasi va tabiiy resurslardan samarali foydalanish sohasidagi standartlashtirish va metrologiyasi bilan Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasini “Davlat ixtisoslashgan tahlil nazorati inspeksiya”si shug'ullanadi. Bu inspeksiya tabiatni muhofaza qilish qo'mitasining strukturasi, hamda tegishli idora va vazirliklar bilan birgalikda standartlashtirish sohasida metodik, normativ-texnik va boshqa xujjatlarni ishlab chiqadi, joriy etadi, amalga oshirishini nazorat qiladi. Xozirda tabiatni muhofaza qilish sahasida va tabiiy resurslardan foydalanishda standartlashtirish va metrologiya bo'yicha ma'lumotlar banki shakllanayotir, atrof muhit muhofazasi bo'yicha normativ va metodik hujjatlar fondi yaratilgan. Tabiatni muhofaza qilish Davlat ixtisoslashgan tahlil nazorati inspeksiyasi tomonidan quyidagi ekologik standartlar qo'llanilmoqda;

- atmosfera havosining sifati;
- ish joylarida havo sifati;
- yer usti suvlari sifati;

tuproq sifati;

- yer osti suvlari sifati;
- oziq ovqat mahsulotlari sifati;
- atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar chiqarish normativlari;
- oqar suv manbalariga ifloslantiruvchi moddalarni tashlash normativlari;
- chiqindilarni shakllanishi normalari;

Tabiatdan foydalanish faoliyatlarini lisenziyalash. Yangi iqtisodiyot sharoitida tabiiy resurslardan samarali foydalanish asosiy masalalardan hisoblanadi. Iqtisodiyotni ekologik iqtisodiy boshqarish va iqtisodiyotni ekologiyalashtirish, ulardan foydalanishni iqtisodiy mexanizmlarini yaratish va foydalanishni xuquqiy asoslariga qurish mustaqiligamizni dastlabki yillardan boshlab amalga oshirila boshlagan. Tabiiy resurslardan foydalanish va tabiiy muhitga ta'sir o'tkazish bilan bog'liq xujalik va boshqa faoliyatga faqat tegishli lisenziya mavjudligidagina ruxsat beriladi. Lisenziya uning egasiga aniq tabiiy resursdan foydalanishni xuquqi bo'lib, unda oldindan kelishilgan talab va shartlar belgilangan bo'ladi. Lisenziya berish xuquqi O'zbekiston respublikasida Vazirlar Maxkamasini tegishli kamissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Tabiatdan foydalanishni lisenziyalash-ma'muriy-xuquqiy- yo'l bilan ekologik – iqtisodiy munosabatlarni tasdiqlash, ruxsat berish, vakolat berish kabi metodlar orqali tartibga solishning nomoyon bo'lishidir. Tabiatdan foydalanishni lisenziyalashning mohiyati quyidagicha:

- tabiiy resurs egasining yoki uning mulkdori akti;
- tabiiy resurslardan foydalanish ustidan davlat nazaratini amalga oshirish shakli;
- tabiatdan oqilona foydalanishni tartibga solish vositasi;

Lisenziyalash bir yil muddatga talabgorni arizasi yoki tanlov asosida beriladi. Ekologik talablarni buzganlik yoki amal qilmaganligi kabi sabablar aniqlansa, lisenziya mavjud qonunlar asosida bekor qilinadi yoki boshqa shaxsga beriladi.

Tabiiy resurslardan foydalanishni ekologik lisenziyalash Tabiatni Muhofaza qilish Davlat qo'mitasini joylardagi xududiy organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Ekologik sertifikatlash. Ekologik sertifikatlash quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

- a) mahsulotning atrof-muhit, hayot, salomatlik, mulk uchun xavfsizligini nazorat qilish;
- b) tayyorlovchi (ishlab chiqaruvchi)ning mahsulot sifati ko'rsatkichlari bo'yicha bayonotining tasdiqlanishi;
- v) iste'molchini tayyorlovchi, sotuvchi, ijrochining insofsizligidan himoya qilish;
- g) iste'molchiga mahsulotni kompetentli tanlashga yordam berish;
- d) O'zbekistonning yagona tovar bozorida va undan tashqarida (xalqaro iqtisodiy, ilmiy-texnik hamkorlik va savdo) korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, tadbirkorlar faoliyati uchun sharoit yaratish.

Ekologik sertifikatsiyalashda ekologik havfsiz, ekologik talablarga mos tushadigan, inson hayotiga va faoliyatiga, hamda atrof muhitga zarar yetkazmaydigan mahsulot va tavarlarga beriladi. Rivojlangan mamlakatlarda diyarli barcha mahsulot va xizmatlar ekologik sertifikatlanadi. O'zbekiston respublikasida ham bu sohada katta ishlar amalga oshirilmoqda. Xozirgi paytda majburiy sertifikatlanadigan mahsulotlar 80 turdan oshiqdir. Bundan tashqari xoxlovchilar o'z mahsulot va xizmatlarini ekologik sertifikatsiyalash xuquqiga ham ega.

Ekologik sertifikatsiya vazifalari quyidagilar:

- atrof muhit va tabiiy resurslar salohiyatidan samarali foydalanish, muhofaza qilish, takror ishlab chiqarishini ta'minlash;
- hayot, salomatlik, mulk uchun havfli mahsulotlarni istimolchilar sotib olishdan yoki ulardan foydalanish jarayonid atrof muhitni zararlanishidan himoya qilish;

- inson hayoti va faoliyati sharoitiga va atrof muhit holatiga ishlab chiqarish jarayonlariga, mahsulot iste'moli, chiqindilarni utilizatsiyalash, tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq omillarning noqulay ta'sirlardan ogohlantirish;
- mamlakatga ekologik notoza mahsulotlar kirib kelishidan saqlash;
- tabiiatdan foydalanish va muhofaza qilishda ilmiy-texnika taraqqiyotidan foydalanish;
- mamlakatimiz mahsulotlarini xalqaro maydonda roqobotbardoshligini oshirish;
- ekologik adolatli bozorni tashkil etish;
- jamiyat va tabiiatning o'zaro aloqalarida ekologik havfsizlikni ta'minlash.

Ekologik sertifikatsiya obyektiga quyidagilar kiradi:

- tabiiy muhit va tabiiy resurs manbalari;
- ishlab chiqarish va istimol chiqindilari;
- texnologik jarayonlar;
- ekologik xizmatlar va iste'mol mahsulotlari.

O'zbekiston Respublikasida "Mahsulotlar va xizmatlar sertifikatsiyasi to'g'risida"gi (1993) qonuniga muvofiq "O'z davstandartga" sertifikatsiya bo'yicha milliy organ statusi berilgan. Bundan tashqari tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi qoshida mahsulotlar va xizmatlar ekologik sertifikatsiyasi markazi tuzilgan va uning bo'linmalari barcha viloyatlarda tashkil etilgan.

Mamlakatimizda ekologik sertifikat bo'yicha obyektlar aniqlangan, normativ – texnik hujjatlar paketi ishlab chiqilgan. Bunda quyidagi tadbir va harakatlar amalga oshirilayotir:

- ekologik xavfsiz texnologik jarayonlar ishlab chiqish va joriy etish;
- ekologik xavfsiz mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil etish;
- normativ-huquqiy va iqtisodiy mexanizmlarni yaratish, fuqarolarni qulay atrof-muhit va mahsulotlarga ega bo'lish, salomatligi va mulkiga ziyon yetkazuvchi axborotlarni to'plash hamda ekologik ziyon yetkazuvchilarga yo'l bermaslik;
- mamlakatimizga xavfli mahsulotlar kirib kelishi, ishlab chiqarilishi hamda hududimizdan olib o'tilishini bartaraf etish;
- tabiat muhofazasiga mo'ljallangan ishlar va xizmatlar bozorini tartibga solish;
- atrof-muhit sifatini yaxshilash;
- resurslarni tejash va atrof muhitga yo'l qo'yib bo'lmaydigan ta'sirdan ogohlantirish.

Ekologik ekspertiza. O'zbekiston Respublikasida ekologik ekspertiza to'g'risidagi qonun 2000 yil qabul qilingan. Bu qonunning mohiyati rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo'jalik va boshqa faoliyatlarni ekologik talablarga muvofiqligini aniqlashdan iborat. Davlat ekologik ekspertizasining obyektlariga quyidagilar kiradi:

- 1) davlat dasturlarining konsepsiyalarining, ishlab chiqarish kuchlarining ijtimoiy va iqtisodiy soha tarmoqlarini joylashtirish hamda rivojlantirish sxemalarini loyihalari;
- 2) barcha turdagi qurilishlar uchun yer uchastkalarini ajratish materiallari;
- 3) loyiha olid va loyiha hujjatlari;
- 4) tabiiy resurslar bilan foydalanish bilan bog'liq xo'jalik va boshqa xil faoliyatni tartibga soluvchi normativ texnik va yo'riqnoma uslubiy hujjatlarining loyihalari;
- 5) texnika, texnologiya, mahsulotlar, moddalarning yangi turlarini tayyorlashga doir hujjatlar;
- 6) atrof tabiiy muhit holatiga va fuqarolar sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ishlab turgan korxonalar va boshqa obyektlar;
- 7) keyinchalik ularga muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, favqulodda ekologik ofat zonalarini maqomini berish maqsadida o'tkazilgan hududlarni kompleks tekshirish materiallari;
- 8) shaharsozlik hujjatlarining barcha turlari;
- 9) maxsus huquqiy rejimli obyektlar.

Ekologik ekspertizaning maqsadi quyidagilar:

- loyiha qarorlarini ularni amalga oshirishdan oldin ekologik ta'lablarga muvofiqligini ilmiy asosda aniqlash;

- rejalashtirilayotgan, loyixalashtirilayotgan va ishlab turgan obyektlarning tabiatga extimol tutilayotgan salbiy ta'siri va ekologik xavflilik darajasini aniqlash;

- xalq xujaligini rejalashtirishida tabiiy tizimlar muvozanatini saqlab qolish

Ekologik ekspertiza davlat, idoraviy, jamoat, ilmiy shakllarda tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasida davlat ekologik ekspertizasi o'tkazish Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining Davlat ekologik ekspertizasi tamonidan amalga oshiriladi.

Ekologik audit. Ekologik audit korxonasi, kompaniyaning ichki ekologik salohiyatini, ularning xavf-xatarlari va imkoniyatlarini doimiy tekshirib turish instrumentidir.

Ekologik audit – korxonalarining mol-mulkni berish va joriy operatsiyalar bilan bog'liq bo'lgan ekologik muammolari va potensial majburiyatlarini aniqlash maqsadida atrof-muhit holatini obyektiv, muntazam, hujjatlashtirilgan va doimiy takroriy tekshirishlar (taftishlar) bo'lib, ular iqtisodiy faoliyatning turi va sharoitlari, ma'muriy boshqaruv tizimlari yoki bu obyektlar to'g'risidagi axborotlarning normativ-qonunchilik talablariga, atrof-muhit muhofazasi sohasidagi samaradorlik mezonlariga va ekologik xavfsizlikka mos kelishini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Ekoaudit o'tgan asrni 70 yillarida AQShda, 1980 yildan boshlab esa, Yevropa mamlakatlarida ham ishlab chiqaruvchi korxonalarini "Ekoaudit" qonunchiligi asosida tekshirishlardan o'tkazmoqda.

Ekologik auditni asosiy maqsadi:

1. Korxonasi va tashkilotlarni faoliyatini ekologik normativlarga mos kelishini aniqlash.
2. Korxonasi va tashkilotlarni tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga foydali tadbirlar ishlab chiqish.

Ekologik auditning asosiy obyektlariga quyidagilar kiradi:

- mulklar (yer uchastkalari, tabiiy ofatlar, binolar, inshootlar, mashina va jihozlar va h.k.);
- korxonasi va tashkilotning joriy faoliyati;
- favqulotda vaziyatlarda korxonalarining boshqaruv tizimi;
- atrof muhitni muhofaza qilish dasturlari va xodimlarning havfziligini ta'minlash va boshqalar.

Ekologik audit asosiy funksiyalari, korxonalarini ekologik qonunchilikka mosligi va ekologik siyosatni qonunlariga rioya qilinishi, atrof muhit sohasida qaroorlar qabul qilish uchun axborotlar yig'ish, aholini va atrof muhitni zararli ta'sirlardan saqlash, ekologik havfli avariya chiqishini imkoniyatlarini tahlil qilish, korxonaning real ta'sirini aniqlash va boshqalarni o'rganadi.

Xalqaro standartlarga muvofiq ekoaudit quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

1. Maqsad va ish hajmini aniq belgilash.
2. Obyektivlik, mustaqillik, va kompetentlik.
3. kerakli kasbiy ixtiyotkorlik.
4. Tizimlilik.
5. Audit mezonlarini belgilash, auditor ma'lumotlarining to'liqligi, sifatligi va yetarli ekanligi.
6. Auditor natijalarini va xulosalarini ishonchligi.
7. Auditorning kelishgan maqsadi va hajmini hisobga olib auditor xulosalarini to'liqligi.

Ekologik audit ishlab chiqarish obyektlarini auditi va hududlarning ekologik auditi yo'nalishlarida amalga oshiriladi.

Ekologik audit majburiy yoki ixtiyoriy bo'lishi mumkin. Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish faoliyatini moliyalashtirish. Xozirgi kunda tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish faoliyatini moliyalashtirish masalalariga katta e'tibor berilmoqda. Sobiq ma'muriy buyruqbozlik iqtisodiyotidagi moliyalashtirish esa hozirgidan farq qilardi va uning asosiy xususiyati markaziy rejalashtirish tizimining ustivorligida ko'rinardi. Ya'ni davlat miqyosida ijtimoiy — iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlari belgilanib, ana shu yo'nalishlarda tabiatni muhofaza qilish borasida aniq vazifalar belgilanardi. Bu vazifalarning yechimi davlat, tarmoq va hududlar miqyosida o'z aksini topar edi. Ushbu reja asosida moliyaviy, moddiy — texnikaviy resurslarga ehtiyojlar aniqlanardi, markaziy moliyalashtirish tizimi esa fondlar ajratish (moddiy — texnik resurslarni markazdan taqsimlash) tizimi bilan to'ldirgan.

Tabiatni saqlash tadbirlari moliyaviy vositalarining asosiy manbai davlat byudjeti hisoblanardi. Lekin davlat byudjetidan tashqari: mintaqalar byudjeti, vazirlik va idoralarning

mablag'lari, korxonalarining mablag'lari ham mavjud bo'lgan edi. Lekin shuni alohida ta'kidlash joizki, davlat byudjetidan tashqari moliyaviy manbalarni davlat byudjetidan ayrim holda ko'rib bo'lmasdi. Shu sababli ham moliyalashtirishning bu tizimi samarasiz bo'lgan. Byudjetdan mablag'lar yetarli darajada ajratilmasdi, chunki ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish vazifasi davlatning ustivor vazifalari qatoriga kiritilmasdi.

Ma'muriy buyruqbozlik iqtisodiyoti sharoitida tabiatni muhofaza qilish faoliyatini moddiy texnik ta'minoti (turli fond va limitlar tizimi orqali) ustivor ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa, bozor munosabatlariga o'tish sharoitida esa yagona taqchil resurs moliyaviy resurslar hisoblanadi. Tabiati muhofaza qilish sohasini samarali faoliyat ko'rsatishi uning barqaror moliyaviy ta'minotiga uzviy bog'liq bo'ladi.

Mustaqillik yillarida tabiat resurslaridan foydalanganlik va ifloslantirganlik uchun to'lovlar kabi iqtisodiy dastaklardan keng foydalana boshlanganligi sababli tabiatni muhofaza qilishning yangi moliyaviy manbalarini shakllantirish imkonini berdi.

O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi» qonuniga muvofiq tabiatni muhofaza qilish tadbirlari va ekologik dasturlarni moliyalashtirish quyidagi manbalarga asosan amalga oshirilishi ta'kidlangan:

1. byudjet mablag'lari;
2. korxonalar, muassasalar va tashkilotlar mablag'lari;
3. byudjetdan tashqari resurslar va hududlar bo'yicha ekologik fondlar.
4. ekologik sug'urta fondlari; Bank kreditlari;
5. homiylik mablag'lari;
6. aholi mablag'lari (shu jumladan xorijiy yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari);

Quyida ba'zi moliya manbalarining shakllanish xususiyatlari va ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Byudjetning daromad qismiga soliqlar, tabiiy resurlardan foydalanganlik va atrof muhitni ifloslantirganlik uchun ajratmalar va to'lovlar kiritiladi

O'zbekiston Respublikasi qonunlariga binoan investision ekologik dasturlarni amalga oshirish uchun davlat va byudjetdan tashqari fondlardan subvensiya ko'rinishidagi moliyaviy yordam ko'rsatish nazarda tutilgan. Bu subvensiyalarni ajratish shartlari va tartibi, ulardan foydalanish qonuniy aktlar bilan tartibga solinadi.

Korxonalarining mablag'lari xo'jalik yurituvchi subyektlarning daromadi hisobiga shakllantiriladi. Tabiatni muhofaza qilish tadbirlari va tabiatni muhofaza qilish asosiy fondlari ishlatishga ketgan joriy xarajatlar korxonalar ishlab chiqargan mahsulotlarning tannarxiga qo'shiladi.

Byudjetdan tashqari maqsadli resurslar bo'yicha fondlar tabiatni muhofazasi uchun mablag' ajratishning «qoldik tamoyilini» bartaraf qilish uchun tuziladi. Mineral xom ashyo bazasini takror ishlab chiqarish, o'rmonlarni muhofaza qilish va ko'riqlash, suv obyektlarni tiklash va qo'riqlash kabi byudjetdan tashqari fondlar tuzilgan.

Byudjetdan tashqari ekologik fondlar — atrof muhitni muhofaza qilishni investisiyalashni qo'llab — quvvatlash tizimining yangi elementi hisoblanadi. Mazkur fondlar kechiktirib bo'lmaydigan tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini, atrof tabiiy muhitdagi yo'qotishlarni tiklash, keltirilgan zararni kompensatsiyalashni moliyalashtirish uchun tuziladi.

Atrof muhitni muhofaza qilishning ijtimoiy fondlari aholi daromadlari, ijtimoiy birlashmalarning ixtiyoriy badallari va xayriyalari va boshqa manbalar hisobiga tashkil etiladi. Makur fondlar ijtimoiy ekologik birlashmalar va O'zbekiston Respublikasining kasaba uyushmalari tomonidan tashkil etilib, ularning mablag'lari faqat atrof muhitni muhofaza qilishga sarflanadi.

Tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga jalb qilinayotgan moliyaviy manbalarining turli-tuman bo'lishi ulardan oqilona uyg'unlikda foydalanishni talab etadi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning tajribalariga ko'ra tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga ajratilayotgan moliyaviy manbalarning kuchli differensiyalashuvi kuzatiladi.

Tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga ajratilgan va yig'ilgan mablag'lar o'zining maqsadga yo'naltirilganlik xususiyati bilan tavsiflanadi.

Barcha darajalardagi byudjet tabiatni muhofaza qilish va ekologik dasturlarni moliyalashtirishga alohida e'tibor beriladi va moddiy texnik resurslar bilan ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasida tabiiy resurslardan foydalanish va atrof tabiiy muhit muhofazasi holati to'g'risidagi Milliy doklad ma'lumotlariga ko'ra davlat byudjetidan davlat dasturlari tarkibiga kirgan tabiatni muhofaza qilish tadbirlari moliyalashtiriladi. Davlat byudjeti hisobiga markazlashtirilgan tarzda tabiatni muhofaza qilish sohasida faoliyat ko'rsatuvchi Tabiatni muhofaza qilish Davlat Qo'mitasi, HidroMet, O'zerloyiha tashkiloti, geologiya, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tadbirlari moliyalashtiriladi. Byudjetdan tashqari xududiy ekologiya fondlar mablag'lari O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonuniy hujjatlarga ko'ra mintaqalar tomonidan maqsadli ravishda foydalaniladi.

Tabiatni muhofaza qilishni moliyalashtirishni umumiy salmog'ida kapital quyilmalarga alohida e'tibor beriladi. Kapital quyilmalar —tabiatni muhofaza qilish fondlarini yaratishga yo'naltirilgan mablag'lar hisoblanadi.

Tabiatni muhofaza qilishga yo'naltirilgan kapital quyilmalar mintaqalar va tarmoqlar bo'yicha ham farqlanadi. Mazkur xususiyatlar mintaqalarning tabiiy iqlim, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik shart—sharoitlariga ko'ra tafovutlanadi.

O'zbekiston Respublikasida tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga ajratilayotgan moliyaviy manbalarning tarkibini tahlili quyidagi tendensiyalar mavjudligini ko'rsatadi:

Ekologik fondlar tomonidan moliyalash salmog'i ortib boradi.

Korxonalar va tashkilotlarning mablag'lari ekologik muammolar yechimiga sarflanayotganni ham o'sish tendensiyasiga ega.

O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi» Qonunining 35-moddasida: «Tabiatni muhofaza qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Tabiatni Muhofaza qilish Davlat Qo'mitasi va uning joylardagi organlari qoshida tabiatni muhofaza qilishning Respublika va mahalliy fondlari tashkil etiladi» deyilgan.

Mazkur fondlar Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida tashkil etiladi. Qabul qilingan qonun hujjatlariga ko'ra ekologik fondlar uch xil darajada tashkil etiladi. Yuqori darajada Respublika ekologik fondlari, viloyatlar va tuman va shahar ekologik fondlari faoliyat ko'rsatadi.

Ekologik fondlarning vazifalari qilib quyidagilar belgilangan:

- Atrof tabiiy muhit sifatini yaxshilash va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan dasturlar va ilmiy texnik loyihalarni moliyalashtirish va kreditlash;
- Tabiatni muhofaza qilish tadbirlari va dasturlari uchun moliyaviy resurslarni jalb qilish;
- Tabiatdan oqilona foydalanish va ekologik sof texnologiyalarni jalb etishni iqtisodiy rag'batlantirish;
- Ekologik ta'lim va tarbiyaning rivojlanishiga ko'maklashish.

O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonuni»ga muvofiq ekologik fondlarni shakllantirishning quyidagi manbalarini ko'rsatish mumkin:

Korxonalar, birlashma va tashkilotlarning atrof tabiiy muhitga chiqargan ifloslantiruvchi moddalari, chiqindilari va boshqa manbalar uchun to'lovlaridan; xavfli moddalarni chiqarganlik uchun jarima to'lovlari va me'yoridan ortiq va norasional ravishda tabiiy resurslardan foydalanish uchun to'lovlardan;

Korxonalarining xo'jalik faoliyati natijasida tabiatdan foydalanish qonunchiligining buzilishi va shu asosda davlatga keltirilgan zararni qoplash maqsadida olinadigan to'lovlardan;

Ovchilik va baliqchilik vositalarini musodara qilish hamda noqonuniy yo'l bilan ovlangan mahsulotlarni sotishdan keladigan daromadlar;

Fond mablag'larini boshqa yuridik shaxs faoliyatlarida paychilik asosida ishtirok etishi natijasida olinadigan dividendlardan, jamg'arma foizlaridan olinadigan daromadlardan;

Korxonalar, tashkilot, muassasa va aholi tomonidan beriladigan ixtiyoriy badallar (shu jumladan, xorijiy yuridik va jismoniy shaxslardan tushadigan tushumlar)dan tashkil topadi.

Ekologik fondlar tizimi. Respublika tabiatni muhofaza qilish: fondning mablag'larining 25% ham shu mahalliy fondlarning mablag'lari hisobiga shakllanadi. Respublika tabiatni muhofaza qilish fondi mablag'larining bir qismi ikkita ilmiy-tadqiqot dasturlari ishlab chiqishga, tabiatni muhofaza qilishga va boshqa tashkiliy tadbirlarga yo'naltirildi. Ilmiy-texnik dasturlar bo'yicha 32 ta mavzu moliyalashtirildi. Albatta bu tadbirlarning barchasida tabiatni muhofaza qilish fondlarining salmog'i va o'rni juda kattadir. Demak, ekologik fondlarning mablag'lari qaysi maqsadlarda ishlatilishiga qaramasdan yagona maqsadni insonlarni toza tabiiy muhitda yashashdek huquqini ta'minlashni ko'zda tutadi.

Ekologik fondlar mablag'larini ishlatishning asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

- Korxonalar qaytarilish sharti bilan imtiyozli kreditlar va ssudalar ajratish;
- Tabiatni muhofaza qilishga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar ustav fondlarini shakllantirish uchun mablag' ajratish;
- Korxonalar qo'shimcha investision resurslari jalb etishni rag'batlantiruvchi loyihalarni moliyalashtirishda paychilik asosida ishtirok etish;
- Tabiatni muhofaza qilish loyihalarini amalga oshiruvchi korxonalar tijorat banklari tomonidan ssuda va kreditlar berishni kafolatlash.

Davlat ekologik ekspertizasi. Ekologik ekspertiza atrof - muhitni muhofaza qilish tizimining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ekologik ekspertizaning asosiy maqsadi - xo'jalik faoliyatini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan atrof muhitning holatiga va aholi salomatligiga ta'sir etadigan xavf va oqibatlarni aniqlashdir.

Atrof - muhitga bo'lgan salbiy ta'sirni baholash tamoyili ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarning tajribalarida qo'llanilib kelmokda. O'zbekistonda ham bu tajriba o'z o'rnini topdi va rivojlana boshladi.

O'zbekiston respublikasida davlat, davlat sanitariya-ekologiya va jamoatchilik asosidagi ekologiya ekspertizalari amalga oshiriladi.

Davlat ekologiya ekspertizasini O'zbekiston Respublikasi, Qoraqalpog'iston respublikasi Davlat qo'mitalarining, viloyatlar va Toshkent shahar tabiatni muhofaza qilish qo'mitalarining ekspert organlari amalga oshiradi.

Davlat ekologiya ekspertizasining maqsadi mo'ljallanayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo'jalik faoliyati va o'zga faoliyatning ekologik jihatdan qay darajada xavfli ekanligini aniqlash. Bu xildagi faoliyat tabiatni muhofaza qilish qonunlarining talablariga qanchalik muvofiqligini baholash, loyihalarda nazarda tutilayotgan tabiatni muhofaza qilish tadbirlarining qay darajada yetarli va asosli ekanligini aniqlashdan iborat.

Davlat ekologiya ekspertizasining obyektlari: Davlat ekologiya ekspertizasiga:

- Davlat dasturlari, konsepsiyalarining, ishlab chiqarish kuchlarini, xalk xo'jaligi tarmoqlarini joylashtirish va rivojlantirishning asosiy tizimlarining loyihalari;
- qurilishning barcha turlari uchun materiallar tanlash, reja oldi, loyiha oldi va loyiha hujjatlari;
- xo'jalik faoliyatini va ularni tabiiy resurslardan foydalanish me'yorlarini belgilab beruvchi yo'riqnoma usul va me'yoriy texnik hujjatlarning loyihalari;
- yangi texnika, texnologiya, materiallar va moddalar yaratish va xorijdan sotib olish bo'yicha loyiha hujjatlari, mahsulotlarga standartlar;
- O'zbekiston Respublikasiga keltirilayotgan va undan olib chiqib ketilayotgan mahsulotlar;
- ximiyaviy moddalar;
- alohida mintaqalar, hududlar va obyektlarning ekologik vaziyati;
- atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan korxonalar va boshqa obyektlar qo'yiladi.

O'ta muhim muammolarni ekspertiza qilishda respublikaning yirik olimlari ishtirok etmoqda. Natijada ekspertiza qilinadigan obyektlarning salmog'i tadrijiy ravishda ortib bormokda.

Mazkur muammolarni hal etish maqsadida mustaqil Ekspert kengashlari tashkil etilmokda.

O'zbekiston respublikasida «Davlat ekologik ekspertizasi va uning sifatini baholash mezonlari» tasdiqlangan. Ekspertdan o'tkazilgan obyektlar mazkur mezonlar asosida tanlab tekshirib turiladi.

Davlat sanitariya-ekologiya ekspertizasi atrof muhit ifloslanishining aholi salomatligiga salbiy ta'siri darajasini aniqlash maqsadlarida tashkil etiladi. Davlat sanitar-ekologik ekspertizasi esa O'zbekiston respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, uning joylardagi organlari, tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tashabbuslariga binoan tashkil etiladi.

Jamoatchilik asosidagi ekologiya ekspertizasi esa mustaqil mutaxassislar tomonidan ijtimoiy birlashmalar, loyihalarning mualliflari va xo'jalik faoliyati tashabbuskorlarining xohishiga ko'ra amalga oshiriladi.

Tabiatdan foydalanish, tadbirlari davlat zimmasida bo'lib, buning uchun moliyalashtirishni talab etadi. Moliyalashtirish ko'p qirrali tushunchadir bunda eng avvala davlat mablag'lari, nodavlat tashkilotlar, xalqaro tashkilotlar va boshqalardir. Ekologik fondlarni tashkil etish, dotasiyalar berish, kredit-ssudalar berishni tashkil etish orqali, davlat tabiatdan foydalanishni moliyalashtirishni amalga oshirishi karak.

Davlat ekologik ekspertizasi esa moliyalashtirilishi kerak bo'lgan obyektlarni aniqlash, mablag'ni miqdorini belgilash kelajakni bashoratlay olishi muhimdir. Davlat dasturlari, konsepsiyalarining, ishlab chiqish ham ekologik ekspertiza zimmasidadir.

Yuqoridagi ishlar amalga oshirilmasa tabiatdan foydalanish uni muhofaza qilish va majmual qayta ishlash hamda tayyor mahsulot ishlab chiqarish, ishlab chiqarish ilg'or texnologiyalarini jalb etish mumkin emas.

Tabiat resurslarini iqtisodiy baholash. Iqtisodchilar tabiiy resurslar va tabiiy muhitni, ularning ekologik vazifalarini baholashga harakat qiladilar. Aslida tabiat va uning resurslarini, tabiat ko'rkamligini aniq baholash oson emas, ularni to'liq baholash, ya'ni barcha xususiyatlarini e'tiborga olgan holda bozorni narxlash qo'yishga iloji yo'q. Go'zal tog' manzarasini qanday qilib baholash mumkin? Yoki tog' vodiysidagi so'lim joylar, sharsharalar, ko'llar, bahor tarovatini baholash uchun qanaqa narx qo'yish mumkin? Tabiat obyektlarini bunday baholash mezonlari hozirgacha ishlab chiqilmagan. Lekin, umuman olganda, boylklarni baholashda talay tajriba mavjud, ular asosida juda aniq bo'lmasada tahminiy qiymatlarni ishlab chiqish mumkin.

Tabiiy resurslar va tabiat xizmatlarni iqtisodiy jihatdan baholashni aniqlash uchun mavjud yondoshuvlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: bozor bahosi, renta, tabaqalashgan renta, sarflash, muqobil qiymat, umumiy iqtisodiy baholash (qiymat).

Tabiiy resurslarni iqtisodiy baholashning ko'rsatkichlari. Baholashning variantligini turli ko'rsatkichlarda ifodalanishini ko'zda tutadi. Masalan:

- natural ko'rsatkichlar tonna, kg., kub., metr., gektar va boshqalar.
- ballar bilan ifodalash – resurslarning nisbiy o'lchami, ularning taqqoslama xo'jalik ahamiyatini baholash va boshqalar.
- qiymat ko'rsatkichlari (resurslarning bozor bahosini aniqlashda tabiiy resurslardan foydalaniganligi uchun to'lovlarni belgilashda iqtisodiy zararni aniqlash va boshqa hollarda qo'llaniladi).

Tabiiy resurslarni iqtisodiy baholash tor ma'noda tanlangan variantlarda tabiiy resurslardan foydalanishdan olinadigan xujalik samarasining pul birlik laridan ifodalanib aniqlanishini bildiradi. Uning xususiyati obyektini va shuningdek baholash mezonini tanlash Bilan bog'liq.

Iqtisodiy baholashning tarmoq va region yo'nalishlari. Baholash obyekti sifatida ayrim resurs turlarining manbalari (foydali qazilma konlari, o'rmonlar, suv havzalari, yer uchastkalari va boshqalar) qabul qilinishi mumkin va bunda baholash tarmoq xarakteriga ega bo'ladi. Tarmoqlar bo'yicha baholash bilan bir qatorda mintaqaviy baholash, ya'ni u yoki bu xududlardagi barcha resurslar majmuasini- tabiiy resurslarning xududiy birikmasini baholash katta ahamiyatga ega.

Tabiiy Resurslarning Xududiy Birikmasini Baholash, tabiatdan foydalanishda g'oyat ahamiyatga ega. Tabiiy resurslarni xududiy birikmasi ma'lum yaxlit xududda joylashgan turli resurslarning manbalari bo'lib, ular resurslarni amaliyotda yoki istiqbolda majmual o'zlashtirish va

ulardan foydalanish orqali birlashgan xududiy birliklar xisoblanadi. TZXB resurslari yig'indisi xududlarning (mamlakat iqtisodiy rayoni, xudud,tumanlari) tabiiy resurs imkoniyatlarini) ta'riflaydi va ko'rsatadi.

Tabiiy resurslardan foydalanishning to'lovli yo'liga o'tilishi bir qancha ekologik va iqtisodiy masalalarni hal etishga imkon beradi: a) ulardan samarali foydalanishga qiziqish kuchayadi; b) resurslarni qayta takror ishlab chiqarish uchun qo'shimcha moliyaviy manbalar vujudga keladi; v) qo'shimcha daromad miqdori ortib boradi.

Tabiatdan foydalanishning ilmiy jihatdan asoslash tamoyili serqirrali, keng miqyosli va ko'plab fanlar ilmiy natijalarini birgalikda qo'llashni taqozo etadi. Bu borada tabiiy fanlar qatori iqtisodiyot, huquq, tibbiyot va boshqalar ham resurslardan foydalanishni har tomonlama asoslashda faol qatnashishi zarur. Bu fanlar tarkibida geografiya, geologiya, biologiya, ekologiya erishgan ilmiy natijalar negizidan foydalanish tamoyilini asoslash yuqori samara beradi.

Iqtisodiy javobgarlik tamoyili tabiatdan foydalanishda keng qo'llaniladi, chunki har bir korxonalar, sex, fermer, dehqon, oilaviy pudart a'zolari, har bir inson resurslardan foydalanish jarayonida tabiatga yetkazgan zarari uchun javobgardir. Bu zarar nafaqat tabiatni qashshoqlantiribgina qolmay, aholi orasida turli kasalliklar tarqalishi uchun imkoniyat yaratadi. Binobarin, bu holatda ekologik huquqni buzuvchilar tegishli jarimalarni davlat banklariga o'z vaqtida to'lashlari shart.

Majmualik tamoyili tabiat resurslaridan foydalanishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tamoyil qazilma boyliklardan samarali va to'liq foydalanishda hamda boshqa murakkab xom ashyolarni xo'jalik muomalasiga kiritishda, kam chiqindili va chiqindisiz texnologiyani tatbiq etishda asqotadi. Ikkilamchi resurslarni qayta ishlash jarayonida majmualik tamoyilining qo'llanishi katta iqtisodiy samara beradi. Lekin bu tamoyilni mamlakat miqyosida haligacha to'liq qo'llashga o'tilmagan.

Tabiatdan foydalanishning iqtisodiy mexanizm elementlari. Tabiiy resurslardan foydalanish va bu jarayonda atrof - muhitni muhofaza qilishning o'ziga xos iqtisodiy mexanizmi tarkib topgan. U ko'plab turli elementlardan iborat, lekin hozircha yuqori darajada takomillashgan deb bo'lmaydi, bozor iqtisodiyoti sharoitida ushbu mexanizm borgan sari yaxshilanib boradi.

Tabiiy resurslarni iqtisodiy baholash va baholar negizida tabiatdan foydalanishda to'lovli yo'liga o'tish borgan sari aniq bo'lib boradi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida iqtisodiy mexanizmning ayrim elementlarini qo'llash tabiatdan foydalanishni takomillashtirib borishda dastlabki qadam bo'ladi. Tabiatdan foydalanishda to'lovli yo'liga o'tish ekologik omilni iqtisodiyotda yanada kengroq qo'llashga, boyliklardan oqilona foydalanishda ko'maklashadi. Tabiiy resurslardan foydalanganligi uchun to'lanadigan to'lovlar ikki turda bo'lishi mumkin: a) tabiiy resurslardan foydalanish huquqi uchun; b) takror ishlab chiqarish va tabiiy boyliklarni muhofaza qilish uchun.

Tabiiy boyliklardan foydalanish huquqi uchun to'lanadigan xaq ushbu resurslar egasiga oldindan belgilab qo'yiladi. Bu hol mutlaq rentaning bekor qilinishi bilan bog'liq.

Ekologik soliqni tabaqalashgan tarzda tatbiq etish samarali bo'lishini mutaxassislar e'tirof etishmoqda. Masalan, turli yoqilg'i-energetika resurslariga soliq solishda ularning turiga ahamiyat berish maqsadga muvofiq. Eng yuqori ekologik soliq ko'mirga belgilanishi lozim, chunki undan eng ko'p uglerod chiqindisi ajraladi, eng kam soliq miqdori tabiiy gazga to'g'ri keladi.

Istiqbolda uglerod solig'ining tatbiq etilishi mamlakatlarda ko'mirni yoqilg'i sifatida ishlatish borgan sari kamayishiga ijobiy ta'sir etadi. Bu hol ko'mir o'rniga unga muqobil bo'lgan variantlarni izlashga undaydi, ayniqsa, quyosh va shamol, okean va dengizlarning suv ko'tarilishi va qaytishi energiyasidan foydalanish borgan sari kengayib boradi.

Xalq xo'jaligini rivojlantirish uchun davlat yordam puli (subsidiya) endilikda tubdan takomillashtirilishga muhtoj. Davlat tomonidan ajratiladigan subsidiya tabiatdan foydalanishda ekologik muvozanatni barqarorlashtiriga sarf qilinishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga juda katta ta'sir etadi. Hozirda ajratilayotgan subsidiyalar tabiat muhofazasini ko'zlamagan tarzda amalga oshirilmoqda yoki antieologik ahamiyatga ega. Bu ayniqsa, tog'-metallurgiya, energetika, kimyo, ko'mir sanoati va boshqa tarmoqlarda aniq ifodalangan.

Tabiatdan foydalanishning iqtisodiy mexanizmi tizimida tabiiy muhitni ifloslantirgani uchun to'lov muhim ahamiyat kasb etadi. Bu to'lovlar korxonalar va tashkilotlarning o'z ishlab chiqarish faoliyatida atrof - muhitga yetkazayotgan zararlari o'rnini qoplash uchun sarf qilinishi nazarda tutiladi. Lekin aslida tabiatni buzuvchilardan kelayotgan to'lovlar hajmi ekologik vaziyatni yaxshilash uchun sarf qilinayotgan barcha xarajatlarning faqat bir qismini qoplaydi, xolos. Atrof - muhitni ifloslantirgani uchun to'lanadigan to'lovlar ifloslantiruvchi-korxonalar jazo vositasi bo'lib «ifloslantiruvchi to'laydi» tamoyilini amalga oshirish yo'lidir.

Rossiyada dunyo mamlakatlari orasida birinchilardan bo'lib tabiiy muhitni ifloslantirgani uchun to'lovlar rasmiy ravishda 1993 yil yanvardan belgilandi. Bunda quyidagilar belgilangan:

- atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar chiqargani uchun;
- suv obyektlari yoki joy relyefiga ifloslantiruvchi chiqindilarni chiqargani uchun;
- chiqindilarni joylashtirgani uchun.

Atrof - muhitga bo'lgan ta'sir darajasiga ko'ra mutaxassislar to'lovlarning ikki me'yordagi turini ajratdilar: a) ruxsat etilgan hajmdagi chiqindilar uchun; b) ruxsat etilgan miqdordan oshirilgan chiqindilar uchun. Birinchi turdagi to'lov hajmi me'yordaligi bilan tavsiflanadi, ikkinchi turdagi to'lov bir necha marta ko'pligi bilan xarakterlanadi. Birinchi turga oid chiqindilar garchi kam miqdorda bo'lsada, lekin chiqarib turilganligi tufayli atrof - muhit potensial ifloslanib boradi. Me'yordagi to'lovlar korxonalar ishlab chiqarayotgan mahsulot qiymatiga qo'shilishi mumkin, demak uni iste'molchi to'laydi, lekin me'yordan ortiq chiqindi uchun to'lanadigan to'lovlar korxonalar hisobidan to'lanishi kerak.

To'lovlarning bu shaklda tashkil qilinishi ishlab chiqaruvchilarni atrof - muhitga chiqarayotgan chiqindi hajmini kamaytirishga undaydi, demak, kam chiqindili texnologiyani tatbiq etishga harakat qilina boshlaydi. Bu yo'l ham tabiiy muhitni ifloslantirishni kamaytirish yo'nalishidagi urinishlardan biri, uning samarasi yetarli darajada katta. Chunki korxonalar chiqindi chiqarishni qanday qilib kamaytirish to'g'risida harakatda bo'ladilar.

Tabiat muhofazasini moliyalashtirish uchun byudjetdan tashqaridagi ekologik fondlar muhim ahamiyatga ega. Bunday fondlarni tashkil qilish tegishli mablag'larni tabiiy muhit eng og'ir ekologik vaziyatdagi obyektlar, suv va havo havzalari jiddiy darajada ifloslangan hududlar, aholi salomatligi tang bo'lgan joylarning ahvolini tubdan yaxshilash ishlariga sarflashda asqotadi. Umuman olganda, ekologik fondlarning vazifasi quyidagi ustivor dolzarb muammolarni yechimiga qaratiladi:

1. atrof - muhit holatini yaxshilash va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan dasturlar va ilmiy-texnik loyihalarni moliyalashtirish;
2. tabiatni muhofaza qilish tadbirlari va dasturlari uchun moliyaviy resurslarni safarbar etish;
3. oqilona tashkil qilingan tabiatni muhofaza qilishni iqtisodiy rag'batlantirish, ekologik jihatdan toza texnologiyani tatbiq etish;
4. ekologik tarbiya va ta'limni taraqqiy qildirish uchun ko'maklashish.

Ekologik fondlar manbaini asosan korxonalarining chiqindi chiqarganligi, ifloslantiruvchi moddalarni tashlaganligi, chiqindilarni joylashtirganligi, avariya natijasida tabiiy muhitni ifloslantirganligi uchun jarima to'lovi, korxonalarining tabiatni muhofaza qilish qonunchiligini buzganligi uchun vujudga kelgan ekologik zarar o'rnini qoplash mablag'i, ixtiyoriy badal (vznos) va boshqalar tashkil qiladi. Bularning ichida atrof - muhitni ifloslantirganligi uchun to'lanadigan to'lovlar ulushi 80% dan ko'p bo'lishi amalda tasdiqlangan. O'zbekistonda tabiiy resurslarga zarar yetkazish, o'rmonlarni kesish, ov qilish man etilgan vaqtda ovchilik bilan shug'ullanish, havzalarda baliqlarni ko'plab maxsus vositalar bilan tutish (to'r, portlatish, elektr toki va boshq.), dorivor va texnik xom ashyo beruvchi giyovlarni yig'ish, nomi «Qizil kitoblar»ga tushgan o'simlik va hayvonlarni yig'ish, ovlash va boshqa zarar keltiruvchi faoliyatlar uchun juda ham kam jarima solinadi, bundan foydalangan brakonyerlar qo'rqmasdan o'z ishlarini bemalol davom ettiraveradilar. Agarda jarima soliqlari va boshqa turdagi to'lovlar miqdori oshirilsa, qonunbuzar ancha zarar ko'radi, tabiatni muhofaza qiluvchilar ko'proq mablag' tushumiga ega bo'lardi. Bu borada tashkiliy ishlar takomillashtirilishi zarur.

Majmualiy ekologik dasturlar mamlakat hududidagi keskin vaziyat tarkib topgan va halokatli hodisalar rivojlanishi mumkin bo'lgan joylarda umumiy ahvolni yumshatish, pirovardida qulay sharoitlarni qaror toptirishga qaratilgan bo'ladi. Ular amalga oshirilish miqyosiga ko'ra, xalqaro, mamlakat va hududiy darajada bo'lishi mumkin. Ekologik dastur hududning ekologik jihatdan tarkib topgan vaziyat darajasiga ko'ra, ko'p profilli, majmualiy va maqsadga muvofiq yo'naltirilganligi bilan tavsiflanadi. Uni amalga oshirish muddati ham belgilangan bosqichlar (yillar) soni va ko'lamiga bog'liq. Masalan, Orol va Orolbo'yi ekologik dasturi ko'p yillarga mo'ljallangan bo'lib, bir-birlari bilan bog'liq bir necha bosqichlarga asoslanishi mumkin.

Dasturni amalga oshirishda davlatning roli ko'proq bo'ladi, chunki resurslarni tez fursatda to'plash zarurligi, muammoning murakkabligi, iqtisodiy samaradorlikning noaniqligi to'g'ridan - to'g'ri boshqaruvni taqozo etadi. Ba'zi hollarda chet el investisiyalaridan ham foydalanish imkoniyatlari vujudga keladi. O'zbekistonda maqsadga muvofiq yo'naltirilgan ekologik dasturlar quyidagi muammolarni hal qilish uchun zarur:

1. xalqaro majburiyatlarni bajarish (ozon qatlamini muhofaza qilish, issiqxona gazlarini havoga kamroq chiqarish);
2. biologik xilma-xillikni saqlab qolish);
3. sug'orma yerlardan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilish, suv resurslaridan ilmiy asoslangan holda foydalanish, ularning sifatini yaxshilash va boshq.;
4. Orol bo'yi va Orol dengizi muammosini yechish;
5. mahalliy ekologik muammolarni hal qilish;
6. sanoat shaharlari atrofida tabiiy muhitni muhofaza qilish.

Korxonalarining mablag'lari xo'jalik yurituvchi subyektlarning daromadi hisobiga shakllantiriladi. Tabiatni muhofaza qilish tadbirlari va tabiatni muhofaza qilish asosiy fondlari ishlatishga ketgan joriy xarajatlar korxonalar ishlab chiqargan mahsulotlarning tannarxiga qo'shiladi.

Byudjetdan tashqari maqsadli resurslar bo'yicha fondlar tabiatni muhofazasi uchun mablag' ajratishning «qoldik tamoyilini» bartaraf qilish uchun tuziladi. Mineral xom ashyo bazasini takror ishlab chiqarish, o'rmonlarni muhofaza qilish va ko'riqlash, suv obyektlarni tiklash va qo'riqlash kabi byudjetdan tashqari fondlar tuzilgan.

Byudjetdan tashqari ekologik fondlar — atrof muhitni muhofaza qilishni investisiyalashni qo'llab — quvvatlash tizimining yangi elementi hisoblanadi. Mazkur fondlar kechiktirib bo'lmaydigan tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini, atrof tabiiy muhitdagi yo'qotishlarni tiklash, keltirilgan zararni kompensatsiyalashni moliyalashtirish uchun tuziladi.

Atrof muhitni muhofaza qilishning ijtimoiy fondlari aholi daromadlari, ijtimoiy birlashmalarning ixtiyoriy badallari va xayriyalari va boshqa manbalar hisobiga tashkil etiladi. Makur fondlar ijtimoiy ekologik birlashmalar va O'zbekiston Respublikasining kasaba uyushmalari tomonidan tashkil etilib, ularning mablag'lari faqat atrof muhitni muhofaza qilishga sarflanadi.

Tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga jalb qilinayotgan moliyaviy manbalarining turli-tuman bo'lishi ulardan oqilona uyg'unlikda foydalanishni talab etadi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning tajribalariga ko'ra tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga ajratilayotgan moliyaviy manbalarning kuchli differensiyalashuvi kuzatiladi.

Tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga ajratilgan va yig'ilgan mablag'lar o'zining maqsadga yo'naltirilganlik xususiyati bilan tavsiflanadi.

Barcha darajalardagi byudjet tabiatni muhofaza qilish va ekologik dasturlarni moliyalashtirishga alohida e'tibor beriladi va moddiy texnik resurslar bilan ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasida tabiiy resurslardan foydalanish va atrof tabiiy muhit muhofazasi holati to'g'risidagi Milliy doklad ma'lumotlariga ko'ra davlat byudjetidan davlat dasturlari tarkibiga kirgan tabiatni muhofaza qilish tadbirlari moliyalashtiriladi. Davlat byudjeti hisobiga markazlashtirilgan tarzda tabiatni muhofaza qilish sohasida faoliyat ko'rsatuvchi Tabiatni muhofaza qilish Davlat Qo'mitasi, GidroMet, O'zerloyiha tashkiloti, geologiya, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tadbirlari moliyalashtiriladi. Byudjetdan tashqari xududiy ekologiya fondlar mablag'lari O'zbekiston

Respublikasi tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonuniy hujjatlarga ko'ra mintaqalar tomonidan maqsadli ravishda foydalaniladi.

Tabiatni muhofaza qilishni moliyalashtirishni umumiy salmog'ida kapital quyilmalarga alohida e'tibor beriladi. Kapital quyilmalar —tabiatni muhofaza qilish fondlarini yaratishga yo'naltirilgan mablag'lar hisoblanadi.

Tabiatni muhofaza qilishga yo'naltirilgan kapital quyilmalar mintaqalar va tarmoqlar bo'yicha ham farqlanadi. Mazkur xususiyatlar mintaqalarning tabiiy iqlim, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik shart—sharoitlariga ko'ra tafovutlanadi.

Nazorat va mulohaza uchun savollar.

1. Tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga ajratiladigan mablag'larning manbalarini sanab bering.
2. Ekologik tavsifdagi tadbirlarni moliyalashtirishda byudjetning roli qanday?
3. Moliyalashtirishning zamonaviy tizimi to'g'risida nimalarni bilasiz?
4. Ekologik ekspertiza nima va u qanday maqsadlarda o'tkaziladi?
5. Ekologik ekspertiza obyektlariga nimalar kiradi?
6. Davlat sanitariya ekologiya ekspertizasi nima?
7. Jamoatchilikda o'tkaziladigan ekologik ekspertizaning mohiyati nimadan iborat?
8. O'zingiz tug'ilgan joydagi ekologik vaziyatni ekspertizadan o'tkazish reja loyihasini tuzing.
9. Xalqaro nodavlat tashkilotlari ham moliyalashtirishda ishtirok etishi mumkinmi?
10. Dotasiya nima va uni berish talablari nimalardan iborat?

9-Mavzu: Tugaydigan va qayta tiklanadigan resurslarni joylashtirish samaradorligi(4-soat).

Reja:

1. O'rmonlar va barqaror rivojlanish.
2. O'zbekistonning o'rmon resurslari.
3. O'rmonchilik iqtisodiyoti.
4. O'rmon ekotizimi qiymatlari va xususiy o'rmon boshqaruvi.
5. Qashshoqlik va qarzdorlik.
6. Barqaror o'rmonchilik.
7. Birinchi galdagi zarurat.

1. O'rmonlar va barqaror rivojlanish

O'rmonlar turli xildagi mahsulot va xizmatlar bilan ta'minlaydi. O'rmon uy-joy qurilishi uchun xom-ashyo materiallari va yog'och mahsulotlarini yetkazib beradi. Dunyoning ko'p joylarida, o'tin muhim yonilg'i hisoblanadi. Qog'oz mahsulotlari yog'och tolasidan olinadi. O'qmonlar havoni tozalaydi, ya'ni havodagi karbonat angidridni yutib kislorod ishlab chiqaradi. O'rmonlar yovvoyi o'simlik va hayvonot olami rivojlanishi uchun shart- sharoit yaratadi va asosiy ichimlik suvini tabiiy yo'l bilan tozalab berishda muhim rol o'ynaydi. O'rmonlar odamlar kundalik hayotidagi muhim o'rnini va ahamiyatini yaqqol kuzatishimiz mumkin, hatto eng oddiy misollarda ham buni tasavvur eta olamiz.

Barqaror rivojlanishda o'rmonlar muhim rol o'ynaydi. Jamiyatning inqirozga uchrashiga sabab bo'luvchi omillardan biri bu o'rmonga ziyon yetkazilishidir. Yaqqol misol, Tinch okeanining markazida joylashgan Fisih orolini keltirishimiz mumkin, bunda yashovchi aholi tomonidan o'rmonlarning tugatilishi natijasida u yerda kichik uylar va unumdorligi past yerga ega bo'lgan ochlikda qolgan aholi yashamoqda. Ushbu voqea xalq og'zaki tilida aytib kelingan, lekin ishonarli manba sifatida Jarred Diamondning *Inqiroz* kitobida o'qishimiz mumkin. Ushbu Diamondning kitobida o'rmon resurslarini yo'qotilishida jamiyatning inqirozning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi qirralariga to'xtab o'tilgan. Keltirilgan ko'pgina misollar tarixga tayanadi, ammo ularning ayrimlari bugungi kunda ham kuzatilmoqda, masalan buning avji hozirda AQShning Montana shtatida kuzatish mumkin.

Evropada o'rmonlar maydoni bugun ortib bormoqda; o'rmonlar maydoni 20-asr boshidagi eng minimum maydonga tenglashdi; ushanda qishloq xo'jaligiga past unumdor va o'rmon yerlari ham qo'shib olingan edi; o'she maydonlarning ko'p qismi qaytadan o'rmonlashtirildi. Biroq, bundan oldin 1700 yillarning boshi va o'rtalarida ham Evropada o'rmonlarni kesilib ketish inqirozi bo'lib o'tgan edi. Katta maydondagi o'rmonlarning butunlay kesilib ketishiga tog'-kon sanoatida yog'och xom-ashyosiga talabning oshib ketishi bo'ldi. O'rmon inqirozini hal qilish uchun qaratilgan loyihalar o'z ichiga:

- Binolarda issiqlik izolyatsiyalarining takomillashtirilishi, energiyani tejavchi pechlarni xonadonlarga kirib kelishi va metallurgiyaning rivojlanishi.

- Yog'och uchun alternativlarni izlab topilishi, masalan torf.

- Yangi o'rmonlarni yaratish "Yovvoyi daraxtlarni ekish va muhofaza etish".

1713 yildagi Von Carlowitz *Sylvicultura oeconomica* kitobida, birinchi bo'lib o'rmonchilik to'g'risida keng qamrovli qo'llanma chop ettirdi. 400 saxifali ushbu kitobda qanday qilib "O'rmonchilikni rivojlantirish va muhofaza qilish, shuningdek, barqaror va doimiy faoydalanish" ni ta'minlash mumkin degan savolga javob izlangan. Barqarorlik (*Nachaltigkeit*-lotin tilida) tushunchasi o'rmonchilik to'g'risidagi kitobida birinchi marta ishlatiladi.

Bundan tashqari, Shvetsiya markazida o'rmon muhim bir resurs edi. Yog'ochni yoqish orqali tog'larda temir rudasini ajratib olishda xizmat qilar edi; temirning oksidlanib ketishini kamaytirish va temirchining pechida yoqilg'i sifatida ishlatilgan. Shvetsiya dunyodagi eng katta temir resursini eksporteri hisoblangan va Evropadagi urushni temir xom-ashyosi bilan ta'minlagan. 1767 yilda juda samarali issiqlik ishlab chiqaradigan va saqlaydigan "*kakelugn*" pechi joriy etildi. Bu Yevropada eng yaxshi shved energiya texnologiyasi edi va isitish uchun yog'och foydalanish keskin kamayishiga erishildi. Shvetsiya uylari issiq va shinam bo'lishi uchun xizmat qila boshladi.

Resurs inqirozi bilan bog'liq masalalar yechimi- qadimda xuddi hozirgiga o'xshash ekanligi juda qiziq. Boshqaruvchilik qobiliyatlari- *o'rmonchilik* o'quv qollanmasida yozilishicha- technologik yechimga ega- masalan quvurlarga asoslangan pechlar, binolarning izolyatsiyalanishi- va energiyani torflar bilan almashishi.

Hozirgi zamonda o'rmonlardan barqaror foydalanish muzokaralar markazida. Sayyoramizdagi o'rmonlarning teng yarmi tugatilib bo'lindi. Dunyo iqlimida o'rmonsizlanish muammosi gas emissiyasining yuzaga kelishi, global is gazining 25 % ga yetganligi, va qazib olinadigan yoqilgi resurslari RED, REDD va REDD+ Loyihalari doirasida "o'rmonlarning kamayib ketishini oldini olish va o'rmon degradatsiyasi" ni rivojlanayotgan mamlakatlarda kamaytirishga qaratilgan.

Deyarli barcha tropik o'rmonlarining yo'qolib borishi dunyo yarim sharining janubiy qismiga to'g'ri kelmoqda. Shimoliy yarimsharda shimoliy o'rmonlar, shu jumladan, Shimoliy Evropada sezilarli darajada atmosferada karbonat angidrid miqdorining kamayishiga erishishda ishlar olib borilmoqda va ular Redd loyihasining dasturlariga kiritilgan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining 1990 yildagi xisobotida, o'zining Global O'rmon Resurslarini Baholashining 2000 yilida, dunyo 4,2 foiz tabiiy o'rmonzorlarini yo'qotganligini habar berdi. Shu vaqt davomida, dunyoda o'rmonlarni yangitdan tashkil etish (yangitdan o'tqazildi), tiklash (o'rmonsizlantirilgan maydonlar qaytadan o'rmon holatiga qaytarildi) va o'rmonlarning tabiiy kengayishi orqali 1,8 foiz miqdori o'rmonzorlashtirildi. Natijada 10 yillik davr mobaynida o'rmonzorlar maydoni 2,4 foizga sof kamaydi. Ushbu ma'lumotlardan kelib chiqib, joriy o'rmonchilik amaliyotidan xulosa qilishimiz mumkin, barqarorlik va samaradorlik mezonlari buzilgandir.

O'rmonlarni boshqarish oson ish emas. Dehqonchilikda hosil, masalan g'alla bir yillik bo'lib u bir yilda ekilib yig'ishtirib olinadi, daraxtlar esa juda yetiladi. Boshqaruvchi nafaqat mavjud maydondan hosildorlikni qanday qilib oshirishni o'ylashi balki qachon hosilni yig'ib olish va qachon uni qaytadan ekish kerakligi to'g'risida qaror qabul qiladi.

Bundan tashqari, bir nozik muvozanat, ya'ni daraxtlar kesib olinishi o'rtasida turli masalalar bor. Daraxtlarni kesishda to'g'ri muvozanatni yo'lga qo'yish (masalan, o'rmonlar Manzaralari estetik qiymatini himoyasi, yoki soya joylarining yetarli ta'minlash hisobga olish kabi) yoki boshqa potentsial qarama-qarshiliklarni hisobga olgan holda foydalanish, ular o'rtasidagi qiymatni to'g'ri taqqoslash vositalarni bilishni talab qiladi. Bu yerda samaradorlik mezonini bir oshkora metod hisoblanadi.

Bir jiddiy muammo, o'rmonsizlantirish, iqlim o'zgarishini kuchaytiradi, bioxilma-xillikni kamaytiradi, qishloq xo'jaligi unumdorligini pasayishiga sabab bo'ladi, tuproq eroziyasi va cho'llanishga oshishiga olib keladi va o'rmonlarda yashovchi mahalliy xalqning an'anaviy madaniyatlarini yo'qolib ketishiga sabab bo'ladi. O'rmonlardan hozirgi va kelajak avlodlar ehtiyojlarini qondirish uchun barqaror asosida foydalanish o'rniga, ba'zi o'rmonlar "yo'q bo'lib ketmoqda".

2. O'zbekistonning o'rmon resurslari

O'zbekiston Respublikasi Davlat O'rmon Qo'mitasining 2010 yil 1- yanvar ma'lumotlariga ko'ra o'rmon fondi 9120 ming gektar tashkil etadi. Ularning daraxtlar bilan qoplangan maydoni 2 776 ming gektar. Maxsus o'rmon yerlari 30,6% ni, va O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rmon hajmining 6,2% ini tashqil qiladi.

O'rmon Qo'mitasiga tegishli o'rmon fondi 5 yilda, ya'ni 1993-1998 yillarda - 1159 ming gektarga oshgan bo'lib, asosan Navoiy viloyatiga to'g'ri keladi, shuningdek, maxsus tabiiy hududlarning qo'riqlanadigan maydonlarning kengayishi hisobidan 12,1 ming gektarga oshgan (NAPCDRU, 1999).

Tuproq-iqlim sharoitiga ko'ra o'rmon fondlari qumli, tog'li, namgarchilik yerlarning va vodiy zonalariga taqsimlanadi. 1-jadvalda ularda o'sayotgan o'simliklar turlari keltirilgan.

1- jadval

O'zbekistonda turli hududlarida o'rmon tabiiy zonalar

Manba: National Action Programme to Combat Desertification in Republic of Uzbekistan.

Tabiiy zonalar	Tabiiy hudud maydoni (ming ga)	Turlari	O'simliklar yoki butalar bilan qoplangan maydon (ming ga)
Qurg'oqchil zona	7 833	saksaul, qandim, cherkes, butasimonlar va boshqa daraxtlar	2 655,3
Tog'li hudud	1 173	zarafshan archa, pista daraxti va zarang	280,3
Amudaryo, Sirdaryo, Chirchiq, Zarafshon va Ohangaron daryolari bo'ylab joylashgan o'rmonlar	84	turanga, majnuntol va butasimonlar	30,9
Vodiy vohasi	57	Manzarali daraxtlar	
Sho'rlangan va botqoqlashgan tuproq hududi		Bo'tasimonlar, maltlar	9 120
Jami	9 120	-	2 776

O'zbekiston Respublikasida o'rmon sohasi holatini dastlabki tahlil qilish natijasida, odamlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi tabiiy resurslar va ekologik muvozanatni kompleks muammolari yuzaga kelganligi aniqlandi. O'zbekiston Respublikasi hududida orol atrofida ochiq maydonlarning yuzaga kelishi, atrof-muhit holatini yomonlashuviga, o'tkir va istalmagan ekologik muammolar kelib chiqishiga sabab bo'ldi: cho'llanish jarayonlari, shamol orqali tuzni qishloq xo'jaligi yelariga va katta hududlarda tarqalishiga sabab bo'lmoqda.

Yer osti suvi satxining va boshqa salbiy omillar tuz zarrachalar ta'siri ostida biologik barqarorlikni buzilishiga olib keldi va o'rmon ekotizimlarini, ularning foydali funktsiyasi pasayishi, kasalliklari keng tarqalishi va o'tkir o'rmon-himoya muammolarini keltirib chiqardi. Bugungi kunda Orol dengizining qurib, 1200 ming gektar maydonga kengayganligini O'zbekiston Respublikasi O'rmon Qo'mitasi qayd qildi. Bir yilda ekiladigan ko'chatlar 10 ming gektardan oshmaydi, bu qolgan maydonni ko'chatlar bilan to'ldirish uchun 100 yildan ortiq vaqt talab etiladi. Bundan tashqari, Orol dengizi qirg'oq zonalarida - Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy va Xorazm tumanlarida – tuproq zichligini oshirish uchun ko'chatlarni 300 ming gektarga o'tqazilishi talab etiladi.

Ko'chat o'tqazishga ixtisoslashgan korxonalar tuproq tarkibini aniqlash ishlarini ham olib borishadi. Himoya vazifasini o'tovchi o'simliklarni o'tqazish og'ir tuproq-iqlim sharoitida, og'ir ijtimoiy va maishiy sharoitlarda, aholi punktlari (150-200 km) dan uzoqda, shuningdek, yuqori kuchlanishga ega bo'lgan avtomobillar, kuchli traktorlar, texnik vositalarni yetishmasligi va uskunalar bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch kelismoqda, himoya ko'chatlari o'tqazishda og'ir iqlim sharoitlar asosida ish olib borishga to'g'ri kelmoqda. Shunday qilib, ekologik xavfsizlik sohaslarida jiddiy muammolar, himoya o'simliklarni ekish, tuproq gumusini mustahkamlash, parvarishlash, himoya qilish, zararkunandalar va kasalliklardan himoya qilish hosil qilinadi.

3. O'rmonchilik iqtisodiyoti.

Qachon hosil yig'ib olinishi kerak? Samaradorlik tushunchasidan kelib chiqib, optimal hosil yig'ish davri (muddati) o'rmondan keladigan sof foydaning maksimum bahosini hisoblab beradi. O'rmonchilikdan olinadigan sof foydaning hajmi yer resurslarining o'rmon uchun doimiy xizmat qilib kelishi yoki kesib olingan o'rmonni o'z tabiiy holatiga qoldirilgan davriga bog'liq. Bizning birinchi modelimizga ko'ra, bir marta hosil yig'iladi va qolgan qismi o'z holicha qoldiriladi. Shuningdek, resurslar narxi (bahosi \$1) kesib olish uchun kub metruga (\$ 0.30) bo'lib, bu vaqtda farq qilib turadi. Bu o'rmonni yaratish qiymati \$ 1000 bo'lishi bilan qabul qilingan. Bu model zaruriyati yanada murakkab va yanada aniq misollar, buni oddiy holda turli ko'rinishlarda qo'llanilishi mumkin.

Ko'chatlarni o'tqazish xarajatlari va hosilni yig'ishtirish xarajatlari bir-biridan farq qiladi, ikkinchidan o'rmonlarni tashkil etilgan yili- olingan hosilning qiymatiga ta'sir ko'rsatadi. Odatda ekish xarajatlari shu zahoti shakllanadi, hosilni yig'ib olish harajatlari esa hosilni yig'ib olish davriga bog'liq. Bugungi kundagi hisob-kitoblarga ko'ra, hosilni yig'ib olish harajatlari kamaygan (yog'och ishlab chiqarishda) chunki, hosilni yig'ib olish xarajatlari oldindan to'lab qo'yilgan bo'ladi, ekish harajatlari esa joriy xarajatlarni talab etadi.

Ushbu modelning jihatlari belgilangan bo'lib, xozirning o'zida qaysi vaqtda hosilni yig'ib olish muddatiga qarab sof daromadni aniqlash imkonini beradi. Hosilning sof foydasi aniqlash uchun ekish davrida qilinayotgan xarajatlardan kelajakda hosilni yig'ishtirib olish muddati o'rtasidagi farq orqali aniqlash mumkin. Uch xil chegirma stavkalarini qo'llash orqali hosilni yig'ishtirib olish qarorini qabul qilish ssenariylari mavjud. Chegirmalarsiz hisoblar ($r = 0,0$) har bir yilning haqiqiy qiymatini belgilab beradi, qachonki, ijobiy balansga erishilish variantlarini aniqlab beradi.

O'stirish harajatlari qayta ekish harajatlari muhim hisoblanadi. Biroq, yig'ishtirish harajatlari ayrim sabablarga ko'ra hosilning davriga ta'sir qilmaydi. Umumiy yig'im harajatlari o'rmon hosili miqdori (har bir kub metr uchun \$ 0.30) mutanosib taxmin bo'lishi mumkin chunki, narx ham o'rmon bir kub metr marginal qiymati ham davri bilan farq qiladi; ularni ham o'zgartirib bo'lmaydi. Bizning sonli misollarda, oldin bu hosilning doimiy sof qiymati \$ 0.70 (\$ 1 narxidan \$ 0.30 marginal hosil xarajatlarni ayirib) hisoblanadi. Nima bo'lishidan qat'iy nazar hosilning marginal harajati belgilangan sonli qiymati, hisoblashdan oldin hosil sof qiymati $(1 + r)$ tonna tomonidan bo'lingan har bir davr hosil hajmi bilan ko'paytirilishi doimiy emas. Uning o'rni sof foydasini egri pasaytirish uchun faqat hisoblash zarur emas; uning maksimal nuqtasini, shu jumladan, uning shaklini o'zgartirmaydi. Shuning uchun, sof foyda- uzoq marginal yig'im qiymati, uning narxi kam bo'lganidan qat'iy nazar marginal yig'im qiymati harajatlari minimum, hosil shu davrda maksimal bo'ladi; yig'imning marginal harajati bir yuksalishi hosilning optimal davriga ta'sir qilmaydi.

Biroq o'stirish harajatlari qayta ekish qaroriga tegishli. Ekish xarajatlarni yetarlicha yuqori bo'lsa, ular o'rmon hosili maksimal hozirgi qiymatining oshmasligi mumkinligini anglatadi. Bu holda, sof foyda bugungi siyosat yig'im davriga qanday ta'sir bo'lishi mumkin? Bu oddiy model o'rmon hosili har bir kub metrda undiriladi va birgina \$ 0.20 soliq ta'sirini ko'rib chiqaylik. Bu soliq kub metr boshiga \$ 0.50, kub metr ohishiga \$ 0.30 dan yig'imini marginal narxini oshirish bo'lsin, u yig'imni iqtisodiy o'sishining bir xil ta'sirini ko'rsatgan bo'lar edi. Biz allaqachon namoyish etganimizdek, bu soliq optimal yig'im davri o'zgarishsiz qoldiradi, deb nazarda tutardik. Bu sonli misoldan olingan, so'ngi natija chegirma stavkalari va qayta ekish qarori uchun ekish xarajatlarni

o'rtasidagi o'zaro bog'liq. Yuqori chegirma stavkalari yuqori qayta ekish davri harajatlar bilan birlashtirish qachon, hosilni sotish uchun ekish daraxtlar kam chegirma stavkalari bilan bo'lardi? Hosilning ortiqcha ijobiy sof foyda kamroq bo'ladi.

Yuqori chegirma stavkalari bilan daraxt o'sishi, ekish harajatini oqlashi faqat juda sekin bo'ladi; foyda-maksimal o'rmon mavjud bo'lgandagina o'rmonni kesish, lekin uni qayta ekish davrini hosil qilinishiningina foydasi emas edi.

4. O'rmon ekotizimi qiymatlari va xususiy o'rmon boshqaruvi

Yuqorida keltirilgan mulohazalar, faqat birgina holatda o'rmondan kesilgan yog'ochdan tijorat maqsadida foydalanganda qo'llaniladi. Bu holatda biz samaraga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi manbalarni topishga harakat qilamiz va bu manbalar foydaning maksimallasuvi va o'rmonlarning kesilish tezligi orasidagi bog'liqlik effektini ifodalaydi. O'rmonlarning yog'ochdan tashqari boyliklari qiymati zamonaviy o'rmonchilik boshqaruvi oldida paydo bo'lgan asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Bu yuqori qiymatlarga quyidagilarni misol qilish mumkin:

a) *O'rmonlar bioxilma-xillik zaxiralari*dir. Gen seleksiyasi (tadqiqotchilari) endilikda izlanuvchilarni bir turdagi genlarni ikkinchi turga chatishtirib yanada yuqori qiymat xususiyatlariga ega bo'lgan yangi turlarni yetishtirishga undamoqda. O'rmon hududlarining qisqarib ketishi esa yuqori qiymatga egaligi isbotlangan turlarning yo'qolib ketish xavfi oshishiga sabab bo'ladi.

b) *Global iqlim o'zgarishi*. Daraxtlar yuqori tezlikda namoyon bo'layotgan global isishga sabablardan biri deb hisoblanayotgan issiqxona gazlari- uglerod gazi uchun cho'kma vazifasini o'taydi, karbonat angidrid gazini o'ziga yutadi. Daraxtlar uglerod gazini qamab turuvchi "qamoqxona"lardir. O'rmonlarning qayta tiklanishi uglerod gazlarining ushlab turilishiga sabab bo'lsa, o'rmonlarning yoqilishi (yoki tabiiy o't ketishi) uglerodning qayta tarqalishiga sabab bo'ladi. O'rmonlarning ushbu zararli gazlarning tutib turishdagi xizmati (boshqacha aytganda "marinadlash") juda yuqori ahamiyat kasb etadi.

c) *Joylashgan o'rni va bio xilma-xillik*. Bio xilma-xillikni saqlash tropic o'rmonlarning bebaho xususiyatlaridan biri bo'lib, ular mahalliy noyob turlarning juda ulkan hajmini saqlab turadi. E'tiborlisi shundaki, bu turlar aynan shu joyga tegishli bo'lib dunyoning boshqa hech bir yerida uchramaydi.

d) *Ekotizim qiymati*. O'rmonlar katta suv zaxirasini saqlash manba (havza)si va tuproq eroziyasi himoyachilari hisoblanadi. O'rmonlarning kesilishi oqibatida so'nggi yillarda suv bosishi holatlari kuzatilmoqda, misol uchun Hindistonda.

e) *Aholi zichligi*. O'rmon hududida vaqtincha ijarada turganlar (noqonuniy) o'rmon resurslaridan mulk sifatida foydalanish huquqiga ega emaslar. Rivojlanmagan mamlakatlarda yog'och ovqat pishirish uchun asosiy energiya manbai hisoblanadi. Shuning uchun aholining zichligi (bosimi) o'rmonlarning kesilib ketishiga sabab bo'ladi. Global miqyosda tan olinayotgan bir nechta o'rmon boshqaruvi natijasida ta'sir etgan tashqi omillar bu boshqaruvni yanada takomillashtirishga undamoqda. Bu so'nggi vaqtda, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda o'rmonlar qisqarishining aksi ro'y berayotganligi bilan ifodalanadi. Buning bir nechta yo'llari mavjud.

Davlatlar (hukumat) o'rmondan yog'och ishlab chiqaruvchi individuallar yoki kompaniyalar uchun rasmiy konsessiyalar (ruxsatnoma) lar joriy etgan bo'lib, bu ular o'rmonning ma'lum hududidan foydalanishlari huquqini beradi. Konsessiya- bu o'rmondan foydalanish huquqini beruvchi shartnomadir. Davlat konsessiya uchun to'lovlarni soliqlar, olingan mahsulot hajmiga to'lovlar, maydon uchun to'lovlar, tadqiqot to'lovlari shaklida yig'ib oladi. Aytish lozimki, konsessiya uchun to'lovlar ko'p davlatlarda juda sezilarli va jiddiy tarzda kamaytirildi. Agar davlat bunday turdagi to'lovlarni yig'masa, bu mablag'lar kompaniyalar uchun foyda tariqasida o'zlashtiriladi. Ko'plab davlatlar bugungi kunda o'zlarining o'rmonchilik konsessiyasi siyosatlarini qayta ko'rib chiqib o'zgartirmoqdalar. Bunga yana bir sabab shuki, konsessiya vaqti shunday optimal belgilangan bo'lishi kerakki, undan foydalanayotgan kompaniya manfaatlariga xizmat qilsin.

Xorijiy rivojlangan davlatlarning tashqi qarzlari tarkibida bo'lgan atrof-muhitni saqlash qarzlari mahalliy tabiatni saqlash, jumladan, o'rmonlarni saqlab qolish uchun sarflansa kechiladi. Diakon va Merfi atrof-muhitni saqlash uchun qaratilgan tashqi qarzlarning tuzilishi va hosil bo'lishini empirik (tadrijiy) tarzda o'rganib chiqishdi. Ushbu turdagi shartnomalar rivojlanayotgan mamlakatlar mahalliy rasmiylarining ekologik resurslarga be'tiborligi, atrof-muhitdan olinadigan mahsulotlarning aniqlanishi va monitoring bo'yicha yuqori xarajatlar hajmi va davlatga tegishli resurslarning ishlatilishida zaif boshqaruv mahsuli sifatida ifodalanadi. Alohida individual davlatlar orasidagi bunday shartnomalar shubhasiz ko'makchi mamlakat xususiyatlariga tayanadi, misol uchun, tropik yerlar maydonining va yo'qolish xavfi ostida turgan turlarning mavjudligi, demokratik boshqaruv institutlari va katta qarzdorlik qiyinchiliklari shular jumlasidandir.

Shuningdek, davlat vakillari o'rmonlar iqtisodiy manfaati pastroq bo'lgan hududlarda qishloq xo'jaligi va urbanizatsiya rivoji yordamida o'rmonlar uchun o'rindosh zaxira yaratadilar. Indoneziyadagi yog' olinadigan pal'ma plantatsiyalari yoki Amazonkadagi chorvachilik xo'jaliklari bunga misoldir. Yerni ishlatilishini nazorat qiluvchilarning faqat ma'lum maqsadlar uchun cheklanib ruxsat berishi faoliyatni osonlashtirish deb ataladi. Yerdan mahalliy (tub) aholining an'anaviy foydalanishi o'rmonlar kesilishining cheklanishiga sabab bo'ladi.

Shunday qilib, zamonaviy o'rmonchilik boshqaruvining eng quyi nuqtasida klassik qayta tiklanish davri o'rmondan tijorat maqsadida eng maksimal foyda keltiradigan darajada foydalanish modeli bilan xarakterlanadi. Ushbu modellarning yangilangan shakllarida o'rmonlardan park sifatida foydalanish va yog'och sifatida foydalanish jamlangan (murakkab modellar). Park (dam olish maskani) sifatida foydalanish modeli optimal qayta tiklanish muddatini o'zgartirishi mumkin. Bu model hatto o'rmonni hech qachon kesmaslik darajasida optimallashtirilishi mumkin. Zamonaviy izlanishlar o'rmonlardan tijorat maqsadlarida kamroq foydalanishni va o'rmonchilik boshqaruvi asosidagi tashqi ijobiy ta'sirlardan (bozorning voz kechishi) ko'proq foydalanishni targ'ib qiladi. Bugungi eng zamonaviy mavzular o'rmonlarni kesilishi, bu uchun tabiatga to'lanishi lozim bo'lgan qarz va o'rmonlar qulayliklarining qiymati haqidadir.

5. Qashshoqlik va qarzdorlik.

Qashshoqlik va qarzdorlik o'rmonlarga salbiy bosim o'tkazishning muhim manbai hisoblanadi. Dehqonlar o'rmon yerlariga talab yuq deb hisoblashib o'zlashtirib olishga zo'r bir imkoniyat deb biladilar. Halq, bir guruh dehqonlar himoyaga olinmagan o'rmon yerlariga egalik qilish birmuncha oson yo'l deb hisoblashadilar, chunki bu boylarda yerni tortib olishga nisbatan osonroq. Yersiz qolgan dehqonlar, ko'pchiligi shahar tomon ish izlab mehnat bozorida ortiqcha ishchi kuchi taklifini hosil qilishadi. Siyosiy taranglik yuz kelishi natijasida, yuzaga kelgan ishonchsizlik va umidsizlik – dehqonlar talablarini o'rmon yerlarni ochib berish yoki hukumatga hech bo'lmaganda boshqa siyosiy yo'l tutishga majbur etadi.

Sharqiy va Janubiy Afrikadagi ijobiy hisobot bog'liqligi qashshoqlik va o'rmonning yo'qolishining kamayishiga yordam berdi. Ko'pgina tabiiy o'rmonlar ancha vaqtdan beri qurilish va o'tin uchun kesib kelinmoqda, hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva uchun yem-xashak ishlab chiqarish uchun ochilgan yerlardan foydalanilmoqda. O'rmonlar yo'qolishi natijasida qashshoq qishloq aholisi o'zining ko'p vaqtini yangi yoqilg'i resurslarini izlashga sarflamoqda. O'tin bunday buyon tanqis bo'lganligi sababli, hayvonlarning quritilgan go'ng (*tappi*) lari yoqilmoqda, natijada bu kuchsizlangan yerga organik o'g'itlarning tanqisligi sezilmoqda. Daraxtlarning kamayib borishi tuproq eroziyasini keltirib chiqaradi va tuproq eroziyasi esa yerning unumdorligini pasaytirib yuborishga ta'sir etadi. Kam hosildorlik oqibatida notoza suvni qaynatish va taom tayyorlash uchun yetarli quritilgan go'ng, yog'och va yonilg'i topishi qiyinlashishi oqibatida aholi salomatligiga zarar yetadi. Sog'liqning yomonlashuvi sillani quritadi, kasallikka moyillikni oshiradi va nasl qoldirish sifati pasayadi. Tirik qolish uchun harakat uzoq muddatli maqsadlardan ustunroq turishi mumkin va bu och qolish va o'limdan uzoqlashishga olib keladi, o'rmonlar bu borada birinchilardan qurbon bo'ladi.

Milliy darajada qashshoqlik yuqori suratdagi qarzdorlikni keltirib chiqaradi. Bu qarzlarning to'lanishi oqibatida millatning xalqaro valyuta daromadlarini hisoblash qobiliyatini susaytiradi. Yuqori foiz to'lovlari davrida aksariyat daromadlar shu qarzlarni yopish uchun sarflanib ketadi. Qashshoqlikni yengillashtirish uchun importga sarflanishi kerak bo'ladigan mablag' qarzlarni va foiz to'lovlarini yopishga sarflanadi. "Qarz resurs gipoteza"ga muvofiq, rivojlanayotgan davlatlarning yirik qarzlari ularning tabiat tomonidan berilgan resurslarini xalqaro savdoni ko'tarish uchun sarflashiga undaydi. Yog'och eksporti bunga misol bo'la oladi. Bir necha izlanishlar bu taxminga amaliy hayrixoxlik bildirgan bo'lsada, barcha uchun bir dek emas. Tabiiy boyliklar, xususan o'rmonlar uchun bu gipotezani qo'llash ancha sust.

6. Barqaror o'rmonchilik

Biz yer egalari tomonidan qabul qilinadigan 3 turdagi qarorlarni tahlil qildik: hosilning yigib olishni qaror qilish; qayta ekish; qarorlarni o'zgartirish- bu odatda o'rmonlarni kesilib ketishiga sabab bo'ladi. Yuqoridagi 3 hollarda ham foydani maksimallashtiradigan qarorlar samarali bo'lishi mumkin emas va bu kamchiliklar ormonlarning samaradorligini oshirishga qaratilgan noto'g'ri tadbirlardan biri bo'lishi mumkin. Bu holatlar muammo va imkonyatlarni taqdim etadi. Hozirda o'rmonlarning kamayib borishi bu vaziyat taqozosi. Bu imkonyatlarni targ'ib qilish va amalga oshirish natijasida o'rmonlarning samaradorligi va barqarorligini keltirib chiqaradi.

Samaradorlikni qayta tiklash barqaror natijalarni kafolatlaydimi yo'qmi? Keling, o'rmon xo'jaligiga atrof-muhit barqarorligini qo'llab ko'ramiz. Ushbu tarifga ko'ra, o'rmonning havfsizligini taminlagan holda uning hosilini abadiy saqlash mumkin.

Shuningdek barqaror o'rmonchilik bilan cheklangan hosilni taminlash, o'rmon hajmining o'zgarishiga kam vaqt oshish tasir etmagan holda (yoki kamaymagan) bo'lishi kerak.

Samaradorlik barqaror o'rmonchilikning bu tarifi bilan birga bo'lishi shart emas.

Hozirgi qiymatni maksimallashtirish hosil kechikishidan qiymatni oshirish va hosildagi qurilish va daromad jamg'arish (keng vazifalari, investitsiya jamg'armasidagi foiz stavkasi) o'rtasida ochiq taqqoslashni olib borishi taqozo etadi.

Shuningdek, iqtisodiy barqaror bo'lgan o'rmonlarni qidirish natijasida yangi o'rmon modellarini ham bir ko'rib chiqishga olib keldi. Bu modellar tez rivojlanayotgan daraxt turlarini ekishni o'z ichiga oladi. Tez o'sadigan daraxt turlari investitsiya fondlari bilan qisqa vaqtda bog'lanib, iqtisodiy imkonyatlarini oshiradi. Plantatsiyalarda hosil turlarini kutarish va xarajatlarni kamaytirishni qayta rejalashturish kerak. Daraxtzirlar rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ikki sanoat: yoqilgi va o'tin sanoati uchun xizmat qiladi va turli maqsadlarda tashkil etildi

9. Qashshoqlik va qarzdorlik tabiiy resurslarga qanday ta'sir ko'rsatadi?
10. O'rmon resurslari qiymatlarini hisobga olish xususiyatlari nimada?

10-Mavzu: Qishloq xo'jaligida xarajatlar-foйда tahlili(6-soat).

1. Darsning maqsadi: Respublikamizda marketingni rivojlanishi to'g'risida ma'lumot berish, uning vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlarini o'rganish.

2. Darsning rejasi:

8. "Xarajat-foйда" tahlili.
9. Foydani baholash masalalari.
10. Xarajatlarni baholashda yondashuvlar
11. Havfni baholash.
12. Foyda va xarajatlarni taqsimlash - diskont stavkalarini tanlash.
13. Xarajat foyda tahlilini tanqidiy baholash.
14. Iqlim o'zgarishi oqibatlarini iqtisodiy modellashtirish.

3. Identiv o'quv maqsadlari: mamlakatimizda marketingning asosiy rivojlanish bosqichlarini o'rganish.

4. Kerakli jixoz, material va vositalar: proyektor, kompyuter, kalkulyator.

5. Darsning ta'minoti:

1. Abirqulov Q.N., Rafiqov A., Hojimatov A.N. Tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti. – O'quv qo'llanma. – T.: Yozuvchilar uyushmasi, 2007. – 128 b.
2. Jumayev T. Ekologiya iqtisodiyoti. – darslik. – T.: Yozuvchilar uyushmasi, 2007. – 280 b.
3. Лукьяников Н.Н., Потравин И.М. Экономика и организация природопользования. – М.: Тройка, 2000.
4. Rafiqov A.A., Abirqulov Q.N. Tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti. –O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2004.
5. S.Ch. Djalolov, M.S. Mirzayeva, S.S.Mirzayev . Atrof muxit va resurslar iqtisodiyoti.O'quv qo'llanma. T., 2009, 200 b.
6. Агапов Н.Н., Шевчук А.В. Экономика природопользования и охраны окружающей среды. – М.: Классика плюс, 1999.
7. Кэмпбелл Р. Макконнелл, Стэнли Л. Брю. Экономикс, 2 том. 1993. 420 с
8. Tietenberg, T., Lewis, L. (2012) *Environmental & Natural Resource Economics* 9th Edition.

7. Darsning borishi.

1. Tinglovchilar bilan salomlashiladi, Tinglovchilar davomati tekshiriladi.
2. Tinglovchilarga ushbu mavzu bo'yicha to'planishi lozim bo'lgan reyting ballari va reyting xaritasi tushuntiriladi.
3. Amaliy mashg'ulot uchun berilgan masalalar bajariladi.
4. Tinglovchilar bilan ma'ruzada mavzuning nihoyasiga yetmay qolgan qismi yuzasidan muhokama olib borish.
5. Tinglovchilar uyda bajarish lozim bo'lgan topshiriqlarni bajarish.

7. Tinglovchilarga mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:

1- Topshiriq. Quyidagi keys bo'yicha holatni tahlil qiling.

Diskontlash - vaqt va pul.

Ko'p odamlar uchun, diskontlash bo'lg'usi qiymatlar adolatsiz va ixtiyoriy hisoblanadi. Biroq diskontlashsiz, o'zaro-vaqtinchalik qarorlar qabul qilish qiyin bo'ladi. Vaqt afzalligi deb ataladigan diskontlash natijalari uchun asos bo'ladi. Masalan inflyatsiya yo'q deb olaylik. Ko'p odamlar bugun 1000\$ olishga yoki 1000\$ ni bir yil keyin olish uchun befarq emas; ular kechroq olishdan ko'ra tezroq olishni afzal ko'rishadi. Ammo hozir 1000\$ dollarga ega bo'lish yoki keying yili 1500\$ olish kerakmi? Ko'pchiligimiz keying yilgi tanlovni afzal ko'ramiz. Ammo balki bu yerda 1000\$ va 1500\$ orasidagi $1000(1+r)$ qiymatidagi pul hozir 1000\$ mi yoki bir yildan keyin $1000(1+r)$ ga ega bo'lish bizni befarq qiladi.

r soni ikki variantni qoplaydigan ekvivalent vaqt afzalligi darajasini bildiradi. Bu tirli vaqt nuqtalarida xarajat va foydani o'sishini taqqoslash uchun foydalaniladigan har qanday discount darajasini fundamental tarkibiy qismi hisoblanadi. Agar $r=0.025(2.5\%)$ bo'lsa, u holda biz hozirgi 1000\$ ni kelgusi yilga 1025\$ deb qaraymiz va 1000\$ kelgusi yili $1000/(1+r)$ ga teng, hozirda taxminan 976\$.

Bu koseptsiya har qanday uzunlikdagi vaqt oralig'ida oson uzaytirilishi mumkin. 1000\$ ning hozirgi qiymati 2 yildan keyin $1000/(1+r)^2$ ga teng va hokazo. Agar loyiha hozirda bir va uch yildan keyin mos ravishda 1000, 100 va 200 xarajatni talab qilsa, u holda ular xarajatlarning diskontlangan summasi $1000+100/(1+r)+200/(1+r)^3$ ga teng. Agar bu invertorni mos ravishda birinchi yili, ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi yillarda 300\$, 400\$, 400\$ va 300\$ foyda bilan ta'minlasa, ular foydasining diskontlangan summasi $300/(1+r)+400/(1+r)^2+400/(1+r)^3+300/(1+r)^4$ ga teng. Sof hozirgi qiymat NPV- xarajat-foyda tahlilidagi asosiy tushuncha bo'lib, jami xarajatlarning diskontlandan jami foydalari o'rtasidagi farqdir.

r ni o'rnini bosuvchi 2.5% ko'rib chiqish yuqoridagi misolda oson va $NPV=33.35\$$. Xarajatlarni daromadlardan umuman ayirib tashlash, 100\$ farqni beradi. Bu NPV ni 0 diskont stavka

bilan talqin qilinishini bildiradi. Bundan ijobiy daraja bilan diskontlash loyiha qiymatini qisqartiradi. Bu misolni 5 % diskont stavka bilan qayta ishlab chiqish salbiy NPV ga olib keladi.

2-Topshiriq. Quyidagi holatni o`qing va o`z xulosalaringizni yozing.

Xarajat samaradorligi va ta`sir tahlili-Qibray elektrostantsiyasi.

Hatto daromadlar hisoblash uchun qiyin yoki imkoni bo`lmasa ham, iqtisodiy tahlilda ko`p takliflar bor. Siyosatchilar bilishlari kerak, masalan, turli siyosat faoliyatlari qancha turadi va ularning jamiyatga ta`siri qancha, hattoki agar samarali strategiyani tanlash ishinchlilik bilan aniqlanmasada. Xarajat samaradorligi va ta`sir tahlili ikkalasi bunga javob beradi, turli yo`llar bilan bo`lsa ham.

O'zbekistondagi eng yirik issiqlik elektr stantsiyalaridan biri yonuvchi yoqilg'i iste'molini kamaytirish va atrof-muhitga oqizilgan yomon chiqindilari miqdorini kamaytirish maqsadida rekonstruksiya qilinmoqda. Toshkent issiqlik elektrostantsiyasi 1963 yilda tashkil etilgan. Elektrostansiya poytaxtdan 15 kilometr shimoliy-sharqida, Qibray tumanida joylashgan.

Uning nominal kuchi 1860 MW. Stantsiyaning asosiy uskunalari har birining quvvati 155 MVt 12 ta kondensatorli birliklardan iborat. Asosiy yoqilg'i umumiy yoqilg'i 85 foizini tashkil etuvchi tabiiy gazdan iborat. Yoqilg'i-moy zahiralardan biri bo'lib, 15 foizni tashkil etadi. Toshkent issiqlik elektrostantsiyasi ko'p yillar davomida poytaxtni energetika bilan ta'minlab keladi.

Kondensator birliklarining foydalanish muddati 40-48 yil. Bugungi kunda biz yonilg'idan energiyaga o'tishni kamaytirishga rioya qilmoqdamiz. Bunda yana ishlatilayotgan yonilg'i sarfi eskirgan texnikalar tufayli oshib bormoqda. Shuning uchun bu holat atrof-muhitga ta`sir qilmoqda: elektrostansiya faoliyati atmosferani ifloslanishiga va chiqindilarni Bo`zsuv kanaliga tashlanishiga sabab bo'lmoqda.

Shu yillar davomida elektr energiyasiga ehtiyoj shahr rivojlanishiga proporsional tarzda oshib bormoqda, eski texnologiyalar yangisi bilan almashmoqda va atrof-muhitni himoya qilish talab qilinmoqda. Shu holatdan kelib chiqib Toshkent issiqlik elektrostantsiyasini rekonstruksiya qilish bugungi kunning zaruriyatidir.

Tadqiqotlarimizda bunga va Jamoat fikri natijalariga e'tibor qaratish natijasida, O'zbekenergo rekonstruksiya ishlarini boshlashga qaror qildi. O'zbekenergo samaraliroq va zamonaviy uskunalarni o'rnatishni rejalashtirdi, bu samaradorligi past va CO₂ ning atmosferaga chiqishi muammosini hal etadi.

3-Topshiriq. Quyidagi holat bo`yicha o`z fikr-mulohazalaringizni bering.

Iqlim o`zgarishi iqtisodiyoti-diskont stavkalarini tanlashda Stern sharxi.

Stern sharxi 2006 yilda Nikolas Stern tomonidan Britaniya hukumati uchun tayyorlangan 700 betdan iborat hisobot. U London Iqtisodiyot maktabi va shu bilan birga Lids Universitetidagi Iqlim o`zgarishi iqtisodiyoti va siyosati markazi (CCCEP) rahbari. Hisobotda jahon iqtisodiga global isishning ta`siri muhokama qilingan. Bu shunga o'xshash hisobotlar orasida eng katta va dunyoga mashhur muhokama qilingan hisobot.

Hisobot iqlim o`zgarishi ta`siri oqibatlarini va uning iqtisodiy qiymati, shu bilan birga xarajatlar va tavakkalchiliklarni baholash uchun turli xil usullar keng miqyosda baholanadi. Bu barcha istiqbollardan, yig'ilgan ma'lumotlar oddiy xulosaga olib keladi: qat'iy va vaqtida boshlangan faoliyat foydasi, jim turishlik iqtisodiy xarajatidan muhim. Iqlim o`zgarishi dunyodagi odamlar uchun hayotning asosiy elementlariga ta`sir qiladi- suv, oziq-ovqat ishlab chiqarish, sog'liqni saqlash va atrof-muhit. Yuz millionlab odamlar ochlik, suv tanqisligi va qirg'oqlar toshishi, dunyoning isishidan aziyat chekishi mumkin.

Keyingi 10-20 yil ichida amalga oshirilgan investitsiyalarkelgusida va asrimizning ikkinchi yarmida juda katta samara beradi. Bizning hozirgi va kelgusi o'n yillikdagi 20 asrning birinchi yarmidagi iqtisodiy uzilish va katta urushlar bilan bog'liq harakatlarimiz iqtisodiy va iqtisodiy faoliyatimiz buzilishiga havf yaratadi. Va bu o`zgarishlarni oldini olish qiyin yoki ilojsiz bo'ladi.

Diskont stavkasini baholash ish jarayonida asosiy qiyinchilikni keltirib chiqaradi. Intuitiv ravishda tushunarliki, sof vaqt diskont stavkasi oshishi avvalgi yo`qotishlarni hisoblaydi, chunki kelajak kamroq muhimday ko`rinadi. Mualliflar shuni muhokama qilishadiki, istiqbolning mavhumlashishning entik yoki ehtimolligidan hatto sof vaqt diskont stavkasi 0.5% bo`lgan juda yuqori bu vaziyatda e`tibor berishi kerak.

Uzoq vaqt davomida oqibatlarni baholash muhimligi muammosi shundaki, kelajak avlod bu muhokamalarda to`liq tanishtirilmagan. Bu yuqorida keltirilgan sof vaqt afsalligidan savolga kelgusi iste`molni “diskontlash” uchun ikkinchi asosiy muammoni ilgari suradi. Hisobotda oddiy yondashuv mavjud: agar kelgusi avlod tanishtirilsa, biz faraz qilamizki, bu mavjud etnik munosabatda shunga o`xshash talab qiladi.

Yanda bir qiyinchilik faqatgina bir diskont stavkadan foydalanishning umuman imkoni yo`q. Ko`p mahsulotlar bilan va ko`p uy xo`jaliklari bilan bu yerda ko`pgina diskont stavkalar bo`lishi mumkin. Masalan, odatdagi iste`mol o`sayotgan bo`lsa, ammo atrof-muhit yomonlashayotgan bo`lsa, u holda bir guruhning iste`mol uchun diskont stavkasi o`sayotgan ammo boshqasini pasayotgan bo`ladi va diskont stavkasi avvalgisi uchun ijobiy boshqasi uchun salbiy bo`ladi.

Tahlil shuni tavsiflaydiki, hisobotdagi qabul qilingan me`yorlar bilan muhokama qilish, iqlim o`zgarishining kontekstida loyiha va strategiyalarni baholash uchun nazariy asos sifatida standart farofonlik asosi juda yuqori darajada muhim bo`lib ko`rinishi mumkin. Biroq, xarajat-foyda tahlilida tez-tez foydalaniladigan metodlaridan bu nazariyaning oqibatlari judayam farq qiladi. Misol uchun bir o`zgarimas diskont stavka uzoq davrda, global chegaralb bo`lmaydigan iqlim o`zgarishlarini taqsimlash uchun umuman qabul qilib bo`lmaydigan bo`lishi mumkin.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. “Xarajat-foyda” tahlilining afzalliklari va kamchiliklari nimada?
2. Foydani baholashda qaysi omillar ko`proq hisobga olinadi?
3. Harajatlarni baholashda qaysi usullar ko`proq qo`llaniladi?
4. Foyda va xarajatlarni taqsimlashda qanday diskont stavkalarni tanlash lozim?

TARQATMA MATERIALLAR

1-Mavzu: Iqtisodiyotni modernizasiya qilish sharoitida resurslarni barqaror boshqarishning nazariy asoslari(6-soat).

1-slayd

Inson - tirik organizmlar turkumiga kiruvchi murakkab ijtimoiy va mehnat faoliyatini yurgazuvchi individ. Inson tarixiy - jamoat jarayoni subyekti bo`lib, u Yer kurrasidagi moddiy va ma'naviy-madaniy rivojlanishning asoschisidir. Inson boshqa turdagi tirik mavjudotlar bilan genetik bog`langan holatda, lekin ulardan ongining yuqoriligi, mehnat qurollarini ishlab chiqara olishi, nutqning rivojlanganligi, ijodiy faolligi, hamda ahloqiy, ma'naviy va ruhiy o`z o`zini anglay olishi bilan ajralib turadi.

2-slayd

Jamiyat - keng ma'noda insonlarning tarixan qaror topgan birgalikdagi faoliyatlari majmui yoki tor ma'noda - ijtimoiy munosabatlarning konkret tipi. Shunday qilib, aqliy mehnat faoliyatiga ega bo`lgan insonlar yig`indisi bo`lgan jamiyat atrof tabiiy muhit bilan passiv (sust) emas, balkim aktiv (faol) ta'sir doirasida bo`lishi mukarrardir.

3-slayd

Yer, suv, havo, olovni asrash qoidalarini buzgan kishi 400 qamchi jazosiga mahkumdir. Lekin bu kitobda ekologik jazo sifatida bir turdagi tabiiy obyektini buzgani uchun ikkinchi bir turdagi tabiiy obyektidan qutilishni ham me'yor qilib qo`yganlar. Suvni iflos qilgan yoki ov itini o`ldirgan kishi 10 ming ruhiatni tetiklashtiradigan o`simlik bargi terishi, 1000 echkiemar, 1000 ta suv qo`ng`izi va kasallik tarqatuvchi pashshani o`ldirib, gunohini yuvishi lozim bo`lgan.

4-slayd

Tabiiy resurslar kamayishi - kishilarning xo`jalik va boshqa hayotiy faoliyati manbai bo`lgan tabiiy obyektlarni yo`qola borishidir. Mutaxassislarining ma'lumotlariga ko`ra "inson sivilizatsiyasi" davrida, to`g`rirog`i iqtisodiy madaniyatlashgan kishilarni izchil faoliyati davrida Yer kurrasidagi o`rmonlarning 2H3 qismi kesilib ketdi, 250 xil turdagi hayvon va o`simliklar yo`q bo`lib ketdi, 3-4 mlrd. gektar yer qishloq xo`jalik oborotidan chiqazib yuborildi, atmosfera havosidagi kislorodning zahirasi 10 mlrd.tonna kamaydi.

5-slayd

TABIIY RESURSLAR: tushunchasini ta'riflashdan oldin, bu tushunchani ko'pchilik mualliflar tomonidan turlicha talqin qilinishi haqida aytib o'tish kerak. Akademik I.P.Gerasimov bilan professor D.A.Armond tabiiy resurslarga eng to`liq ta'rif beradilar. «Tabiiy resurslar kishilar bevosita tabiatdan oladigan va ularning yashashlari uchun zarur bo`lgan xilma-xil vositalardir».

6-slayd

Bugungi kunda tabiat-jamiyat tizimidagi ijtimoiy munosabatlar uchta qo`yidagi asosiy yo`nalishlarda paydo bo`ladi:

4. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bilan bog`liq ekologik huquqiy munosabatlar;
5. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bilan bog`liq ekologik huquqiy munosabatlar;

6. Aholining ekologik havfsizligini ta'minlash bog'liq ekologik huquqiy munosabatlar;

7-slayd

Bugungi kunda mazkur sohadagi munosabatlarning huquqiy asoslari yaratilgan bo'lib, ular «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi, «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi, «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida»gi, «O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi, «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi, «Chiqindilar to'g'risida»gi, «Ekologik ekspertiza to'g'risida»gi, «Ekologik nazorat to'g'risida»gi kabi 30 dan ziyod qonunlar bilan tartibga solib kelinmoqda.

8-slayd

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan mazkur sohadagi qonunlarning talablari, shuningdek, hukumatimizning 27-may 2013-yilda tasdiqlangan «2013-2017-yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit muhofazasi bo'yicha harakatlar dasturi» asosida bir qator ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, «Ekologik nazorat to'g'risida»gi qonunning ijrosini samarali amalga oshirish maqsadida bir qator qonunosti hujjatlari, jumladan, «Davlat ekologik nazoratini amalga oshirish tartibi haqidagi nizom», «Ekologik xizmat to'g'risidagi namunaviy nizom», «Ekologik nazoratning jamoatchi inspektori to'g'risidagi nizom», «Jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi Namunaviy nizom»lari ishlab chiqildi va tegishli tartibda tasdiqlandi.

9-slayd

Agrar soha respublika iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlaridan bir bo'lib qolmoqda va O'zbekiston yalpi ichki mahsulotining asosiy qismini yaratuvchi tarmoqlarning faoliyati mazkur sohaga bog'liqdir. Qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan tarkibiy o'zgarishlar ishlab chiqarishni xususiy sektorda ishlab chiqarilishiga olib keldi.

3-Mavzu: Tabiiy resurslarni iqtisodiy baholash va barqaror boshqarish mexanizmlari(8-soat).

1-slayd

Tabiiy muhitni muhofaza qilish va qulay ekologik vaziyatlarni barqarorlashtirish, resurslardan oqilona foydalanish tamoyiliga amal qilishda boylklarni iqtisodiy baholash va tabiat xizmatlarining aniq qiymatiga ega bo'lishi beqiyos darajada katta ahamiyatga ega. Tabiiy muhitning jamiyat uchun bir necha vazifalari mavjud: 1. Tabiiy resurslar bilan ta'minlash; 2. O'z-o'zini tozalash va qayta tiklash; 3. Inson uchun qulay tabiiy xizmatlarni bajarish chunonchi, rekreasiya (dam olish, sog'liqni tiklash va boshqalar); 4. Estetik zavq olish, tabiatdan muruvvat va saxiylikni o'rganish. Bularning barchasi birgina bosh vazifa, ya'ni insonga hayot bag'ishlash deb ta'riflash mumkin.

2-slayd


Tabiiy resurslarni qazib olish, ularni qayta ishlash korxonalariga tashish va tayyor mahsulot chiqarish, jarayonlarida ko'plab qismi isrof bo'ladi, yo'qoladi, to'kiladi. Ochiq usulda qazib olinayotgan ko'mirning yo'qolishi 3-8 % dan 10-12 % gacha boradi, shaxta usulida qazib olingan ko'mirning yo'qolishi o'rtacha 20-40 %, qora va rangli metallar rudasining yo'qolishi o'rtacha 15-25 %, tog'-kimyo xomashyosiniki esa 20-60% ga boradi. Ushbu boylklarning narxi ma'lum bo'lgan holda iqtisodiy hisob-kitob qilinganda katta iqtisodiy zarar keltirayotgani o'z-o'zidan ma'lum bo'ladi.

Tabiiy resurslar mamlakatning milliy boyligi hisoblanadi. Lekin buning uchun ular to'liq baholangan bo'lishi lozim, ya'ni qiymatga ega bo'lishi kerak. O'zbekistonda faqat mineral-xomashyo boyliklari hisob-kitob qilingan bo'lib, ularning potentsiali 3,3 trln. AQSh dollaridan ortiqroq baholanmoqda. Shundan 1 trln dollari neftga va gazga to'g'ri keladi.

Sho'rlangan tuproqlarda olinayotgan paxta, poliz, sholi ekinlari hosildorligi eng kamligi (pata hosildorligi 5-12 s, sholi 10-15 s), sho'rlanmagan tuproqlarda esa eng ko'pligi (paxta o'rtacha gektariga 30-40 s, sholi 50-70 s) bilan tavsiflangan holda tabaqalashgan renta narxi ham yuqriligi bilan farqlanadi.

Tabiiy resurslarni baholashda **sarflash (xarjlash)** yondashuvi ham foydalaniladi. Tabiiy boyliklarni tayyorlash va foydalanish uchun sarf-xarajatlarni jamlash bilan hosil bo'lgan qiymatning resursni baholash uchun boshlang'ich nuqta deb qarash mumkin. Bu yondashuv tabiiy boyliklarning kamayishi, buzilishi va sifatini yo'qotishida qayta tiklash qiymatini baholashdan foydalaniladi. Bu holda ma'lum joyda tabiiy resursning yo'qolishi yoki buzilishini tiklovchi tadbirlarga qilingan sarf-harajatlar hisob-kitob qilinib, ma'lum baho aniqlanadi.

Muqobil qiymat (boy berilgan foyda) baholash konsepsiyasi iqtisodiyotda keng qo'llaniladi. Tabiatdan foydalanishni iqtisodiy baholash, bu baholashni yondashuvning ko'p sohalarida qo'llash mumkin. Tabiatda resurslar barcha hududlarda ham turli darajadagi mahsuldorlikka ega, ba'zan mahsuldorlik umuman bo'lmasligi ham mumkin, masalanbarxan qumlari, harakatdagi qum uyumlari yaylov jihatdan nol mahsuldorlikka ega, o'ta sho'r sho'rxoklar ham xuddi shunday tavsiflanadi.



1-chizma. O'rmon resurslari uchun umumiy iqtisodiy baholash (qiymat) ning tuzilma ko'rsatkichlari.

4-Mavzu: Yer-suv resurslaridan samarali foydalanish(8-soat).

1-slayd

Tabiat boyliklari orasida suv alohida o`rin tutadi. Chunki barcha tirik jonzoqlar hayotining asosiy manbai suvdur. Suvsiz hayot bo`lishi mumkin emas. Hattoki ota bobolarimiz suvni toza saqlashga, undan oqilona foydalanishga alohida e'tibor berganlar. Shuning uchun ham ular "Suv zar - suvchi zargar", "Suv uchun kurash - hayot uchun kurash", deb bejiz aytishmagan. Demak, planetamizda suv paydo bo`lganidan keyingina hayot paydo bo`lgan.

2-slayd

Peruda "Suv xudosi" ibodatxonasi topilgan. Unda fontan va kanallar bo`lgan, ular ibodatxona yaqinidagi sharshara suvi bilan to`ldirilgan. Afinada esa eramizdan oldingi VI asrdayoq quduq suvidan foydalanish tartibini belgilaydigan qonun chiqarilgan.

Yunonlar o`z davrida Feodesiyada, Kerchda, Yevpatoriyada ajoyib vodoprovod qurganlar. Qadimgi Misrda fir'avnlr davrida parmalab qovlangan quduqlar mavjud bo`lgan.

3-slayd

O`zbekiston Respublikasining 1993 yil 6 mayda qabul qilingan "Suv va suvdan foydalanish to`g`risida"gi qonunning 3-moddasiga asosan, "Suv O`zbekiston Respublikasining davlat mulki - umummilliy boylik hisoblanadi, suvdan oqilona foydalanish lozim bo`lib, u davlat tomonidan qo`riqlanadi."

4-slayd

Suv resurslarini huquqiy ekologik jihatdan muhofaza qilish O`zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to`g`risida"gi Qonunning XXIV bobi, 97-102 moddalarida ko`rsatilgan.

5-slayd

Hozirgi sharoitda suvlarni ifloslantirish asosan chiqit va chiqindilarni befarqlik oqibatida tashlash, oqizish natijasida bo`lmoqda. Ayni, mana shu muammo ushbu qonunning 99-moddasida ifodalangan. Korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va fuqarolarga quyidagilar taqiqlanadi:

- ishlab chiqarish chiqitlari, maishiy va boshqa xil chiqitlar hamda chiqindilarni suv obyektlariga tashlash;

- moylarning, yog`ochlarning, kimyoviy va neft mahsulotlarining hamchda boshqa mahsulotlarning to`kilib-sochilishi natijasida suvni bo`lg`atish va ifloslantirish;

- suv havzalarining yuzi, suv havzalarini qoplab turgan yaxlar va muzliklarning yuzasi, sanoat chiqitlari, maishiy chiqindi va boshqa tashlandiq chiqitlar, shuningdek, yer usti va yer osti suvlarning sifatini yomonlashtirib yuboradigan neft va kimyoviy mahsulotlar bilan bulg`atish va ifloslantirish;

- suvni o`g`itlar va zaharli ximikatlar bilan bulg`atish.

6-slayd

Sanitariya maishiy suv ta'minotidan foydalanadigan rayonlarda sanitariya muhofaza zonasi yaratish zarur. Bunday hollarda sanitariya nazorati organlari va shu territoriyadagi suvdan foydalanishni va muhofaza qilishni boshqaradigan organlarga quyidagi hajmda yer ajratiladi:

- ochiq suv havzalari uchun 100 m. Suvning ikkala qirg'og'iga inspektorlik yo'llari qilinadi, ko'kalamzorlashtiriladi, shahar doirasida esa qirg'oqlar qo'shimcha ravishda obod qilinadi;
- o'zanli va suv quyilib turadigan suv ombori uchun 300 m chor atrofi muhofaza qilinadi;
- artezian quduq uchun foydalaniladigan ayrim quduqlar, buloqlar va chashmalar yoki yer osti suvlari usti 30 m radiusda suvga chidamli materiallar bilan tom qilib, yopiladi, maydoni kamida 0,25 ga bo'ladi;
- ayrim quduqlar uchun yer osti suvi yoki infiltratsion suvdan foydalanganda 30 m radiusda usti yopiladi, maydoni kamida 0,75 ga bo'ladi.

7-slayd

O'zbekiston Respublikasining Yer Kodeksiga ko'ra (8-modda) mamlakatimizda yer fondi yerlardan foydalanishning belgilangan asosiy maqsadiga binoan quyidagi toifalarga bo'linadi: 1) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar; 2) aholi punktlarining (shaharlar, posyolkalar va qishloq aholi punktlarining) yerlari; 3) sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar; 4) tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar; 5) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar; 6) o'rmon fondi yerlari; 7) suv fondi yerlari; va 8) zahira yerlar.

8-slayd

Transport maqsadlariga mo'ljallangan yerlar deb Temir yo'l, Ichki suv transporti, avtomobil, havo va truboprovod transporti korxonalarini, muassasalari va tashkilotlariga transport inshootlari, qurilmalari va boshqa obyektlaridan foydalanish, saqlash, qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash, takomillashtirish va rivojlantirish sohasida ular zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun doimiy foydalanishga berilgan yerlarga aytiladi.

9-slayd

Yer Kodeksining 71-moddasida ko'rsatilishicha, alohida muhofaza etiladigan hududlarning yerlari jumlasiga, birinchidan, tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga mo'ljallangan yerlar; ikkinchidan, sog'lomlashtirish maqsadlariga mo'ljallangan yerlar; uchinchidan, rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar; to'rtinchidan, tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar kiradi.

10-slayd

Tuproq boniteti klasslarining mezoni.

Bonitet klassi	Bonitet bali	Tuproqning sifatli tavsifi
8-10	91- 100 81-90 71-80	Yaxshi

5-7	61-70 51-60 41-50	O'rta
2-4	31-40 21-30 11-20	Yomon
1	1-10	Dexqonchilikda foydalanilmaydi

5-Mavzu: Biologik resurslardan foydalanish va ulardan muhofaza qilish (6-soat).

1-slayd

Bioxilma-xillik o'z ichiga quyidagilarni oladi.

1. Genetik xilma xillik;
2. Turlar xilma-xilligi;
3. Ekotizimlarning xilma-xilligi.

Genetik xilma-xillik - Yer sayyorasidagi tarqalgan organizmlarning genetik axborot hajmini o'z ichiga oladi.

2-slayd

Yerdagi taksonomik jihatdan aniqlangan turlarning soni 13 millionga yaqindir. Hozirgi paytgacha, Yer yuzida 1,75 million turlar aniqlangan bo'lib, ulardan 750000 - hasharotlar, 41000 - umurtqali hayvonlar, 250000 – o'simliklar tashkil etadi. Qolgan turlar-murakkab tarkibdagi umurtqasiz hayvonlar, suv o'tlari, mikroorganizmlar va boshqa organizmlardan iborat. Hozirgi kunda biz ko'rayotgan bioxilma-xillik Yerdagi tashqi va ichki tabiiy jarayonlar natijasida yuz million yillar davomida kechgan murakkab evolyutsiya jarayonining natijasi va hosilasidir.

3-slayd

1992- yil Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida o'tkazilgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Atrof-muhit va rivojlanish" bo'yicha Xalqaro anjumanida "Biologik xilma-xillik to'g'risida Konvensiya" qabul qilingan. Bioxilma-xillik to'g'risida Konvensiyaning maqsadi sayyoramizda bioxilma-xillikni saqlash, uning tarkibiy qismlaridan va genetik resurslaridan barqaror, adolatli va teng foydalanishdir.

4-slayd

o'simliklar va hayvonot olamini muhofaza qilish, bioxilma-xillikni saqlashda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tarmog'i katta ahamiyatga ega. Respublikamizda umumiy maydoni 2164 km² dan iborat bo'lgan 9 ta davlat qo'riqxonasi, umumiy maydoni 6061 km² bo'lgan 2 ta milliy bog', maydoni 12186,5 km² bo'lgan 9 ta davlat buyurtmaxonasi va noyob hayvon turlarini ko'paytirish bo'yicha respublika «Jayron» ekomarkazi hamda «Sayxun» parvarishxonasi mavjud.

5-slayd

«Botanika» ilmiy ishlab chiqarish markazi olimlarining tadqiqotlari o'z samarasini berayapti. Keyingi yillarda viloyatlarda olib borilgan ilmiy izlanishlarimiz tufayli ba'zi yo'qolib borayotgan

o'simliklarimiz turi ko'paydi va areallari kengaydi. Masalan, Korolkov za'faroni, Noksimon normushk, Suvorov piyoz, Anzur piyoz.

6-slayd

Fauna — bioxilma-xillikning muhim bo'g'ini. O'zbekiston hayvonot olami juda qadimiy hamda o'ta murakkab genetik rishtalar orqali o'zaro bog'langan. Hududimizda Yevroosiyo cho'llari, Hindi-Xitoydan, O'rta Yer dengizi atroflaridan kirib kelgan guruhlarining ham muayyan o'rni bor. Hududimiz faunasida umurtqali hayvonlarning 677 turi (sut emizuvchilar — 108, qushlar 432, sudralib yuruvchilar 58, amfibiyalar — (suvda va quruqlikda yashovchi) 2, baliqlar 77 turi mavjud. Faunaning har bir turi — tarixan takrorlanmas, genetik.

7-slayd

Umumjahon atrof-muhit kunini nishonlash to'g'risida 1972 -yilda Stokgol'm shahrida BMTning atrof-muhitga bag'ishlangan Konferensiyasida qaror qabul qilingan edi. Ushbu qarorning maqsadi - xalqaro hamjamiyatning e'tiborini atrof-muhit muhofazasi muammolariga hamda global ekologik inqirozning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni qabul qilishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza hilish davlat qo'mitasi "Barkamol avlod yili" Davlat dasturining ijrosi yuzasidan hamda ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mahsadida, joriy yilning 5 iyun-kuni Umumjahon atrof-muhit kuniga bag'ishlangan bayram tadbirini tashkil etayapti.

8-slayd

Islom Karimov o'zining «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» asarida bu ayanchli vaziyat haqida shunday ta'kidlagan edi: «O'zbekiston kishi boshiga yalpi ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha mamlakatda 12-o'rinni egallab turibdi, aholi jon boshiga milliy daromad ishlab chiqarish bo'yicha esa ittifoqdagi o'rtacha darajadan ikki hissa past». Bu davrda sanoatdagi mehnat unumdorligi jihatidan O'zbekiston o'rtacha ittifoq ko'rsatkichidan 40 foiz, qishloq xo'jaligidagi mehnat unumdorligi jihatidan esa ikki barobar orqada edi. Respublika aholi jon boshiga xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish bo'yicha ittifoq darajasining 40 foizini tashkil etardi. Qisqasi, mamlakat xo'jaligining amal qilib kelgan tarkibi ekstensiv rivojlanish mahsuli edi.

9-slayd

Yerning biologik resurslarini biologik "tirik" organizmlar ya'ni, o'simlik va hayvonlar tashkil etadi. Tiriklikning asosiy belgilari organizmlarning nafas olishi, oziqlanishi, o'sishi, rivojlanishi, ko'payishi, harakatlanishi kabilardir.

10-slayd

Jahon o'rmon resurslari 2ta ko'rsatkich bilan ifodalanadi:

1. Egallagan maydoni (jahondagi barcha o'rmonzorlar 4,2mlrd ga ni tashkil etadi yoki 40 mln. km² ya'ni jahon yer fondini 30% ini tashkil etadi).
2. Yog'och zaxirasi bilan (jami yog'och zaxirasi 350mlrd m³), yog'ochning sifatiga ko'ra. Doim o'sib turganligi sababli yog'och zaxirasi har yili 5,5mlrd m³ ko'payadi. Shunday ekan, kelajakda yog'och muammosi bo'lmaydigandek tuyuladi. Aslida unday emas. Chunki yog'och qadimdan qurilish va ishlov berish material sifatida foydalanib kelingan va hozirda ham ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Chunki yog'ochdan XIX-asrning o'rtalarida 4,5-5 ming xil mahsulot olingan bo'lsa, hozirda 20 ming xil mahsulot ishlanadi. Hozirgi vaqtda ham yog'ochga talab doimiy oshib bormoqda.

6-Mavzu: Mineral xom-ashyo resurslardan foydalanish va ularni muhofaza qilish(6-soat).

1-salyd

Ishlab chiqarish kuchlarining tezkorlik bilan taraqqiy qilayotganligi sanoatni ko'plab Mineral xom-ashyo bilan uzluksiz ta'minlashni taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida Yer qa'ridan ko'plab foydali qazilma boyliklarni qazib olishga undaydi. Qattiq foydali qazilmalar konlarda turli chuqurlikda joylashganligi tufayli ularni qazib olish jaryonida ko'plab bo'sh tog' jinslarini Yer betiga chiqarish lozim. Buning ustiga rudalarda kerakli foydali ma'dan juda oz qismni tashkil qilishi mumkin (o'rtacha 0,1% dan 10% gacha). Binobarin, ko'plab bo'sh tog' jinslari konlar atrofida to'planib boradi. 90-yillarda dunyo bo'yicha yiliga qariyb 150 mlrd.. t. tog' jinslari qazib olingan, shundan 20 mlrd.. t. si foydali qazilma bo'lgan. Bu raqam XXI boshlariga kelib 4-6 marta ko'payishi taxmin qilinmoqda.

2-salyd

Bir qator muhim foydali qazilmalar, chunonchi, oltin, uran, mis, tabiiy gaz, kaliy tuzlari, fosforidlar, kaolin bo'yicha O'zbekiston zahiralarning ko'pligi va istiqbolda foydalanish bo'yicha nafaqat MDH mamlakatlari balki, jahonda oldingi o'rinlarni egallaydi. Masalan, oltin zahiralari bo'yicha dunyoda 4- o'rinni, qazib olish bo'yicha esa 7-o'rinni egallaydi, mis bo'yicha 10-11-o'rinni, uran bo'yicha esa 7-8-o'rinni egallaydi (Karimov, 1997). Tabiiy gazning umumiy zahirasi qariyb 2 trln. m³, ko'mirniki 2 mlrd.. t. dan ziyodroq. Mutaxassislarining dastlabki baholash natijalariga ko'ra mamlakat hududining taxminan 60% qismi neft va gaz zahiralari bilan band.

3-slayd

O'zbekistonda 20 dan ortiq ko'mir konlari va ko'mirli havzalar aniqlangan. Ko'mirning sanoat zahiralari Angren, Sharg'un va Boysun konlarida joylashgan. Boysun (jami zahirasi taxminan 150 mln.. t.) konida ochiq usulda tosh ko'mir qazib olish boshlangan. G'uzor-Qumqo'rg'on temir yo'lini ishga tushirilishi bilan bu kondan ko'plab ko'mir olish mumkin bo'ladi.

4-slayd

Mineral xom ashyo resurslari jonsiz tabiat resurslari bo'lib, ulardan konstruksiya materiallari, kimyoviy qo'shilmalar, o'g'itlar, har xil buyumlar, qurulish materiallari, asbob uskunalar, yoqilg'i kabi xalq xo'jaligida ishlatilayotgan mahsulotlar ishlab chiqariladi. Bu resurslar qayta tiklanmaydigan resurslarga kiradi, yo'qolib ketmaydi va shu bilan birga o'zining xususiyatlarini ham o'zgartirmaydi. Geologik va xo'jalik modda aylanishida esa o'z shakllarini va joylarini o'zgartiradi. Litosfera va qisman gidrosfera mineral xom ashyo resurslarini manbai bo'lib xizmat qiladi.

5-slayd

Kimyo va agrokimyo xom ashyolari orasida eng asosiy o'rin tutuvchi xom ashyolar bu - oltingugurt, tuz, fosforit, apatit, shpatlardir. Oltingugurtdan oltingugurt kislotasi, tosh tuzidan tuzli kislota, tuzlarni olishadi. Texnik va olovga bardoshli xom ashyolarga grafit, pyesokvarts, asbest, magnezit, slyuda, texnik olmos va loylar kiradi. Ko'p tog'dan olinadigan mineral xom-ashyolar qurilishda yoki qurilish mollari tayyorlashda ishlatiladi. Grafit baland haroratda erishish xususiyatiga ega bo'lgani uchun qurilishda ko'p ishlatiladi.

MDH mamlakatlari mineral xom-ashyo resurslarining tasniflanishi

Mineral resurslar	Turlari	O'zbekiston	Qozog'iston	Rossiya
Yoqilg'i energetika	Neft, qo'ng'ir ko'mir, tosh ko'mir, tabiiy gaz, uran, toriy va yonuvchi slanets	Tabiiy gaz- Xisor, Buxoro, Xiva, ko'mir – Angren, Boysun, neft – Ustyurt, Farg'ona, Surxondaryo	Ko'mir – Qarag'an, Pavladar, Kostanay viloyatlarida, Sariark tepaliklarida, tabiiy gaz – Karashiganak, Janajol, Qiziloy	Neft – Shimoliy Kavkaz, Ko'mir – Pechorskiy, Kuznetskiy, Irkutskiy, Podmoskovniy viloyatlarida, uran - Aldanskiy
Qora metallar	Temir, temir rudalari, marganets	Marganets – Zarafshon, Zirabuloq, Qoratepa	Marganets – Ataturv, Jezdinda, temir rudalari – Kachar, Sokolov-Sarbay	Temir – Kursk, marganets – g'arbiy Sibir, Ural tog' tizmalarida
Rangli metallar	Mis, rux, alyuminiy, titan, xrom nikel kobalt, magniy, qalay, qo'rg'oshin, volfram, litiy, vismut, simob	Mis – Olmaliq, Vismut – Chotqol, simob – Farg'ona viloyatida, xrom – Farg'ona viloyatida	Mis – Jezqazg'an, Qo'ng'iroq, xrom – Mugodjar tog'larida, nikel – Mugodjara, Ostona, qo'rg'oshin, qalay – Qaratav tog' tizmalarida, volfram, molibden – Altay, Jungarda	Nikel – Norils, mis – Ural tog' bo'yi, qalay – Sibir va Dalnevostok, Xabarovskda, qo'rg'oshin, volfram, molibden – Kavkaz, Ural tog'larida, Zabaykalye, xrom – Perm, Murmansk shaharlarida, alyuminiy, mis – Shimoliy Uralda,
Noyob metallar	Ittriy, lantan, lantanoid, germaniy, sirkoniy		Lantan – Sirimbet, Donetsk, ittriy-Kundibay	Ittriy, lantan, lantanoid - Kol yarim orolida, Lov ko'li atrofiga, Yakutiya
Asl metallar	Platina, oltin, kumush, paladiy, iridiy, rodiy, ruteniy, osmiy	Kumush – Qurama tog' tizmalari, Qizilqumda, oltin – Navoiy, Namangan viloyati (Oqtepa)da	Oltin – Altayda, Kostanay viloyatida,	Oltin – Sharqiy Sibir, Irkutsk, Yakutiya, Buryatiya, kumush – Chita, Altay
Qimmatbaho toshlar	Olmos, feruza, yoqut, zumrad, nefrit	Feruza – Qizilqumda, Oq tuproq, Olmaliq (Toshkent viloyatida), Uchquduq (Buxoro) yoqut – Uchquduqda	Olmos – Kumdiko'l (Akmalin viloyatida), feruza – Sultaniuzdag, Nuratov tog'ida, Isfarin tumanida, Yoqut – Kishtim tumanida	Olmos – Yakutiya, Arxangelsk, Perm, yoqut – Uralning Ilmen tog'larida, nefrit – Buryatiya, Tiva Respublikasida, zumrad – Sverdlov viloyati, feruza – Komi Respublikasi
Nometall xom-	Fosforit, apatit, fosfor, magniy,	Fosforit – Qizilqum, Jeroy Sardara, kaliy tuz	Fosforit – Qaratav tog' tizmasida	Fosfor, kaliy tuzi, barit – Uralda, Xakasiyada, Vorkut shahrida, apatit –

ashyo resurslar	grafit, barit, kaliy tuz	– Surxandaryo (Xurapkon), Qashqadaryo (Tubakat), grafit – Qoratepa, Zirabuloq, Quljuqtov, Qizilqumda		Murmansk viloyati, Kol yarimorolida, grafit - Krasnoyarskda
------------------------	--------------------------	--	--	---

7-slayd

MDH mamlakatlari bo'yicha neft qazib olish hajmi (2012 yilda)


Mamlakat	Kuniga qazib olinadigan neft hajmi	Yiliga qazib olinadigan neft hajmi	Dunyoda neft qazib olish bo'yicha o'ri
Rossiya	10 mln tonna	805 mln tonna	2
Ukraina	73 ming tonna	3,6 mln tonna	52
Belorus	30 ming tonna	1,5 mln tonna	66
Qozog'iston	-	80 mln tonna	17
O'zbekiston	104 ming tonna	5 mln tonna	48
Ozarbayjon	98 ming tonna	31 mln tonna	20
Tojikiston	215 tonna	10 ming tonna	99
Qirg'iziston	1 ming tonna	49,7 ming tonna	95

8-slayd


Mineral xom ashyo resurslarining iqtisodiy o'sishdagi ulushi (foizda)

Mineral xom ashyo	YaIMdagi ulushi			Sanoatdagi ulushi(qazib olish)			Qayta ishlash			Eksport		
	O'zbekis ton	Qozog'is ton	Rossiya	O'zbekis ton	Qozog'si ton	Rossiya	O'zbekis ton	Qozog'is ton	Rossiya	O'zbekis ton	Qozog'is ton	Rossiya
Neft-gaz		20,12	6,7	8,9		20	14,0		23	34,2	27	38
Qora va rangli metallar			3	14,1	14		4,1			5	30	12

Rossiya YaIMida 2008-2012 yillar mobaynida neft va gaz tarmog'ining ulushi (foizda)



2012 yilda Qozog'iston iqtisodida tarmoqlar bo'yicha eng yirik kompaniyalar tuzilmasi



7-Mavzu: Ikkilamchi resurslardan foydalanishning ekologik-iqtisodiy xususiyatlari va yo'nalishlari(4-soat).

1-slayd

Inson xo'jalik faoliyati, ayniqsa sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda ko'p miqdorda chiqindilar paydo bo'ladi. Ularning paydo bo'lish manbalariga ko'ra 3 asosiy guruhga bo'linadi:

- 1) ishlab chiqarish chiqindilari;
- 2) iste'mol chiqindilari;
- 3) utilizasiya chiqindilari;

2-slayd



3-slayd

Respublikada 2013 yilda qattiq maishiy chiqindilar to'planishi (jamiga nisbatan foizda)

Viloyatlar	%
Toshkent viloyati	42,8%,
Farg'ona viloyati	9,8%
Navoiy viloyati	7,9%,
Toshkent viloyati	7,7%
Andijon viloyati	5,6%
Samarqand viloyati	5,4%
Jizzax viloyati	4,6%
Qashqadaryo viloyati	4%
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3,5%
Surxondaryo viloyati	2,8%
Buxoro viloyati	2,6%
Sirdaryo viloyati	1,4%

Xorazm viloyati	1,1%
Namangan viloyati	0,7%.


4-slayd



5-slayd



6-slayd



7-slayd

Mamlakatimizdagi maishiy chiqindilarni har 1 mln m³ da mavjud bo'lgan ikkilamchi resurslar. (ming tonna)

oziq ovqat chiqindilari	qog'oz va karton	to'qimachilik chiqindilari	plastmassa	ishlatish mumkin bo'lgan boshqa chiqindilar
360	160	55	45	100 gacha

8-slayd

O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishi sharoitida xom-ashyo va materiallardan majmua foydalanishi mo'xim ahamiyatga ega. O'zbekistonda hosil bo'layotgan chiqindilarni qo'yidagilarga bo'lish mumkin;

- 1) Sanoat chiqindilari,
- 2). Qishloq hujaligi chiqindilari,
- 3). Kamunal hujaligi chiqindilari,
- 4). Amartizasiya chiqindilari.

8-Mavzu: Atrof muhitning ifloslanishi va uni baholash(4-soat).

1-slayd

Atrof-muhitning ifloslanishida *tabiiy* va *antropogen* omillar asosiy rol o'ynaydi.

Tabiiy omillar asosida atrof-muhitning ifloslanishi, avvalo, tabiiy yo'l bilan — chaqmoq chaqishi, o't-o'lanlar va o'rmonlarning yonishi, vulqonlar otilishi, shamol harakati biosferada uzluksiz boradigan chirish (o'simlik va hayvonot qoldiqlari) va boshqa jarayonlar natijasida yuz beradi. Ular yiliga millionlab tonna chang-to'zonlarni havoga chiqarib yuboradi.

2-slayd

Gidrosfera (daryolar, ko'llar va dengizlar), asosan, sanoat, qishloq xo'jaligi va uy-ro'zg'or, maishiy xizmat sohalarining oqova suvlari qo'shilishi natijasida ifloslanmoqda. Oqibatda chuchuk suv yetishmasligi holati tobora kuchaymoqda. Bunday holatlar dunyoda aholisi eng zich yashaydigan hududlar bo'ylab oquvchi **Reyn, Sena, Temza, Dunay, Dnepr, Volga, Don, Missisipi, Nil, Gang, Yanszi** kabi daryolar havzalarida kuzatilmoqda.

3-slayd

Atmosfera elektr energetika, metallurgiya, kimyo kabi sanoat tarmoqlari, transport vositalari, fazoga kosmik kemalarni uchirish yoki turli xil yong'inlar tufayli ifloslanmoqda. Bular natijasida har yili milliardlab tonna qattiq, gazsimon, aerozol chiqindilar atmosferaga chiqarib yuborilmoqda. Atmosferada, ayniqsa, is gazi (SO), oltingugurt gazlari (SO₂) salmog'ining oshib borishi katta ekologik muammolarni keltirib chiqara boshladi. Yadroviy ilmiy-tadqiqotchi, mashhur olim Yu.B. Xaritondan dahshatli termoyadro qurollarining ishlab chiqarilishi va uning tarqalishi insoniyatni yo'q qilib yuborish xavfini tug'dirmaydimi, deb so'rganlarida u planetamizga oxir-oqibat termoyadro qurollari emas, balki «parnikoviy effekti» («iissiqxona samarasi») katta xavf tug'diradi, ya'ni iqlimning global miqyosda isib

4-slayd

Atrof-muhitni himoya qilishning qator samarali yo'llari ishlab chiqilgan. Ulardan birinchisi atrof-muhitni ifloslaydigan korxonalarda shunga yo'l bermaslik choralarini ko'rishdir. Buning uchun turli chiqindilarni tozalovchi tizimlarni barpo etish, iflos yoqilg'ilarni ishlatishdan voz kechish, axlatlarni qayta ishlash korxonalarini barpo etish, ishdan chiqqan yerlarni rekultivatsiya qilish kabi yollaridan foydalanish lozim.

5-slayd

Ekologik siyosat — ekologiya fani talab va tavsiyalarini hisobga olgan holda bizni o'rab turgan tabiiy muhitni muhofaza qilish va uni sog'lomlashtirishga, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va ularni boyitishga qaratilgan siyosatlar majmuasidir. Odatda, bunday siyosat davlat, regional va global doirada olib borilishi mumkin va o'zida tabiatni muhofaza qilishning

6-slayd

Ekologik monitoring. Ekologik monitoring atrof tabiiy muhit va uning resurslari holatini ma'lum dastur asosida muntazam kuzatish, baholash, bashoratlashning ma'lum tizimi bo'lib ekologik – iqtisodiy boshqarishni axbarotlar bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

7-slayd

O'zbekistonda qabul qilingan standart va normativlarga quyidagilar kiradi:

- ifloslantirishning turg'un va harakatdagi manbalari chiqaradigan ifloslantiruvchi moddalariga normativ va limitlar;
- zaharli chiqindilarning shakllanishi va joylashish normativi;
- suv olish va o'rmondan foydalanish limitlari;
- bioresurslardan foydalanishga kvotalar;
- muhofaza qilinadigan hududlardan foydalanish va borib ko'rish normativlari;
- yovvoyi o'simlikni yig'ish va hayvonlarni ovlash normativlari ;
- alohida xududlarda ifloslantiruvchi hamda zaharli moddalardan foydalanishni taqiqlash normalari

8-slayd

Ekologik normatevlar ikki guruhga bo'linadi:

3. sanitariya-gigiyena;

4. ishlab chiqarish-xo'jalik;

3. Sanitariya-gigiyena normatevlari inson salomatligiga muvofiq keluvchi atrof muhit ko'rsatkichlarini belgilaydi. U aholini sanitariya-epedimologiya masalalarida xotirjamlikligini ta'minlash asosining tarkibiy qismiga kiradi. Bunda zaharli moddalar, radiaktev moddalar, hamda shovqinning yo'l qo'yish mumkin bo'lgan normalarini belgilaydi.

4. Ishlab chiqarish-xo'jalik normatevlari zararli ta'sir manbalarining zararli moddalar ni chiqarib yuborish va tashlash normatevlari bo'lib, ular faoliyatining ma'lum boshlang'ich holatini cheklaydi.

9-slayd

Tabiatni muhofaza qilish faoliyatini standartlashning uchta asosiy yo'nalishi bor:

4. Atrof-muhitga yuqori ta'sir ekologik normativlarini belgilash. Atrof-muhitga ta'sir normativlari ta'sir manbalaridan atrof muhitga moddalar yoki energiyaning yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan shakldagi miqdorda tushishini belgilaydi; xududiy-mamuriy birliklar doirasida turli xujalik va boshqa obyektlarning atrof muhitga umumiy ta'siri miqdori(atrof-muhitga ta'sirning xududiy normativlari).

5. Ekologik-tashkiliy standartlarni belgilash. Bu atrof-muhitni muhofaza qilishni tashkil etishga qo'yiladigan asosiy talablarni ifoda itadi.

6. Ekologiya atamalarini standartlashtirish U yordamchi ahamiyatga ega bo'lib, atamalarni talqinini o'rnatishga imkon beradi, hamda yangi standartlarni ishlab chiqish va mavjudlaridan samarali foydalanishga imkon beradi.

10-slayd

Davlat ixtisoslashgan tahlil nazorati inspeksiyasi tomonidan qo'yidagi ekologik standartlar qo'llanilmoqda;

- atmosfera havosining sifati;
- ish joylarida havo sifati;
- yer usti suvlari sifati;

tuproq sifati;

- yer osti suvlari sifati;
- oziq ovqat mahsulotlari sifati;
- atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar chiqarish normativlari;
- oqar suv manbalariga ifloslantiruvchi moddalarni tashlash normativlari;
- chiqindilarni shakllanishi normalari;

9-Mavzu: Tugaydigan va qayta tiklanadigan resurslarni joylashtirish samaradorligi(4-soat).

1-slayd

Tuproq-iqlim sharoitiga kura o'rmon fondi qumli, tog'li, sug'oriladigan yerlar va vodiylar hududga taqsimlanadi:

- Qumli hudud - 7833,7 ming gektarni tashkil qiladi
- Tog'li hudud - 1173,2 ming ga ni tashkil qiladi.
- Sug'oriladigan yerlar hududi - 83,7 ming ga
- vodiy hududi - 57,0 ming ga

2-slayd

Asosiy turlari bo'yicha o'rmonlarning tarqatish.

- alabalik 1,80%
- tamarisk 9,10%
- boshqa butalar 5,40%
- yong'oq daraxtlari 2,30%
- boshqa daraxtlar 1,50%
- sho'rali 6,80%
- Asiatic terak 2,60%
- saksovul 60,60%
- sprus 9,90%

3-slayd

1 – jadval.

O'zbekistonning turli tabiatida o'rmon turlari.

Tabiat zonalari	Tabiat zonalarining maydoni (ming ga)	Turlar	Butalar bilan qoplangan maydon (ming ga)
Qum zonalaris	7833	saksovul, qandim, cherkes, grebenchik va boshqa dasht o'simliklari	2655.3
Tog'li zona	1173	zarafshon archa, pistachio o'simligi va zarang	280.3
Suvli zona: Amudaryo, Sirdaryo, Chirchiq, Zarafshon va Oxangaron daryolari	84	turanga, tol va buta-grebenchik.	30.9
Vodiy zonasi	57	Sun'iy o'rmon-o'rmon san'ati	

Botqoqlik va sho'rlangan tuproqlar		buta - grebenchik va solod (pivo va viski tayyorlashda ishlatiladigan o'simlik)	9120
Jami	9120		2776

Manba: O'zbekiston Respublikasida cho'llanishga qarshi kurash milliy harakati dasturi

4-slayd

Qiyosiy statik (ya'ni, biz muammoning xususiyatlari har qanday o'zgartirish optimal hosil vaqt, T^* , nima ...)

a. Oliy foiz stavkalari: Bu hosili uchun joriy sof qiymati funksiyasi bilan qur'asiga uringan vaqt ichida oldingi nuqtada sodir bo'ladi, ya'ni, iso-bugungi qiymati egri yana tik oilasini qiladi. Pastki foiz stavkalari qarama-qarshi ta'sir qiladi.

b. Oliy ekish xarajatlarini: O'simlikshunoslik xarajatlar vaqt 0 sodir va ular har qanday iqtisodiy tuyg'usi daraxtlar bunday ekin ekish uchun qilish emas edi u holda sof hosil daromadi bugungi qiymatini, tayinlanmagan ekan, optimal hosil vaqtida hech qanday ta'sir qilmaydi. Modomiki ekish xarajatlarini sof hosil daromadi bugungi qiymati kamroq bo'lgan, ular optimal hosil vaqtida hech qanday ta'sir qilmaydi.

c. Oliy o'rmon narxlar yoki undan yuqori hosil xarajatlar: Eslatib o'tamiz, $R(t) = (p - c) V(t)$. p yoki v o'zgarishlar (har bir vaqt davomida doimiy qolishini taxmin qilinadi), so'ngra $R(t)$ yuqoriga yoki pastga ko'lamli, mutanosib bo'ladi. Biroq, T^* uchun holati bilan belgilanadi? $R / R = r$. R uchun miqyosda har qanday o'zgarish optimal hosil vaqtida hech qanday ta'sir, T^* qoldirib, lefthand-tomonida chiqib omil bo'ladi.

5-slayd

O'rmonlarning Non-o'rmon qadriyatlar (NTV) qiymatlari zamonaviy o'rmon boshqaruv muammolarini birinchi o'ringa ko'tarildi.

a.) bioxilma-xillikni zaxiralari sifatida o'rmonlar. Gen joylashtirish endi yanada qimmatli xususiyatlarga ega bo'lgan yangi turlari yaratish, tadqiqotchilar boshqa bir tur orzu genlarni ko'chirib imkonini beradi. O'rmonda yashash joylarining kamayib qimmatli bo'lishi mumkin turlari orasida taqqoslanadi of avj kursi hissa qo'shadi. (Biologik xilma-xillikni uchun Option talab.)

b.) Global iqlim o'zgarishi. Daraxtlar uglerodat angidrid, aniq iqlim o'zgarishi trend hissa gumon yirik issiqxona gazlari biri shimib oladi. Daraxtlar (saqlash) uglerod saklanacađyna. O'rmonni tiklash uglerod relizlar o'rmonlar (yoki tabiiy parchalanish) yonayotgan, uglerod saqlash edi. uglerod o'rmonlarning ahamiyati katta e'tibor qabul qilindi. (Ba'zi uglerod «Tuzlangan" deb atayman.)

c.) Habitat, ekotizim qadriyatlar. Xavzalari xizmat, tuproq eroziyasi oldini olish.

d.) Aholisi bosim. o'rmon erlarda xavfli ijaraga bilan Squatters resurs to'g'ri boshqarish uchun hech qanday asos yo'q. kambag'al mamlakatlarda, o'tin pishirish uchun, aholi bosim o'rmon yo'q bo'lishiga hissa qo'shishi mumkin energiya muhim manbaidir. (Virtual tinglovchi # 12 ga qarang.)

10-Mavzu: Qishloq xo'jaligida xarajatlar-foyda tahlili(6-soat).

1-slayd

Xarajatlar va foyda tahlili (XFA) ifloslanishini nazorat qilish harakatlari maqsadga muvofiqligini baholash uchun qo'llanilgan. Ifloslanishi nazorat qilish ko'p foyda keltirmoqda, lekin uning ham xarajatlarni bor. Bu foydalar xarajatlarini oqlash oladimi? Biz AQSh misolida bir ish bilan bu savolga javob topamiz.

2-slayd

Atrof-muhit loyihalar odatda birlamchi va ikkilamchi bo'ladi. Masalan, birlamchi samara ko'lining tozalanishi bilan undan foydalanishni uzaytirishi mumkin. Bu boshlang'ich samara ko'ldan foydalanuvchilar sonini oshirishga xizmat qiladi. Bu ikkilamchi samaralar hisoblanadimi? Javob bu atrofdagi ish sharoitlari bilan bog'liq. Agar bu avval foydalanilmagan resurslarning mehnat sifatida bandlikda talab natijalarini oshirsa, oshirilgan bandlik qitmati hisobga olinishi lozim. Boshqa tomondan, talab o'sishi avvalgi band resurslar ortishi birinchi foydalanishdan boshqasiga bilan uchrashsa, bu boshqa masala. Umuman ikkilamchi bandlik samarasi yuqori ishsizlik joylarida hisobga olingan yoki qachonki ishga olayotganda maxsus bilimlar talab qilinsa, bu vaqtda loyiha boshlangan bo'ladi.

3-slayd

Xarajatlarini baholash foydani baholash ko'ra odatda osonroq, lekin u oson emas. Ularni ikkalasini faktdan farqlashdagi asosiy muammo shundaki, tahlil kelajakka asoslanadi va bu xarajatning bosh strategiyasi nima, qanday katta qiyinchiliklar kutiladi xarajatning mavjud strategiyasi nima kabi savollarni baholashni talab qiladi. Bu xarajatlarni baholash uchun ikki yondashuv ishlab chiqilgan.

4-slayd

Ko'p ekologik muammolar, mavjud siyosat qanqa natijalarga olib kelishini aniqlik bilan bashorat qilish mumkin emas, chunki ilmiy baholashlar ko'pincha aniq emas. Mavjud toksikantlarga tavakkalchilikning samarasini aniqlash yuqori va past dozalarini ekspolitratsiya qilish natijalarini olishni talab qiladi. Bu yana epidemiologiya bilimlariga asoslanishni talab qiladi, ya'ni bu insonlar va aniqlangan ifloslanish darajalari ko'rsatkichlarining korrelyatsiyasidan ifloslanishni chaqiruvchi zararlarni odam salomatligi ta'siri haqida xulosa qilsih imkoni beradi.

5-slayd

Ma'lum strategiya uchun sof foydaning kutilgan hozirgi qiymati, bu strategiya uchun sof foyda hozirgi qiymatining hamma samaralari yig'indisi sifatida aniqlanadi, qaysiki har bir samara hodisa ehtimoli orqali o'lchanadi. Ramziy bu quyidagicha ifoda etiladi (8.1)

$$EPVNB_j = \sum_{i=0}^1 P_i PVNB_{ij}, \quad j = 1, \dots, J \quad (8.1)$$

bu yerda, $EPVNB_j$ – j strategiya uchun sof foydaning kutilgan hozirgi qiymati, P_i – kutilayotgan samaraning ehtimolligi, $PVNB_{ij}$ – agar samara i maqsadga erishilgan bo'lsa, j strategiya uchun sof foydaning hozirgi qiymati, J - ko'rib chiqilayotgan strategiyalar soni, I - ko'rib chiqilayotgan samaralar soni.

6-slayd

Tavakkalchilikka neytrallikni misol yordamida oson tushunish mumkin. Faraz qilaylik, sizga aniq 50\$ beriladigan yoki 100\$ yutishingiz 50%ga aniq va 50% ga yutuq chiqmaydigan lotto reyaldan birini tanlash imkoniyanti berilgan (e'tibor bering, bu lotoreyaning kutilgan hozirgi qiymati $50=0,5(\$100)+0,5(\$0)$). Siz ushbu ikki variant o'rtasida befarq bo'lasiz agar *tavakkalchilikka neytral*

bo'lsangiz. Agar sizning qarashingiz lottoreyaga jozibaliroq bo'lsa, siz *tavakkalchilikni sevuvchi*, siz aniq 50\$ ni olsangiz *tavakkalchilkdan qochuvchi* hatti-harakatingiz namoyon bo'ladi. Sof foydaning kutilgan hozirgi qiymati yondashuvidan foydalanish shuni ko'rsatadiki, jamiyat *tavakkalchilikka neytral*.

7-slayd

Diskont stavka kapitalning ijtimoiy alternativ xarajati sifatida konseptual asosda aniqlanishi mumkin. Kapitalning bu xarajatini ikki komponentga bo'lishimiz mumkin: (1) kapitalning tavakkalsiz xarajati va (2) tavakkalga asoslangan.

Diskont stavka tanlovi strategiya qarorlariga ta'sir qilishi mumkin. Bu diskontlash bizga xarajatlar va daromadlarni hozirgi dollarda taqqoslashimizga imkoniyat beradi. Bunga e'tibor qilmasdan daromadlar oshadi yoki xarajatlar qilinadi. Faraz qilaylik, loyiha 4000000\$(hozirgi dollarda) narxda rejalashtirilgan, ammo 5500000\$ foyda 5 yilda olinmadi. Bu loyiha yaxshimi? Bu tashqaridan qaraganda ayxshiday ko'rinadi ammo bu 5500000\$ 5 yildan keyin hozirgi 5500000\$ emas. 5%li diskont stavkada foydaning hozirgi qiymati minus xarajatlarning hozirgi qiymati ijobiy bo'ladi.

8-slayd

1960-yillarda AQSh Kongressi tomonidan o'tkazilgan eshituvda shu aniqlandiki, bu vaqtda davlat organlari 0 dan 20 gacha o'lgan diskont stavkalari foydalanilayotgan ekan. 1970 yillarning boshlarida AQSh Menejment va Byudjet masalalari ofisi ba'zi istisnolar bilan tsirkulyar farmoyish chop etdi, unga ko'ra barcha davlat organlari o'zlarining xarajat-foyda tahlilida 10%li diskont stavkadan foydalanishi lozim edi. 1992 yildagi qayta ko'rish natijasida diskont stavkani 7% gacha qisqartirish talab qilindi. Bu tsirkulyar farmoyish yana o'z ichiga xarajat-foyda tahlili va boshqalar uchun qo'llanmani olgan bo'lib aniq stavkalar har yili o'zgarib turadi.

9-slayd

Xarajat-foyda tahlilini o'z ichiga olgan iqtisodiy tahlil foydali ma'lumot bilan ta'minlashi mumkin, ammo boshqa qarorlar uchun asosiy omil bo'lib qolmasligi kerak. Xarajat-foyda tahlilining yana bir kamchiligi bu kim foydani oladi va kim xarajat qiladi degan savolga yo'naltirilmagan. Bu hosildan yuqori sof foyda olish faoliyatida bo'lishi mumkin, ammo biror ijtimoiy guruh foyda oladi va boshqasi xarajat qiladi.

10-slayd

BAU ning qiymati kelajakda ham oshadi, bu yerda model 3 muhim omilni hisobga oladi:

- birinchidan, atrof-muhitdagi va inson salomatligidagi to'g'ridan to'g'ri ta'sirlarni o'z ichiga olgan holda BAU iqlim o'zgarishi umumiy qiymati 5%dan 11%gacha o'sadi, shunga qaramay bu yerdagi hiso-kitoblar etnik va baholash natijalida qiyinchilikni oshiradi. Ammo bu monetar sharoitlarda hisoblash juda qiyin bo'lgan ijtimoiy va siyosiy nostabillikka oxshash "ijtimoiy kontingent" ta'sirini to'liq o'z ichiga olmaydi.

-ikkinchidan, ba'zi hozirgi ilmiy dallillar ko'rsatishicha iqlim tizimi issiqxona gaz chiqishi avvalgi fikrlarga qaraganda juda tez ta'sir qiluvchi bo'lishi mumkin, chunki iqlim tizimida aniqlashtiruvchi fikrlar mavjud. Bizning baholashlarimiz ko'rsatishicha, iqlim ta'sirining potensial ko'lamini BAU iqlim o'zgarishining qiymatini nobozor ta'sirlar bilan birgalikda 5%dan 7 %gacha yoki 11%dan 14%gacha oshirishi mumkin. Shunisi aniqki, faqat kattaroq, ya'ni olimlar hozirgacha ustida ishlayotgan va kengroq havflar mavjud bo'lgan havflarni tor doirda baholashda bu bo'lishi mumkin.

Har bir mamlakat sharoitlari bu boshlang'ich iqlim, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va o'sish umidlari iqlim o'zgarishi ijtimoiy, iqtisodiy va atrof-muhit ta'sirlari ko'lamini shakllantiradi. Iqlim o'zgarishi zaifligini quyidagicha tavsiflash mumkin: a) iqlimda o'zgarishlarga duch kelish, ta'sirchanlik –bu moslashuvchanlik qobiliyatiga va iqlim rag'batlantirishiga tez ta'sir qiladigan tizim darajasi va 2) iqlim o'zgarishining ta'siri vositasiga javob berishga tayyorgalik qobiliyati. Bundan tashqari bu zaifliklar iqlim o'zgarishidan kelib chiqqan ta'sirlarining ko'lami va havfini oshirishi mumkin.

KURS LOYIHASI MAVZULARI

Tavsiya etilayotgan kurs loyihasi mavzulari

1. Agrolesurslarni barqaror boshqarish bo'yicha xorijiy tajribalar
2. Agrolesurslarni barqaror boshqarishda iqtisodiy dastaklardan foydalanish mexanizmi
3. Ekinlarni sug'orishda suv tejoychi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.
4. Yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishda iqtisodiy dastaklar va tejamkor texnologiyalarni ahamiyati.
5. Chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida ilg'or texnologiyalarni joriy etish
6. Istiqbolli paxta navlarini yaratish va rayonlashtirishni iqtisodiy rag'batlantirish
7. Istiqbolli g'alla navlarini yaratish va rayonlashtirishni iqtisodiy rag'batlantirish
8. Bog'dorchilikda intensiv texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish
9. Chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida ilg'or texnologiyalarni joriy etishni qo'llab – quvvatlash
10. Oziq ovqat xavfsizligi va uni ta'minlashda agrolesurslarning tutgan o'rni.
11. Agrar sohani mulkiy isloh qilish va agrolesurslardan foydalanish samaradorligini oshirish
12. Qishloq xo'jaligida agroklastarlarni rivojlantirish va agrolesurslardan foydalanish samaradorligini oshirish
13. O'zbekistonda xorijiy tejamkor texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari.
14. Fermer xo'jaliklarida urug'chilik va agrotexnik tadbirlarni sifatli amalga oshirish yo'llari.
15. Bog'dorchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklariga tejamkor texnologiyalarni tatbiq etish.

GLOSSARIY

AGRORESURSLARNI BARQAROR BOSHQARISH FANIDAN

«**Audit**» so'zi ingliz tilidan so'zma so'z tarjima qilganda (inglizcha audit) tekshirish, buxgalteriya kitoblari, hujjatlari, hisobotlarini taftish qilish ma'nosini bildiradi.

«**Monitoring**» tushunchasi lotincha «monitor» - kuzatuvchi, ogohlantiruvchi (elkanli kemada oldinga boqib, sharoitni aniqlab berish uchun belgilangan matros shunday nom bilan atalgan) so'zlaridan tuzilgan.

Absolyut ehtiyoj — umuman kishilar tasavvur qilishi mumkin bo'lgan ehtiyoj, u cheksizdir.

Abstrakt ehtiyoj — kishilarda hali aniq tasavvur shaklini olmagan, noaniq, mavhumlik harakteriga ega bo'lgan orzuhavaslar ko'rinishidagi ehtiyoj.

Analitik (tahliliy) ekologiya- organizmlarning tabiiy muhit bilan o'zaro munosabatlarining asosiy qonuniyatlarini o'rganish.

Antimonopol siyosat — iqtisodiyotni yakka hukmronlikdan xalos etish va monopoliyalarni cheklab qo'yishga yo'naltirilgan davlat siyosati.

Asl istemolchi — aholi, shaxs, oila, byudjet muassasalari.

Assimilyatsiya potentsiali – atrof tabiiy muhitning (Atmosfera, suv manbalari, tuproqlar) ma'lum miqyoslarda cheklanmagan uzoq istiqbolda o'zining asosiy xossalarini o'zgartirmay, turli antropogen ta'sirni o'ziga olishi (shu jumladan, zararli aralashmalarni) qobiliyatidir.

Atrof-muhit ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi: toza birlamchi mahsulotlar iste'moli va ularning o'zgarishi; toza birlamchi mahsulotlar iste'molidagi yo'qotishlar; xo'jalik faoliyati ta'sirida buzilmagan maydonlar va ularning mamlakat hududidagi hissasi, o'sishi; tabiiy resurslar iste'moli: Yer, o'rmon, o'simlik va hayvonot resurslari, Mineral xomashyo, suv – tendentsiyalari; tabiiy resurslar zahiralarning kamayishi sur'atlarining o'zgarishi; tabiiy muhitning ifloslanishi: havo, suv, tuproq, o'simlik va hayvonot olami; ifloslantiruvchi moddalar chiqarmalari va ularning tabiiy muhitda to'planishi: gazsimon, suyuq, qattiq - tendentsiyalari; atrof-muhitga o'ta xavfli va radioaktiv chiqindilarning chiqarilishi va ularning to'planishi – tendentsiyalari; biologik xilma-xillik – o'zgarish sur'atlari; alohida muhofaza qilinadigan hududlar maydoni – o'sishi; ozon qatlami – o'zgarishi; texnogen va tabiiy avariylar, soni, zarari – tendentsiyalari; tabiat muhofazasi tadbirlari xarajatlari.

Atrof-muhit muhofazasi – tabiiy boyliklarni asrash va tiklashni, jamiyat faoliyati natijalarining tabiatga va inson salomatligiga bevosita va bilvosita zararli ta'sirining oldini olib tabiiy resurslardan ratsional foydalanishni ta'minlaydigan inson faoliyati bilan atrof tabiiy muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sirni maqsadga muvofiq qo'llab quvvatlashga yo'naltirilgan tadbirlar tizimidir.

Atrof-muhitning assimilyatsiya potentsiali (AMAP) o'ziga xos tabiiy resurs bo'lib, u cheklangan yoki tanqis (kamchil) resurs hisoblanadi.

Barqaror talab — talabning o'sib, shakllanib bo'lgandan so'ng asosan bir darajada saqlanib qolishi.

Barter — pulsiz, tovarga egalik huquqini boshqaga o'tkazishdan iborat tovar ayirboshlash faoliyati.

Biologik «xizmatlar» inson salomatligiga tabiat sokinligi, toza havo, jismoniy toliqishning ketishidan keladigan foyda.

Biologik resurslar jonli tabiat resurslari bo'lib, ular o'simliklar, hayvonlar va mikroorganizmlardan tarkib topgan va barcha muhitlarda – Yerda, suvda, havoda tarqalgan.

Biologik resurslar – kompleks resurslardir: ularga produtsentlar, konsumentlar, redutsentlar kiradi.

Biosfera sayyoramizdagi “hayot qobig'i” hisoblanib, tirik organizmlarning o'zaro chambarchas aloqa, munosabatlaridan iborat murakkab ekotizmlar majmuini tashkil etadi.

Birlamchi talab — yangi tovarga paydo bo'ladigan va shakllanadigan dastlabki talab.

Birlik etaloni- fizik o'lcham birligini boshqa o'lchov vositalariga o'tkazish maqsadida uni qayta hosil qilish va saqlash uchun mo'ljallangan o'lchov vositasi;

Bozor - 1) talab va taklif uchrashadigan joy, bu yerda ishlab chiqarilgan mahsulotning jamoatchilik sezayotgan ehtiyojga mos kelish darajasi aniqlanadi, mazkur tovarning boshqa raqobatchi tovarlar bilan raqobatbardoshligi taqqoslanadi; 2) tovar, xizmat va boshqa mulk turlari bilan almashish sohasi; 3) iste'molchilar guruhi; 4) mazkur tovarning barcha xaridorlari; 5) tashkillashtirilgan savdo joyi; 6) tovar va xizmatlarni olish manbai; 7) qandaydir mahsulot yoki xizmatlarning virtual yoki tabiiy aks ettirilgan mavjud yoki potensial xaridorlari va sotuvchilari majmui; 8) birja.

Brending - marketing kommunikasiyalari tizimining firma stili va uning elementlarini ishlab chiqish, firmani raqobatchilardan ajratib turuvchi o'ziga xos imijini yaratish sohasi

Chiqindilar keng ma'noda insoniyatning xo'jalik yuritish, energiya olish oqibatida, yashashi va faoliyati jarayonida atrof-muhitga tashlab yuboradigan barcha narsalardir. Bularga atrof-muhitga tashlanadigan maishiy axlat, sanoat va qishloq xo'jaligi chiqindilari, neft oqavalari, og'ir metallar va zaharli moddalar, atom elektrostantsiyalari chiqindilari va boshqalar kiradi. Bular qattiq chiqindilar, suspenziya (biror moddaning boshqa suyuq modda ichida zarra yoki tomchi holida suzib yuradigan eritmasi), shlamlar (tog' jinslarini maydalaganda, burg'ulashda hosil bo'ladigan kukunsimon mahsulot), oqava suvlar, gazsimon chiqitlar va boshqalar bo'lib, ularning tarkibida zararli moddalari bor bo'lgan turlari, ayniqsa, ekologik xavflidir.

Davlat buyurtma qo'riqxonalari (zakazniklari) alohida ahamiyatga ega bo'lgan tabiat komplekslari yoki ularning komponentlarini saqlash, qayta tiklash va ekologik balansini qo'llab-quvvatlash maqsadida buyurtma qo'riqxona oldiga qo'yilgan vazifani bajarish uchun zarur muddatga ajratib beriladigan hududlar (akvatoriya) hisoblanadi.

Davlat etaloni - vakolat berilgan milliy organning qarori bilan O'zbekiston Respublikasi hududida o'lchov birligining o'lcham sifatida e'tirof etilgan etalon;

Davlat metrologiya nazorati - metrologiya qoidalariga rioya etilishini tekshirish maqsadida davlat metrologiya xizmati organlari amalga oshiradigan faoliyat;

Davlat milliy parki (bog'lari) tabiat muhofazasi, ekologik-ma'rifiy, ilmiy-tadqiqot muassasalari bo'lib, ular tabiat muhofazasi, ma'rifiy, ilmiy va madaniy maqsadlarda va tartibga solinadigan turizmga foydalanishga yo'naltirilgan. Ularning hudud (akvatoriya)lari alohida ekologik, tarixiy va estetik qiymatga ega bo'lgan tabiat komplekslari va ob'ektlarini egallaydi. Milliy parklar atrofida tabiatdan foydalanishning tartibga solingan rejimiga ega bo'lgan muhofaza zonalari barpo etiladi.

Davlat milliy tabiat parklari milliy (xalq) parklaridan farq qilib, ular tabiat muhofazasi va rekreatsiya muassasalari hisoblanadi. Ularning hududlari katta ekologik va estetik qiymatga ega bo'lgan tabiat komplekslari va ob'ektlarini o'z ichiga oladi. Ular tabiat muhofazasi, ma'rifiy rekreatsiya maqsadlarini amalga oshiradi.

Davlat qo'riqxonalari xo'jalik faoliyatida foydalanishdan to'liq olingan alohida muhofaza qilinadigan tabiat komplekslari va ob'ektlari (Yer, suv, Yer osti boyliklari, o'simlik va hayvonot olami) bo'lib, tabiat muhofazasi, ilmiy, ekologik-ma'rifiy ahamiyatga ega funktsiyani bajaradi. Ular tabiiy muhitning tabiiyligini, tipik yoki kamyob landshaftlar, o'simlik va hayvonot olamining genetik fondlarini asrash va saqlash joylari hisoblanadi.

Demoekologiya - populyatsiya va uning muhiti.

Dendrologiya parklari va botanika bog'lari tabiat muhofazasi muassasalari bo'lib, ularning vazifasiga o'simlik olami xilma-xilligini asrash va boyitish maqsadlarida o'simliklarning maxsus kolleksiyasini yaratish, shuningdek, ilmiy, o'quv va ma'rifiy faoliyatni amalga oshirish kiradi.

Dinamik ekologiya - dinamik-evolyutsiya yo'nalishida organizmlarning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarining qonuniyatlarini o'rganish.

Diversifikatsiya - 1) tovar strategiyasi turi, unga asosan korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sonini kengaytiradi; 2) yangi bozorlarni egallab olish va qo'shimcha foyda olish maqsadida ishlab chiqarishning bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan ikki yoki undan ortiq turini bir vaqtning o'zida kengaytirish va rivojlantirish.

Ekologik audit (ekoaudit) korxonalar, kompaniyalarning ichki ekologik salohiyatini, ularning xavf-xatarlari va imkoniyatlarini doimiy tekshirib turish instrumentidir.

Ekologik eksper tiza ekologiyaning eng muhim bo'limi bo'lib, u atrof-muhit, tabiiy-ekologik tizimlar, inson salomatligiga ta'sir ko'rsatadigan tadbirlarni amalga oshirishning loyihadan oldin va loyiha hujjatlari darajasida ularning ehtimol tutilayotgan zararli oqibatlarining oldini olishga yo'naltiriladi. Ekologik ekspertiza ogohlantiruvchi tadbir bo'lib, tabiiy muhit va resurslardan foydalanuvchilarning zararli faoliyatini bartaraf etadi. Uning ogohlantiruvchi vazifasining mohiyati shu bilan belgilanadiki, u xo'jalik qarorlari, faoliyati va uning natijalarini atrof-tabiiy muhit muhofazasi, tabiiy resurslardan ratsional foydalanish talablariga, shuningdek, talablariga muvofiqligini dastlabki jamiyatning ekologik xavfsizligi tekshiruvini ko'rinishida o'tkaziladi.

Ekologik monitoring atrof tabiiy muhit va uning resurslari holatini ma'lum dastur asosida muntazam kuzatish, baholash, prognozlash (bashoratlash)ning ma'lum tizimi bo'lib, iqtisodiy-ekologik boshqaruv qarorlarini tayyorlash va qabul qilish jarayonlarini axborot bilan ta'minlashga xizmat qiladi. U antropogen faoliyat ta'sirida atrof-muhit holatidagi o'zgarishlarni aniqlashga va tegishli tavsiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Ekologik resurslar – Biosferada ekologik muvozanatni ta'minlaydigan muhitni shakllantiruvchi komponentlarning majmui bo'lib, ular insonning ijtimoiy-biologik mavjudot sifatidagi hayoti normal muhiti hisoblanadi, ekologik resurslar hayotiy muhim funktsiyani bajaradigan tabiiy tizimlarga kiradi. Bu resurslarning xarakterli xususiyati shundaki, ular asosan jamiyatni zaruriy ne'mat shaklidagi xizmat bilan ta'minlaydi. Ekologik resurslarga havo, suv, Yer (tuproq) kiradi.

Ekologik shakl – insonni biologik va ijtimoiy organizm sifatida saqlash maqsadlarida atrof tabiiy muhitni va insonning tabiiy yashash muhitini muhofaza qilish.

Ekologiya – tirik organizmlarning tashqi muhit bilan o'zaro aloqasini o'rganuvchi fan.

Eksternaliya xarajatlari tabiiy resurslarning cheklanganligi bilan bog'liq holda paydo bo'ladi. Bunda atrof-muhitning sezilarli zararli oqibatlarsiz ma'lum miqdordagi chiqarmalarni o'ziga olishi (singdirishi) qobiliyati resurslarning cheklanganligi sifatida ishtirok etadi. Atrof tabiiy muhitning bu sifati assimilyatsiya potentsiali deb ataladi. Assimilyatsiya potentsiali hajmidan oshib ketgan chiqarmalar ziyonni keltirib chiqaradi va shunga mos holda eksternaliya xarajatlari paydo bo'ladi.

Eksternaliya – bu, iqtisodiy faoliyatning tashqi samarasi (yoki oqibatida) bo'lib, u ushbu faoliyatning sub'ektiga ijobiy yoki salbiy (ko'pincha) ta'sir ko'rsatadi.

Estetik «xizmatlar» (go'zal tabiat beradigan ma'naviy rohatlanish, huzur qilish);

Foydali qazilma konlari kadastri – har bir konning asosiy va birgalikda yotgan foydali qazilmalari sifati va miqdorini ta'riflaydigan, ularda mavjud komponentlarni, konni o'zlashtirish sharoitlari, konning geologik-iqtisodiy baholanishi to'g'risida, shuningdek, foydali qazilmalarning aniqlangan paydo bo'lishi to'g'risidagi ma'lumotlar to'plamidir;

Global ekologiya - Yer Biosferasi ta'limoti.

Global eksternaliya ifloslantirishning transchegara tarqalishi bilan bog'liq va ularga qarshi kurashda maxsus xalqaro konventsiyalar va shartnomalarni tuzish zaruratini ko'zda tutadi.

Gorizontal diversifikatsiya - firma assortimentini ayni paytda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bilan bog'liq bo'lmagan, biroq mijozlarning qiziqishini uyg'otishi mumkin bo'lgan mahsulotlar bilan to'ldirish.

Ifloslanishning bahosi – salomatlik uni tiklash xarajatlari bahosi hisoblanadi. Ifloslanish antropogen ta'sirning oqibatida bo'lib, kimyoviy, issiqlik, shovqin, tarzida namoyon bo'ladi.

Informatsiya (axborotlar, ma'lumotlar) - 1) ishlarning ahvoli haqida xabardor qilish; 2) tadbirkorlik, marketing va boshqa faoliyat turlari oldida to'rgan vazifalarni bajarishda yordam berishi mumkin bo'lgan turli xil bilim va ma'lumotlar; 3) marketing tizimi subyektlarining o'zaro munosabatlar jarayonidagi bevosita va teskari aloqa natijalari tavsifnomasi; 4) turli xil yenergiyalarning o'zaro aloqalari natijasi.

Inson ekologiyasi-fanning kompleks ekologik-ijtimoiy-iqtisodiy sohasi bo'lib, unda yashash muhiti tabiiy-ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy sharoitlari insonning turli ehtiyojlarini qondirishda teng ahamiyatga ega bo'lgan muhim qismlar sifatida ko'rib chiqiladi va tadqiq etiladi.

Iqlimning isishi hozirgi zamonning global xarakterga ega bo'lgan eng keskin muammolari qatoriga kiradi. Iqlimning global isishiga sabab bo'ladigan asosiy issiqxonali gazlariga uglerod dioksidi, metan, azot chala oksidi, gidroftoruglerodlar, perftoruglerodlar, oltingugurt geksaftoridi kiradi. Lekin issiqxonali gazlarning asosiysi uglerod dioksidi (CO₂) bo'lib, uning 80%i Atmosferaga antropogen tushishi organik yoqilg'ini yoqish bilan bog'liqdir.

Iqtisodiy - ekologik siyosat iqtisodiy siyosatning o'ziga xos turi va yo'nalishidir. Iqtisodiy - ekologik siyosat – davlatning tabiiy muhit va tabiiy resurslardan foydalanish, ularni saqlash, asrash, muhofaza qilish hamda tabiatdan foydalanishga asoslangan ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol sohalorida maqsadga muvofiq yo'naltirilgan tadbirlar tizimidir. U mamlakatning iqtisodiy - ekologik manfaatlarini aks ettirishi va ekologik xavfsizlikni mustahkamlashga yo'naltirilishi lozim.

Iqtisodiy -ekologik tizimlar – ijtimoiy ishlab chiqarish va tabiatdagi tabiiy jarayonlarning o'zaro bog'liq va o'zaro shartlangan harakatini ifodalaydigan iqtisodiyot va tabiat integratsiyasidir. Iqtisodiy-ekologik munosabatlar – insonlar o'rtasida tabiatdan foydalanish, ekologik tizimlarni tiklash va muhofaza qilish, foydali qazilmalarni qazib olish va ularni qayta ishlash, ishlab chiqarishni ekologiyalashtirish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlardir.

Iqtisodiy renta deganda, odatda, cheklangan tabiiy resurslardan foydalanilgandagi (yoki ijara) haq-baho tushuniladi. Iqtisodiy rentani ko'pincha resurs egasining undan foydalangandan oladigan renta daromadi ma'nosida ham qo'llash mumkin.

Iqtisodiy-ekologik boshqaruvning ma'muriy-nazorat instrumentlari yuridik (korxonalar, tashkilotlar) va jismoniy shaxslarning iqtisodiy -ekologik faoliyati natijalariga ushbu shaxslar amal qilishi va Erishishi kerak bo'lgan maqsadlar, standartlar, reglamentlarni qonunlar va boshqa tartibga solish vositalarini qo'llash orqali bevosita ta'sir ko'rsatishga mo'ljallangan.

Iqtisodiy-ekologik instrumentlar va mexanizmlar boshqaruvning turli iYerarxiyasi darajasida milliy makroiqtisodiyot, mintaqalar va viloyatlar, tumanlar, korxonalar, shuningdek, davlatlararo birlashmalar, uyushmalar global iqtisodiyotda qo'llaniladi.

Iste'mol – tabiatdan olinadigan biologik, estetik, ilmiy «foйда»dan foydalanishni bildiradi. Iste'mol ushbu «foйда»ning miqdoriga va tabiat muhiti makonidan foydalana olish imkoniyatiga bog'liq bo'ladi. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: hududlarni borib ko'riladigan maydonlarning kattaligi va sharoitlari (transport vositalarining yaqinligi, mavjud bo'sh vaqtning davomiyligi, individual foydalanish hududlarining qulayligi va boshqalar).

Iste'molchining mustaqilligi (suvereniteti) - iste'mol huquqining mustaqilligi, qaram emasligi, huquqning mustaqil yo'nalishi bo'lib, tovar va xizmatlar bozorida iste'molchining manfaatlarini ximoya qilishga qaratilgan qoida va yo'riqnomalar majmuidan iborat.

Konglomerat diversifikasiya - firma assortimentini na firmada qo'llanayotgan texnologiyalarga, na ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga, na hozirgi bozorga xech qanday aloqasi bo'lmagan mahsulotlar bilan to'ldirish.

Konsentrik (markazlashtirilgan) diversifikasiya - firma assortimentini mavjud tovarlarga texnik va marketing nuqtai nazaridan o'xshash bo'lmagan mahsulotlar bilan to'ldirish.

Konsumentlar (iste'molchilar) – geterotrof organizmlar bo'lib, ular avtotroflar va o'z-o'zlari hisobiga oziqlanadi. Ular quyidagilarga bo'linadi: birinchi darajadagi konsumentlar – o'simliklar bilan oziqlanadigan, kislorod iste'mol qiladigan va is gazi (uglekisliiy gaz) chiqaradigan hayvonlar; ikkinchi darajali konsumentlar – o'simlik organizmlarining yirtqichlari va parazitlari; uchinchi va to'rtinchi darajali konsumentlar – o'ta parazitlardir.

Konsyumerizm - iste'molchilar huquqi va manfaatlarini ximoya qilish bo'yicha tashkil qilingan harakt, iste'molchilar xavfligi, ularning iqtisodiy manfaatlarini muxofaza qilish, sifasiz tovar ishlab chiqarish girrom raqobatchilikka va qarshi ko'rash bilan bog'liq bo'ladi.

Landshaft (geografik) ekologiyasi- yirik geotizimlar va ularning muhiti.

Mahalliy eksternaliya cheklangan hududlarda ifloslantiruvchi korxonalarining retsipientlarda (boshqa korxonalar va ob'ektlar) ekstYernaliya xarajatlari tahlili bo'lib, u ushbu sohada xulosa va tavsiyalar beradi.

Mahsulotlarni sertifikatlashtirish– mahsulotlarning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlashga oid faoliyat;

Makromuhit - firmaning marketing muhiti tarkibiy qismi, ijtimoiy jihatdan mikromuhitga ta'sir ko'rsatuvchi kuchlarga qaraganda keng ifodalanuvchi omillar, masalan, demografik, iqtisodiy, tabiiy, texnik, siyosiy va madaniy omillar.

Maqsadli bozor - u yoki bu mahsulotni sotish bozorini tadqiq etish natijasida tanlangan, marketing xarajatlarining minimalligi bilan tavsiflanuvchi va firma faoliyati natijalarining asosiy ulushini (qismini) ta'minlovchi bozor.

Marketing chora-tadbirlarining iqtisodiy samaradorligi - 1) marketing chora-tadbirlarini amalga oshirish samarasining (natijasi) buning uchun sarflangan barcha xarajatlar miqdoriga nisbati; 2) marketing majmuasining (marketing-miks) samaradorlik ko'rsatkichi. Natural va qiymat shaklida ulchanadi.

Marketing jarayoni - yangi ehtiyoj va g'oyalarni izlab topish, tanlash va ularni tovar yoki xizmatga aylantirish, bu tovarlarni izlab chiqish va bozorlarda yoki savdo taqsimot tarmoqlariga sotish bilan bog'liq harakatlar va bosqichlarning tartibga solingan majmui.

Marketing kommunikasiyalari tizimi - 1) marketing tizimining tashqi muhit bilan o'zaro aloqalari jarayonida subyektlar (junatuvchi va qabul qiluvchi), vositalar, kanallar, to'g'ri (xabar) va teskari (qabul qiluvchining tahriri) aloqalar majmui; 2) insonlar O'rtasidagi o'zaro aloqa shakl va vositalari majmui.

Marketing konsepsiyasi - 1) bozor munosabati sharoitlarida faoliyat ko'rsatayotgan firma, tashkilot yoki shaxsning ish yuritish, tadbirkorlikni tashkil etish falsafasi; 2) korxonaning yakuniy maqsadi - daromad olish va iste'molchilar ehtiyojini qondirish uchun foydalaniluvchi marketing faoliyatining asosiy vositalari, qoida va g'oyalari tizimi. Atrofdagi aniq holatga, bozor munosabatlari rivojlanish darajasiga qarab an'anaviy, ishlab chiqarish, savdo. Tovar, ijtimoiy va servis konsepsiyalarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Marketing majmuasi (marketing - miks) - marketing resepti, undan foydalanish korxonaga maqsadli bozorlar ehtiyojlarini qondirish va atrof-muhitdagi o'zgarishlarga moslashishda eng yaxshi ko'rsatkichlarga erishishga imkon beradi. Eng sodda marketing resepti tovar, narx, savdo va kommunikasiya siyosati sohasida (4R:Rroduct, Pricye, Plase, Promotion) muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlar o'tkazishni talab qiladi.

Marketing o'zaro aloqalari - 1) xizmat ko'rsatish tadbirkorligining tovar hayotiylik davrining har bir bosqichida barcha bozor subyektlari bilan aloqalarni rejalashtirish, tashkil tadbiriq boshqarish jarayonida barcha faoliyat turlari va resurslarni qamrab olishga yo'naltirilgan istiqbolli konsepsiyasi. Mijoz bilan uzoq muddatli o'zaro munosabatlarga va bitimda ishtirok yetuvchi tomolar maqsadlarini qondirishga yo'naltirilgan konsepsiya; 2) bajarish ma'suliyatini taqsimlash va kengaytirish tamoyillari bo'yicha marketingni tashkil etish usuli.

Marketing qarori - 1) iste'molchilarning tovar va xizmatlarga talabini barqaror shakllantirish, rivojlantirish va qondirish uchun zarur bo'lgan marketing tadbiri yoki tadbirlari majmui variantlar ichidagi tanlash, javob; 2) firma, tovar va xizmatlarning raqobatchilik ustunligini saqlab qolish yoki yaxshilash uchun marketing tizimi subyekt va obyektlariga maqsadli yo'naltirilgan ta'sir ko'rsatish.

Marketing qarori qabul qilishning samaradorligi - 1) marketing vazifasini bajarishning ko'rib chiqilayotgan (kutilayotgan) ko'plab variantlari orasidan tanlab olishda iqtisodiy tavakkalchilik narxining natijasi, foydalilik ko'rsatkichi; 2) marketing vazifasini bajarishning tanlab olingan variantining iqtisodiy samara keltirish qobiliyati.

Marketing rejasi - belgilangan marketing maqsadlariga erishishda yordam berishi kutilayotgan chora-tadbirlarning ketma-ketlikda detalli ravishda ifodalanishi.

Marketing salohiyati (potensial) - 1) korxonaning salohiyatining ajralmas qismi; 2) tovar, narx kommunikasiya va savdo siyosati, talabni o'rganish sohasida samarali marketing tadbirlarini

rejalashtirish va o'tkazish hisobiga marketing tizimining korxonaning doimiy raqobatbardoshligi, tovar va xizmatlarning bozordagi iqtisodiy va ijtimoiy kon'yunkturasini ta'minlash qobiliyatlari majmui.

Marketing xarajatlari - tovar va xizmatlarni shakllantirish va takror ishlab chiqarish bo'yicha marketing chora-tadbirlari va marketing faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan sarf va chiqimlar yig'indisi. Marketing xarajatlarining asosiy tarkibiy qismlari: boshqaruv xarajatlari, marketing bo'limi xodimlari maoshi, amortizasion ajratmalar, marketing bo'limining normal faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan material va resurslar, tovar siyosati, narx siyosati, kommunikativ siyosat, savdo va distributiv siyosat uchun sarflanuvchi xarajatlar.

Marketingni rejalashtirish - marketing rejasini tuzish, tovarlarni sotish hajmining o'sishi va firma foydasini maksimalashtirishga qaratilgan marketing strategiyaisi tanlash bilan bog'liq jarayon.

Metrologiya o'lchovlar, ularning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash usullari va vositalari hamda talab qilinadigan aniqlikka erishish yo'llari haqidagi fan;

Metrologiya xizmati - davlat organlari va yuridik shaxslarining metrologiya xizmatlari tarmog'i hamda ularning o'lchovlar yagona birlikda bo'lishini ta'minlashga qaratilgan faoliyati;

Mikromuhit - firma marketing muhitining tarkibiy qismi, bevosita firmaning o'ziga va uning mijozlarga xizmat ko'rsatish imkoniyatlariga munosabatlariga taalluqli kuchlar, ya'ni ta'minotchilar, marketing vositachilari, mijozlar, raqobatchilar bilan ifodalanadi.

Milliy standart – bu standartlashtirish bo'yicha shug'ullanadigan milliy idora tomonidan qabul qilingan va iste'molchilarning keng doirasiga yaroqli bo'lgan standart.

Milliy standartlashtirish – bu muayyan bir mamlakat (misol uchun O'zbekiston Respublikasi yoki sanoati rivojlangan ma'lum bir davlat) doirasida o'tkaziladigan standartlashtirish.

Mintaqalararo eksternaliya global ekstYernaliyaning kichraytirilgan nusxasi bo'lib, u ayrim mamlakat va uning mintaqalarida yuzaga keladigan ekstYernaliya oqibatlarini bartaraf etish maqsadini ko'zda tutadi.

Mintaqaviy standart - bu standartlashtirish bo'yicha shug'ullanadigan mintaqaviy tashkilot tomonidan qabul qilingan va iste'molchilarning keng doirasi uchun yaroqli bo'lgan standart.

Mintaqaviy standartlashtirish - bu dunyoning faqat jo'g'rofiy yoki iqtisodiy hududiga qarashli mamlakatlarning tegishli idoralari ishtirok etish uchun ochiq bo'lgan standartlashtirish.

Motivasiya - 1) ehtiyojlarni qondirish bo'yicha qaror qabul qilishda individuumlar harakatini faolashtirish maqsadida ularning motivlarini kuchaytirish jarayoni; 2) xaridorning xarid qilish qarorini qabul qilish jarayonida uning faolligiga ta'sir ko'rsatuvchi majburlovchi harakatlar.

Muvofiqlik belgisi - muayyan mahsulot yoxud xizmat aniq standartga yoki boshqa normativ hujjatga mos ekanligini ko'rsatish uchun mahsulotga yoxud ko'rsatilgan xizmatga doir hujjatga qo'yiladigan, belgilangan tartibda ro'yxatga olingan belgi;

Muvofiqlik sertifikati - sertifikatlash mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash uchun sertifikatlashtirish tizimi qoidalariga binoan berilgan hujjat;

Noosfera – insoniyat rivojlanishining optimal yo'lini tanlash va jamiyatning tabiat bilan uyg'unligini saqlab qolishga yo'naltirilgan tushunchadir.

O'lchov vositalarini kalibrlash - metrologiya jihatlarining haqiqiy qiymatlarini va o'lchov birliklarining qo'llashga yaroqliligini aniqlash hamda tasdiqlash maqsadida kalibrlash laboratoriyasi bajaradigan operapiyalar majmui;

O'lchov vositalarini yasash (ta'mirlash, sotish, ijaraga berish) uchun lisenziya - davlat metrologiya xizmati tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan, mazkur faoliyat turlari bilan shug'ullanish huquqini guvohlantiruvchi hujjat.

O'lchov vositalarni tekshiruvdan o'tkazish -o'lchov vositalarining belgilab qo'yilgan texnik talablarga muvofiqligini ainqlash va tasdiqlash maqsadida davlat metrologiya xizmati organlari (vakolat berilgan boshqa organlar, tashkilotlar) tomonidan bajariladigan operapiyalar majmui;

O'lchov vositasi - o'lchovlar uchun foydalaniladigan va normalangan metrologik xususiyatga ega bo'lgan texnika vositasi;

O'rmon kadastri – o'rmon fondining ekologik, iqtisodiy va boshqa miqdor va sifat ta'rifi to'g'risida tizimlashtirilgan ma'lumotlar to'plamidir;

O'rov (upakovka) - 1) tovar solinuvchi, joylashtiriluvchi idish, material. Tovar ishlab chiqarilgandan so'ng uning xususiyatlarini saqlash hamda yukni tashishda qulaylik yaratish uchun mo'ljallanadi; 2) muhim reklama manbai.

Ovchilik kadastri – ovchilikning u yoki boshqa ob'ektlari sifat va miqdor ta'rifi, tiklash dinamikasi, ovlashning ruxsat beriladigan normasi berilgan ma'lumotlar to'plamidir; ovchilik kadastrlariga ov va baliq resurslari kadastri kiradi.

Press-reliz - gazeta va jurnallar, tele va radio redaksiyalari ularni qiziqtirayotgan ma'lumotlarni olishi mumkin bo'lgan byulleten, pablik rileyshnz vositasi.

Produtsentlar (ishlab chiqaruvchilar) – avtotrof organizmlar va yashil o'simliklar bo'lib, ular quyosh energiyasidan foydalanib, jonli moddalarning birlamchi mahsulotini barpo etadi. Ular uglekisli gaz (is gazi), suv, tuzni iste'mol qiladi va kislorodni chiqaradi. Bu guruhga organik moddalarni yaratishga qodir bo'lgan ba'zi xemoseptika bakteriyalari ham kiradi.

Prognozlash (bashorat qilish) usuli - o'rganilayotgan obyektning utmishdagi va hozirgi ma'lumotlarini tahlil qilishga asoslangan ilmiy asoslangan oldindan ko'ra bilish. Turli xil tarkibiy qismlarni prognozlashga asoslangan qisqa muddatli (1,5) yilgacha, O'rta muddatli (5 yil) va uzoq muddatli (10-15 yil) prognozlar mavjud. Taqdim etish shakliga ko'ra, miqdoriy va sifat prognozlariga, tadqiqot obyektlarini qamrab olish bo'yicha umumiy va qisman prognozlashga taqsimlanadi.

Putoekologiya - organizm va uning muhiti.

Qonuniyatlar – barqaror, mustahkam, ko'p marta takrorlanadigan hodisalar va jarayonlar bo'lib, ularga xos ichki, muhim zaruriy, sabab-oqibatlar, doimiy, umumiy, o'zaro sifat va miqdor aloqalarini ifodalaydi.

Redutsentlar (tiklovchilar) – organizmlar, bakteriyalar va zamburug'lar bilan oziqlanadigan organizmlar. Bu Yerda oxirigacha organik qoldiqlarni parchalovchi, ularni yakuniy mahsulotga aylantiruvchi mikrogorganizmlarning roli g'oyat buyukdir: Mineral tuzlar, is gazi (uglekisli gaz), suv, tuproqqa tushadigan va qaytadan o'simliklar iste'mol qiladigan eng oddiy organik moddalar.

Regional marketing - 1) regionda marketing faoliyatini tashkil etish; 2) regionning mahalliy, milliy va xalqaro investorlarga ko'rsatiluvchi xizmat va tovarlar marketingi; 3) regionning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni boshqarish tizimidagi marketing.

Sektorlararo ekster naliya iqtisodiyot tarmoqlari, ayniqsa, tabiatni ekspluatatsiya qiluvchi sohalar boshqa sohalarga ekologik ziyon keltirishini hisobga oladi va ekologik muammolarning muqobil echimini topishga va iqtisodiyotni tuzilmaviy qayta qurishga yo'naltiradi.

Sertifikatlashtirish milliy tizimi - davlat miqyosida amal qiladigan, sertifikatlashtirish o'tkazishda o'z tartib va boshqaruv qoidalariga ega bo'lgan tizim;

Sifat - tovarning muayyan iste'molchilar ehtiyojini qondirish qobiliyatini belgilab beruvchi, qo'yilgan talablarga mos keluvchi xususiyatlari majmui. Oldi-sotdi shartnomalarida tomonlar sifat ko'rsatkichlari, uni tekshirish tartibi, tovar sifatining belgilangan talablarga mos kelishini tasdiklovchi hujjatlarni taqdim etish tartibi kelishib olinadi, zarur hollarda tovarni sifati bo'yicha qabul qilish va topshirish shartlari, shuningdek tovar sifati yoki uni saqlash muddati bo'yicha kafolatlar belgilab qo'yiladi.

Sinekologiya - ekotizimlar va uning muhiti.

Sinov laboratoriyasini akkreditasiya qilish-sinov laboratoriyasining (markazining) muayyan mahsulot sinovini yoki muayyan sinov turini amalga oshirishga doir vakolatlarining rasmiy etirofi.

Smog – yirik sanoat shaharlarida (AQSh, Yevropa, Yaponiya va boshqalar) tutun, qurum, kul zarralari, chang, yoqilg'i bug'i kabilar aralashmasidan iborat zaharlangan havodir.

Standart ingliz so'zidan (standart) olingan bo'lib, me'yor, *namuna, etalon* degan ma'noni bildiradi. Standart – bu ko'pchilik manfaatdor tomonlar kelishuvi (konsensus) asosida ishlab chiqarilgan, ma'lum sohalarda eng maqbul darajali tartiblashtirishga yo'naltirilgan hamda faoliyatning har xil va turlariga yoki natijalariga

tegishli bo'lgan umumiy qonun-qoidalar, tavsiflar, talablar va usullar belgilangan hamda tan olingan idora tomonidan tasdiqlangan me'yoriy hujjat.

Standartlashtirish – bu ma'lum sohada, aniq va ma'lum murakkab masalalarga nisbatan, hamma uchun umumiy, ko'p martalab foydalanish uchun o'rnatilgan tartiblar yordamida tartiblashtirishning eng maqbul darajasiga erishishga qaratilgan faoliyat. Standartlashtirish atamasi milliy, mintaqaviy va xalqaro standartlashtirish tushunchalari bilan uzviy bog'liq.

Standartlashtirish faoliyatida «Standartlashtirish sohasi» degan ibora ham ko'p ishlatiladi.

Standartlashtirish jarayonida standartlashtirish obyektining sifati va inson hayoti hamda atrof-muhit uchun xavfsizligini ta'minlaydigan me'yorlar, qoidalar va talablar belgilanadi. Odatda standartlashtirish objekti sifatida standartlashtiriladigan narsa (mahsulot, jarayon, xizmat va boshqalar) tushuniladi. Obyektlarga materiallar, tarkibiy qismlar, asbob-uskunalar, tizimlar, ish olib borish tartibi yoki faoliyati va boshqalar kiradi. **Standartlashtirish sohasi** deb, o'zaro bog'langan standartlashtirish obyektlarining majmuiga aytiladi.

Suv kadastr – suv ob'ektlari to'g'risida, ularning suv resurslari, suv ob'ektlaridan foydalanish, suvdan foydalanuvchilar to'g'risida tizimlashtirilgan ma'lumotlar to'plamidir;

Tabiat yodgorliklari – ekologik, ilmiy, estetik, madaniy jihatdan qimmatli, noyob, o'rmini to'ldirib bo'lmaydigan, kelib chiqishi tabiiy va sun'iy bo'lgan ob'ektlar hisoblanadi.

Tabiatdan foydalanish – tabiiy-resurs potentsiali ekspluatatsiyasining va ularni saqlab qolish tadbirlarining barcha shakllari majmuidir. Agar tabiatdan foydalanish tabiiy-resurs potentsialining keskin o'zgarishiga olib kelmasa, u tabiatdan ratsional foydalanish hisoblanadi.

Tabiatdan foydalanishni litsenziyalash – ma'muriy-huquqiy yo'l bilan iqtisodiy-ekologik munosabatlarni tasdiqlash, ruxsat va vakolat berish metodlari orqali tartibga solishning namoyon bo'lishidir.

Tabiiy muhit – abiotik va biotik tizimlar va umuman, litosfera, Atmosfera, gidrosfera va Biosferaning murakkab va xilma-xil birikmalari va o'zaro ta'sirini ifodalaydi. Unda ekzogen, endogen va kosmik omillar va jarayonlar ta'sir ko'rsatib, g'oyat xilma-xil fizik, kimyoviy va biologik reaksiyalarni keltirib chiqaradi va ular releafning rivojlanishini, jinslarning emirilishi va Minerallarning paydo bo'lishi moddalar migratsiyasining geokimyoviy jarayonlarini va ularning tarqalishi va kontsentratsiyasini, organik dunyoning rivojlanishini, quruqlik va Dunyo okeani uchun xarakterli bo'lgan o'ziga xos landshaft tiplarini, tabiiy muhit va geotizimlarning landshaft tiplarini, tabiiy muhit va geotizimlarning shakllanishini belgilab beradi.

Tabiiy resurslar – insonlar foydalanayotgan yoki foydalanishi mumkin bo'lgan tabiatning jismi va kuchlaridir.

Tabiiy sharoit – tabiatning jismi va kuchi, sifati bo'lib, u ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishining hozirgi darajasida inson faoliyatida bevosita ishtirok etmasada, jamiyatning hayoti va faoliyatini belgilab beradi.

Temporal (avlodlar o'rtasidagi) ekster naliya barqaror rivojlanish kontseptsiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, hozirgi avlod o'z ehtiyojlarini kelajak avlodlarning manfaatlarini hisobga olib ta'minlashlari kerakligi tamoyiliga amal qilishni talab qiladi.

Tijoratlashtirish (kommersializasiya) - yangi mahsulotni ishlab chiqish bosqichi; bozorga kirib borish vaqtini to'g'ri tanlash, turli bozorlarda faoliyat ko'rsatish hajmi va ketma-ketligi, mahsulotni operativ harakatlantirish va taqsimlash bo'yicha samarali usullar, shuningdek, marketing rejasini ishlab chiqish jarayoni.

Tuproq resurslari – biologik resurslar bo'lib, ularning hosil bo'lishi halok bo'lgan organik massaning qayta ishlanishi bilan va yashash muhiti – litosferaning yuqori yumshoq qobig'i bilan bog'liqdir. Shuning uchun ular tirik organizmlarning to'plangan zahiralari, biologik modda aylanib yurishi hajmi, tuproqning yillik organik qismi yoki gumus ko'rinishidagi mahsulotlar va chiqindilar bilan ajralib turadi.

Xalqaro standart – bu standartlashtirish bo'yicha shug'ullanadigan xalqaro tashkilot tomonidan qabul qilingan va iste'molchilarning keng doirasi uchun yaroqli bo'lgan standart.

Xalqaro standartlashtirish - bu barcha mamlakatlarning tegishli idoralari erkin holda ishtirok etishi mumkin bo'lgan standartlashtirish.

Yagona o'lchov birligi - o'lchovlarning natijalari qonunlashtirilgan birliklarda aks ettirilgan va xatoliklari berilgan ehtimollikda ma'lum bo'lgan o'lchov holati;

Yer kadastri – Yerning tabiiy, xo'jalik va huquqiy o'rni to'g'risida ma'lumotlar to'plami bo'lib, u Yerdan foydalanuvchilarning ro'yxati, Yerning miqdori va sifati hisobi, tuproq banitirovkasi va Yerni iqtisodiy baholash ma'lumotlarini o'z ichiga oladi;

Yer osti boyliklari tabiiy muhit tizimining Yer qa'ri bilan eng yaqin bog'langan elementi bo'lib, ular jonsiz tabiat resurslari hisoblanadi. Ulardan konstruksion va boshqa materiallar, kimyoviy qo'shilmalar, o'g'itlar va boshqalarni ishlab chiqarishda keng miqyoslarda foydalaniladi. O'zbekistonning Yer osti boyliklari g'oyat xilma-xil, zahiralari esa ko'p bo'lib, ular 100ga yaqin Mineral xomashyo turlarini, 2,7 mingdan ziyod turli foydali qazilma konlarini o'z ichiga oladi.

Zoologiya parklari (hayvonot bog'lari) ekologiya ta'lim-tarbiya ishlarini amalga oshirish, hayvonlarning nodir ekzotik va mahalliy turlari ekspozitsiyalarini yaratish, ularning genofondini saqlab qolish, yovvoyi hayvonlarni o'rganish, ularni tutqunlikda ko'paytirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Ular ham tabiatni muhofaza qilish muassasalari hisoblanadi.